

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**"METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SIFATNI
BOSHQARISH" KAFEDRASI**



«SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI»

FANIDAN

O`QUV - USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	300 000 – Ishlab chiqarish texnik soha
Ta`lim sohasi:	310 000 – Muhandislik ishi
Ta`lim yo`nalishlari:	5310900-"Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat)"

Namangan-2021

O'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 1-martdagi 107-buyrug'iga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Oqboyev A. - “Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish”
kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

D.G.Aliyeva NamMTI, “To'qimachilik sanoati mahsulotlari
texnologiyasi” kafedrasi dotsenti, texnika fanlari
nomzodi, dotsent.

M. Mirzakarimov O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorat maskani
(UzTest) Namangan filiali rahbar o'rinbosari

Ushbu o'quv-uslubiy Namangan muhandislik-texnologiya instituti
Kengashining 2021 yil 28-avgustdagi №1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

MUNDARIJA

№	Bo'lim	Sahifa
1.	O'quv materiallar	4
	<i>1.1 Ma`ruzlar mashg'ulotlari materiallari.....</i>	5
	<i>1.2 Amaliy mashg'ulotlari materiallari</i>	86
2.	Mustaqil ta`lim mashg'ulotlari	143
3.	Glossoriy	148
4.	Ilovalar	154

**“SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI” FANIDAN O’QUV
MATERIALLARI**

“SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI” FANIDAN MA’RUZA MASHG’ULOTI MATERIALLARI

1-MAVZU. MAHSULOT VA XIZMATLARNI SERTIFIKATLASHTIRISHNING AXAMIYATI

Ma’ruza mavzusining rejasi:

- 1. Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishning axamiyati.**
- 2. Bozor iqtisodiyoti talablari va mahsulot sifati.**
- 3. Mahsulot sifati va uning me’yoriy hujjatlarini shakllantirishda inobatga olingan asosiy va majburiy talablar.**

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Kirish-tematik ma’ruza, aqliy xujum blits-so’rov, klaster.*

Mahalliy mahsulotlarning sifati va xorijiy bozorlardagi raqobatdoshligini ta’minlashning muhim omillaridan biri sertifikatlashtirish sohasidagi milliy normativ-huquqiy bazaning xalqaro talablarga mos darajasi, shuningdek, respublikamizning sinov va o’lchash laboratoriyalari moddiy-texnik bazasining holati hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasida keyingi yillarda ko’rsatib o’tilgan soha va tarmoqlarda aniq maqsadga yo’naltirilgan kompleks tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Xususan, mazkur sohada qonuniy bazani takomillashtirish doirasida xalqaro qoida va amaliyotni inobatga olgan holda O’zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to’g’risida” va “Muvofiqlikni baholash to’g’risida”gi qonunlari qabul qilindi. Ushbu qonunlar ichki bozorning sifatsiz mahsulotlardan himoya qilinishi hamda respublikamiz laboratoriyalari tomonidan o’tkazilgan sinovlar natijalarining xalqaro darajada tan olinishini ta’minlashda muhim huquqiy asos bo’lib xizmat qilmoqda.

O’zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to’g’risida”, “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to’g’risida” va “Metrologiya to’g’risida”gi qonunlariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun sertifikatlashtirish hamda standartlarni qabul qilish va joriy etish jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi. Tadbirkorlik sub’ektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida majburiy sertifikatlanishi lozim bo’lgan mahsulotlar ro’yxati keskin qisqartirildi. Eksportga yo’naltirilayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi belgilandi, o’lchash vositalarini tayyorlash, sotish va ijaraga berish faoliyatini litsenziyalash jarayoni bekor qilindi.

Sertifikatlashtirish va standartlashtirish qoidalariga rioya etilmaganligi uchun xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo’llash me’yorlari bekor qilinib, mansabdor shaxslarning ma’muriy javobgarligi kuchaytirildi. Shuningdek, 23 ta texnik reglamentni qabul qilish hisobiga 700 dan ortiq standart ixtiyoriy turga o’tkazildi.

Shu bilan birga, sertifikatlashtirish va standartlashtirish sohalaridagi ishlarning tahlili bir qator yechimi topilmagan masalalar mavjudligini ko’rsatmoqda.

Soxadagi masalalarni hal etish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 apreldagi “O’zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2935-sonli Qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, sertifikatlashtirish va standartlashtirish borasida bir qator vazifalar belgilandi:

“O’zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining ustuvor vazifalari va yo’nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

- mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda xalqaro standartlar va texnik reglamentlarni jadal joriy etish orqali ularning zamonaviy talablarga muvofiqligini ta’minlash va tashqi bozorlarda raqobatdoshligini oshirish;

- mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tizimlarini birinchi navbatda eksport qiluvchi korxonalarda keng joriy etish va sanoat mahsulotlarini xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashtirishni amalga oshirish;
- eksport qiluvchi korxonalarga mahsulotlarni sertifikatlashtirish masalalarida qulay sharoitlarni yaratish, milliy sertifikatlar va muvofiqlikni baholash ishlari natijalari asosiy eksport bozorlarida tan olinishiga yo'naltirilgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish;
- texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish, sotiladigan mahsulotlar xavfsizligini tizimli nazorat qilishni ta'minlashda ularning samaradorligini oshirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, tadbirkorlik sub'ektlari va aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari turlarini kengaytirish;
- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akkreditatsiya sohalarida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish".¹

Sertifikatlashtirish guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma'nolarini bildiruvchi certifikat (lotincha) so'zidan olingan bo'lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

Sertifikatlashtirish - Mahsulotning muvofiqligini belgilangan talablarga aniq javob berishini isbotlanganligini tasdiqlash. (*Sifatsiz mahsulot sertifikatlashtirilishi mumkin emas.*)

Sertifikatlashtirish - mahsulotga, xizmatga normativ hujjatlarda belgilangan talablarni bajarilganligini 3- tomondan tasdiqlanishi.

1 -tomon- ishlab chikaruvchi

2- tomon- iste'molchi

3- tomon- birinchi va ikkinchi tomondan ham mustaqil ish ko'radigan idora.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak. Sifat ko'rsatkichlari esa ma'lum, belgilangan talablarga muvofiq G'mosG' kelishi lozim. Muvofiqlik o'z navbatida ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish (ya'ni tasdiqlash) mumkin.

Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi muvofiqlikni sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun tadbirlar, tartiblar va boshqaruv qoidalarini ishlab chiqishdir.

Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari:

- odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;
- mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta'minlash;
- mamlakat korxonalari, qo'shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;
- iste'molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdotsizligidan himoya qilish;
- mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta'kidlagan sifat ko'rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy tusda bo'ladi.

Sertifikatlashtirish sohasidagi munosabatlar mazkur Qonun va unga muvofiq chiqariladigan O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa - Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 apreldagi "O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2935-sonli Qarori

Basharti, xalqaro shartnoma yoki bitimda sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma yoki bitimning qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda "O'zstandart" agentligi deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir. "O'zstandart" agentligi mazkur Qonunga muvofiq: sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi, sertifikatlashtirish o'tkazish yuzasidan umumiy qoidalarni belgilaydi, ular to'g'risida rasmiy axborotlar e'lon qilib boradi;

sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish dasturlarining loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni Hukumat muhokamasiga taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo'shilish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, shuningdek sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro e'tirof etish to'g'risida bitimlar tuzadi, sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

majburiy ravishda sertifikatlanadigan mahsulotlarning ro'yxatini belgilaydi va uni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig'iga kiritadi;

bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlarini, sinov laboratoriyalarini (markazlarini), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlarini, shuningdek sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni akkreditatsiya qiladi;

sertifikatlangan mahsulotlarning, sifatni boshqarish tizimlarining, akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlarining, sinov laboratoriyalarining (markazlarining), sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning Davlat reestrini yuritadi;

bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishi ustidan va sertifikatlangan mahsulotlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini amalga oshiradi;

qonun hujjatlarining normalari buzilganligi uchun muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilarini bekor qiladi hamda amal qilishini to'xtatib qo'yadi, sertifikatlashtirish organlarining akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarini bekor qiladi, sinov laboratoriyalarining (markazlarining) faoliyatini tugatadi.

"O'zstandart" agentligining sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyatini moliyaviy ta'minlash manbai - davlat byudjeti mablag'i, shuningdek "O'zstandart" agentligi ko'rsatayotgan xizmat uchun olinadigan haqdan iborat.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar:

bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini tuzadilar va ularning amal qilishini ta'minlaydilar;

sertifikatlashtirishni tashkil etadilar va o'tkazadilar;

milliy muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtiradilar, beradilar yoki chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etadilar;

sertifikatlangan mahsulotlar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Sinov laboratoriyalarini (markazlarini) va sertifikatlashtirish organlarini akkreditatsiya qilish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni arizachi qoplaydi.

Tegishli sertifikatlashtirish tizimi belgilagan tartibda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) muayyan mahsulotlarning sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshiradilar hamda sertifikatlashtirish maqsadlari uchun bayonnomalar beradilar.

"O'zstandart" agentligi o'z vazifalarining bir qismini bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga va sinov laboratoriyalariga (markazlariga) o'tkazishga haqlidir.

Mahsulotlar (shu jumladan, dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar), xizmatlar, shuningdek sifat tizimlari sertifikatlashtirish ob'ektlari hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligining o'zi, uning tomonidan akkreditatsiya qilingan yoki e'tirof etilgan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasidagi

tekshiruv organlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar, shuningdek mahsuloti sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish sub'ektlaridir.

Sertifikatlashtirish sub'ektlari - yuridik shaxslar sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirish tizimlari tuzishlari mumkin. Yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish tizimlari "O'zstandart" agentligi belgilagan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma asosida sertifikatlashtirish faoliyatini hamda sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar o'tkazish faoliyatini amalga oshiradilar.

Mahsulotlar sertifikatlashtirilayotganda arizachiga sertifikatni yoki muvofiqlik belgisini qo'llash huquqi muvofiqlik sertifikatini bergan akkreditatsiya qilingan tegishli sertifikatlashtirish organi bilan tuzilgan bitim asosida beriladi.

"O'zstandart" agentligi tayyorlovchilarni (ijrochilarni), sotuvchilarni, iste'molchilarni va boshqa manfaatdor shaxslarni sertifikatlashtirishning amaldagi tizimlari, ularning organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), ekspertlar to'g'risida, shuningdek muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari va ularni qo'llash qoidalari to'g'risida xabardor etib boradi.

Sertifikatlashtirish organlari arizachiga uning talabiga binoan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun kerakli axborotni berishlari shart.

Arizachi sertifikatlashtirish organining talabiga binoan sertifikatlashtirish bilan bog'liq axborotni taqdim etishi shart, tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar bundan mustasno.

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil etish "O'zstandart" agentligi zimmasiga yoki uning topshirig'iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga (ularni albatta akkreditatsiya qilgan holda) yuklatiladi. Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarning ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish yoki saqlash xavfsizligini ta'minlovchi talablar bo'lmagan taqdirda "O'zstandart" agentligi davlat boshqaruvining tegishli organlari bilan birgalikda bunday talabnomalarning kechiktirmay ishlab chiqilishi va amalga kiritilishini ta'minlaydi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun uni sinashni, nazorat yo'sinidagi tekshiruvni va sertifikatlangan mahsulot ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Sinovlar akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) tomonidan tegishli normativ hujjatlarda belgilangan usullarda, bunday hujjatlar bo'lmagan taqdirda esa tegishli sertifikatlashtirish organlari ishlab chiqqan usullarda amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlari uchun arizachi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda haq to'laydi.

Arizachi o'z mahsulotini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishga sarflagan mablag'lar summasi shu mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, ammo muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan mahsulotni targ'ib qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar quyidagi hollarda:

sertifikatlashtirishga taqdim etilmagan bo'lsa;

sertifikatlashtirish talablariga muvofiq emasligi sababli sertifikatlashtirishdan o'tmagan bo'lsa;

agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki uning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan (bekor qilingan) bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinishi mumkin emas. Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi tayyorlovchilar (tadbirkorlar):

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim etishlari;

sertifikatlangan mahsulotni sertifikatlash organlarining o'zi yoki ular e'tirof etgan organlar bergan sertifikat mavjud bo'lgan taqdirdagina realizatsiya qilishlari va uning normativ hujjatlar talablariga mos bo'lishini ta'minlashlari;

sertifikatlangan mahsulotni, basharti, u normativ hujjat talablariga muvofiq kelmasa, shuningdek sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoxud uning amal qilishi sertifikatlashtirish organining qarori bilan to'xtatib qo'yilgan yoki bekor qilingan bo'lsa, realizatsiya qilishni to'xtatib qo'yishlari yoki tugatishlari;

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtiruvchi va sertifikatlangan mahsulotni nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari o'z vakolatlarini moneliqsiz bajarishlari uchun sharoit yaratishlari;

sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlariga yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o'zgartishlar haqida sertifikatlashtirish organini belgilangan tartibda xabardor etishlari;

ilova qilingan texnik hujjatda mahsulot muvofiq kelishi lozim bo'lgan sertifikatlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda normativ hujjatlarni ko'rsatishlari va bu ma'lumotlar iste'molchi (xaridor, buyurtmachi) e'tiboriga yetkazilishini ta'minlashlari shart.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berish uchun tuziladigan kontraktlar (shartnomalar) shartida mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi, "O'zstandart" agentligi tomonidan berilgan yoki e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bo'lishi nazarda tutilishi kerak.

Milliy muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari yoki boshqa davlatlarning "O'zstandart" agentligi tomonidan e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari arizachi (mahsulot yetkazib beruvchi) tomonidan bojxona nazorati organlariga yukka taalluqli bojxona deklaratsiyasi bilan birgalikda taqdim etiladi va ular mahsulotni respublika hududiga olib kirishga ruxsatnoma olish uchun zarur hujjatlar hisoblanadi. Chetdan olib kelinayotgan mahsulotning xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan taqdirda bojxona nazorati organlari bu xususda "O'zstandart" agentligini xabardor etadilar hamda mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazish yoki chet el sertifikatini e'tirof etish to'g'risidagi masala sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalariga muvofiq hal etilgunga qadar bu mahsulotni chetdan olib kirishni taqiqlab qo'yadilar.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning, sotuvchilarning, ijrochilarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishlari ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini "O'zstandart" agentligining davlat inspektorlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiradi.

Sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimlari, ishlab chiqarish, akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish organlari ustidan nazorat yo'sinidagi tekshiruvni sifat bo'yicha ekspert-auditorlar "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni "O'zstandart" agentligi belgilab qo'ygan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir. Sertifikatlashtirish qoidalari va tartibini belgilovchi ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlarini akkreditatsiya qilingan organlar "O'zstandart" agentligi bilan kelishgan holda belgilaydilar.

2-MAVZU. SERTIFIKATLASHTIRISHNING RIVOJLANISH TARIXI

Ma'ruza mavzusining rejasi:

1. Sertifikatlashtirish bo'yicha umumiy tushuncha.
2. Sertifikatlashtirish maqsad va vazifalari.
3. Sertifikatlashtirishning rivojlanish tarixi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, blits-so'rov, aqliy xujum "B/B/B" texnikasi.*

Hozirgi vaqtda «sertifikat» degan atamani tez-tez uchratib turamiz. Bu qanday atama deb so'rasangiz turlicha talqin olishingiz mumkin: kimdir biror malaka olganlik to'g'risidagi tasdiqlovchi hujjat desa, yana kimdir, mahsulotni sifati to'g'risidagi hujjat, ba'zi birovlar esa mahsulotni hududimizga olib kirish yoki olib ketish uchun bojxonaga ko'rsatilishi lozim bo'lgan hujjat deb ta'rif beradi. Jalaymizki, darsligimizning ushbu bo'limini o'qib chiqqaningizdan so'ng ushbu atamaga albatta aniq va mukammal javob topasiz.

«Sertifikat» so'zining ma'nosini keltirishdan oldin mavzudan biroz chetga chiqamiz.

Ma'lumki, Sharq, jumladan O'zbekistonimiz chet ellarda nafaqat go'zal tabiati va mehnatsevar xalqi bilan, balki o'zining ko'zni qamashtiradigan, rang-barang meva, sabzavot va turli mahsulotlarga serob bozorlari bilan ham mashhurdir. Bundan tashqari, bizning bozorlardagi yana bir o'zgachalik ham bor. Agar rastalar oralab yuradigan bo'lsangiz, sotuvchilar, dehqonlar meva-chevalardan uzatib, totib ko'rishni taklif etishlarini guvohi bo'lasiz (albatta, totib ko'rganlik uchun haq so'ralmaydi). Buni tagida bir ma'no yotadiki, u ham bo'lsa, mahsulotning sifatiga xaridorning o'zi baho bersin, ya'ni, taklif qilinayotgan mahsulot sifati va unga so'ralayotgan narx mutanosib ravishda belgilanayotganligiga o'zi ishonch hosil qilsin.

Qadimdan bizda bir tushuncha bor. Xarid paytida savdo mukammal va to'liq bo'lishi uchun uchta tomon ishtirok etishi kerak. Birinchi tomon - oluvchi (xaridor), ikkinchi tomon - sotuvchi (tayyorlovchi) va uchinchi - xolis tomon. Uchinchi tomon sotilayotgan buyum yoki mahsulotga qo'yilgan narx ushbu mahsulot ega bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga mutanosib ekanligi to'g'risida kafolat bergan. Bunda uchinchi tomon albatta mahsulot to'g'risida o'zining xolisona fikrini haqqoniy bildiradi olishi, juda ko'p vaqtdan buyon shu faoliyat bilan shug'ullanayotganligi sababli sotilayotgan mahsulotning shu vaqtda va shu bozordagi narxi bir-biriga mos tushushini belgilay oladigan mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Savdoning bu turi asosan katta miqdordagi yoki qimmatbaho xarid paytida qo'llanilgan bo'lib, bu holatni hozir ham qoramol, qo'y yoki ot savdolarida uchratishimiz mumkin. Jrtada turuvchi xolis tomon (ularni dallollar deb yuritilgan) savdoni bir muqim bo'lishiga yordam berib, savdo ob'ektiga xos bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga tavsif beradi va xolisona baho beradi. Bu shaxsni hozirda ko'p qo'llanilayotgan **broker** bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki broker sotilayotgan yoki olinayotgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida yetarli baho bera oladigan shaxs sifatida emas, balki sotuvchi tomondan belgilangan narxda mahsulotni sotish yoki sotib olish bilan shug'ullanadi. Biz sertifikatlashtirishni tushuntirish maqsadida tanlagan misolimizda savdo tugagandan so'ng sotuvchi tomon o'z savdosidan, oluvchi tomon esa xarididan va savdo ob'ektining mavjud sifat ko'rsatkichlaridan ishonch hosil qilib, qoniqish hissiga ega bo'ladi. Bu savdoning yana bir muhim xususiyati - uchinchi xolis tomon sifatida alohida ishonchga va nufuzga ega bo'lgan, rostgo'y shaxslargina ishtirok etishi mumkin. Bizdagi mana shu savdo turi bir necha yuz yillardan beri mavjud bo'lib, chet davlatlarda sertifikatlashtirish deb ataluvchi faoliyatga aynan shu asos solgan bo'lsa ham ajab emas.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarini akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kiritilgan.

Qayta ishlangan Xalqaro standartlashtirish tashkilotining qo'llanmasida "sertifikatlashtirish" atamasining faqatgina izohlari berilgan:

Sertifikatlashtirish umumiy atama bo'lib, mahsulot, texnologik jarayon va xizmatlarning sertifikatlashtirishda muvofiqlikni tasdiqlashda uchinchi tomonning qatnashishi va unga xolisona baho berishi tushuniladi. Sifat tizimini baholash sohasidagi taraqqiyot sifat tizimini sertifikatlashtirish

tashkilotning sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini sertifikatlashtirish bo'yicha yangi dolzarb yo'nalishni keltirib chiqardiki, ushbu yo'nalish bugungi kunda keng qo'llanilib, bozor iqtisodiyotidagi raqobatbardoshlik, o'zaro savdo-sotiqning samarasi va istiqbolilik darajalarini belgilab beradigan omillardan asosiysi sifatida sahnaga chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng sertifikatlashtirish sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi va hozirgi kunda ham bu sohaning rivojlanishi, xalqaro miqyosda tan olinishi ustida «O'zstandart» Agentligi tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Binobarin, 1992 yil mustaqillikning ilk yillaridayoq Vazirlar Mahkamasi huzurida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish Davlat markazi («O'zdavstandart») va keyinchalik, 2002 yilda, ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida mustaqil «O'zstandart» Agentligi tashkilotiga aylantirilishi Hukumatimiz tomonidan bu sohaga berilayotgan ahamiyatning mahsuli sifatida qarash mumkin. Davlatimiz tomonidan sertifikatlashtirish ishlarini tashkillashtirish, uni tartibga tushirish va bu sohaning qonuniy asosini yaratish maqsadida 1993 yil «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi, buning natijasida ishlab chikarilayotgan va chetdan olib kirilayotgan mahsulotlarning xavfsizligi to'g'risida Qarorning qabul qilinishi, uni amalga oshirish maqsadida qator chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi ham aytib o'tilgan so'zlarning yaqqol misolidir.

Har qanday faoliyat yoki yo'nalish nima maqsadni ko'zlashidan qat'iy nazar, albatta, qonunlashtirilishi, tartibga tushirilishi, faoliyatni olib borish esa ma'lum hujjatlar asosida olib borilishi talab etiladi. Xuddi shuningdek sertifikatlashtirish faoliyati ham bundan mustasno emas. Quyida ushbu sohaning qonuniy asosi va qonunosti hujjatlari to'g'risida tushuncha bermoqchimiz. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy asoslari va bazasi 1-rasmda keltirilgan.

Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari

Sertifikatlashtirish:

odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;
mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta'minlash;
mamlakat korxonalari, qo'shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;
iste'molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdotsizligidan himoya qilish;
mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta'kidlagan sifat ko'rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

3-MAVZU. SERTIFIKATLASHTIRISH VA SIFATNI BOSHQARISHNING QONUNIY VA ME'YORIY ASOSLARI

Ma'ruza mavzusining rejasi:

1. **Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy bazasi.**
2. **O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining asos bo'luvchi me'yoriy xujjatlari.**
3. **O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi me'yoriy xujjatlar. Sifatni boshqarish me'yoriy xujjatlari.**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, blits-so'rov, aqliy xujum, Insert texnikasi.*

Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy bazasi

O'zbekistonda sertifikatlashtirishni joriy etish bo'yicha faol ishlar 1992-yilda, ya'ni chet ellardagiga nisbatan ancha kech boshlandi. 2-mart 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish to'g'risida" qarori qabul qilindi. Shu yilning o'zida davlat ilmiy-texnik dasturi asosida "O'zbekiston

Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimini tadqiq etish va yaratish" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlari boshlandi. Sertifikatlashtirish tashkiliy, me'yorlash, metodik va tuzilish soxalarida shakllana boshlandi.

1993-yil 28-dekabrda sertifikatlashtirishning huquqiy asoslari aniqlandi. O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob'ektlarni sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi. Shundan so'ng 1997 yil 30-avgustda "Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlashning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Ushbu Qonunning talablari atir-upa, pardozi-andoz mollari va tamaki mahsulotlariga ham taalluqlidir.

2013 yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida" Qonuni. Ushbu Qonunning maqsadi muvofiqlikni baholash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Sertifikatlashtirish tartiblari va sifat menejment tizimlarini joriy etishni takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir qator Qarorlari qabul qilindi:

Jumladan

- ❖ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 oktyabrdagi 342-sonli "Standartlashtirish, metrologiya va mahsulotlar hamda xizmatlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi 318-sonli "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 373-sonli "O'zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori.
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi 122-sonli "Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida";
- ❖ "O'zbekiston respublikasi hududiga sertifikatsiyalanishi majburiy bo'lgan tovarlarni (mahsulotlar)ni olib kirish tartibi to'g'risida.";
- ❖ "Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida".
- ❖ "Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni inspeksiya nazoratidan o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" (qayd AV 06.04.2005y. № 1464)
- ❖ "Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiyalash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida".(Qayd AV 06.04.2005 y. № 1465)
- ❖ "Majburiy tartibda sertifikatlanadigan bir turdagi mahsulotlarning alohida turlarini sertifikatlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" (Qayd AV 28.09.2005 y. № 1513)
- ❖ Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste'moli mollariga gigienik sertifikati berish tartibi to'g'risida yo'riqnomani tasdiqlash haqida (Qayd AV 08.12.2005 y. № 1525).
- ❖ "Ishlab chiqarilgan etil spirt - rektifikatini sinovdan o'tkazish va tayyor mahsulotlar omborxonasiga topshirish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" (Qayd AV 06.09.2007 y. № 1714)
- ❖ "O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga haq to'lash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida". (Qayd AV 11.10.2013 y. № 2516).
- ❖ "Muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo'lgan mutaxassislarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (Qayd AV 11.10.2013 y. № 2516).

- ❖ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 22 iyuldagi 349-sonli "Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 373-sonli "O'zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori.
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 19 iyundagi 173-sonli "Respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 oktyabrdagi 298-sonli "2020 yilgacha bo'lgan davrda milliy infratuzilmalar sifatini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori
- ❖ Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizom (Qayd AV 16.01.2016 y. № 2754)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha qabul qilingan qonunlar:

- O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «O'simliklar karantini to'g'risida»gi qonun;
- O'zbekiston Respublikasining «Reklama to'g'risida»gi qonuni va hokazolar.

1. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining asos bo'luvchi me'yoriy xujjatlari:

- O'z DSt 1.10-93 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar;
- O'z DSt 5.0:1998 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy qoidalar;
- O'z DSt 5.2-93 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirish idorasiga umumiy talablar;
- O'z DSt 5.4-98 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Tekshirish va nazorat idoralariga qo'yiladigan talablar;
- O'z DSt 5.5:1999 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlash-tirish milliy tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar;
- O'z DSt 5.6:1999 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlash-tirish milliy tizimi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish idoralariga talablar;
- O'z DSt 5.8:2006 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlash-tirish milliy tizimi. Muvofiqlik belgisini tasdiqlash. Qo'llash qoidalar.
- O'z RH 51-014:2006 O'zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Sifat bo'yicha Ekspert-auditorlar. Tayyorlash va baholash talablari;
- O'z RH 51-021:2004 O'zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi.
- O'z RH 51-024-94 O'zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirish bo'yicha hujjatlarni ekspert baholash;
- O'z RH 51-025-94 O'zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Sifat tizimlari va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish. Asosiy qoidalar;

- O‘z RH 51-026-94 O‘zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Apellyatsiyalarni ko‘rib chiqish tartibi;
- O‘z RH 51-027-94 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish. O‘tkazish tartibi;
- O‘z RH 51-032:1999 O‘zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Ishlar haqini to‘lash tartibi;
- O‘z RH 51-035-95 O‘zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish. O‘tkazish tartibi;
- O‘z RH 51-103:2000 O‘zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlari inspeksion tekshiruv;
- O‘z RH 51-044-96 O‘zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish yuzasidan Davlat nazorati va tekshiruvi. Umumiy talablar;
- O‘z RH 51-061-97 O‘zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Xizmatlarni sertifikatlashtirish. O‘tkazish tartibi;
- O‘z RH 51-074-98 O‘zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Mahsulotni identifikatsiyalash yuzasidan yo‘riqnomalar;
- O‘z RH 51-085-99 O‘zbekiston Respublikasining sertifikat-lashtirish milliy tizimi. Oziq-ovqat mahsulotlari va jihozlari va ularni ishlab chiqarish yuzasidan yo‘riqnomalar, Davlat qaydi tartiblari;

2. O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi me‘yoriy xujjatlar. Sifatni boshqarish me‘yoriy xujjatlari.

- O‘z DSt 16.0-98 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlash-tirish tizimi. Umumiy qoidalar.
- O‘z DSt 16.1:1999 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlash-tirish tizimi. Sertifikatlashtirish idoralari va tekshirish idoralarini akkreditlashini o‘tkazish tartibi.
- O‘z DSt 16.2:1999 (EN 45013) O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlariga talablar.
- O‘z DSt 16.3:2001 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlash-tirish tizimi. Standart namunalarni tayyorlash, atestatlash va ishlatish huquqi bo‘lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi.
- O‘z DSt 16.4:2001 (ISOG‘MEK 17025) O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sinash, o‘lchash laboratoriyalariga quyiladigan umumiy talablar va ularni akkreditlash tartibi.
- O‘z DSt 16.5:2001 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlash-tirish tizimi. Hujjatlarni metrologik ekspertizasi va o‘lchashlarni bajarish usullarini attestatsiyalash huquqi bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi.
- O‘z DSt 16.6:2003 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlash-tirish tizimi. O‘lchashlarni bajarish usulini nazoratini tashkillashtirish huquqi bo‘lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi.
- O‘z DSt 16.7:2004 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlash-tirish tizimi. Inspeksion faoliyati mavjud firmalarga talablar.
- O‘z DSt 16.8:2004 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlash-tirish tizimi. Ishlab chiqarish laboratoriyalarini attestatlash. Umumiy talablar va o‘tkazish tartibi.
- O‘z RH 51-018:2002 O‘zbekiston Respublikasining akkredit-lashtirish tizimi. Akkreditlangan laboratoriyalarining faoliyatini inspeksion tekshiruvini otkazish tartibi.
- O‘z RH 51-104:2000 O‘zbekiston Respublikasining akkredit-lashtirish tizimi. Sertifikatlashtirilgan maxsulotlarni inspeksion tekshiruvini otkazish tartibi.

- O‘z RH 51-105:2001 O‘zbekiston Respublikasining akkredit-lashtirish tizimi. Akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari faoliyatining inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi
 - O‘z RH 51-112:2002 O‘zbekiston Respublikasining akkredit-lashtirish tizimi. Putur yetkazmasdan nazorat laboratoriyalarini akkreditlash
 - O‘z RH 51-121:2002 O‘zbekiston Respublikasining akkredit-lashtirish tizimi. Putur yetkazmasdan nazorat. O‘quv va imtihon markazlarini akkreditlash.
 - O‘z RH 51-131:2003 O‘zbekiston Respublikasining akkredit-lashtirish tizimi. Putur yetkazmasdan nazorat. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlarini akkreditlash.
 - O‘z RH 51-054:2003 O‘zbekiston Respublikasining akkredit-lashtirish tizimi. Sinov laboratoriyalari sifat bo‘yicha qo‘llanmasi. Ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma;
 - O‘z RH 51-056:2003 O‘zbekiston Respublikasining akkredit-lashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idoralari sifat bo‘yicha qo‘llanmasi. Ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma;
- Sifatni boshqarish me‘yoriy hujjatlari:***
- O‘z RH 51-057:1997 Sifat tizimi hujjatlari tarkibi va turlari. O‘z T 51-087:1999 Sifat tizimi hujjatlashtirilgan protseduralari va tarkibini aniqlash bo‘yicha tavsiyalar;
 - O‘z RH 51-090:1999 Sifat dasturini ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma;
 - O‘z T 51-094:2000 Xizmatlarga sifat tizimini joriy qilish tartibi;
 - O‘z DSt ISO 9001:2002 Sifat menedjmenti tizimi. Talablar.;
 - O‘z DSt ISO 9000:2002 Sifat menedjmenti tizimi. Asosiy qoida va lug‘atlar (ISO 9000:2000);
 - O‘z DSt ISO 9004:2002 Sifat menedjmenti tizimi. Sifatni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar (ISO 9004:2000, IDT);
 - O‘z DSt ISO 10006:2005 Sifat menedjmenti tizimi. Sifat menedjmenti loyihasi bo‘yicha rahbariy ko‘rsatma (ISO 10006:2003, IDT);
 - O‘z DSt ISO 10007:2004 Sifatni ma‘muriy boshqarish. Ma‘muriy boshqarish konfiguratsiyasi bo‘yicha rahbariy ko‘rsatma;
 - O‘z DSt ISO 10013:2001 Sifat bo‘yicha qo‘llanmani ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma;
 - O‘z DSt ISOG‘TR 10014:2004 Sifatni iqtisodiy boshqarish bo‘yicha rahbariy ko‘rsatma;
 - O‘z DSt ISO 10015:2003 Sifatni boshqarish. O‘kitish bo‘yicha rahbariy ko‘rsatma;
 - O‘z DSt ISOG‘TR 10017:2005 Sifat menedjmenti tizimini hujjatlashtirish bo‘yicha tavsiya. O‘z DSt ISO 9001:2002 doirasida statistik usullarni qo‘llash bo‘yicha rahbariy ko‘rsatma;
 - O‘z DSt ISO 19011:2004 Sifat menejmenti tizimi vaG‘yoki ekologik menejmenti tizimi auditi bo‘yicha rahbariy ko‘rsatma.

4-MAVZU. SERTIFIKATLASHTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN ASOSIY ATAMALAR VA ULARNING TA‘RIFLARI

Ma‘ruza mavzusining rejasi:

- 1. Sertifikatlashtirishda qo‘llaniladigan atama va tushunchalar.**
- 2. Atama va tushunchalarni ta‘riflari.**

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: *Vizual ma‘ruza, bayon qilish, blits-so‘rov, “Qanday” texnikasi.*

Sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalar.

Mazkur kursda qo'llaniladigan atama va ta'riflar ISOG'MEK 2, O'z DSt ISO 9000:2002, O'z DSt 5.5 standartlariga mos bo'lib quyidagi atama va ta'riflar mutanosiblik bilan qo'llaniladi:

Sertifikatlashtirish jarayoni, shunday uslubki, unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini e'tirof qiladi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan ko'rsatkichlarga javob berishi kerak. Bu ko'rsatkichlar esa ma'lum belgilangan talablarga muvofiq G'mosG' kelishi lozim. Muvofiqlik o'z navbatida mahsulot yoki xizmatlarning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlardagi shu mahsulot yoki xizmatlarga belgilangan kursatkichlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish mumkin. Xo'sh sertifikatlashtirish tushunchasi nima?

Sertifikatlashtirish deganda talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kiritilgan.

Muvofiqlik - atamasi mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o'z tarkibiga oladi. Bunda muvofiqlikni uchta ko'rinishi - muvofiqlik bayonoti, muvofiqlikni attestatlash, muvofiqlikni sertifikatlashtirish degan tushunchalar mavjud. Muvofiqlik bayonoti deb yetkazib beruvchining mahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga to'la-to'kis muvofiqligi xaqida butun mas'uliyatni o'z ustiga olganligini bayon etishiga aytiladi. Bu atamani so'nggi vaqtlarda "o'z o'zini sertifikatlashtirish" tushunchasi bilan almashilayotgani qayd qilinmokda. O'z-o'zini sertifikatlashtirish deganda mahsulot ishlab chiqaruvchi tomon butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda mahsulotning talab etilgan darajada sifatli haqidagi kafolatni o'z zimmasiga oladi. **Muvofiqlikni attestatlash** uchunchi tomon tarafidan "sinov laboratoriyasining bayonoti" tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

Sertifikatlashtirish jarayoni deganda mahsulot G'buyum, molG' yoki xizmat muayan standart yoki texnikaviy shart talablariga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot G'buyum, molningG' urnatilgan talablarga iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi.

Yana bir zarur atamalardan biri "sertifikatlashtirish tizimi" bulib u quyidagicha ta'riflanadi: **Sertifikatlashtirish tizimi** - muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o'tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishiga ega bo'lgan tizimdir.

"Sertifikatlashtirish tizimi" atamasidan tashqari Sertifikatlashtirish sxemasi /sxema sertifikatsi/ kiritilib, ushbu faoliyat muvofiqlikni sertifikatlashtirishda uchinchi tomon faoliyatining olib boradigan ish xajmi, ketma-ketligi, tartibi va sertifikatlashtirish sub'ekti bilan uzaro munosabatin belgilaydi.

Sertifikatlashtirish faoliyatida kulaniladigan uchta tushuncha to'g'risida to'xtalib o'tamiz: sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi va sertifikatlashtirish tizimi a'zosi.

"sertifikatlashtirish milliy tizimi" - davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim;

"mahsulotlarni sertifikatlashtirish" (matnda bundan keyin "sertifikatlashtirish" deb yuritiladi) - mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

"muvofiqlik sertifikati" - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

"muvofiqlik belgisi" - muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoxud ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi;

"bir turdagi mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi" - ayni bir xil standartlar va qoidalar qo'llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi;

"sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish" - sinov laboratoriyasining (markazining) muayyan mahsulot sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshirishga doir vakolatlarining rasmiy e'tirofi;

"sifat bo'yicha ekspert-auditor" - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya qilish va tekshirish sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakasi bo'lgan mutaxassis;

"sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organi" - belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlangan mahsulot va sifatni boshqarish tizimini baholashni sertifikatlashtirish organlari topshirig'iga binoan amalga oshiruvchi organ;

"nazorat yo'sinidagi tekshiruv" - belgilangan talablarga muvofiqligini sertifikatlashtirish va akkreditatsiya qilish chog'ida tasdiqlash maqsadida sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimini yoki ishlab chiqarishni, sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari) faoliyatini takroriy baholash taomili.

Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish – guvohnoma talabgoriga sertifikatlashtirish tizimining qoidalariga muvofiq berilgan sertifikatlashtirishdan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi – deb ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko'rsatadigan, lekin tizimni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan sertifikatlashtirish katnashuvchisi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimi a'zosi deganda ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko'rsatadigan va tizimni boshqarishda ma'lum darajada ishtirok eta oladigan sertifikatlashtirish katnashuvchisi tushuniladi.

"Sertifikatlashtirish milliy tizimi" - davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim;

"Mahsulotlarni sertifikatlashtirish" (matnda bundan keyin "sertifikatlashtirish" deb yuritiladi) - mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

"Muvofiqlik sertifikati" - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

"Muvofiqlik belgisi" - muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoxud ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi;

"Bir turdagi mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi" - ayni bir xil standartlar va qoidalar qo'llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi;

"Sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish" - sinov laboratoriyasining (markazining) muayyan mahsulot sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshirishga doir vakolatlarining rasmiy e'tirofi;

"Sifat bo'yicha ekspert-auditor" - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya qilish va tekshirish sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakasi bo'lgan mutaxassis;

"Sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organi" - belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlangan mahsulot va sifatni boshqarish tizimini baholashni sertifikatlashtirish organlari topshirig'iga binoan amalga oshiruvchi organ;

"Nazorat yo'sinidagi tekshiruv" - belgilangan talablarga muvofiqligini sertifikatlashtirish va akkreditatsiya qilish chog'ida tasdiqlash maqsadida sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish

tizimini yoki ishlab chiqarishni, sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari) faoliyatini takroriy baholash taomili

5-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «MAHSULOT VA XIZMATLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH TO'G'RIDAGI QONUNNI O'RGANISH

Ma`ruza mavzusining rejasi:

- 1. Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar**
- 2. Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish**
- 3. Nizolarni qarab chiqish. Sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma`ruza, bayon qilish, aqliy xujum, Klaster texnikasi.*

O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1993 yil 28 dekabrda (N 1006-XII) qabul qilingan. Ushbu Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zg'ratirishlar kiritilgan (O'zR 31.08.2000 y. 125-II-son Qonuni, O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni, O'zR 06.04.2006 y. O'RQ-31-son Qonuni, O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni, O'zR 07.10.2013 y. O'RQ-355-son Qonuni).

Qonun 4 bob va 23 ta moddadan iborat bo'lib, mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob'ektlarni sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi.

Sertifikatlashtirish sohasidagi munosabatlar mazkur Qonun va unga muvofiq chiqariladigan O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa - Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Basharti, xalqaro shartnoma yoki bitimda sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma yoki bitimning qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda "O'zstandart" agentligi deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir.

Mahsulotlar (shu jumladan, dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar), xizmatlar, shuningdek sifat tizimlari sertifikatlashtirish ob'ektlari hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligining o'zi, uning tomonidan akkreditatsiya qilingan yoki e'tirof etilgan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar, shuningdek mahsuloti sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish sub'ektlaridir.

Sertifikatlashtirish sub'ektlari - yuridik shaxslar sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirish tizimlari tuzishlari mumkin. Yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish tizimlari "O'zstandart" agentligi belgilagan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

Mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangani taqdirda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikati beradi, tayyorlovchi ana shu sertifikat asosida muvofiqlik belgisini ishlatish huquqiga ega bo'ladi.

Sertifikatlashtirish tizimida foydalaniladigan muvofiqlik sertifikatlarining, akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarning namunalari, milliy muvofiqlik belgisining shakllari va hajmlari "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda Davlat reestridan o'tkazilishi shart.

Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilmagan muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari haqiqiy emas.

Muvofiqlik sertifikatidan, muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini hamda sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarini arizachi boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga berishi man etiladi.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma asosida sertifikatlashtirish faoliyatini hamda sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar o'tkazish faoliyatini amalga oshiradilar.

Mahsulotlar sertifikatlashtirilayotganda arizachiga sertifikatni yoki muvofiqlik belgisini qo'llash huquqi muvofiqlik sertifikatini bergan akkreditatsiya qilingan tegishli sertifikatlashtirish organi bilan tuzilgan bitim asosida beriladi.

"O'zstandart" agentligi tayyorlovchilarni (ijrochilarni), sotuvchilarni, iste'molchilarni va boshqa manfaatdor shaxslarni sertifikatlashtirishning amaldagi tizimlari, ularning organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), ekspertlar to'g'risida, shuningdek muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari va ularni qo'llash qoidalari to'g'risida xabardor etib boradi.

Sertifikatlashtirish organlari arizachiga uning talabiga binoan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun kerakli axborotni berishlari shart.

Arizachi sertifikatlashtirish organining talabiga binoan sertifikatlashtirish bilan bog'liq axborotni taqdim etishi shart, tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar bundan mustasno.

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil etish "O'zstandart" agentligi zimmasiga yoki uning topshirig'iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga (ularni albatta akkreditatsiya qilgan holda) yuklatiladi.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarning ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish yoki saqlash xavfsizligini ta'minlovchi talablar bo'lmagan taqdirda "O'zstandart" agentligi davlat boshqaruvining tegishli organlari bilan birgalikda bunday talabnomalarning kechiktirmay ishlab chiqilishi va amalga kiritilishini ta'minlaydi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun uni sinashni, nazorat yo'sinidagi tekshiruvni va sertifikatlangan mahsulot ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Sinovlar akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) tomonidan tegishli normativ hujjatlarda belgilangan usullarda, bunday hujjatlar bo'lmagan taqdirda esa tegishli sertifikatlashtirish organlari ishlab chiqqan usullarda amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlari uchun arizachi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda haq to'laydi.

Arizachi o'z mahsulotini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishga sarflagan mablag'lar summasi shu mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, ammo muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan mahsulotni targ'ib qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar quyidagi hollarda:

sertifikatlashtirishga taqdim etilmagan bo'lsa;

sertifikatlashtirish talablariga muvofiq emasligi sababli sertifikatlashtirishdan o'tmagan bo'lsa;

agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki uning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan (bekor qilingan) bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinishi mumkin emas.

Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish man etiladi. Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi tayyorlovchilar (tadbirkorlar):

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim etishlari; sertifikatlangan mahsulotni sertifikatlash organlarining o'zi yoki ular e'tirof etgan organlar bergan sertifikat mavjud bo'lgan taqdirdagina realizatsiya qilishlari va uning normativ hujjatlar talablariga mos bo'lishini ta'minlashlari;

sertifikatlangan mahsulotni, basharti, u normativ hujjat talablariga muvofiq kelmasa, shuningdek sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoxud uning amal qilishi sertifikatlashtirish organining qarori bilan to'xtatib qo'yilgan yoki bekor qilingan bo'lsa, realizatsiya qilishni to'xtatib qo'yishlari yoki tugatishlari;

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtiruvchi va sertifikatlangan mahsulotni nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari o'z vakolatlarini moneliksiz bajarishlari uchun sharoit yaratishlari;

sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlariga yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o'zgartishlar haqida sertifikatlashtirish organini belgilangan tartibda xabardor etishlari;

ilova qilingan texnik hujjatda mahsulot muvofiq kelishi lozim bo'lgan sertifikatlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda normativ hujjatlarni ko'rsatishlari va bu ma'lumotlar iste'molchi (xaridor, buyurtmachi) e'tiboriga yetkazilishini ta'minlashlari shart.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berish uchun tuziladigan kontraktlar (shartnomalar) shartida mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi, "O'zstandart" agentligi tomonidan berilgan yoki e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bo'lishi nazarda tutilishi kerak. Milliy muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari yoki boshqa davlatlarning "O'zstandart" agentligi tomonidan e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari arizachi (mahsulot yetkazib beruvchi) tomonidan bojxona nazorati organlariga yukka taalluqli bojxona deklaratsiyasi bilan birgalikda taqdim etiladi va ular mahsulotni respublika hududiga olib kirishga ruxsatnoma olish uchun zarur hujjatlar hisoblanadi. Chetdan olib kelinayotgan mahsulotning xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan taqdirda bojxona nazorati organlari bu xususda "O'zstandart" agentligini xabardor etadilar hamda mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazish yoki chet el sertifikatini e'tirof etish to'g'risidagi masala sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalariga muvofiq hal etilgunga qadar bu mahsulotni chetdan olib kirishni taqiqlab qo'yadilar.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta'minoti

Quyidagi ishlar:

sertifikatlashtirishni rivojlantirishning istiqbollari, uni o'tkazish qoidalar va tavsiyalarini ishlab chiqish;

sertifikatlashtirish sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;

xalqaro (mintaqaviy) sertifikatlashtirish tashkilotlari ishida qatnashish hamda chet el milliy sertifikatlashtirish organlari bilan birgalikda ishlar o'tkazish;

sertifikatlashtirish yuzasidan xalqaro (mintaqaviy) qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ishlab chiqishda qatnashish;

sertifikatlashtirish yuzasidan umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa ishlar olib borish;

sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishi ustidan hamda sertifikatlangan mahsulot ustidan davlat tekshiruvi va nazorati olib borish ishlari davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanadi.

Majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishini davlat tomonidan tekshirish va nazorat qilish - tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning, sotuvchilarning, ijrochilarning) majburiy

sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishlari ustidan davlat tekshiruv va nazoratini "O'zstandart" agentligining davlat inspektorlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiradi.

Nazorat yo'sinidagi tekshiruv - sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimlari, ishlab chiqarish, akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish organlari ustidan nazorat yo'sinidagi tekshiruvni sifat bo'yicha ekspert-auditorlar "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiradi

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish - har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni "O'zstandart" agentligi belgilab qo'ygan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish qoidalar va tartibini belgilovchi ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlarini akkreditatsiya qilingan organlar "O'zstandart" agentligi bilan kelishgan holda belgilaydilar.

Sertifikatlashtirish organlarining va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) javobgarligi.

Sertifikatlashtirish organi:

muvofiqlik sertifikatini asossiz va qonunga xilof tarzda berganlik uchun;

arizachiga nisbatan qonunga xilof xatti-harakatlar qilganlik uchun;

arizachining tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni oshkor etganlik uchun javobgar bo'ladi.

Akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) sertifikatlashtirish organiga sinovlarning natijalari haqida noto'g'ri ma'lumot berganlik uchun javobgar bo'ladi.

Sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlari) mazkur moddada aytib o'tilgan xatti-harakatlar natijasida arizachiga yetkazilgan zararining o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'la hajmda qoplashlari shart.

Tayyorlovchilar (tadbirkorlar) majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini buzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan sertifikatlashtirilmagan mahsulotni realizatsiya qilganlik uchun tayyorlovchining (tadbirkorning) mansabdor shaxslari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor - tayyorlovchilar ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Ma'muriy jazo chorasini qo'llanilganligi tayyorlovchilarni (tadbirkorlarni) majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazishdan ozod qilmaydi.

Qonun 4 bob va 23 ta moddadan iborat bo'lib, mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob'ektlarni sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi.

6-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TO'G'RSIDA"GI QONUNNI O'RGANISH

1. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari.

2. Iste'molchilarning asosiy huquqlari.

3. Tovar (ish, xizmat)lar to'g'risidagi ma'lumot. Tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri ma'lumot berilgan taqdirda iste'molchining huquqlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, aqliy xujum, prezentatsiya, "Venn diagrammasi" texnikasi.*

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'risida"gi Qonuni 1996 yil 26-aprelda qabul qilingan. Qonun 30 moddadan iborat bo'lib, qonunnig maqsadi iste'molchilar huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Qonunnig 4-moddasiga asosan iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:

tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi;

hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining to'liq hajmda qoplanishi;

buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;

iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste'molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtojlar toifasiga kiritilgan ayrim guruhlar uchun qonun hujjatlari bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko'rsatishning boshqa turlari bo'yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

Qonunga ko'ra ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma'lumotda quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- ✓ tovar (ish, xizmat) majburiy talablariga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi;
- ✓ tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste'mol xususiyatlari, shu jumladan, o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati;
- ✓ bahosi (tarifi) va sotib olish shartlari; (O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni tahriridagi xat boshi)
- ✓ ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;
- ✓ ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari;
- ✓ tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari;
- ✓ tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ✓ ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning nomi va mulkchilik shakli, ro'yxatga olish va litsenziya guvohnomasining nomeri;
- ✓ ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergan, shuningdek ta'mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko'rsatadigan korxonalarining manzillari;
- ✓ tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari;
- ✓ teatr-kontsert tadbirlari o'tkazilayotganda fonogrammadan foydalanilishi to'g'risidagi axborot. (O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni tahriridagi xat boshi)

Sertifikatlanishi shart bo'lgan tovar haqida iste'molchiga uning sertifikatlanganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etilishi lozim.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi zarur axborotning yo'qligi bunday tovar (ish, xizmat)ni realizatsiya qilish ma'lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasi bo'yicha to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot berilganligi:

- ✓ zarur iste`mol xossalariga ega bo`lmagan tovar (ish, xizmat) sotib olinishiga sabab bo`lsa, iste`molchi shartnomani bekor qilishga va o`ziga yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilishga haqlidir;
- ✓ sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan ko`zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo`lsa, iste`molchi tegishli ma`lumot oqilona qisqa (ko`pi bilan uch kunlik) muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Agar ma`lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste`molchi shartnomani bekor qilib, zararining qoplanishini talab qilishga haqlidir;
- ✓ iste`molchining hayotiga, sog`lig`iga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo`lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni qo`yishga haqlidir.
- ✓ Iste`molchining tovar (ish, xizmat) haqidagi noto`g`ri yoki yetarli darajada to`liq bo`lmagan ma`lumot tufayli yetkazilgan zararni qoplash to`g`risidagi talablari sotib olingan tovar (ish, xizmat)ning xossalari va jihatlari haqida iste`molchi maxsus bilimiga ega emas degan taxminga asoslanib qarab chiqiladi.

Noto`g`ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste`molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to`liq hajmda qoplanishi lozim.

Iste`molchi shartnoma tuzish yo`li bilan tovarni (ish, xizmatni) erkin sotib olish huquqiga ega bo`lib, bu shartnomaga ko`ra sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) iste`molchiga muayyan miqdordagi va maqbul sifatli tovarni mulk qilib topshirish (ish bajarish, xizmat ko`rsatish) majburiyatini, iste`molchi esa, shartlashilgan pulni to`lash majburiyatini o`z zimmlariga oladilar.

Narxnoma bilan qo`yilgan tovarlar hamda tovar (ish, xizmat)lar haqida keluvchilar e`tiboriga havola etiladigan ma`lumot tegishli shartnomani tuzish uchun taklif deb hisoblanadi.

Tomonlar o`rtasida shartnoma narsasi, miqdor, narx va boshqa muhim shartlar to`g`risida kelishuvga erishilsa, iste`molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o`rtasida shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Tuzilgan zahoti bajariladigan shartnoma, qoida tariqasida, og`zaki shaklda tuziladi, qonun hujjatlarida belgilab qo`yilgan hollar bundan mustasno. Tuzilgan vaqtdan boshqa paytda (oldindan beriladigan buyurtmalar bo`yicha, jo`natma savdoda va boshqa hollarda) bajariladigan shartnoma yozma shaklda tuziladi.

Iste`molchi sotib olingan tovar (ish, xizmat) sifatini, butligini, vazni va narxini tekshirish huquqiga ega, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) esa, nazorat-o`lchov asboblari, narxga doir hujjatlarni taqdim etishi, tovarni ishlatib ko`rsatishi, undan xavfsiz va to`g`ri foydalanishni o`rgatishi, zarurat bo`lsa, tovarni ekspertizaga yuborishi shart.

Iste`molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan qo`shimcha ravishda tekshirish zarur bo`lganida esa, iste`molchi talab qo`ygan paytdan e`tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart. (O`zR 10.10.2006 y. O`RQ-59-son Qonuni tahriridagi qism)

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo`lmagan taqdirda, iste`molchining almashtirib berish xususidagi talabi da`vo qilingan paytdan e`tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho`l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste`molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o`tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste`molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to`laydi.

Iste`molchining roziligi bilan sotuvchi nuqsonli tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berib, xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilishi shart.

7-MAVZU. SERTIFIKATLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Ma`ruza mavzusining rejasi:

1. Sertifikatlashtirishning xorij tajribasi (AQSh, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy va Rossiya tajribasida).
2. Xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, "Pog'ona" ta'lim texnikasi.*

Butun dunyoda mahsulotning sifati, xavfsizligi nazorat tekshiruv xizmatlari tomonidan olib boriladi. Xavfsizlikni nazorat qilish usullari ko'pgina protseduralarga asoslanib ko'pgina idora va tashkilotlar orqali amalga oshiriladi. Davlat tekshiruvlari asosan standart talablari to'g'ri bajarilganligi, sanitariya-gigiena qoidalari bajarilganligi ustidan nazoratni va boshqa ko'rsatkichlarni tekshirishlar esa iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tashkilotlari tomonidan olib boriladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida iste'molchilarning huquqini muhofaza qilish qonuni asosida ish yuritiladi. Masalan, u yerda «Milliy transport va avtomobillarning xavfsizligi», «Pestitsidlar va rodentitsidlar» haqida qonunlar mavjuddir. AQShning Federal hukumati sertifikatlashtirish bo'yicha uchta asosiy darajadagi dasturlarni qabul qilib tasdiqlashgan. Birinchi darajali dastur majburiy sertifikatlashtirilgan mahsulot uchun tayyorlangan bo'lib, bularning iste'molchi uchun sog'liqqa ziyon keltirilishi mumkin bo'lgan hollarda ishlatilishi mumkin. Bu sertifikatlashtirish dasturi aviataxnikada, kemasozlikda, avtomobilsozlikda, konteynerlarda va truboprovodlardagi faoliyatlar kiradi. Ikkinchi darajali dastur bu Davlat mudofaa departamentlari, transport, savdo-sotiq, elektrofikatsiya orqali mahsulotni sertifikatlashtirish ko'zda tutiladi. Uchinchi darajali dastur mahsulot sifati, narxi va uning kelib chiqish jarayonlari ko'zda tutiladi. Bu sertifikatlashtirish dasturlari ixtiyoriy ravishda ishlatiladi. AQShda sertifikatlashtirish milliy boshqarmasi mavjud emas. Amerika milliy standart texnologiyalar instituti (NIST) qoshida sertifikatlashtirish komiteti ish olib boradi va sertifikatlashtirish qoidalarini ishlab chiqadi, uning reestrini olib boradi va muvofiqlikni tasdiqlash faoliyati bilan shug'ullanadi, hamda shu bilan birga sertifikatlashtirish idoralarining faoliyatini nazorat qilish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Frantsiya sertifikatlashtirish faoliyati. Frantsiyada ilk bora 1938 yil sertifikatlashtirish haqidagi qonun qabul qilingan. Bu qonun milliy standart belgisi NF, hozirgacha o'zgartirish kiritilgan holda ishlatilmoqda. AFNOR zimmasiga 1941 yilda qabul qilingan dekret asosida NF belgisi maqomiga egaligi va mamlakatda sertifikatlashtirish faoliyati tizimi yuklatilgan. Frantsiyada NF belgisi milliy standartlarga mos eng birinchi sertifikatlashtirish muvofiqlik belgisidir. Ushbu belgi shaharda va chet davlatlarda keng tarqalgan va qo'llanilab kelinmoqda. Mas'uliyatsiz bosilgan har bir qadam jazoga tortilishi mumkin, bu choralar oddiy ogohlantirishdan boshlanib yuqoridagi belgini qo'llanishiga berilgan litsenziyasidan mahrum qilinishgacha borib yetadi. AFNOR tashkiloti har bir noto'g'ri berilgan reklama, tovlamachilik, belgini noto'g'ri ishlatilganida ham ishlab chiqaruvchilarni yoki sotuvchilarni qonuniy jazoga tortishi mumkin. AFNOR tashkilotining sertifikatlashtirish tizimi uchinchi tomon sifatida faoliyat ko'rsatadi, hamda korxona sifat tizimini va mahsulot namunasini sinash faoliyatini olib boradi.

Germaniyada sertifikatlashtirishning asosi bo'lib Federal hokimiyat miq'yosida qabul qilingan qonunlar xizmat ko'rsatadi. Bular o'z ichiga sog'liqni himoya qilish, tabiatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligini, iqtisodiyot resurslarini, iste'molchilarning huquqlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan qonunlarni qamrab oladi. Bu qonunlarga asosan 1968 yilda qabul qilingan «Jihozlarning xavfsizligini ta'minlash» qonuni kiritilib, bu qonunning asosi bo'lib tabiatni muhofaza qilish qonunlari xizmat qilgan.

Ishlab chiqaruvchi yoki chetdan mahsulot olib kiruvchining mahsuloti texnik nazoratdan va federal hokimiyat tarafidan tekshirilgan bo'lsa, u tekshirilganlik «xavfsizlik belgisi»ni qo'yishi mumkin bo'lgan. Sertifikatlashtirish bo'yicha Germaniyada faoliyat olib boradigan asosiy yettita

tizim mavjud bo'lib, ularning doirasida 400 dan ortiq boshqarmalar ish yuritadilar. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha eng faol ish olib boruvchi tashkilot sifatida DIN standartlariga muvofiqligini tekshirish bo'yicha ish olib boradigan Germaniya instituti (DIN) bo'lib hisoblanadi. Mahsulotlar ushbu institut tizimidagi sertifikatlashtirish tashkilotidan o'tgandan so'ng unga DIN belgisi qo'yilishiga ruxsat beriladi, bu belgi gaz, suv apparatlaridan tashqari barcha mahsulotlarga ishlatiladi. Elektr tarmoqlarini sertifikatlashtirish Germaniya elektrotexniklar kengashi (VDE) orqali bajariladi. Ilmiy tekshirish institutlarida va sinov laboratoriyalarida mahsulotni nazorat qilish ishlari olib boriladi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha DQS jamiyati faoliyat olib borib, u firma va kompaniyalarning majburiy bo'lmagan holda ya'ni ixtiyoriy ravishda murojaatlarini qabul qiladi. Bundan tashqari RW TUV va bir necha xalqaro miqyosda tanilgan Germaniya kompaniyalari ham sertifikatlashtirish ishlari bilan shug'ullanishadi.

Yaponiyada asosan ixtiyoriy sertifikatlashtirish ishlari mavjud bo'lib, hozirgi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, raqobat tufayli majburiy sertifikatlashtirishga aylangan. Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan birga ularning turli tekshiruvlari ham olib boriladi. Mahsulot yoki xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha 25 dan ortiq qonunlar mavjud bo'lib, bularning ba'zilar faqatgina mahsulotlarni tekshiruvlarni olib borish faoliyatiga qaratilgan.

Standartlarga muvofiqligini kafolatlovchi, hamda sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha eng taniqli tashkilotlardan biri Yaponiya sanoat standartlari komiteti (JISC) bo'lib, u tomonidan ishlab chiqilgan standartlar qator vazirligi tomonidan (qishloq xo'jalik, tashqi savdo va sanoat, o'rmonchilik, baliqchilik, qurilish, aloqa xizmati va maoriflarda) qabul qilingan. Oziq-ovqat, qishloq xo'jalik va o'rmonchilik mahsulotlari uchun JAS standartlari talablari asosida sertifikatlashtirishda ishlari olib boriladi. Yaponiyada qishloq xo'jalik assotsiatsiyasi tomonidan ham standartlar ishlab chiqilib, u qishloq xo'jalik va o'rmonchilik mahsulotlarini standartlashtirish va tamg'alashga mo'ljallangan.

Baliqchilik va o'rmonchilik xo'jaliklarida nazoratni ushbu vazirlik tomonidan ro'yxatga olingan mustaqil tashkilot olib boradi.

Mahsulotlarga qo'yilgan VCCI belgisi mahsulotning elektromagnit moslashuvchanligini bildiradi. Ushbu belgini olish va uni mahsulotlar yorlig'iga qo'llash ixtiyoriy sanaladi.

SG-belgisi 50 dan ortiq turdagi mahsulot va tovarlar uchun qo'llanilishi mumkin bo'lib, bu belgi ularning xavfsizligi haqidagi kafolat belgisi hisoblanadi, T-belgisi mamlakat ichki bozor savdosi va sanoat vazirligi tomonidan belgilangan bo'lib, import mahsulotlarning ya'ni elektrotexnika mahsulotlarining xavfsizligi belgisini bildiradi.

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) da standartlashtirish faoliyati davlat qonunlari va qarorlari orqali boshqariladi va takomillashtiriladi, bu qonun va qarorlar Xitoy xalq vakillar yig'ilishida (XXVY) yoki Xitoy yuqori tashkilotlar idoralari huquq doirasida qabul qilinadigan farmoyish va buyruqlar asosida bajariladi. Metrologiya, standartlashtirish, mahsulotning sifatini nazorat qilish, eksport va import mahsulotlari bo'yicha qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topgan. 1991 yil may oyida Xitoy Xalq Respublikasida (XXR) sertifikatlashtirish, mahsulotlarni sifatini aniqlash bo'yicha qoidalar ishlab chiqilgan. Mahsulotning sifatini aniqlovchi eng asosiy tashkilotlardan biri Davlat texnik nazorat byurosi (DTNB) va Davlat import-eksport tovarlarining boshqarmasi (DIETB) eksportga chiqariladigan va import bo'yicha olib kiriladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirishni nazorat qiladi.

Xitoyda milliy standartlarga amal qilish, sog'liqni saqlashdagi talablar, ekologiya va insonlarni muhofaza etish talablari majburiydir.

Qolgan standartlar faqatgina qo'llanishga tavsiya etilib, ammo sertifikatlashtirish tizimi talablariga ko'ra import bo'yicha mamlakatga mahsulotlarni olib keluvchi shaxslarda sifat sertifikati bo'lishi shartligi belgilangan. Bu hollarda mahsulot tekshiruvdan o'tgandan so'ng talablarga javob berganligi tasdiqlansa unga sertifikat beriladi.

Xitoyda import va eksport mahsulotlar uchun quyidagi belgilar mavjud:

- sog'liq uchun xavfli emas belgisi – CCIB uning rangi havo rangda bo'lib, H indeksi bilan belgilangan bo'lsa «sog'liq» belgisi sifatida qabul qilinadi;

- xavfsizlik belgisi - CCIB harflari sariq rang bo'lib, S indeksi bilan belgilangan bo'lsa «xavfsiz» deb qabul qilinadi;

- sifat belgisi - CCIB harflari qizil rangli bo'lib, Q indeksi bilan belgilangan bo'lsa «sifat» li deb qabul qilinadi. Yuqorida aytib o'tgan belgilarimizni ishlatishga ruxsat, mahsulot o'rnatilgan tartibda tekshiruvdan o'tgandan so'ng beriladi.

Rossiya davlat standartining sertifikatlashtirish va akkreditlash tizimlarini tashkil etish bo'yicha Butun rossiya standartlashtirish ilmiy tadqiqot instituti (Vserossiyskiy nauchno-issledovatel'skiy institut standartizatsii - VNIIS) bosh tashkilot bo'lib hisoblanadi. VNIIS dunyodagi sertifikatlashtirish sohasidagi ilg'or tajribalarni mujassamlashtirib, Rossiyani dunyo bozorida mahsulot savdo sotig'i bo'yicha teng huquq bilan qatnashishiga asos solmoqda. Institut Rossiya davlat standarti (Rosdavstandart) tashkilotining akkreditlash sohasi bo'yicha vakolatli tashkiloti hisoblanib, shunga asoslangan holda u akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalarining ustidan nazoratni ham amalga oshiradi. Bu tashkilot tomonidan korxonalarni sertifikatlashtirish sohasiga taalluqli yetarli axborot va uslubiy materiallar bilan ta'minlash, malaka oshirish maqsadida sanoat xodimlari uchun maxsus o'quv kurslari tashkil qilinib, shu bilan birga ularga bu sohalar bo'yicha turli maslahat xizmatlari ko'rsatilmoqda. Rossiyada sertifikatlashtirish tizimi "GOST" sertifikatlashtirish tizimi" deb yuritiladi. Bu ochiq tizim bo'lib, har bir tashkilot yoki korxona, agar uning qoidalari bilan rozi bo'lsa va ularga amal qilsa, unga kira olishi mumkin.

"GOST" tizimiga asos qilib, ISO va MEK larning hujjatlari, shuningdek EN 45000 seriyali yevropa norma (standart)lari olingan. Tizimning asosiy qonun-qoidalari, tuzilishi va tartiblari 1991 yilda davlat standartlari tomonidan belgilangan.

Rossiyada sertifikatlashtirishni maxsus akkreditlangan Idoralar, sinov laboratoriyalari amalga oshiradi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish bilan bog'liq barcha harajatlar murojaat qilgan tomon hisobidan bo'ladi.

Harajatlarni to'lash yo'li har xil bo'lishi mumkin: sertifikatlashtirish xizmati uchun bir yo'la to'lash orqali, hamda sertifikatlashtiriluvchi mahsulot (sifat tizimlari) ni nazorati uchun vaqti-vaqti bilan yoki muvofiqlik belgisidan foydalanganligi uchun to'lash orqali.

Etakchi mamlakatlarning amaliy tajribalarini qo'llagan holda, quyidagi xizmatlar uchun bir yo'la haq to'lash qabul qilingan:

- talabnomalar va boshqa sertifikatlashtirish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizalari uchun;

- mahsulot sinovlarini o'tkazish uchun;

- sifat tizimlarini baholash va (yoki) sertifikatlashtiriluvchi mahsulot chiqaradigan korxonani attestatlash uchun;

- muvofiqlik sertifikatini berish haqidagi qaror qabul qilinganligi, uni rasmiylashtirish va ro'yxatdan o'tkazish uchun.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligini (MDH) tashkil qilinishi munosabati bilan sobiq Ittifoqdagi standartlarning ishlatishni chegaralash muddatlari 1992 yildan bekor qilinishiga kelishilgan. Shu maqsadda ilgari ba'zi standartlar hozirda ham o'z kuchlarini yo'qotgani yo'q. Rossiya davlat standarti qo'mitasi va VNIIS ko'pgina, dunyoda obro'li, sertifikatlashtirish bo'yicha tan olingan mamlakatlar tizimlari bilan aloqalarni yaxshilash yo'lida ish olib bormoqdalar. Ular bu sohadagi ishlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilishini boshqa mamlakatlarda tan olinishiga harakat qilmoqdalar. Shu maqsadda VNIIS sifat tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha juda ko'p chet el davlat tashkilotlari va xalqaro darajada tan olingan tashkilotlar bilan o'zaro aloqada ishlash bo'yicha bitimlari mavjud.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida bir-birining ish natijalarini tan olish maqsadida Buyuk Britaniya, Frantsiya, Shvetsariya, Kanada va boshqa mamlakatlar bilan ham ikki tomonlama kelishuv imzolangan bo'lib, bunga ko'ra quyidagilar ko'zda tutilgan:

- sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditorlar tayyorlovchi yagona maktab yaratish;

- sertifikatlashtirish maqsadida o'tkaziladigan baholash auditlarida birgalikda tekshiruv o'tkazish;

- sifat tizimlarini sertifikatlashtirish idorasining "sifat tizimlarini sertifikatlashtirishda javobgar bo'lgan sertifikatlashtirish idoralari uchun umumiy mezonlar" ISO MEK 65 raqamli me'yoriy hujjatga muvofiq alohida tashkilotni tuzish bo'yicha ish boshlash.

Bundan tashqari metrologiya, standartizatsiya, akkreditlash masalalari va bu soxa uchun mo'taxassislar tayyorlash va boshqa shunga o'xshash masalalar ham shu kelishuvlarda ko'zda tutilgan.

Yuqoridagi qayd qilingan uchta masalalardan bugungi kunda ikkitasi to'liq amalga joriy qilingan.

Bu kelishuvlar doirasida muntazam ravishda ekspert-auditorlarni tayyorlash ishlari olib borilmoqda, hamkorlikda tayyorlangan sertifikatlashtirish bo'yicha mo'taxassislarning hammasi o'qish yakuniga qarab Rosdavstandart qarori bilan ekspert-auditor sifatida ro'yxatga olindi.

Rossiyada sertifikatlashtirish milliy tizimining vujudga kelishini turli tizimlar majmui holida yoki aniq mahsulot bo'yicha sertifikatlashtirishda yoxud majburiy va ixtiyoriy tus olgan sinovlarning turlari bo'yicha ifodalash mumkin.

Hozirgi vaqtda "Iste'molchi xuquqlarini himoyasi haqida" Qonuniga binoan havfsizlik va ekologik parametrlar bo'yicha mahsulotning sertifikatlashtirish tizimlari yanada takomillashtirilmoqda.

Rossiya Federatsiyasida sertifikatlashtirish tizimlari to'rtta darajadagi idoralardan iborat.

Birinchi darajadagi idoraga Rossiya Federatsiyasining sertifikatlashtirish milliy idorasi kiradi. U Rosdavstandart bo'lib, sertifikatlashtirish bo'yicha respublikada tashkiliy ishlarni boshqaradi va xalqaro hamkorlikni ta'minlaydi. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

- mahsulot (xizmat) ning sertifikatlashtirilishini Rossiya hududida o'tkazishning umumiy qonun-qoidalarini belgilash;

- xalqaro va mintaqaviy sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish va sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish haqida qaror qabul qilish;

- lozim topilgan hollarda Rossiya Federatsiyasining tashqi mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarida va xalqaro tashkilotlarda vakolatxonasiga ega bo'lish.

Ikkinchi darajadagi idoralar - bular qonunda ko'rsatilgan bo'ladi yoki huko'mat Qarorlari bilan davlat tashkilotlariga yuklatiladi va buni markaziy sertifikatlashtirish tizimlarining idoralari deb ataladi.

Uchinchi darajadagi idoralarga aniq mahsulotni sertifikatlashtirish idoralari kiradi. Bular akkreditlanish dorasiga qarab sertifikatlashtirishni o'tkazuvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalardir.

To'rtinchi darajadagi idoralarga akkreditlangan sinov laboratoriyalari kiradi, Akkreditlanishi doirasiga qarab, aniq sinovlar yoki ularning aniq xillarini qonuniy ravishda amalga oshiradi.

Mahsulotning sertifikatlashtirilishi natijasida so'rovchiga sertifikat hamda litsenziya kelishuviga asosan aniq namuna uchun muvofiqlik belgisini ishlatish xuquqi beriladi.

Sertifikatlashtirish sohasidagi hamma ishlar kelishilgan holda manfaatdor bo'lgan tomonlarga yetkazilishi shart. Faqat tijorat sirlarini tashkil etuvchi xabarlar bundan mustasno hisoblanadi.

Xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish tartibi.

Xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan mahsulotlarga berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish uchun, ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga buyurtmanoma beradi. Buyurtmanoma jismoniy yoki yuridik shaxs (keyingi o'rinlarda ariza beruvchi deb ataladi) tomonidan berilishi mumkin.

Buyurtmanomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- ✓ xorijiy mamlakatning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan sertifikatning asl nusxasi egasining yoki sertifikat bergan organning muhri bilan tasdiqlangan sertifikatning asli yoki nusxasi;

- ✓ xorijiy mamlakatning ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjati nusxasi (mavjud bo'lsa);
- ✓ etkazib berilayotgan uskunaning pasporti va G'yoki undan foydalanish bo'yicha yo'riqnomasi — davlat tili yoki rus tilidagi tarjimai bilan;
- ✓ xorijiy mamlakatning vakolatli organi tomonidan berilgan o'lchash vositalari turini tasdiqlovchi (metrologik attestatsiya) sertifikat — o'lchash vositalari turining davlat tiliga tarjima qilingan yo'riqnomasi bilan;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga kirganligini belgilovchi tovarga ilova qilingan hujjat (tovar-transport hujjati, invoys, hisob-faktura);

O'zbekiston Respublikasi davlat sanitariya nazorati organi laboratoriyalarida o'tkazilgan sinov natijalarini o'zida aks ettirgan gigienik sertifikat nusxasi va O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan normativ hujjatlarda belgilangan boshqa talablarga muvofiqlik to'g'risidagi ma'lumotlar (tan olish uchun taqdim etilgan sertifikatda ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda).

Ariza beruvchi, agar mavjud bo'lsa, o'z xohishiga ko'ra qo'shimcha tarzda quyidagi hujjatlarni taqdim etishi mumkin:

- mahsulotlarning texnik tavsiflari;
- mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishda o'tkazilgan sinovlar bayonnomalari yoki xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarida bajarilgan sinovlar haqidagi hujjatlar;
- xorijiy mamlakatning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organi tomonidan sifat menejmenti tizimiga (ishlab chiqarish uchun) berilgan sertifikat.

Agar qo'shimcha hujjatlarda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan aniq ko'rsatkichlar bo'yicha sinov natijalari mavjud bo'lsa, u holda sertifikatlashtirish organi qo'shimcha sinovlar o'tkazmasdan, ushbu xulosalardan muvofiqlik sertifikatini tan olish uchun foydalanishi mumkin.

Sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qilishda quyidagilarni nazarda tutadi:

ariza beruvchi taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'ri va to'liqligini aniqlash;

muvofiqligi bo'yicha sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarilgan mamlakatdagi normativ hujjatlar va talablarning O'zbekiston Respublikasida olib kirilayotgan mahsulotlar yuzasidan qabul qilingan normativ hujjatlarga va talablarga muvofiqligini taqqoslash.

Sertifikatlashtirish organi ariza beruvchi taqdim etgan hujjatlar va materiallarni tahlil qilish, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalash asosida bir ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda xorijiy muvofiqlik sertifikati tan olingani yoki tan olinmagani haqida qaror qabul qiladi.

Muvofiqlik sertifikatida ko'rsatilgan va ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar tahlilining ijobiy natijalari muvofiqlik sertifikatining tan olinishi uchun asos hisoblanadi.

Eksport qiluvchi mamlakatning sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatini tan olish uni O'zbekiston Respublikasining muvofiqlik sertifikatiga qayta rasmiylashtirish va davlat yagona reestriga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Identifikatsiyalash natijalariga ko'ra, ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan namunalarning tan olinayotgan sertifikatda, shuningdek buyurtmanomada va unga ilova qilinadigan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos kelmasligi aniqlansa, ariza beruvchiga muvofiqlik sertifikatining tan olinmasligi haqida asosli radnoma taqdim etiladi.

8-MAVZU. SERTIFIKATLASHTIRISH BO'YICHA MILLIY IDORA

Ma'ruza mavzusining rejasi:

1. **“Uzstandart” agentligining sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyati.**
2. **“Uzstandart” agentligining tashkiliy tuzilmasi.**
3. **Xududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari.**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, blits-so'rov, aqliy xujum, “Klaster”*

Bugungi kunda o'z istiqloli yo'lida, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat qurilishi sari shahdam qadam tashlab borayotgan, mustaqil O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida muhim va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarga binoan muvofiqlik sertifikatlashtirishining asosiy maqsadlari:

- mahsulot, jarayon va xizmatlarda fuqarolarning hayoti va sog'lig'ining xavfsizligini ta'minlash, tashqi-muhitni asrash, buyum (mollar) ni bir xilligi va o'zaro almashinuvchanligi masalalari, hamda iste'molchini himoya qilish;

- xalqaro savdoda texnikaviy to'siqlarni bartaraf qilish, mollar (buyumlar, jarayon va xizmatlar) ni raqobatdoshlik qobiliyatini oshirishdan iborat.

Sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilishi:

- O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idorasi;

- bir xil mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha idora;

- bir xil mahsulotni, sifat tizimini va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralari;

- akkreditlangan sinov laboratoriyalari.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan sertifikatlashtirish milliy idorasi qilib, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O'zbekiston Davlat markazi – «O'zstandart» agentligi belgilangan.

O'zstandart agentligiga qarashli turli soha va tarmoqlarni o'z ichiga olgan, bir xil nomdagi bo'limlar ham bor. Bularga standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha davlat nazorati va o'lchash vositalarini davlat qiyoslovidan o'tkazish va attestatlash sohaviy bo'limlari kiradi.

Standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha davlat nazorati sohaviy bo'limlar: og'ir sanoat, mashinasozlik, yengil sanoat, mahalliy sanoat hamda agrosanoat kompleksi doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

O'lchash vositalarini davlat qiyoslovidan o'tkazish va attestatlash tarmoq bo'limlari esa massalar, radiotexnika, ionli nurlanish, geometrik, mexanik, elektrik, magnitli, bosim, sarflanish, haroratli hamda fizik-kimyoviy kattaliklarni qiyoslovdan o'tkazadi. O'zstandart agentligi tarkibidagi asosiy bo'limlar quyida keltirilgan.

O'zstandart agentligining ilmiy-uslubiy markazi etib O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot instituti - SMSITI tayinlangan. Uning tashkiliy tuzilishi - rasmda keltirilgan.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirmoqda:

- Respublikada sertifikatlashtirishni qo'llash va takomillash-tirishning umumiy siyosatini ishlab chiqish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tegishli davlat idoralari bilan aloqalarni o'rnatish;

- sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa mamlakat va xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan, o'zaro kelishilgan asosda aloqalarni o'rnatish, kerak bo'lsa, bu tashkilotlar faoliyatida O'zbekiston Respublikasining qatnashishini ta'minlash;

- sertifikatlashtirishda yagona qoida va ish tartiblarini belgilash, bularga rioya qilishning nazorati, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha hujjatlarni axborotli ma'lumot bilan ta'minlash.

Vazirlar Mahkamasi qarorini bajarish yo'lida «O'zstandart» agentligi o'zining viloyat markazlarini (SMSXM) tuzib, ularning ishlariga har taraflama ko'mak ko'rsatmoqda. 1993 yilning 28 dekabridan boshlab "Mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" qonun kuchga

kirib, bu qonun asosida sertifikatlashtirish va sifatni ta'minlash borasidagi barcha ishlar mutlaqo yangicha ruknda yo'lga qo'yila boshlandi.

Respublikadagi sinov laboratoriyalarini akkreditlash ishlari ham jadal qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda 256 ta laboratoriya milliy sertifikatlashtirish tizimida akkreditlangan bo'lib, bu mahsulot ishlab-chiqarishning hamma sohasi bo'yicha yetarli darajada sinovlarni olib borish imkoniyatini beradi.

O'zstandart agentligi tarkibidagi oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tekshiruvchi sinov laboratoriyasi akkreditlangan laboratoriyalardan hisoblanib, shu kungacha muayyan turdagi mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati berish uchun kerakli bo'lgan sinovlarni bajarmoqda.

Respublika hududiga keltiriladigan yoki undan chetga chiqariladigan mollar (mahsulotlar)ning havfsizligini tasdiqlash bilan bog'liq bo'lgan amallar tegishli davlat idoralari bilan kelishilgan holda O'zstandart agentligi tomonidan tayyorlangan alohida hujjat bo'yicha bajariladi.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasini quyidagilar tashkil qiladi:

- O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idorasi («O'zstandart» agentligi);
- ilmiy-usuliyat markazi va bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha usuliyat markazlari;
- bir turdagi mahsulotlarni va xizmatlarni, sifat tizimlari hamda ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar;
- akkreditlangan sinash laboratoriyalari (markazlari);
- tekshirish idoralari.

Mahsulotni sertifikatlashtirish tizimining tashkiliy tuzilmasi quyida keltirilgan.

Sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora

O'zbekiston Davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.08.2004 yil № 373-sonli qarori qabul qilindi va bu qarorga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2003 yil 9 dekabrda PF-3358-son Fapmonini bajarish yuzasidan hamda standartlashtirish, metrologiya va mahsulotlar hamda xizmatlarni sertifikatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish, uning zamonaviy xalqaro normalar va talablarga muvofiqligini ta'minlash, shuningdek xalqaro standartlardan foydalanish asosida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ushbu qarorni qabul qildi. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora bo'lib hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi – «O'zstandart» agentligi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- O'z SMT ning yagona qoida va tadbirlarini, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha hujjatlarni ro'yxatga olishni, respublika va horijiy iste'molchilarni ma'lumot bilan ta'minlashni belgilaydi;
- muvofiqlik belgisini va uni qo'llash qoidalarini belgilaydi;
- O'z SMT ni mukammallashtirish bo'yicha dastur loyihalarini tuzadi va ularni Hukumat muhokamasiga taqdim etadi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish haqida qaror qabul qiladi, shuningdek, sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish haqida bitimlar tuzadi;
- O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlarda vakili bo'ladi;
- majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar ro'yxatini tuzadi va olib boradi;

- respublikada sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi hamda ularni o'tkazilishining to'g'riligi ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi;
- bir turdagi mahsulotlarni, sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni va sinash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditlaydi;
- ekspert-auditorlarni attestatlaydi va ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- O'z SMT Davlat reestrini olib boradi;
- mahsulotlarni sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni va sinash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditlash bo'yicha ishlarga haq to'lash shakli va tartibini belgilaydi;
- O'z SMT qoidalarini buzganligi uchun muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilarining amalini bekor qiladi va to'xtatadi, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni va sinash laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlangani haqida guvohnomani bekor qiladi;
- sertifikatlashtirish va akkreditlash natijalari bo'yicha appelyatsiyalarni ko'rib chiqadi;
- O'z SMT davlat reestri asosida sertifikatlashtirish bo'yicha ma'lumotlarni chop etadi va manfaatdor tomonlarning undan bemalol foydalanishlarini ta'minlaydi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun SMI vazifalarini tekshirish, ilmiy-texnikaviy, jamoat tashkilotlarini, iste'molchilar jamiyatlarini jalb etib, yuqoridagi vazifalarni O'zbekiston Respublikasi hududlarida SMI vazifalarini, bu vakolatlarni «O'zstandart» agentligi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha hududiy markazlarga (SMShM) berganda ular bajarishi mumkin.


Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish hududiy markazlari – SMShM

Vazirlar Mahkamasi qarorini bajarish yo'lida «O'zstandart» agentligi o'zining viloyat markazlarini (SMShM) tuzib, ularning ishlariga har taraflama ko'mak ko'rsatmoqda. 1993 yilning 28 dekabridan boshlab "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonun kuchga kirib, bu qonun asosida sertifikatlashtirish va sifatni ta'minlash borasidagi barcha ishlar mutlaqo yangicha ruknda yo'lga qo'yila boshlandi.

Respublikadagi sinov laboratoriyalarini akkreditlash ishlari ham jadal qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda 256 ta laboratoriya milliy sertifikatlashtirish tizimida akkreditlangan bo'lib, bu mahsulot ishlab-chiqarishning hamma sohasi bo'yicha yetarli darajada sinovlarni olib borish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish sohasida Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi hamda hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari (SMB) faoliyat olib borishadi. Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi 17 ta hududiy markazlarni tashkil qiladi. Hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi quyida keltirilgan.

Hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari (SMB) apparatining namunaviy tuzilmasi



9-MAVZU. O'ZBEKISTON SERTIFIKATLASHTIRISH MILLIY TIZIMI IDORALARI

Ma`ruza mavzusining rejasi:

1. **O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi.**
2. **Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish hududiy markazlari–SMSXM.**
3. **O'z SMT ilmiy-usuliyat markazi – standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot instituti.**
4. **Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari. Akkreditlangan sinash laboratoriyalari. Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish idoralari. Nazorat idoralari.**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Vizual ma`ruza, bayon qilish, "Pog'ona" texnikasi.

«O'zstandart» agentligining Mahsulotni eksport qilishga ko'maklashish byurosi.

Mahsulotni eksport qilishga ko'maklashish byurosi (keyingi o'rinlarda Byuro deb ataladi) «O'zstandart» agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi hamda hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalarida (Toshkent shahar va viloyat standartlashtirish va metrologiya boshqarmalaridan tashqari) bittadan vakilga ega.

Byuro o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, «O'zstandart» agentligining qarorlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

Byuro o'z faoliyatini «O'zstandart» agentligining boshqa tarkibiy bo'linmalari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Quyidagilar Byuroning asosiy vazifalari hisoblanadi:

eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga standartlar, mahsulotni sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha bepul maslahat xizmatlari ko'rsatish;

ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda xalqaro va mamlakatlararo standartlar talablarini joriy etish va ularga erishish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ishlab chiqaruvchi korxonalarga ishlab chiqarilayotgan mahsulotni xorijiy bozorlarga kiritish bo'yicha zarur axborotlar olish uchun axborot-maslahat yordami ko'rsatish;

standartlar, mahsulotni sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha doimiy yangilab turiladigan ma'lumotnomani ishlab chiqish va joriy etish, keyinchalik uni «O'zstandart» agentligining Internet tarmog'idagi saytiga joylashtirish.

Byuro o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalardan tushgan masalalarni o'rganadi va ularga zarur axborotlar taqdim etadi;

mahsulot eksporti masalalari bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatish yuzasidan bajarilgan ishlar to'g'risidagi materiallarni umumlashtiradi, tayyorlaydi va «O'zstandart» agentligiga taqdim etadi;

mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritishga doir mavjud muammolarni tahlil qiladi va ularni hal etish yuzasidan «O'zstandart» agentligiga takliflar kiritadi;

mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritish bo'yicha dasturlar va tadbirlar tayyorlashda qatnashadi;

mahsulotni standartlashtirish, sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar bo'yicha xalqaro va mamlakatlararo talablarni tahlil qiladi;

mahsulotni standartlashtirish, sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar bo'yicha xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va doimiy yangilab boradi.

Byuro quyidagi huquqlarga ega:

mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalardan mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritishga doir zarur axborotlarni so'rab olish;

standartlashtirish va sertifikatlash sohasida xorijiy kompaniyalar va firmalar bilan o'z vakolatlari doirasida bevosita hamkorlik qilish;

zarurat bo'lganda, mazkur Nizomda nazarda tutilgan funksiyalarni bajarish uchun tegishli mutaxassislarni jalb qilish.

Byuro faoliyatini tashkil etish

Byuroga «O'zstandart» agentligi bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Direktor boshchilik qiladi.

Byuro direktori:

Byuroning joriy faoliyatini tashkil etadi va amalga oshiradi;

o'ziga yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun javob beradi;

chiquvchi xat-xabarlarni imzolaydi;

Byuro xodimlarini va hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalaridagi vakillarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish bo'yicha belgilangan tartibda «O'zstandart» agentligi bosh direktoriga takliflar kiritadi;

o'z vakolatlari doirasida, belgilangan tartibda boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Byuroning xodimlari va hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalaridagi vakillari «O'zstandart» agentligi bosh direktori tomonidan, belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Byuroning hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalaridagi vakillari Byuro direktoriga va tegishli hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi rahbariga bo'ysunadi.

Byuro xodimlarining funktsional vazifalari «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilanadi.

Byuro «O'zstandart» agentligining byudjetdan tashqari mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari rahbarlari Byuroga mazkur Nizom bilan yuklangan vazifalarning zarur darajada va o'z vaqtida bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar.

«O'zstandart» agentligining mahsulotni eksport qilishga ko'maklashish byurosi

TUZILMASI



Ходимларнинг чекланган умумий сон — 17 киши;

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish hududiy markazalari – SMSHM sertifikatlashtirish sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar (bajaruvchilar) ga va yetkazib beruvchilarga sertifikatlashtirish qoidalari haqida ma'lumot beradi;
- BMS doirasida sertifikatlashtirish tadbirlari bo'yicha markaziy sertifikatlashtirish idoralari (MSI), bosh usuliyat markazlari (BUM) bilan o'zaro munosabatda bo'ladi;
- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish ustidan davlat tekshiruvini (nazoratini), hamda ular tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi;
- hududda sertifikatlashtirilgan mahsulotlar reestrini olib boradi;
- sertifikatlashtirish bo'yicha hududiy idoralar va sinash laboratoriyalari (markazlari) ni akkreditlash bo'yicha «O'zstandart» agentligining topshirig'iga binoan komissiya tuzish, ularda ishtirok etish va ularning faoliyati ustidan inspeksion nazorat qilishni amalga oshirishidi.

Sertifikatlashtirish va tekshirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish uchun SMSHM lar umumiy asoslarda O'z DSt 5.2, O'z DSt 5.3 va O'z DSt 5.4 standartlariga muvofiq akkreditlanishi kerak. SMSHM akkreditlangandan so'ng sinov turlari va sertifikatlashtirilgan mahsulot turlari bo'yicha akkreditlashning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish huquqini oladi.

O'z SMT ilmiy-usuliyat markazi – standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot instituti

SMSITI standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida asosiy ilmiy-uslubiy baza hisoblanadi. U ilgari sobiq Ittifoq Gosstandarti tarkibidagi bosh ilmiy tadqiqot institutiga tegishli bo'lgan funktsiyalarni bajarish bilan bir qatorda, yuqorida qayd etilgan sohalar bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib boradi. Shu sohalaridagi belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun u:


- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati sohalarida hozirgi xalqaro talablarga javob beradigan milliy ilmiy baza yaratadi;
- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati milliy tizimlarini yaratishda ularning ilmiy va uslubiy asoslarini ishlab chiqadi;
- mahsulotning raqobatdoshlik qobiliyatini ta'minlaydigan, atrof-muhitni ishonchli darajada himoya qilishga, inson sog'lig'ini saqlashga, mehnat xavfsizligini ta'minlashga, mudofaa qobiliyatini oshirishga qaratilgan xalqaro, me'yoriy va tashkiliy-uslubiy hujjatlar bilan uyg'unlashadigan, asos bo'luvchi hujjatlar ishlab chiqadi va joriy etadi;
- standartlashtirish va metrologiya sohalaridagi mavjud yoki uchraydigan muammolarni tadqiqot qilish, davlat tilida me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, lug'atlar yaratadi;
- yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlaydi;
- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatining ilmiy masalalari bo'yicha xalqaro milliy va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida ishlayotgan mutaxassislarining malakasini oshirishni ta'minlaydi;
- sertifikatlashtirish sohasida ishlaydigan ekspert-auditorlarni tayyorlaydi va boshqalar.

Institut tashkil qilinganiga ko'p vaqt o'tmaganligiga qaramay shu kunga qadar Respublika hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator hujjatlar yaratdi va yaratmoqda.

Bulardan tashqari institutda atamashunoslik va tarjimalar bo'limi tashkil qilingan bo'lib, unda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida o'zbek tilida yangi standartlar yaratish, mavjud me'yoriy hujjatlarni davlat tiliga tarjima qilish yo'lida dastlabki foydali ishlarni boshlab yuborilgan. Yaqinda shu sohalaridagi atama va ta'riflar to'plamining dastlabki nusxasini tayyorlab nashrga topshirildi. Bu hujjatlarning ahamiyati beqiyos bo'lib, shu sohalaridagi ishlarga qo'yilgan birinchi poydevorlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimining ilmiy-usuliyat markazi bo'lib, «O'zstandart» agentligi qoshidagi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot instituti (SMSITI) hisoblanadi. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot institutining tuzilmasi quyida keltirilgan.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot institutining tuzilmasi



Ходимларнинг чекланган жами сони — 23 киши, шу жумладан: бошқарув ходимлари — 18 киши, хизмат кўрсатувчи ходимлар — 3 киши, техник ходимлар — 2 киши.

* Молиялаштириш хўжалик фаолиятдан олинadиган ўз маблаглари ҳисобига амалга оширилади.

Стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш илмий tadqiqot instituti – SMSITI quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mahsulotlarni sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va yuritish;
- akkreditlash bo'yicha komissiya, mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinov va sotsiologik laboratoriyalar (markazlar) faoliyatlarida inspeksion nazoratida ishtirok etish;
- sertifikatlashtirish bo'yicha mutaxassislar va ekspert-auditorlarni attestatlash bo'yicha komissiyalarda ishtirok etish;
- sertifikatlashtirish bo'yicha mutaxassislarni va ekspert-auditorlarni sertifikatlashtirish idoralarida, sinash va sotsiologik laboratoriyalar (markazlar) da ishlash uchun o'qitish va tayyorlash;
- tashkilotlarga bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini va sifatini ta'minlash tizimlarini ishlab chiqishda uslubiy yordam ko'rsatish;
- usuliyatli tavsifdagi ma'lumotlarni ishlab chiqish va nashr qilish;
- yuqorida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha maslahatlar berish kabi vazifalarni bajaradi.

Стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш sohalarida ilmiy tadqiqot ishlari ham o'z yo'nalishiga egadir.

Institut har taraflama tashkiliy, uslubiy va moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha mustahkamlanmoqda hamda bu sohalarida ishlaydigan tajribali, bilimdon mutaxassislar bilan to'ldirilib, kelajakda mustaqil Respublika oldida turgan muhim muammolarni yechishga o'zining salmoqli hissasini qo'shadi degan umiddamiz.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlagan idoralar quyidagi vazifalarni amalga oshirishadilar:

- muayyan turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini ishlab chiqadi;
- BMS tizimida sertifikatlashtirilishi kerak bo'lgan muayan turdagi mahsulotlarni aniqlashda ishtirok etish;
- muayyan turdagi mahsulotni sertifikatlashtirishi o'tkaziladigan MH fondini aniqlash va yuritish;
- sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o'tkazish;
- muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish, berish va tan olish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning reestrini yuritish;
- berilgan mahsulotni sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot berish;
- O'z DSt 51-032 standartida o'rnatilgan tartib asosida sertifikatlashtirish ishlarining mehnat sarfi va qiymatining hisob-kitob me'yorlarini aniqlash;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat o'tkazish.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, O'z SMT qoidalarini bajarayotgan va O'z DSt 5.2 standarti talablariga javob beruvchi tashkilotlar sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sifatida akkreditlanishi ham mumkin.

Akkreditlangan sinash laboratoriyalari

Akkreditlangan sinash laboratoriyalari (markazlari) O'z SMTda quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishadi:

- mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha sinovlarni o'tkazish va sinov dalolatnomalari berish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot namunalarini, agar bu sertifikatlashtirish tartibida nazarda tutilgan bo'lsa, inspeksion (tekshirish) sinovlarini o'tkazish;
- sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirishda (sinovlarni o'tkazishning to'g'riligi borasida) ishtirok etish.

Sinash laboratoriyalari (markazlari) sifatida «O'zstandart» agentligi va uni hududiy idoralarining laboratoriyalari, ilmiy-tekshirish va konstruktorlik tashkilotlarining sinov markazlari, boshqa laboratoriyalar va mulkchilik ixtiyoriy shaklidagi markazlar akkreditlanishi mumkin.

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish idoralari

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishadi:

- sifat tizimlarini dastlabki baholashni o'tkazadi va sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun kontraktlar tuzadilar;
- ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish usuliyatlarini va sifat tizimlarini tekshirish dasturlarini ishlab chiqadilar;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarishning auditini o'tkazadi;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarish sertifikatlarini rasmiylashtiradi, sertifikatni beradi va tan oladi;
- sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradilar;
- sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot beradilar.

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sifatida «O'zstandart» agentligining hududiy idoralari, SMSITI, bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va boshqa ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga tobe bo'lmagan va belgilangan talablarga javob beradigan boshqa tashkilotlar akkreditlanishi mumkin.

Nazorat idoralari

O'z SMT da Nazorat idoralari quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradilar:

- sertifikatlashtirilgan mahsulot va sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish ustidan nazorat o'tkazish;
- Sertifikatlashtirish bo'yicha idoralari va sinash laboratoriyalari (markazlari) ustidan nazorat o'tkazish;
- buyurtmachilarning buyurtmalariga muvofiq ob'ektlarni tahlil qilish va baholash hamda to'g'rilovchi tadbirlarini nazorat qilish;
- nazorat natijalari bo'yicha appelyatsiyalarni ko'rib chiqish.

Bunday idoralar sifatida «O'zstandart» agentligining maxsus vakolatiga ega bo'lgan tashkilotlari, boshqarishning boshqa davlat idoralari, shuningdek, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarning bo'limlari va O'z DSt 5.4 standartida o'rnatilgan talablarga javob beruvchi boshqa tashkilotlar akkreditlanishi mumkin.

10-MAVZU. MAHSULOTLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH TARTIBLARI

Ma'ruza mavzusining rejasi:

1. Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari.

2. **O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi.**
3. **Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi umumiy qoidalari. Gigienik sertifikatni, veterinariya va fitosanitariya xulosalarini rasmiylashtirish va berish tartibi.**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, aqliy xujum, "B/B/B" texnikasi.*

Mahsulotlarini sertifikatlashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 6-iyuldagi 318-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirishni amalga oshirish sxema bo'yicha, qoidaga ko'ra, ikki bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich bir vaqtning o'zida, zaruriyatga ko'ra, veterinariya va fitosanitariya xulosalari tegishli ravishda davlat veterinariya nazorati va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlarida rasmiylashtirilgan holda «O'zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazorati organlarida gigienik sertifikat rasmiylashtirilishini o'z ichiga oladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati sub'ekti:

gigienik sertifikatni rasmiylashtirish uchun ariza bilan birgalikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlariga (keyingi o'rinlarda sertifikatlashtirish organlari deb ataladi) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish yuzasidan ariza berishga;

zarurat bo'lganda tegishli xulosalar olish uchun veterinariya va fitosanitariya nazorati organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ikkinchi bosqich — sertifikatlashtirish organlari tomonidan muvofiqlik sertifikati berishdir.

Sertifikatlashtirish organlari tadbirkorlik sub'ektlarining yozma arizasiga muvofiq davlat sanitariya nazorati organlarida, davlat veterinariya nazorati va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlarida, shuningdek tabiatni muhofaza qilish davlat organlarida sertifikatlashtirishni o'tkazish va barcha zarur xulosalarni olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko'rsatishga haqlidir.

Bunda namunalar tanlab olinishi, shuningdek ular to'g'ri tanlanganligi va ular tegishli davlat organlariga taqdim etilishi uchun sertifikatlash organlari javob beradilar. Ko'rsatib o'tilgan xizmatlarga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

To'qimachilik mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish sertifikatlash organlari tomonidan amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish organini tanlash arizachi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi istalgan vaqtda, sertifikatlashtirish organlari esa birinchi talabga ko'ra quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- ❖ muvofiqlik sertifikati majburiy tartibda bo'lishi kerak bo'lgan mahsulot turlarining ro'yxati yoki ro'yxatdan ko'chirma;
- ❖ akkreditatsiya qilish sohasiga taalluqli bo'lgan bir turdagi mahsulotni sertifikatlash qoidalari;
- ❖ sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar narxlari (tariflari) preyskuranti;
- ❖ davlat vakolatli organida akkreditatsiya qilinganlikni tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish organi ko'rsatib o'tilgan hujjatlar nusxalarini taqdim etganlik uchun nusxalarni tayyorlash xarajatlaridan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lov undirishga haqlidir.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ◆ ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjat nusxasi;
- ◆ mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- ◆ gigienik sertifikat nusxasi.

Ariza beruvchi tomonidan ayni bir vaqtda gigienik sertifikat va muvofiqlik sertifikati olishga ariza berilgan taqdirda gigienik sertifikat nusxasi, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan keyin taqdim etiladi.

Chetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- ◆ ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);
- ◆ gigiena sertifikatining nusxasi
- ◆ mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- ◆ O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga yetib kelganligi to'g'risida belgi qo'yilgan tovarning ilova hujjati (tovar-transport yuk xati, invoys, schyot-faktura) nusxasi.

Sertifikatlashtirish maqsadida sertifikatlashtirish organlariga standartlash bo'yicha rasmiy, «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar nusxalari taqdim etiladi, boshqa hollarda, shu jumladan o'z ehtiyojlari uchun, tasdiqlanmagan nusxalardan foydalanilishi mumkin.


Arizada nazarda tutilgan taqdirda, sertifikatlashtirish organi sertifikatlashtirish ishlarini gigienik sertifikat (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini kechiktirgan holda boshlashi mumkin. Bu holda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir. Sertifikatlashtirish organi ariza berilgan kundan boshlab ikki kun muddatda joyiga borib sertifikatsiya sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalarini tanlab oladi va identifikatsiya qiladi. Namunalar soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalari mahsulotga normativ hujjatlarda belgilanadi. Ariza beruvchi o'z mahsulotining tanlab olinishida va sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Bunda laboratoriyada maxfiylikni ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilishi kerak. Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchliligi uchun «O'zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan laboratoriya (markaz) javob beradi. Sinovlar protokollarini mas'ul mutaxassislar imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga akkreditatsiya qilingan laboratoriyalardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar mahsulotni alohida parametrlari bo'yicha sinovlar turli sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda sinovlarning ijobiy natijalari bilan birga barcha zarur protokollarning mavjudligi mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligining ijobiy bahosi hisoblanadi.

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek hujjatlarning to'liq bo'lmagan komplektini taqdim etish muvofiqlik sertifikati berishni rad etish uchun asos hisoblanadi, bu to'g'rida sertifikatlashtirish organi ariza beruvchiga aniq qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Xulosa berishni rad etganlik yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin. Sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlar va sinovlarning ijobiy natijalari asosida ikki ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiboti sxemasi



Sertifikatlash jarayonining umumiy muddati 10 kundan 30 kungacha tashkil etadi

Izohlar:

1. Ariza beruvchi zarur hollarda higienik xulosa olish uchun hududiy sanitariya nazorati organiga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza beradi.

Hududiy davlat sanitariya nazorati organi belgilangan tartibda joyiga borgan holda laboratoriya sinovlari o'tkazish uchun mahsulotlardan namuna oladi va ob'ektni tekshiradi.

1a. Chorva mahsulotlari uchun hududiy sanitariya nazorati organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan kundan keyingi kundan kechikmasdan tuman (shahar) veterinariya xizmati organiga buyurtmanoma jo'natadi.

1b. Veterinariya xizmati organi uch kun muddatda hududiy sanitariya nazorati organiga veterinariya xulosasini yoki xulosa berishni rad etishga sabab bo'lgan aniq qonun hujjatlari normalarini ko'rsatgan holda yozma javob yuboradi.

Veterinariya xizmati organi 20 kungacha izolyatsiyalash-cheklash (karantin) choralari belgilash huquqiga ega. Bunda veterinariya xulosasini berish tartiboti karantin muddati tugagunga qadar to'xtatib turiladi.

1v. O'simlik mahsulotlari uchun hududiy sanitariya organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan kundan keyingi kundan kechikmasdan tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat xizmati organiga buyurtmanoma jo'natadi.

1g. O'simliklar karantini davlat xizmati organi ikki kun muddatda fitosanitariya xulosasi yoki salbiy xulosa beradi.

2. Laboratoriya sinovlari, shuningdek veterinariya hamda fitosanitariya xulosalaridan ijobiy natija olinganda, hududiy sanitariya nazorati organi ariza beruvchiga higienik xulosa beradi.

5. Ariza beruvchi muvofiglik sertifikatini olish uchun sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan organiga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi. (Ariza higienik xulosa olish uchun beriladigan ariza bilan bir vaqtda berilishi mumkin).

6. Sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan organ 15 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda muvofiglik sertifikatini yoki aniq qonun hujjatlari normalarini ko'rsatgan holda yozma rad javobini beradi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish tartibi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish sertifikatlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish organini tanlash arizachi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi istalgan vaqtda, sertifikatlashtirish organlari esa arizachining birinchi talabi asosida quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) majburiy tarzda sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulot turlarining ro'yxati yoki ro'yxatdan ko'chirma;

b) Idora sertifikatlashtirish doirasiga taalluqli bo'lgan mahsulotni sertifikatlash qoidalari;

- v) sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar narxlari (tariflari) preyskuranti;
- g) davlat vakolatli organida akkreditatsiya qilinganlikni tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish organi, ko'rsatib o'tilgan hujjatlar nusxalarini taqdim etganda ularning nusxalarini tayyorlash uchun ketgan xarajatlarnigina so'rovchidan undirishga haqli.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi;
- mahsulotni yorliklash namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- gigienik sertifikat nusxasi.

Ariza beruvchi tomonidan ayni bir vaqtda gigienik sertifikat va muvofiqlik sertifikati olishga ariza berilgan taqdirda gigienik sertifikat nusxasi talab etilmaydi.

Chetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);
- mahsulotni yorliklash namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- bojxona hududiga yetib kelganligi to'g'risida belgi qo'yilgan ilova hujjat (tovar-transport yuk xati, invoys, schyot-faktura) lar nusxasi.

Arizada nazarda tutilgan taqdirda, sertifikatlashtirish organi sertifikatlashtirish ishlarini gigienik sertifikat (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini hisobga olgan holda kechiktirib boshlashi mumkin.

Bu holda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish organi ariza berilgan kundan boshlab ikki kun muddatda joyiga borib sertifikatlash sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalari tanlab oladi va identifikatsiya qiladi.

Namunalar soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalari mahsulotga me'yoriy hujjatlarda belgilanadi.

Ariza beruvchi o'z mahsulotining tanlab olinishida va sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchliligi uchun sinov utkazishga takdim kilingan laboratoriya (markaz) javobgar hisoblanadi. Sinovlar protokollarini mas'ul mutaxassislar imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga akkreditatsiya qilingan laboratoriyalardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar mahsulotni alohida parametrlari bo'yicha sinovlar turli sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda sinovlarning ijobiy natijalari bilan birga barcha zarur protokollarning mavjudligi mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligining ijobiy bahosi hisoblanadi.

Respublikada chetdan keltiriladigan, majburiy tartibda sertifikatlanishi kerak bo'lgan mahsulotga normativ hujjat mavjud bo'lmaganda, sifat va xavfsizlik bo'yicha sertifikatsiya sinovlari mahsulotning ana shunday turlari talablariga muvofiqligi yuzasidan amalga oshiriladi.

Arizachi tomonidan chetdan olib kelinayotgan mahsulotga zarur normativ hujjat yoki texnik tasnifnomalar taqdim etilmagan taqdirda, mazkur mahsulotni sertifikatlash mahsulotning ana shunday turlariga hujjatlar bo'yicha yoki gigienik sertifikat asosida, uni identifikatsiya qilgan holda amalga oshiriladi (oziq-ovqat mahsulotiga va oziq-ovqatga qo'shiladigan mahsulot uchun).

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek hujjatlarning to'liq bo'lmagan komplektini taqdim etish muvofiqlik sertifikati berishni rad etish uchun asos hisoblanadi, bu to'g'rida sertifikatlashtirish organi ariza beruvchiga aniq qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Xulosa berishni rad etganlik yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlar va sinovlarning ijobiy natijalari asosida ikki ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.

Muvofiqlik sertifikatini chetdan olib kelinayotgan mahsulotlarga mahsulot yaroqliligining kafolatli muddatiga, ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun esa 3 yilga beriladi.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berish uchun sertifikatlashtirish organi ariza beruvchida mahsulotni ko'plab ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar mavjudligini aniqlash maqsadida mahsulot ishlab chiqariladigan ob'ektlarni belgilangan tartibda tekshiradi. Tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi, undan muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalaniladi.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlik sertifikatida keltiriladi.

Tekshirishni o'tkazish muddati, ishlab chiqarishning shakli va toifalariga ko'ra, sinovlar uchun namunalar tanlab olingan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi kerak. Tekshirish o'tkazilganligi uchun to'lov amalda sarflangan vaqt bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar kal kulyatsiyasiga binoan undiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati sertifikatlashtirish organi tomonidan sinovlar natijalari olingan vaqtdan boshlab 5 ish kunidan oshmasligi kerak.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organi har yili kamida bir marta, mahsulotning sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida, sertifikatlashtirilgan mahsulotni inspeksiya nazorati tekshiruvini o'tkazadi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatining amal qilishi tasdiqlanishi yoki to'xtatib turilishi yoxud belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

Laboratoriya sinovlarini o'tkazganlik, sertifikatni rasmiylashtirganlik va berganlik uchun to'lov tartibi, litsenziya ajratmalari miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda "O'zstandart" agentligining yo'l-yo'riq hujjatlarida belgilanadi.

Chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etish

Chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etish Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi 122-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik uskunalar va ularning qismlariga xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish tartibi to'g'risida" Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik uskuna va uning qismlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga kiritishda ushbu Nizomga quyida ko'rsatilgan xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida akkreditatsiya qilingan xorijiy mamlakatlar sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda «O'zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlari (keyingi o'rinlarda sertifikatlashtirish organlari deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Texnologik uskuna va uning qismlari (keyingi o'rinlarda mahsulot deb ataladi) to'plamiga kiruvchi o'lchash va sinash vositalarini sertifikatlashtirish «Metrologiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuniga** va O'zbekiston Respublikasining o'lchashlar birligini ta'minlash bo'yicha normativ hujjatlariga muvofiq davlat sinovlari va metrologik attestatsiya natijalari yoki xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlari tomonidan berilgan sinovlar va attestatsiya ma'lumotlari natijalari to'g'risidagi taqdim etilayotgan hujjatlarni tan olish asosida amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan mahsulotlarga berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish uchun, ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga ushbu Nizomga muvofiq shakl bo'yicha buyurtmanoma beradi. Buyurtmanoma jismoniy yoki yuridik shaxs (keyingi o'rinlarda ariza beruvchi deb ataladi) tomonidan berilishi mumkin.

Buyurtmanomaga quyidagilar ilova qilinadi:

xorijiy mamlakatning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan sertifikatning asl nusxasi egasining yoki sertifikat bergan organing muhri bilan tasdiqlangan sertifikatning asli yoki nusxasi;

xorijiy mamlakatning ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjati nusxasi (mavjud bo'lsa);

etkazib berilayotgan uskunaning pasporti va G'yoki undan foydalanish bo'yicha yo'riqnomasi — davlat tili yoki rus tilidagi tarjimasi bilan;

xorijiy mamlakatning vakolatli organi tomonidan berilgan o'lchash vositalari turini tasdiqlovchi (metrologik attestatsiya) sertifikat — o'lchash vositalari turining davlat tiliga tarjima qilingan yo'riqnomasi bilan;

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga kirganligini belgilovchi tovarga ilova qilingan hujjat (tovar-transport hujjati, invoices, hisob-faktura);

O'zbekiston Respublikasi davlat sanitariya nazorati organi laboratoriyalarida o'tkazilgan sinov natijalarini o'zida aks ettirgan gigienik sertifikat nusxasi va O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan normativ hujjatlarda belgilangan boshqa talablarga muvofiqlik to'g'risidagi ma'lumotlar (tan olish uchun taqdim etilgan sertifikatda ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda).

Ariza beruvchi, agar mavjud bo'lsa, o'z xohishiga ko'ra qo'shimcha tarzda quyidagi hujjatlarni taqdim etishi mumkin:

mahsulotlarning texnik tavsiflari;

mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishda o'tkazilgan sinovlar bayonnomalari yoki xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarida bajarilgan sinovlar haqidagi hujjatlar;

xorijiy mamlakatning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organi tomonidan sifat menejmenti tizimiga (ishlab chiqarish uchun) berilgan sertifikat.

Agar qo'shimcha hujjatlarda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan aniq ko'rsatkichlar bo'yicha sinov natijalari mavjud bo'lsa, u holda sertifikatlashtirish organi qo'shimcha sinovlar o'tkazmasdan, ushbu xulosalardan muvofiqlik sertifikatini tan olish uchun foydalanishi mumkin.

Sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qilishda quyidagilarni nazarda tutadi:

ariza beruvchi taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'ri va to'liqligini aniqlash;

muvofiqligi bo'yicha sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarilgan mamlakatdagi normativ hujjatlar va talablarning O'zbekiston Respublikasida olib kirilayotgan mahsulotlar yuzasidan qabul qilingan normativ hujjatlarga va talablarga muvofiqligini taqqoslash.

Sertifikatlashtirish organi ariza beruvchi taqdim etgan hujjatlar va materiallarni tahlil qilish, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalash asosida bir ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda xorijiy muvofiqlik sertifikati tan olingani yoki tan olinmagani haqida qaror qabul qiladi.

Muvofiqlik sertifikatida ko'rsatilgan va ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar tahlilining ijobiy natijalari muvofiqlik sertifikatining tan olinishi uchun asos hisoblanadi.

Eksport qiluvchi mamlakatning sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatini tan olish uni O'zbekiston Respublikasining muvofiqlik sertifikatiga qayta rasmiylashtirish va davlat yagona reestriga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Identifikatsiyalash natijalariga ko'ra, ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan namunalarning tan olinayotgan sertifikatda, shuningdek buyurtmanomada va unga ilova qilinadigan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos kelmasligi aniqlansa, ariza beruvchiga muvofiqlik sertifikatining tan olinmasligi haqida asosli radnoma taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan mahsulotga xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan

olish tartibotlarini amalga oshirish uchun to'lov tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga kiritishda xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olishinishi

Avstriya Azerbaydjan Avstraliya Argentina Belgiya Belarus Braziliya Velikobritaniya Vengriya Vyetnam	Germaniya Gonkong Gretsiya Daniya Izrail Indiya Indoneziya Irlandiya Ispaniya Italiya	Kanada Kitayskaya Narodnaya Respublika Lyuksemburg Malayziya Meksika Niderlando' Novaya Zelandiya Norvegiya OAE	Portugaliya Rossiyskaya Federatsiya Rumo'niya Singapur Slovakiya Sloveniya SShA Tayvan Turtsiya Ukraina	Finlyandiya Frantsiya Xorvatiya Chexiya Chili Shveytsariya Shvetsiya YuAR Yujnaya Koreya Yaponiya Polsha
---	--	---	--	--

11-MAVZU. SERTIFIKATLASHTIRISH SXEMALARI VA OMILLARI

Ma'ruza mavzusining rejası:

1. Sertifikatlashtirish sxemalar.
2. Sertifikatlashtirish omillari. Sertifikatlashtiriluvchi mahsulot. Sertifikatlashtirishning me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanishi.
3. Sertifikatlashtiriluvchi mahsulot ishlab chiqarish sharoitlarini tekshirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, blits so'rovi, namoyish etish, savol-javob va "Qanday" texnikasi.*

Sertifikatlashtirish tashkil qilish va o'tkazish belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan, turdan maxsulotlarni sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirishning ma'lum chizma (sxema)lari turdosh maxsulotlarga talablarni o'z ichiga olgan turdosh maxsulotlarni sertifikatlashtirish koidalari va boshka me'yoriy aktlarda kursatiladi (joriy etiladi). Bunda sxemaning murakkabligi tekshirishlar xajmi xamda ushbu maxsulotning xavfli darajasidan kelib chiqadi.

Sertifikatlashtirish sxemasini xar bir aloxida xolati sertifikatlashtirish idorasi, (sertifikatlashtirish organi arizachining taklifi, yetkazib beriladigan maxsulot (postavka)) xajmi va muddat, tekshiruv uslublari, ishlab chikarishning uziga xos xususiyatlari va uning davomiyligining buzilish extimollari xamda ushbu maxsulotning iste'molchilarga xavfli darajasini xisobga olgan xolda tanlaydi.

Xalqaro tizim yoki bitimlar doirasiga sertifikatlashtirish ularda ko'zda tutilgan sxemalar bo'yicha bajariladi. Sertifikatlashtirishda belgilangan me'yoriy xujjatlar asosida sertifikatlashtirilayotgan maxsulotning talablarga muvofiqligi tasdiklanadi. Bu talablar sertifikatlashtirishda tekshirilayotgan ko'rsatkichlar ro'yxati, nazorat va sinov metodlarini (uslublari) o'z ichiga oladi.

Me'yoriy xujjatlarda sertifikatlashtirish sinovlari xaqidagi bo'lim yuk bo'lgan xolatda yoki davlatlararo standart qo'llanilganda sertifikatlashtirish idorasi me'yoriy xujjatda yoki xalqaro standartda ko'rsatilgan barcha kompleks xarakteristikalar ichidan birinchi navbatda xavfsizlik talablariga tugri keladigan ko'rsatkichlarni tanlaydi.

Sertifikatlashtirishda me'yoriy xujjatdan tashkari maxsulot doimiy talablar o'rnatadigan me'yoriy-xukukiy aktlar va boshka rasman qabul qilingan me'yoriy xujjatlar asosida ish yuritish

lozim. Bir xil ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkaziladigan sinovlarning qayta takrorlanavermasligi (dublirovaniya) uchun, akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalari boshqa akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan sinovlar natijalarini o'zaro tan olishlari kerak. Sertifikatlashtirish ishlariga qilingan mexnatga xaq to'lash arizachi tomonidan qonunda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha ISO tarkibidagi qo'mita tomonidan tayyorlangan hujjatda uchinchi tomon tarafidan amalga oshiriladigan sertifikatlashtirishning sakkizta sxemasi berilgan bo'lib, respublikamizda ham aynan shu 8 ta sxema tadbqiq etilgan. To'qimachilik mahsulotlarini xususiyati, namuna turlari, sinov o'tkazish usullariga qarab quyidagi sertifikatlashtirish sxemalaridan foydalanish mumkin:

Sxema № 1 tipovoy namunani sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va maxsulotni ASL da shart ko'rsatkichlar, birinchi navbatda xavfsizlik bo'yicha sinov o'tishini ko'zda tutadi. Ushbu sxema maxsulotga aniq belgilangan MX yuk bo'lgan xolatlarda xam qo'llaniladi.

Sxema № 2 tipovoy namunani sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va shart ko'rsatkichlar bo'yicha tekshirib ko'rish uchun maxsulotni ASL da sinovdan o'tkazishni ko'zda tutadi. Ushbu sxema asosida savdo soxasidan olingan namunalar sinovini o'tkazish yuli bilan maxsulotning inspeksion nazorat o'tkaziladi.

Sxema № 3 ishlab chiqarilayotgan maxsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va shart ko'rsatkichlar xamda ishlab chiqarishni tekshirish uchun maxsulotni ASL da sinovdan o'tkazishni ko'zda tutadi. Ushbu sxema asosida muvofiklik belgisi qo'llanilishi va korxonada inspeksion nazorati o'tkazish, xamda ishlab chiqaruvchidan olingan maxsulot sinovini o'tkazish ko'zda tutiladi.

Sxema № 4 ishlab chiqarilayotgan maxsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va shart ko'rsatkichlar xamda ishlab chiqarishni tekshirish maksadida maxsulotni ASL da sinovni utkazishni ko'zda tutadi. Ushbu sxema asosida savdo soxasidan yoki bevosita ishlab chiqarishdan olingan namunalar tekshiruvini utkazish yuli bilan mahsulotni inspeksion nazoratidan o'tkazishni va muvofiqlik belgisini qo'llanishni xam nazorat qilish ko'zda tutilgan.

Sxema № 5 ishlab chiqarilayotgan maxsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va ishlab chiqarish shart ko'rsatgichlar bo'yicha maxsulotni ASL da sinovdan o'tkazishni yoki sifat tizimini baxolashni nazarda tutadi. Ushbu sxema asosida ishlab chiqarish va maxsulot sinovini o'tkazish bilan birgalikda inspeksion nazorat xam ko'zda tutilgan.

Sxema № 6 sifat tizimini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va uni baxolash xamda tegishli inspeksion nazorat o'tkazishni ko'zda tutadi.

Sxema № 7 maxsulot partiyasini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va maxsulotni sinovdan o'tkazishni ko'zda tutadi.

Sxema № 8 xar bir aloxida mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi.


Sxema № 9 maxsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va maxsulotni xavfsizlik talablari bo'yicha muvofiqlik deklaratsiyadan o'tkazishni ko'zda tutadi. Ushbu sxemada, ishlab chiqaruvchining xoxishiga asosan, muvofiqlik belgisi qo'llanilishi mumkin.


№ 3; 4; 5; 7; 8; 9; sxemalari bo'yicha sertifikatlashtirilgan maxsulot muvofiqlik belgisi bilan markalanishi mumkin.

To'qimachilik mahsulotlari asosan uchinchi va yettinchi sxemalari qo'llanilmoqda.

Hozirgi zamon adabiyotida har bir sertifikatlashtirish sxemasining afzalligi va kamchiliklari tahlil etilgan. Bularning ichida eng mukammal va murakkab beshinchi sxemadir. Bu sxema to'liq bo'lganligi uchun uni asos qilib olib, hozirgi zamon xalqaro sertifikatlashtirish tizimini yaratilmoqda.

Sertifikatlashtirish tizimlarini boshqaruvchi idora muayyan turdagi mahsulot sifatining nazoratini tashkil etish, standartlarga rioya qilishni majburiy talab etishini, iste'molchi va savdo talablarini e'tiborga olib, mamlakatdagi amalda bo'lgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar asosida o'z ishini tashkil etadi.





Sertifikatlashtirish idorasi sinovlarni o'tkazish, korxonadagi va savdo shahobchasidagi mahsulotning sifatini nazorat qilish hamda nazoratni tashkil qilish va shunga o'xshashlarni bajarib uchinchi tomon vazifasini bajaradi.

**Muvofiqlikni sertifikatlashtirish yo'li bilan mahsulot
muvofiqligini tasdiqlash sxemalari.**

<i>№ sxema</i>	Akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalaridagi sinovlar va muvofiqlikni isbotlashning boshqa usullari	Ishlab chiqarishni tekshirish yoki sifat tizimini baxolash.	Sertifikatlashtirish mahsulotning inspeksion nazorati (ishlab chiqarish, sifat tizimlari).
1	Sinovlar tipi	---	---
2	Sinovlar tipi	---	Savdo soxasidan (iste`molchidan) olingan namunalar sinovi
3	Sinovlar tipi	Ishlab chiqarishni tekshiruvchi	Maxsulot tayyorlovchidan olingan namunalarni sinash. Ishlab chiqarishni tekshirish.
4	Sinovlar tipi	Ishlab chiqarishni tekshiruvchi	Savdo soxasidan (iste`molchidan) xamda ishlab chiqarishdan olingan namunalar sinovi.
5	Sinovlar tipi	Ishlab chiqarishni tekshirish yoki sifat tizimini baxolash	Namunalarni sinash va sifat tizimini (ishlab chiqarishni tekshirish) baxolash.
6	---	Sifat tizimini baxolash	Sifat tizimini xolatini baxolash.
7	Partiyani sinovdan o`tkazish	---	---
8	Xar bir namuna sinovi	---	---
9	Muvofiqlik xaqida deklaratsiyani unga ilova qilingan xujjatlar bilan birgalikda ko`rib chiqish.	---	---

12- MAVZU. MAHSULOTLARNI MAJBURIY SERTIFIKATLASHTIRISH TARTIBI

Ma`ruza mavzusining rejasi:

1. **Majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish.**
2. **Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari.**
3. **Chetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish.**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, o'z-o'zini nazorat, BBB texnikasi.*

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil etish "O'zstandart" agentligi zimmasiga yoki uning topshirig'iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga (ularni albatta akkreditatsiya qilgan holda) yuklatiladi.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarning ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish yoki saqlash xavfsizligini ta'minlovchi talablar bo'lmagan taqdirda "O'zstandart" agentligi davlat boshqaruvining tegishli organlari bilan birgalikda bunday talabnomalarning kechiktirmay ishlab chiqilishi va amalga kiritilishini ta'minlaydi.

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari

Majburiy sertifikatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun uni sinashni, nazorat yo'sinidagi tekshiruvni va sertifikatlangan mahsulot ustidan nazoratni o'z ichiga oladi.

Sinovlar akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) tomonidan tegishli normativ hujjatlarda belgilangan usullarda, bunday hujjatlar bo'lmagan taqdirda esa tegishli sertifikatlashtirish organlari ishlab chiqqan usullarda amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlari uchun arizachi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda haq to'laydi.

Arizachi o'z mahsulotini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishga sarflagan mablag'lar summasi shu mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, ammo muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan mahsulotni targ'ib qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar quyidagi hollarda:

sertifikatlashtirishga taqdim etilmagan bo'lsa;

sertifikatlashtirish talablariga muvofiq emasligi sababli sertifikatlashtirishdan o'tmagan bo'lsa;

agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki uning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan (bekor qilingan) bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinishi mumkin emas.

Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi tayyorlovchilar (tadbirkorlar):

- ✓ majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim etishlari;
- ✓ sertifikatlangan mahsulotni sertifikatlash organlarining o'zi yoki ular e'tirof etgan organlar bergan sertifikat mavjud bo'lgan taqdidagina realizatsiya qilishlari va uning normativ hujjatlar talablariga mos bo'lishini ta'minlashlari;
- ✓ sertifikatlangan mahsulotni, basharti, u normativ hujjat talablariga muvofiq kelmasa, shuningdek sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoxud uning amal qilishi sertifikatlashtirish organining qarori bilan to'xtatib qo'yilgan yoki bekor qilingan bo'lsa, realizatsiya qilishni to'xtatib qo'yishlari yoki tugatishlari;

- ✓ majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtiruvchi va sertifikatlangan mahsulotni nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari o'z vakolatlarini moneliksiz bajarishlari uchun sharoit yaratishlari;
- ✓ sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlariga yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o'zgartishlar haqida sertifikatlashtirish organini belgilangan tartibda xabardor etishlari;
- ✓ ilova qilingan texnik hujjatda mahsulot muvofiq kelishi lozim bo'lgan sertifikatlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda normativ hujjatlarni ko'rsatishlari va bu ma'lumotlar iste'molchi (xaridor, buyurtmachi) e'tiboriga yetkazilishini ta'minlashlari shart.

13- MAVZU. CHET ELDAN KELTIRILGAN MAHSULOTLARNI MAJBURIY SERTIFIKATLASHTIRISH TARTIBI

Ma'ruza mavzusining rejasi:

1.Chetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish.

2.Xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish tartibi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, namoyish etish, aqliy xujum, "Qanday" texnikasi.*

Chetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berish uchun tuziladigan kontraktlar (shartnomalar) shartida mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi, "O'zstandart" agentligi tomonidan berilgan yoki e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bo'lishi nazarda tutilishi kerak.

Milliy muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari yoki boshqa davlatlarning "O'zstandart" agentligi tomonidan e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari arizachi (mahsulot yetkazib beruvchi) tomonidan bojxona nazorati organlariga yukka taalluqli bojxona deklaratsiyasi bilan birgalikda taqdim etiladi va ular mahsulotni respublika hududiga olib kirishga ruxsatnoma olish uchun zarur hujjatlar hisoblanadi.

Chetdan olib kelinayotgan mahsulotning xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan taqdirda bojxona nazorati organlari bu xususda "O'zstandart" agentligini xabardor etadilar hamda mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazish yoki chet el sertifikatini e'tirof etish to'g'risidagi masala sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalariga muvofiq hal etilgunga qadar bu mahsulotni chetdan olib kirishni taqiqlab qo'yadilar. Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta'minoti. Quyidagi ishlar:

- sertifikatlashtirishni rivojlantirishning istiqbollarini, uni o'tkazish qoidalar va tavsiyalarini ishlab chiqish;
- sertifikatlashtirish sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;
- xalqaro (mintaqaviy) sertifikatlashtirish tashkilotlari ishida qatnashish hamda chet el milliy sertifikatlashtirish organlari bilan birgalikda ishlar o'tkazish;
- sertifikatlashtirish yuzasidan xalqaro (mintaqaviy) qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ishlab chiqishda qatnashish;
- sertifikatlashtirish yuzasidan umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa ishlar olib borish;

- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishi ustidan hamda sertifikatlangan mahsulot ustidan davlat tekshiruvi va nazorati olib borish ishlari davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanadi.

Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning, sotuvchilarning, ijrochilarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishlari ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini "O'zstandart" agentligining davlat inspektorlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiradi.

Sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimlari, ishlab chiqarish, akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish organlari ustidan nazorat yo'sinidagi tekshiruvni sifat bo'yicha ekspert-auditorlar "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish tartibi.

Xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan mahsulotlarga berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish uchun, ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga buyurtmanoma beradi. Buyurtmanoma jismoniy yoki yuridik shaxs (keyingi o'rinlarda ariza beruvchi deb ataladi) tomonidan berilishi mumkin.

Buyurtmanomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- ✓ xorijiy mamlakatning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan sertifikatning asl nusxasi egasining yoki sertifikat bergan organning muhri bilan tasdiqlangan sertifikatning asli yoki nusxasi;
- ✓ xorijiy mamlakatning ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjati nusxasi (mavjud bo'lsa);
- ✓ etkazib berilayotgan uskunaning pasporti vaG'yoki undan foydalanish bo'yicha yo'riqnomasi — davlat tili yoki rus tilidagi tarjimai bilan;
- ✓ xorijiy mamlakatning vakolatli organi tomonidan berilgan o'lchash vositalari turini tasdiqlovchi (metrologik attestatsiya) sertifikat — o'lchash vositalari turining davlat tiliga tarjima qilingan yo'riqnomasi bilan;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga kirganligini belgilovchi tovarga ilova qilingan hujjat (tovar-transport hujjati, invoys, hisob-faktura);

O'zbekiston Respublikasi davlat sanitariya nazorati organi laboratoriyalarida o'tkazilgan sinov natijalarini o'zida aks ettirgan gigienik sertifikat nusxasi va O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan normativ hujjatlarda belgilangan boshqa talablarga muvofiqlik to'g'risidagi ma'lumotlar (tan olish uchun taqdim etilgan sertifikatda ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda).

Ariza beruvchi, agar mavjud bo'lsa, o'z xohishiga ko'ra qo'shimcha tarzda quyidagi hujjatlarni taqdim etishi mumkin:

- mahsulotlarning texnik tavsiflari;
- mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishda o'tkazilgan sinovlar bayonnomalari yoki xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarida bajarilgan sinovlar haqidagi hujjatlar;
- xorijiy mamlakatning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organi tomonidan sifat menejmenti tizimiga (ishlab chiqarish uchun) berilgan sertifikat.

Agar qo'shimcha hujjatlarda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan aniq ko'rsatkichlar bo'yicha sinov natijalari mavjud bo'lsa, u holda sertifikatlashtirish organi qo'shimcha sinovlar o'tkazmasdan, ushbu xulosalardan muvofiqlik sertifikatini tan olish uchun foydalanishi mumkin.

Sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qilishda quyidagilarni nazarda tutadi:

ariza beruvchi taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'ri va to'liqligini aniqlash;

muvofigligi bo'yicha sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarilgan mamlakatdagi normativ hujjatlar va talablarning O'zbekiston Respublikasida olib kirilayotgan mahsulotlar yuzasidan qabul qilingan normativ hujjatlarga va talablarga muvofigligini taqqoslash.

Sertifikatlashtirish organi ariza beruvchi taqdim etgan hujjatlar va materiallarni tahlil qilish, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalash asosida bir ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda xorijiy muvofiglik sertifikati tan olingani yoki tan olinmagani haqida qaror qabul qiladi.

Muvofiglik sertifikatida ko'rsatilgan va ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar tahlilining ijobiy natijalari muvofiglik sertifikatining tan olinishi uchun asos hisoblanadi.

Eksport qiluvchi mamlakatning sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiglik sertifikatini tan olish uni O'zbekiston Respublikasining muvofiglik sertifikatiga qayta rasmiylashtirish va davlat yagona reestriga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Identifikatsiyalash natijalariga ko'ra, ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan namunalarning tan olinayotgan sertifikatda, shuningdek buyurtmanomada va unga ilova qilinadigan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos kelmasligi aniqlansa, ariza beruvchiga muvofiglik sertifikatining tan olinmasligi haqida asosli radnoma taqdim etiladi.

14-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKKREDITLASHTIRISH JARAYONINING TARTIB QOIDALARI

Ma'ruza mavzusining rejasi:

- 1. O'zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish jarayonining tartib qoidalari.**
- 2. Akkreditatsiyalashni o'tkazish tartibi.**
- 3. Akkreditatsiya guvohnomasini berish tartibi.**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, blits so'rov, "Insert" ta'lim texnologiyasi.*

Korxonalarda tashkil etilayotgan sinov laboratoriyalarida mahsulotlarni sinash va sertifikatlashtirish uchun laboratoriyalar belgilangan tartibda akkreditatsiya qilinishi lozim.

Akkreditatsiya tizimi

- "O'zstandart" agentligi O'zbekiston Respublikasining akkreditatsiya bo'yicha milliy organi bo'lib, amaldagi qonunchilikka binoan quyidagi faoliyatni bajaradi:
- akkreditatsiya sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;
- ijrochi va o'lchov laboratoriyalarining sertifikatlashtirish bo'yicha organlari, nazorat organlari, yuklashdan avvalgi inspeksion organlar va ekspert-auditorlarning akkreditatsiyalashni o'tkazish bo'yicha umumiy qoida va tartiblarini o'rnatadi;
- O'zbekiston Respublikasi Akkreditatsiya milliy tizimiga rahbarlikni amalga oshiradi;
- Boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda akkreditatsiya va ishlarni o'zaro tan olish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;
- bir xildagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha organlarni, sinov laboratoriyalari (markazlari)ni, sertifikatlashtirish sohasi nazorat organlarini hamda sifat buyicha ekspert-auditorlarni akkreditatsiyalaydi;
- sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditatsiyalangan organlarning sinov laboratoriyalari (markazlari) davlat reestrini olib boradi;
- bir xildagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditatsiyalangan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini amalga oshiradi.
- Amaldagi qonunchilikka binoan akkreditatsiya bo'yicha ishlarni olib borish "O'zstandart" agentligining akkreditatsiya va inspeksion tekshiruv boshqarmasiga yuklatilgan.
- **Milliy akkreditatsiya organi** - O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi;

- **Akkreditatsiya qilish kengashi** - Milliy akkreditatsiya organi, muvofiqlikni baholash sohasida vakolatli vazirliklar va idoralar hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar vakillaridan iborat bo'lgan doimiy ishlaydigan organ, akkreditatsiya qilish va inspeksiya nazoratini o'tkazish ishlari natijalarini ko'rib chiqish hamda tavsiya tusidagi xulosalar berish uning asosiy vazifasi hisoblanadi;
- **ariza beruvchi** - akkreditatsiya olishga talabgor bo'lgan yuridik shaxs;
- **muvofiqlikni baholash organi** - yuridik shaxslar hisoblangan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiyaqilingan inspeksiya organlari, sinov va o'lchov laboratoriyalari (markazlari), mahsulotlarni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;
- **metrologik xizmat** - yuridik shaxslarning davlat organlari va metrologik xizmatlari tarmog'i hamda ularning o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan faoliyati;
- **akkreditatsiya qilish sohasi** - akkreditatsiya qilishda Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadigan muvofiqlikni baholash organining faoliyati sohasi;
- **akkreditatsiya qilish ob'ekti** - muvofiqlikni baholash organi va metrologik xizmat;
- **akkreditatsiya qilish shartlari** - texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlarda belgilangan talablar majmui. Akkreditatsiya qilish ob'ekti ushbu talablarga muvofiq bo'lishi kerak;
- **akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma** - akkreditatsiya qilish sohasidagi ishlarni bajarish uchun muvofiqlikni baholash organining va metrologik xizmatning malakali ekanligini tasdiqlovchi hujjat;
- **sifat bo'yicha ekspert-auditor** - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazilgan, muvofiqlikni baholash sohasidagi ishlarni bajarish uchun tegishli malakaga ega bo'lgan mutaxassis;
- **texnik ekspert** - muvofiqlikni baholash sohasidagi ishlarni tashkil etishga, jarayonga yoki faoliyatga doir maxsus bilimlarga va tajribaga ega bo'lgan jismoniy shaxs;
- **xodimlar** - muvofiqlikni baholash ishlarini o'tkazish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar;
- **birinchi tomon** - ishlab chiqaruvchining yoki xizmatlar ko'rsatuvchining manfaatlarini ifodalovchi yuridik shaxslar;
- **ikkinchi tomon** - muvofiqligi baholanayotgan ob'ektdan iste'molchi sifatida manfaatdor bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;
- **uchinchi tomon** - birinchi va ikkinchi tomondan mustaqil bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Akkreditatsiya qilish akkreditatsiya qilinayotgan sinov laboratoriyasining malakali ekanligini va uning mustaqilligini rasman tasdiqlash maqsadida o'tkaziladi.

Quyidagilar akkreditatsiya qilishning umumiy shartlari hisoblanadi:

- shtatida akkreditatsiyaning ariza berilayotgan sohasida malakali xodimlarning mavjudligi;
- b) sifat menejmentining amaldagi tizimi mavjudligi;
- v) muvofiqligi baholanayotgan to'qimachilik mahsulotlari uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning mavjudligi.
- To'qimachilik mahsulotlarini sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish uchun quyidagilar uchun qo'shimcha shartlar hisoblanadi:
- a) akkreditatsiya qilinayotgan sinov laboratoriyalarining ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, ijro etuvchilar va iste'molchilardan mustaqilligi;
- v) shtatida sifat bo'yicha kamida ikki nafar ekspert-auditorning mavjudligi;
- g) texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatda belgilangan baholanayotgan ob'ektning asosiy ko'rsatkichlari aksariyat qismini belgilovchi, o'zining belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasining (markazining) mavjudligi;

- d) baholanayotgan ob'ekt asosiy ko'rsatkichlarining yetishmayotgan qismini aniqlashni ta'minlovchi akkreditatsiya qilingan o'zga sinov laboratoriya (markaz)lari bilan hamkorlik qilish to'g'risidagi bitimlarning mavjudligi.

Sinov laboratoriyalari akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2015 yil 14-oktyabrdagi 292-sonli "Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda ularning faoliyatini inspeksiya nazoratidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya qilish akkreditatsiya qilinayotgan sinov laboratoriyasining malakali ekanligini va uning mustaqilligini rasman tasdiqlash maqsadida o'tkaziladi.

Quyidagilar akkreditatsiya qilishning umumiy shartlari hisoblanadi:

- a) shtatida akkreditatsiyaning ariza berilayotgan sohasida malakali xodimlarning mavjudligi;
- b) sifat menejmentining amaldagi tizimi mavjudligi;
- v) muvofiqligi baholanayotgan to'qimachilik mahsulotlari uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning mavjudligi.

To'qimachilik mahsulotlarini sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish uchun quyidagilar uchun qo'shimcha shartlar hisoblanadi:

- a) akkreditatsiya qilinayotgan sinov laboratoriyalarining ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, ijro etuvchilar va iste'molchilardan mustaqilligi;
- v) shtatida sifat bo'yicha kamida ikki nafar ekspert-auditorning mavjudligi;
- g) texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatda belgilangan baholanayotgan ob'ektning asosiy ko'rsatkichlari aksariyat qismini belgilovchi, o'zining belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasining (markazining) mavjudligi;

d) baholanayotgan ob'ekt asosiy ko'rsatkichlarining yetishmayotgan qismini aniqlashni ta'minlovchi akkreditatsiya qilingan o'zga sinov laboratoriya (markaz)lari bilan hamkorlik qilish to'g'risidagi bitimlarning mavjudligi.

Sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi (3.1- jadval):

- akkreditatsiya qilishga buyurtmanoma berish;
- taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning butligini va to'liqligini tahlil qilish hamda akkreditatsiya qilish ishlarini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish yoki taqdim etilgan hujjatlarni puxtalashtirish uchun qaytarish, ekspertiza dalolatnomasini rasmiylashtirilgan holda taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish;
- sinov laboratoriyasini baholash, baholash dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda sinoab laboratoriyasini baholash uchun komissiya tuzish;
- sinov laboratoriyasini baholash natijalarini va tuzatish ishlari (baholashda nomuvofiqlar aniqlangan taqdirda) samaradorligini tahlil qilish Milliy akkreditatsiya organi tomonidan ariza beruvchini akkreditatsiya qilish yoki Akkreditatsiya qilish kengashi tavsiyalarini hisobga olgan holda akkreditatsiya qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish;
- akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani rasmiylashtirish, ro'yxatdan o'tkazish va berish.

Akkreditatsiya qilish

SXEMASI

Bosqichlar	Sub`ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddati
1-bosqich	Akkreditatsiya olishga talabgorlik qiluvchi yuridik shaxs - Ariza beruvchi	Akkreditatsiya olish uchun zarur bo'lgan tegishli hujjatlarni tayyorlaydi. Zarur hujjatlar ilova qilingan buyurtmanomani bevosita, olinganligi to'g'risida bildirishnoma olingan holda pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda Milliy akkreditatsiya organiga taqdim etadi.	Ariza beruvchining xohishiga ko'ra
2-bosqich	Milliy akkreditatsiya organi	1. Akkreditatsiya qilishga taqdim etilgan buyurtmanomani va hujjatlarni ko'rib chiqadi hamda: akkreditatsiya qilish bo'yicha ishlarni bajarish; hujjatlar but bo'lmaganida ularni puxta ishlash uchun qaytarish to'g'risida qaror qabul qiladi.	3 ish kuni mobaynida
		2. Ekspertiza natijalari bo'yicha xulosani rasmiylashtirgan holda hujjatlar komplektini ekspertizadan o'tkazadi.	To'lov to'langan kundan boshlab 20 ish kuni mobaynida
		3. Ekspertizaning natijasi salbiy bo'lganda ariza beruvchining akkreditatsiya shartlariga nomuvofiqligi sabablarini ko'rsatgan holda unga yozma bildirishnoma yuboradi va aniqlangan nomuvofiqlarni bartaraf etish uchun 30 kundan ortiq bo'lmagan muddat beradi.	3 ish kuni mobaynida
		4. Ekspertiza natijalari bo'yicha belgilangan nomuvofiqliklar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni takroran ko'rib chiqadi.	Hujjatlar tushgan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida
3-bosqich	Milliy akkreditatsiya organi	1. Ekspertizaning ijobiy natijalari bo'yicha akkreditatsiya ob'ektini joyning o'zida baholash uchun komissiya tuzadi.	10 ish kuni mobaynida
		2. Joyning o'zida baholaydi va natijalar bo'yicha baholash dalolatnomasini rasmiylashtiradi.	20 ish kundan ortiq bo'lmagan muddatda
4-bosqich	Milliy akkreditatsiya organi	1. Baholash yakunlari Akkreditatsiya qilish kengashida ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.	5 ish kuni mobaynida

		2. Akkreditatsiya qilish kengashi tavsiyalarini hisobga olgan holda: akkreditatsiya to'g'risida; nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun belgilangan muddatni berish to'g'risida qaror qabul qiladi.	3 ish kuni mobaynida
	Ariza beruvchi	3. Aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilganligi to'g'risidagi tegishli hujjatlarni taqdim etadi.	30 ish kuni mobaynida
	Milliy akkreditatsiya organi	4. Nomuvofiqliklar bartaraf etilganligi to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqadi va joyning o'ziga chiqib nazorat dalolatnomasini rasmiylashtiradi.	Hujjatlar tushgan kundan boshlab 5 ish kuni mobaynida
		5. Baholash yakunlari Akkreditatsiya qilish kengashida ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.	
		6. Akkreditatsiya qilish kengashi tavsiyalarini hisobga olgan holda: akkreditatsiya qilish to'g'risida; akkreditatsiyani rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.	
5-bosqich	Milliy akkreditatsiya organi	Akkreditatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda akkreditatsiya to'g'risida guvohnoma beradi.	3 ish kuni mobaynida

Akkreditatsiya qilishning har bir navbatdagi bosqichi oldingi bosqichning natijalari ijobiy bo'lgan taqdirda bajariladi. Akkreditatsiya qilish (akkreditatsiya qilish sohasini kengaytirish) ishlari uchun to'lov ariza beruvchi tomonidan bosqichma-bosqich, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ariza beruvchi, akkreditatsiya qilish natijalaridan qat'i nazar, akkreditatsiya bo'yicha ishlarni o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlarni bosqichma-bosqich tuziladigan shartnomaga muvofiq to'lashi shart.

Sinov laboratoriyasini akkreditatsiyadan o'tkazishda ariza beruvchi ushbu belgilangan shakl bo'yicha akkreditatsiya qilishga buyurtmanomani Milliy akkreditatsiya organiga yuboradi, talab etilgan hujjatlar va ma'lumotlarni ilova qiladi. Ariza beruvchi akkreditatsiya qilishga buyurtmanomani, unga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda, bevosita, pochta aloqasi vositasi orqali yoki elektron shaklda berishi mumkin. Buyurtmanoma elektron shaklda berilgan taqdirda Milliy akkreditatsiya organi hujjatlarning rasmi olingan versiyasini ekspertizaga qabul qiladi, so'ngra ularni akkreditatsiya ob'ekting muvofiqligi baholanadigan joyga borgan vaqtda asl nusxasi bilan taqqoslaydi. Milliy akkreditatsiya organi elektron shakldagi buyurtmanoma olingani to'g'risida ariza beruvchi xabardor qilinishini ta'minlaydi.

Sinov yoki o'lchov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish uchun buyurtmanomaga quyidagi hujjatlar va ma'lumotlar ilova qilinadi:

a) akkreditatsiya sohasini belgilovchi akkreditatsiya qilish so'ralayotgan sinovlar usullari (metodikalari) yoki o'lchovlar turlari ro'yxati;

- b) sinov yoki o'ltiruv laboratoriyasi (markazi)ning yoki metrologik xizmatning pasporti;
- v) sifat menejmenti tizimi tartib-taomillaridan iborat bo'lgan sifat bo'yicha qo'llanmalar.

Ariza beruvchi o'z xohishiga ko'ra akkreditatsiya qilish ob'ektiga taalluqli qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Buyurtmanomani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Milliy akkreditatsiya organi tomonidan 3 ish kuni mobaynida akkreditatsiya qilish ishlarini o'tkazish yoki hujjatlar to'liq bo'lmagan taqdirda ularni puxtalashtirishga qaytarish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Akkreditatsiya qilish ishlarini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Milliy akkreditatsiya organi ekspertiza bo'yicha xizmatlar uchun to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 20 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda taqdim etilgan hujjatlarning ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlaydi. Ekspertiza natijalari xulosa bilan rasmiylashtiriladi. Ekspertiza Milliy akkreditatsiya organi mutaxassislari tomonidan yoki uning topshirig'i bo'yicha boshqa vakolatli tashkilotlarning sifat bo'yicha ekspert-auditori tomonidan amalga oshiriladi. Ekspertiza boshqa vakolatli tashkilotlarning sifat bo'yicha ekspert-auditori tomonidan o'tkazilgan taqdirda to'lov ariza beruvchi tomonidan ushbu tashkilotga o'tkaziladi.

Ekspertiza natijalari salbiy bo'lgan taqdirda Milliy akkreditatsiya organi 3 ish kuni mobaynida ariza beruvchiga uning akkreditatsiya qilish shartlariga nomuvofiqligi to'g'risida asoslangan sabablarini ko'rsatgan holda yozma bildirishnoma yuboradi. Bunda ariza beruvchiga ko'rsatilgan nomuvofiqliklarni 20 ish kuni mobaynida bartaraf etish va hujjatlarni takroriy ko'rib chiqish uchun taqdim etish imkoniyati beriladi. Milliy akkreditatsiya organining bildirishnomasida ko'rsatilgan nomuvofiqliklar ariza beruvchi tomonidan bartaraf etilgan taqdirda hujjatlarni takroriy ko'rib chiqish nomuvofiqliklarning bartaraf etilganini tasdiqlovchi hujjatlar ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladi. Buyurtmanoma takroriy ko'rib chiqilganligi uchun to'lov undirilmaydi. Belgilangan muddat tugagandan keyin berilgan buyurtmanoma yangidan berilgan hisoblanadi.

Takroriy ekspertiza Milliy akkreditatsiya organi yoki dastlabki ekspertizani o'tkazgan boshqa vakolatli tashkilotlarning sifat bo'yicha ekspert-auditori tomonidan o'tkaziladi. Takroriy ekspertiza natijasi salbiy bo'lgan taqdirda Milliy akkreditatsiya organi ariza beruvchini uning akkreditatsiya qilish shartlariga nomuvofiqligi sababli akkreditatsiya qilishning rad etilgani to'g'risida 3 ish kuni mobaynida xabardor qiladi.

Ekspertizaning ijobiy natijalari bo'yicha Milliy akkreditatsiya organi akkreditatsiya qilish ob'ektining muvofiqligini baholash uchun komissiyani (keyingi o'rinlarda komissiya deb ataladi) 10 ish kuni mobaynida tuzadi, ob'ektning haqiqiy holatini o'rganish hamda uning:

- buyurtmanomada taqdim etilgan hujjatlarga, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga va akkreditatsiya qilishning belgilangan shartlariga muvofiqligini;
- ko'rsatilgan funktsiyalarni bajarishga qodirligini baholash komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Komissiya Milliy akkreditatsiya organi rahbarining buyrug'i bilan tayinlanadi. Buyruqda komissiyaning tarkibi, akkreditatsiya qilish ob'ektining muvofiqligini baholashning maqsadi, sanasi, muddati va joyi ko'rsatiladi. Komissiya raisi sifat bo'yicha ekspertlar-auditorlar orasidan tayinlanadi. Komissiyani tuzishda komissiya tarkibiga kiritiladigan shaxslarning xolisona baholashni o'tkazish uchun zarur bo'ladigan layoqati, bilimlari va ko'nikmalari hisobga olinadi. Zarur bo'lgan taqdirda komissiyaga texnik ekspertlar jalb etilishi mumkin. Texnik ekspertlar sifat bo'yicha ekspert-auditor rahbarligida ishlashi kerak. Komissiya ishlarining dasturi Milliy akkreditatsiya organining rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Buyruq va komissiya ishlarining dasturi komissiya baholashni o'tkazish uchun jo'nab ketgungacha tanishish maqsadida ariza beruvchiga taqdim etiladi. Komissiya ishlarining davom etishi 20 ish kunidan oshmasligi kerak. Akkreditatsiya qilish ob'ektining muvofiqligini baholash natijalari baholash dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Ariza beruvchi komissiya xulosalariga rozi bo'lmagan taqdirda rozi emasligi to'g'risida yozma e'tiroz taqdim etishi mumkin, u baholash dalolatnomasiga ilova qilinadi.

O'tkazilgan baholash yakunlari bo'yicha Milliy akkreditatsiya organi masalaning 5 ish kuni mobaynida Akkreditatsiya qilish kengashida ko'rib chiqilishini ta'minlaydi. Milliy akkreditatsiya organi 3 ish kuni mobaynida Akkreditatsiya qilish kengashining tavsiyalari asosida akkreditatsiya qilish to'g'risida yoki ariza beruvchiga aniqlangan nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun 30 ish kunidan iborat bo'lgan muddat berish to'g'risida qaror qabul qiladi. Ariza beruvchi tomonidan nomuvofiqliklarni bartaraf etish to'g'risidagi tegishli hujjatlar belgilangan muddatlarda taqdim etilgan taqdirda komissiya Milliy akkreditatsiya organining buyrug'i asosida 5 ish kunidan oshmaydigan muddatda kamchiliklarni bartaraf etishning holatini o'rganadi va nazorat dalolatnomasini rasmiylashtiradi.

O'tkazilgan takroriy baholash yakunlari bo'yicha hujjatlar komissiya tomonidan taqdim etilgandan keyin masala 5 ish kuni mobaynida Akkreditatsiya qilish kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi. Milliy akkreditatsiya organi 5 ish kuni mobaynida Akkreditatsiya qilish kengashi tavsiyalari asosida akkreditatsiya qilish yoki akkreditatsiya qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Aniqlangan nomuvofiqliklarni belgilangan muddatda bartaraf etish ta'minlanmagan taqdirda Milliy akkreditatsiya organi akkreditatsiya qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Akkreditatsiyani o'tkazish muddati akkreditatsiya qilishga berilgan buyurtmanoma ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 130 ish kunidan oshmasligi kerak.

Akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qaror ijobiy bo'lgan taqdirda Milliy akkreditatsiya organi ariza beruvchiga akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani 3 ish kuni mobaynida beradi. Uchinchi tomon hisoblanadigan sinov vaG'yoki o'lchov laboratoriyalariga (markazlariga) texnik jihatdan malakalilik va mustaqillik yuzasidan akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomalar beriladi. Birinchi yoki ikkinchi tomonning sinov vaG'yoki o'lchov laboratoriyalariga (markazlariga) faqat texnik jihatdan malakalilik uchun akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomalar beriladi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma Muvofiqlikni baholash organlarining davlat reestrda ro'yxatdan o'tkaziladi. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomada yoki unga ilovada akkreditatsiya qilinganlikning sohasi ko'rsatiladi. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma 5 yil muddatga beriladi. Akkreditatsiya qilish ob'ektining faoliyatini akkreditatsiyaning belgilangan shartlariga muvofiqlik yuzasidan inspeksiya nazoratidan o'tkazish Milliy akkreditatsiya organi tomonidan amalga oshiriladi.

15-MAVZU. TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT KORXONALARIDA SIFATNI TA'MINLASH VA BOSHQARISH

Ma'ruza mavzusining rejasi:

- 1. To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida sifatni ta'minlash tamoyillari.**
- 2. Maxsulot sifati va sifat boshqaruvi.**
- 3. Xalqaro ISO 9000 seriyasidagi standartlar bo'yicha ishlarni tashkil etish.**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, munozara, o'z-o'zini nazorat va "Pog'ona" ta'lim texnologiyasi.*

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi globallashuv mahsulot va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bilan birga, ularning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashni taqozo etmoqda. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun esa eng avvalo, korxonalarda sifat menejmenti tizimini joriy qilish asosiy o'rin tutadi. Zero, sifat boshqaruvi tizimi har qanday ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini boshqarish omili bo'lib, u korxonaning barqaror va uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatimizdagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning nafaqat milliy, balki xalqaro sifat talablari va standartlariga javob berishi ularning jahon bozorida munosib o'rin egallashida muhim rol o'ynaydi.

Korxonalarda sifat boshqaruvi tizimini joriy etish ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatning sifati uchun kafolatdir. Shu bois ham respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ushbu masalaga e'tibor qaratilmoqda. Bevosita sifat tizimini joriy etish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, texnik tartibga solish, muvofiqlikni baholash hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga doir bir qator qonunlar va qarorlar hamda 5 yilga mo'ljallangan dastur huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biror-bir ishlab chiqarilgan mahsulot sinov laboratoriyasidan o'tgandan keyin dunyoning istalgan burchagida tan olinishi mumkin. Buning uchun mahsulot standartiga bo'lgan talab xalqaro darajada bir xil bo'lishi kerak. Hozir mamlakatimizda 10 mingga yaqin xalqaro standart mavjud bo'lib, shuning 1500 mingdan ziyodi korxonalarda qo'llanilmoqda. Xalqaro standartlarni joriy etish uchun esa agentlik tomonidan 29 ta davlat bilan 41 ta xalqaro shartnoma imzolangan. Bu dunyo mamlakatlaridagi talablarni o'rganish imkoniyatini va o'z natijasini bermoqda.

Bundan tashqari, mahsulot sifatining qay darajada deb baholanishi albatta ularni tekshiradigan sinov va qiyoslash laboratoriyalarining texnik holati bilan bevosita bog'liq. Shundan kelib chiqib ushbu laboratoriyalardagi uskunalarni yangilash masalasiga ham e'tibor qaratilayapti. Shuningdek, ularni xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tkazish ishlari olib borilmoqda hamda kelgusi yillarda bir qator loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Yangi laboratoriyalar faoliyati ham yo'lga qo'yilmoqda.

Xalqaro standartlarga asosan sifat tizimini joriy qilish bo'yicha to'xtalib qayd etilganidek, bugungi kunda mavjud 17655 ta ishlab chiqaruvchi korxonaning qariyb 24 foizida sifat tizimlari sertifikatlashtirilgan. Shu kabi boshqa yo'nalishdagi mavjud ko'rsatkich miqyosini oshirish, belgilangan rejalarni bajarish uchun hali ko'p ishlar amalga oshirilishi lozimligi ham alohida qayd etildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 oktyabrdagi "2020 yilgacha bo'lgan davrda Sifat milliy infratuzilmasini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash, milliy akkreditatsiya idorasi faoliyatini xalqaro standart ISO/IEC 17011 talablari darajasiga olib chiqish maqsadida "Akkreditatsiya markazi" davlat korxonasini tashkil etish, ushbu markazni yetarli miqdorda malakali mutaxassislar bilan ta'minlash hamda xalqaro akkreditatsiya tashkiloti ILACga a'zo bo'lish masalasini jadallashtirish, o'lchashlarning xalqaro darajada e'tirof etilishini ta'minlash yo'lida o'lchovlar va tarozilar xalqaro tashkiloti - BIPMga a'zo bo'lishni ta'minlash, standartlashtirish tizimini yanada takomillashtirish, texnik qo'mitalar sonini 50 taga, texnik reglamentlar sonini 51 taga, standartlarning 80 foizdan ortig'ini halqaro normalar bilan uyg'unlashtirishga erishish shular jumlasidandir.


Bugungi kunda respublikamizda 9 ta xalqaro darajada va 26 tadan ortiq milliy tizimda akkreditatsiyadan o'tgan Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organlari faoliyat ko'rsatmoqda (1-rasm).

Xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tgan Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organlari


- SGS Tashkent Ltd
- Ассоциация по сертификации «Русский Регистр»
- ООО с УИК «Sert-Management»
- ООО «DQS Quality Systems»
- ООО «Cert International»
- ООО с УИК «Astraia Manajment»
- ООО «International Certificate System Group»
- * СП ООО «O`zbek - Turk Test Markazi»
- ООО «Management Certification»



Bugungi kunda ISO-9001 sertifikatiga ega korxonalarning jahon ko'rsatkichlari va MDX davlatlari bo'yicha ko'rsatkichlarini taxlil etadigan bo'lsak, MDX davlatlari bo'yicha O'zbekiston 3-o'rindiligini ko'rish mumkin (-rasm).



ISO 9001 sertifikatiga ega korxonalarning jahon ko'rsatkichlari (ming)



ISO 9001 sertifikatiga ega korxonalarning MDX ko'rsatkichlari (ming)

Sifat menejmenti tizimini joriy etish korxonalarga bir qator imkoniyatlar bermoqda. Chunonchi, raqobatbardoshlikni oshirishi, buyurtmachi talablarini bajarish kafolatini berishi, mahsulot yoki xizmat narxining yuqori bo'lishi, kredit va sug'urta jarayonida imtiyoz taqdim etilishi, xarajatlarni qisqartirishi kabilardir. Amalga oshirilgan ishlar tufayli esa ko'pgina korxonalarda ISO standartlarini joriy etish daromad, rentabellik va mijozlar bazasining o'sishi kabi samaradorlik ko'rsatkichlarida ijobiy natijalarga erishilayotgani, qolaversa, ishlab chiqarishda sifatsiz mahsulotlar salmog'ini kamaytirish, korxonalar eksport faoliyatini yaxshilash imkonini bermoqda, bu o'z navbatida raqobatbardoshlik darajasini ko'tarishga xizmat qilyapti.

Aynan shu masalalar bitiruv malakaviy ishini dolzarbligini belgilab beradi. Bitiruv malakaviy ishida respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan to'qimachilik korxonalarida ISO 9001 standarti asosida sifat menejment tizimlarini joriy etish, ushbu yo'nalish bo'yicha rivojlangan davlatlarning tajribalarini o'rganishi va tadbiq etish masalalari ko'rib chiqildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. ISO 9001 bu Yaponiya, AQSh, Germaniya va boshqa mamlakatalarning yetakchi ishlab chiqaruvchilari tajribasiga asoslangan, zamonoviy boshqaruv uslubining xalqaro standarti. ISO 9001-Sifat menejment tizimi tashkilotni sifatli boshqarish xisoblanadi.

Sifat menejment tizimining maqsadi – mahsulotlar yoki xizmatlar sifatini ta'minlash va iste'molchilar tomonidan kutilayotgan sifatga moslashtirish.

Sifat menejment tizimi maqsadlari:

- Iste'molchilarning talablarini aniqlash va qondirish
- sifatga bilvosita va bevosita ta'sir qiluvchi, o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlarni boshqarish;
- mahsulot hajmini oshirishga erishish.

Sifat menejment tizimining asosiy vazifasi – har bir mahsulotni nazorat qilish emas, balki shunday qilish kerakki ishlab chiqarishda xatolar yuzaga kelmasligi (sifatsiz mahsulot) va nuqson kelib chiqmasligini ta'minlash zarur.

Sifat menejment tizimi vazifasi:

- Jarayonlarni aniqlash va ularga bo'lgan talablarni belgilash;
- barcha xodimlarni malaka oshirishga jalb qilish;
- mas'uliyat, vazifa va vakolatlarni belgilash.



Sifat menejment tizimining asosiy afzalligi – iste'molchiga mo'ljallab ish qilish va tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish emas, nuqsonlarni to'g'rilash emas, balki mahsulot hayotiy tsiklining erta bosqichlarida uning oldini olish xisoblanadi.

Momiqsochiq korxonasida sifat menejmenti tizimini joriy etish korxonaga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Korxonaning bo'limlar va jarayonlar ishini tartibga solish va baholash;
- muammolar sabablarini izlash mexanizmini yaratish;
- yaroqsiz mahsulotlar miqdorini va xarajatlarni kamaytirish;
- sifatni ta'minlash;
- iste'molchilar va sheriklar ishonchini oshirish;
- korxona nufuzini ko'tarish.

Sifat menejment tizimiga talablar

ISO 9001:2009 standarti ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tavsiflari, turi va o'lchamidan qat'iy nazar barcha turdagi Tashkilotlarda qo'llash uchun mo'ljallangan va umumiy bo'lib hisoblanadi. Biroq bu standartning hamma majburiy talablari barcha Tashkilotlar uchun taalluqli emas.

Sifat menejmenti tizimining qabul qilinishi uchun (joriy qilish uchun tanlash) Tashkilotning strategik qarori bo'lishi lozim.

Tashkilotning sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy qilishga quyidagilar ta'sir qiladi:

- uning biznes muhiti, ushbu muhitdagi o'zgarishlar yoki ushbu muhit bilan bog'liq xavflar;
- uning o'zgaruvchan ehtiyojlari;
- uning o'ziga xos maqsadlari;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot;
- unga qo'llanilayotgan jarayonlar;
- uning kattaligi va tashkiliy to'zilishi.

ISO 9001:2009 talablari

Umumiy talablar.

Tashkilot, sifat menejmenti tizimini ishlab chiqishi, xujjatli rasmiylashtirishi, joriy etishi, ishchi xolatda saqlab turishi, mazkur standart talablariga muvofiq ravishda uning natijaliligini doimo yaxshilashi kerak.

Sifat menejmenti tizimini joriy etish va ishlatish uchun tashkilot:

- Sifat menejment tizimi uchun kerak bo'lgan jarayonlarni aniqlashi va ularni tashkilotda qo'llashi (1.2);
- Bu jarayonlarni amalga oshirishni ketma-ketligi va o'zaro bog'lanishini aniqlashi;
- Bu jarayonlarni samarali bajarish va ularni boshqarish uchun kerak bo'lgan mezonlari va usullarini aniqlashi;
- Jarayonlarni amalga oshirish va ularni ko'zatib borish uchun zarur bo'lgan resurslar va axborotlar bilan ta'minlashi;
- Jarayonlarni ko'zatib turishi, o'lchashi va taxlil qilishi;
- Ushbu jarayonlarni rejalashtirilgan natijalarga erishishi va ularni doimo yaxshilab borishi uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rishi;

Tashkilot mazkur standart talablariga muvofiq bu jarayonlarni boshqarishi kerak.

Mahsulotni talablarga muvofiqligiga ta'sir etuvchi tashqi jarayonlarni o'zining faoliyatiga kushishida, Tashkilot bunday jarayonlarni boshqarilishini belgilab qo'yishi kerak. Bu boshqarish sifat menejment tizimida aniqlanishi lozim.

Sifat menejment tizimining jarayonlari yuqorida sanab o'tilganlari xisobga olingan xolda boshqarish, resurslar bilan ta'minlanishini, mahsulotni ishlab chiqarish va o'lchash jarayonlarini o'z ichiga olishi kerak.

Agar Tashkilot sifat menejment tizimini (bundan buyon - SMT) yaratish bo'yicha qaror qabul qilsa, unda ISO 9001:2008 da keltirilgan talablarga muvofiq uning ishlab chiqarilishi rejalashtirilishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilganga muvofiq Tashkilotda bajariladigan jarayonlar belgilanishi kerak.

SMT ga kiritiladigan jarayonlarni belgilashda tizimni ishlab chiquvchi – Tashkilot quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- Sifat menejment tizimlariga qaysi jarayonlar kiritiladi?
- xar bir jarayonni iste'molchisi kim (ichki va yoki Tashkil iste'molchilar?)
- bu iste'molchilarni talablari qanday?
- xar bir jarayonni kirish va chiqish ma'lumotlari bo'lib nimalar xisoblanadi?
- jarayonni egasi kim?
- qanday jarayonlarni bajarilishini ta'minlash uchun qo'shimcha resurslarni jalb qilish kerak?

Tashkilotda amalga oshiriladigan va sifat menejment tizimiga kiritilgan xar bir jarayon umumlashtirilgan ko'rinishda taqdim qilinishi kerak.

Tashkilotda ro'y beradigan xar bir jarayon uchun, jarayonni zarur natijasi (kirishi) ni ta'minlash uchun jarayonni boshqarish mezon va usullari belgilanishi kerak.

Xar bir jarayonni amalga oshirish uchun zarur resurslarga (xodimlar, qurilma, materiallar va jarayonni bajarish usullari va x.k) ehtiyojlarni aniqlash kerak.

Tashkilotdagi jarayonlarni xar biri nazorat ostida (jarayon monitoringi) amalga oshirilishi kerak, jarayonni chiqish ma'lumotlarini esa o'lchash va ularni bu jarayon uchun rejalashtirilgan talablarga muvofiqligini baxolash kerak.

ISO 9001:2009 standart 5 ta bo'limdan iborat:

ISO 9001:2009 standarti bo'limlari

- Bo'lim 4 – Sifat menejmenti tizim
- Bo'lim 5 – Raxbariyatni javobgarligi
- Bo'lim 6 – Resurslar menejmenti
- Bo'lim 7 – Mahsulotni xayotiylik sikli
- Bo'lim 8 – O'lchovlar, taxlil va yaxshilanish

ISO 9001:2009 standarti bo'limlari

4. Sifat menejmenti tizimi	5. Rahbariyat ning javobgarligi	6. Resurslar menejmenti	7. Mahsulot ishlab chiqarish	8. O'lchash, tahlil qilish va yaxshilash
4.1 Umumiy talablar	5.1 Rahbariyat ning majburiyatlari	6.1 Resurslar bilan ta'minlash	7.1 Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish	8.1 Umumiy qoidalar
4.2 Hujjatlarga qo'yiladigan talablar	5.2 Iste'molchi talablariga moslashish	6.2 Inson resurslari	7.2 Iste'molchi bilan bog'liq jarayonlar	8.2 Monitoring va o'lchash
	5.3 Sifat sohasidagi siyosat	6.3 Infratuzilma	7.3 Loyihalashtirish va ishlab chiqish	8.3 Nomuvofiq mahsulotni boshqarish
	5.4 Rejalashtirish	6.4 Ishlab chiqarish muhiti	7.4 Sotib olish	8.4 Ma'lumotlarni tahlil qilish
	5.5 Javobgarlik, vakolatlar va axborot almashish		7.5 Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni ta'minlash	8.5 Yaxshilash
	5.6 Rahbariyat tomonidan tahlil qilish		7.6 Monitoring va o'lchashlar uchun asbob-uskunalarni boshqarish	

16-MAVZU. KORXONALARDA SIFAT MENEJMENT TIZIMI XUJJATLARI

Ma'ruza mavzusining rejasi:

1. Sifat siyosati.

2. Sifat bo'yicha qo'llanma. Protseduralar.

3. Standartlar. Ishchi yo'riqnomalar, xisobotlar, dalolatnomalar, jurnallar va boshqa ma'lumotlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, namoyish etish, blits so'rov, "Qanday" ta'lim texnikasi.*

Sifat menejmenti tizimining hujjatlari:

Sifat sohasidagi siyosat va maqsadlaridan tarkib topgan xujjatlar;

b) Sifat bo'yicha qo'llanma- sifat soxasidagi siyosatni ifoda etuvchi va sifat menejmenti tizimini tavsiflovchi xujjat;

c) Hujjatlashtirilgan protseduralar, bunga korxona xodimlarining javobgarligi va vakolatlari ifoda etuvchi bo'linmalar xaqidagi nizomlar va lavozim yo'riqnomalari qo'shilgan;

d) tashkilot tomonidan jarayonlarni natijali rejalashtirish, amalga oshirish va ularni boshqarishni ta'minlash uchun zarur deb belgilangan hujjatlar, jumladan yozuvlarni o'z ichiga olishi kerak.


Sifat menejmenti tizimining xujjatlarining xajmi va batafsillashtirish darajasi quyidagi omillarga bog'lik bo'lishi kerak:

- Tashkilotning kattaligi va faoliyat soxasi;
- Jarayonlarning murakkabligi va o'zaro xamkorligi;
- Xodimlarning layoqatligi.

ISO 9001:2008 talablariga muvofiq kuyidagi protseduralarni majburiy ishlab chiqilishi va xujjatlashtirilishi talab qilinadi:

- Xujjatlarni boshqarish;
- Sifat bo'yicha yozuvlarni boshqarish;
- Ichki auditni boshqarish;
- Nomunofiq mahsulotni boshqarish;
- To'g'irlovchi amallar;
- Oldini oluvchi amallar.

Sifat menejment tizimining asosiy xujjatlari



SBT hujjatlari qanday asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi?

Sifat bo'yicha qo'llanma – SBT maqsadlarini tasvirlash (SBT qanday faoliyatlarni o'z ichiga oladi, jarayonlarni o'zaro kirishishi, qanday protseduralar mavjud va b.).

Protseduralar – faoliyat yoki jarayonni belgilangan bajarish usuli (misol uchun korxona standartlari, holat, texnologik hujjat).

Ishchi yo'riqnoma – belgilangan ish joyida aniq ishlarni bajarish tartibini belgilash.

Sifat xaqidagi yozuvlar - jurnallar, bayonnomalar, dalolatnomalar, ishchi hisobotlar.

Majburiy xujjatlashtirilgan proseduralar

ISO9001:2000 XS bulimlari	Bo'limlar
4.2.3	Xujjatlarni tasdiqlash, taxlil qilish, aktuallashtirish, qayta tasdiqlash, barcha xodimlarga yetib borishitaminlash.
4.2.4	Yozuvlarni identifikatlash, saqlash, himoya qilish, ulardan foydalanishni ta'minlash, saqlash va ularni qayta xodimlardan olish.
8.2.2	Ichki auditni rejalashtirish va o'tkazish uchun masul xodimlar, rejalashtirishga qo'yilgan talablar, xisobot ma'lumotlari, yozuvlarni olib borish.
8.3	Nomuvofiq mahsulotni boshqarish, boshqarish uchun xodimlarning masulligi.
8.5.2	To'zatis xarakatlarini taxlil qilish va sabablarini aniqlash, ularni baxolash, aniqlash, amallarni amalga oshirish, natijalar tugrisidagi yozuvlar.

8.5.3	Oldini olish xarakatlarini taxlil qilish va sabablarini aniqlash, ularni baxolash, aniqlash, amallarni amalga oshirish, natijalar tugrisidagi yozuvlar.
4.2.4	Yozuvlarni identifikatlash, saqlash, himoya qilish, ulardan foydalanishni ta'minlash, saqlash va ularni kayta xodimlardan olish.
8.2.2	Ichki auditni rejalashtirish va utkazish uchun masul xodimlar, rejalashtirishga qo'yilgan talablar, xisobot ma'lumotlari, yozuvlarni olib borish.
8.3	Nomuvofiq mahsulotni boshqarish, boshqarish uchun xodimlarning masulligi.
8.5.2	To'zatis xarakatlarini taxlil qilish va sabablarini aniqlash, ularni baxolash, aniqlash, amallarni amalga oshirish, natijalar tugrisidagi yozuvlar.

Xujjatlarni boshqarish (4.2.3)

Sifat menejmenti tizimining xujjatlari ustidan boshqarishni amalga oshirish kerak. Yozuvlar xujjatlarning maxsus turi bo'lib, 4.2.4-bandda keltirilgan talablarga muvofiq boshqarilishi kerak.

Xujjatlashtirilgan proseduralar:

- Xujjatlarni joriy etishdan oldin ularni birxillikka tekshirish va tasdiqlash;
 - Xujjatlarni taxlil qilish, zaruriyatga ko'ra ularni aktuallashtirish va qayta tasdiqlash; o'zgartirishlarni va xujjatlarni amaldagi taxrirlarini ta'minlash, identifikatlash;
 - zaruriy xujjatlarning ishlatilayotgan taxriri ulardan foydalanish joylarida bo'lishligini ta'minlash;
 - kelib chiqishi tashqaridan bo'lgan xujjatlarni identifikatlashtirilishini va ularni tarqatilishini boshqarishni ta'minlash;
- eskirgan xujjatlarni o'ylamasdan ishlatilishini oldini olish va ularni qandaydir maqsadlarda saqlanib qolinganda ularni aniq tartibda belgilash uchun ishlab chiqish zarurligi;

Tashkilotni SMT xujjatlarini boshqarish bo'yicha faoliyati xujjatlashtirilgan prosedurada bayon qilinishi kerak. Xujjatlarni boshqarish xujjatlarni ishlab chiqish bilan birga, SMT faoliyati davrida xujjatlarni o'ziga boshqarishni ko'zda tutishi kerak.

Xujjatlarni boshqarishda quyidagi asosiy funksiyalar bajarilishi kerak:

- xujjatlarga extiyojni belgilash;
- xujjatlarni ishlab chiqilishi yoki xarid qilinishini rejalashtirish;
- ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, amalga joriy qilish;
- xujjatlarni ko'rib chiqish, qayta tasdiqlash;
- xisobga olish, belgilash (identifikatlashtirish), tarqatish, saqlash;
- bo'linmalarni dolzarblangan xujjatlar bilan ta'minlash;
- o'zgartirishlar kiritish;
- xujjatlar maqomini ko'rib chiqish;
- xujjatlarni bekor qilish va yig'ib olish, eskirgan xujjatlarni qo'llanishini oldini olish;

SMT quyidagi xujjatlari boshqarilishi kerak:

- SMT xujjatlari (sifat soxasidagi siyosat, sifat bo'yicha qo'llanma, sifat soxasidagi maqsadlar, xujjatlashtirilgan proseduralar, jarayonlar bayonnomalari, ishchi yo'riqnomalar va boshq.);
- Tashqi xujjatlar (qonun va me'yoriy xujjatlar va x.k.);
- Texnikaviy xujjatlar (konstruktorlik xujjatlari, texnologik yo'riqnomalar, reglamentlar va x.k.);
- Bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar va lavozim yo'riqnomalari.

Yozuvlarni boshqarish (4.2.4)

Talablarga muvofiqligini tasdiqlash va sifat menejmenti tizimining samarali ishlashi maqsadida yozuvlar ustidan boshqarishni amalga oshirish darkor. Yozuvlar tushunarli, belgilangan bo'lishi xamda ularni qidirishni yengilligi ta'minlangan bo'lishi kerak. Yozuvlarni

identifikatlashtirish, saqlash, foydalanishga qulay bo'lishi, saqlanishini ta'minlash, saqlashni muddatlari va ularni muomaladan chiqarish bo'yicha xujjatlashtirilgan proseduralarni kiritish darkor.

Sifat to'grisidagi yozuvlar mahsulotni belgilangan talablarga, jarayonlar maqsadlarini Tashkilot maqsadlariga muvofiqligini, belgilangan maqsadlarga erishilganligini tasdiqlash, sifat tizimini doimo yaxshilash va samaradorligini tasdiqlash uchun olib borilishi kerak.

Sifat bo'yicha yozuvlar – bu ro'yxatga olinadigan ma'lumotlar bo'lib, ularda ISO 9001 ga muvofiq SMT faoliyatini, mahsulot sifat talablarini bajarilishi, jarayonlar bo'yicha faoliyat natijalari, rejalashtirilgan maqsadlarga erishilishi va doimiy yaxshilash mavjudligini ob'ektiv dalillari bo'lishi kerak. Tashkilotni yozuvlarini boshqarish bo'yicha faoliyati xujjatlashtirilgan prosedurada bayon qilinishi kerak.

ISO 9001 standarti talablariga muvofiq Tashkilotda SMT faoliyati jarayonida standartni 19 bandi bo'yicha majburiy yozuvlar olib borilishi kerak.

Ichki auditni boshqarish (8.2.2)

Tashkilot:

1. Sifat menejmenti tizimining rejalashtirilgan chora-tadbirlariga (7.1), mazkur standart talablariga va Tashkilot tomonidan sifat menejment tizimiga qo'yilgan talablarga muvofiqligini;

2. U samarali joriy etilganligi va ichki xolatda saqlanayotganligini aniqlash uchun sifat menejmenti tizimini davriy ichki auditlarini o'tkazish lozim.

Tashkilot tekshirilayotgan soxalar va jarayonlarning maqomini va muximligini, avvalgi auditlarning natijalarini xisobga olgan xolda ichki auditlarni o'tkazilishini rejalashtirishi kerak. Audit mezonlari, soxasi davriyligi va ularni o'tkazish usuliyati aniqlangan bo'lishi kerak. Auditorlarni guruxga tanlab olish va auditni o'tkazish, tekshirish jarayoni mosligini va mustaqilligini ta'minlashi kerak. Auditlarni tekshirilayotgan ishlarini bajarishda qatnashmagan xodimlar tomonidan o'tkazilishi kerak.

Xujjatlashtirilgan prosedurada auditlarni rejalashtirish, natijalar xaqida xisobot va yozuvlarni olib borish bo'yicha vazifalar va talablar aniqlangan bo'lishi kerak.(4.2.4)

Tekshirilayotgan qism raxbariyati aniqlangan nomuvofiqlar va ularning sabablarini bartaraf qilish bo'yicha xarakatlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashi kerak. Keyingi xarakatlar ko'rilgan choralarning bajarilishini verifikatlash va validatlash (tekshirish va aniqlash) natijalari xaqida xisobotlarni to'zishni nazarda tutishi kerak(8.5.2).

Ichki audit o'tkazayotganda qo'llanma sifatida ISO 9001 dan foydalanish mumkin. Ichki audit (tekshirish) – bu sifat soxasidagi (mahsulot, xizmat, jarayonlar, butun SMT) faoliyat natijalarini o'rnatilgan talablarga muvofiqligini aniqlash uchun Tashkilot kuchlari (yoki uning nomidan) o'tkaziladigan tizimli (ma'lum oraliq vaqt orqali) va mustaqil taxlil.

Ichki audit bo'yicha faoliyat SMT baxolashga yo'naltirilishi kerak. Bu faoliyat audit o'tkazilishi kerak bo'lgan jarayonlar va bo'linmalar muximigi xamda maqomini, shuningdek avvalgi auditlar natijalarini xisobga olgan xolda rejalashtirilishi kerak. Auditlar rejalari avvalgi auditlar natijalari va Tashkilot faoliyati natijalarini xisobga olgan xolda to'g'rilanishi kerak. Rejalashtirishda jarayonlarni borishiga xal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektlarni qo'shgan xolda, jarayonlar va faoliyatni muxim nuqtalarini xisobga olish kerak. Ichki audit natijalari bo'yicha audit maqsadlariga muvofiq bo'lgan nomuvofiqliklar bayonnomalari, audit bo'yicha xisobotlar rasmiylashtiriladi. O'tkazilgan auditlar natijalari bo'yicha xisobotlar tekshirilgan ob'ektlarni o'rnatilgan talablarga muvofiqligi (nomuvofiqlikligi) to'g'risidagi xulosalarni va auditdan so'ng keyingi amallar bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Keyingi amalar, odatda, aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf qilish uchun qabul qilingan to'girlovchi amallarni, bajarilish muddatlari va bajarish uchun javobgarlikni o'z ichiga oladi.

Nomuvofiq mahsulotlarni boshqarish (8.3)

Tashkilot tomonidan talablarga muvofiq bo'lmagan mahsulot identifikatlashtirilgan bo'lishi va uni bilmasdan ishlatilishi yoki yetkazib berilishini oldini oladigan tarzda boshqarilishini ta'minlashi kerak. Nomuvofiq mahsulotni boshqarish va uni tasarruf etish uchun javobgar bo'lgan shaxslar xujjatlashtirilgan prosedurada aniqlangan bo'lishi darkor.

Tashkilot nomuvofiq mahsulotni quyidagi usullarning bir yoki bir nechatasi bilan tasarruf qilishi kerak:

- Aniqlangan nomuvofqlikni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;
- Muvofiq vakolatli idora yoki shaxs va agarda mumkin bo'lsa iste'molchi tomonidan ruxsat etilgan og'ish bilan undan foydalanish, ishlab chiqarish va uni qabul qilishga ruxsat berish;
- Dastlabki rejalashtirilgan foydalanish yoki qo'llanishni oldini olish bo'yicha xarakatlarni ko'rish.

Nomuvofiqlar tavsifi va qilingan xarakatlar, shu xisobda chetlanishga ruxsatlarni olish xaqidagi yozuvlarni olib borish zarur (4.2.4). Nomuvofqlikni bartaraf qilinganda keyin mahsulotni unga qo'yilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun qayta tekshirilishi lozim.

Agarda mahsulotni nomuvofiqligini uni iste'molchiga yetkazib berilgandan yoki undan foydalana boshlagandan keyin aniqlangan bo'lsa, Tashkilot nomuvofiqligining aniqlangan yoki mumkin bo'lgan oqibatlarini xisobga olgan xolda zarur choralarni ko'rishi lozim.

Tashkilot, o'rnatilgan talablarga muvofiq bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni tegishli bosqichlarida aniqlanishi, belgilanishi va yaroqli mahsulotdan ajratilishini ta'minlashi kerak.

Nomuvofiq mahsulotni boshqarish bo'yicha faoliyatning maqsadi, iste'molchi o'rnatgan talablariga muvofiq bo'lmagan mahsulotni yetkazib berilishini oldini olish va bunday mahsulotni kamchiliklarini bartaraf qilish bilan bog'lik bo'lgan xujjatlarni yo'qotishdan iborat.

Nomuvofiq mahsulotni keyingi ishlatilishi bo'yicha masalalarni Tashkilot operativ xal qilishi kerak. Nomuvofiq mahsulotni qo'llash imkoniyati, uni to'zlash, qo'shimcha tekshirish, unga nisbatan boshqa xarakatlar to'g'risidagi qarorni tegishli ma'sul shaxslar qabul qilishi kerak.

Qarorni qabul qilish darajasi aniqlangan nomuvofqlikka va keyingi oqibatlarga muvofiq bo'lishi kerak. Qaror qabul qilish bo'yicha vakolatlar xujjatlarda belgilanishi kerak. Tashkilot nomuvofqliklar sabablarini (texnologik jarayonni ijrochi tomonidan bo'zishi, qurilmalarni ishlashidagi nosozliklar, nomuvofiq materiallar va bosh q.) aniqlash va taxlil qilish bo'yicha masalalarni operativ xal qilishi kerak.

To'g'rilovchi amallarni boshqarish (8.5.2)

Tashkilot nomuvofqliklarning qaytarilishini oldini olish uchun ularning sabablarini bartaraf qilishga, yo'naltirilgan amallarni qo'llashi darkor. To'g'rilovchi amallar paydo bo'layotgan nomuvofqliklarning ta'sir qilish darajasiga muvofiq kelishi lozim.

Quyidagilarga qo'yiladigan talablari bo'lgan xujjatlashtirilgan prosedura belgilangan bo'lishi kerak:

- Nomuvofqliklarni taxlil qilish (iste'molchilarning shikoyatlari kiritilgan xolda);
- Nomuvofqliklarni qaytarilishini oldini olish bo'yicha amallarning zarurligini baxolash Zarur bo'lgan to'g'rilov amallarini aniqlash va bajarish;
 - Ko'rilgan amallar natijalari bo'yicha yozuvlarni olib borish;
 - O'tkazilgan to'g'rilovchi amallarning taxlili.

To'g'rilovchi amallar marketingdan boshlab tayyor mahsulotni sotishgacha bo'lgan, mahsulotni ishlab chiqish, nazorat qilish va ishlab chiqarishni barcha bosqichlarida ishlab chiqilishi mumkin. To'g'rilovchi amallar aniqlangan nomuvofqliklarning sabablarini bartaraf qilish maqsadida ishlab chiqiladi va joriy qilinadi.

Korxonaning sifat soxasidagi siyosatini ishlab chiqish uchun javobgarlik raxbarga yuklanadi. Siyosatni ishlab chiqish uchun u tomondan korxonani yetakchi mutaxassisleri, yuqori raxbarlik zvenosi jalb qilinishi mumkin. Raxbar tomonidan imzolangan Siyosat korxonaning barcha xodimlariga yetkazilishi kerak.

Tashkilot maqsadlarini belgilashda yuqori raxbariyat quyidagilarni xisobga olishi kerak:

- Tashkilot joriy va kelajakdagi ehtiyojlari va iste'molchilar istaklarini;
- Mahsulot va jarayonlarning sifat ko'rsatkichlarini;
- Tashkilot faoliyatining o'z – o'zini baxolash natijalarini;
- Mahsulot, sifat menejment tizimlari jarayonlarini yaxshilash imkoniyatlarini;
- Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur resurslarni.

Maqsadlar butun Tashkilotni qamrab olishi va ularga erishish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi kerak. Maqsadlarni barcha xodimlarga aniq yetkazishi kerak. Maqsadlar davriy ravishda taxlil qilinishi va zarur bo'lganda qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Tashkilot maqsadlari o'lchanadigan bo'lishi va sifat soxasidagi siyosat bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. Maqsadlar aniq qiymatlar bilan, yoxud sonli qiymat bilan tavsiflanmaydigan, lekin baxolash mumkin bo'lgan rejalashtirilayotgan samaradorlik bilan tavsiflanishi mumkin.

Oldini oluvchi amallar (8.5.3.)

Tashkilot kelib chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni kelib chiqishining oldini olish ularning sabablarini bartaraf qilish maqsadida amallarni qo'llashi kerak. Oldini oluvchi amallar kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarning ta'sir qilish darajasiga muvofiq kelishi kerak.

Quyidagilarga nisbatan talablarni aniqlovchi xujjatlashtirilgan prosedura ishlab chiqilgan bo'lishi kerak;

- Kelib chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklar va ularning sabablarini anqlashga
- Nomuvofiqliklarni qaytadan paydo bo'lishini oldini olish bo'yicha amallar zarurligini baxolash
- Zarur bo'lgan amallarni aniqlash va amlga oshirish;
- Ko'rilgan amallar natijalari bo'yicha yozuvlarni olib borishga (4.2.4.);

17-MAVZU. TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI SERTIFIKATLASHTIRISH

Ma'ruza mavzusining rejasi:

4. **To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida sifat menejment tizimini joriy etish bosqichlari.**
5. **Sifat menejment tizimini sertifikatlashtirish tartibi.**


Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, namoyish etish, aqliy xujum, "Klaster" ta'lim texnikasi.*

Sifatni boshqarish tizimini ishlab chiqish va joriy qilish bosqichining o'zi ham bir qancha bosqichlarni tashkil qiladi. Umuman olganda sifat menejmenti tizimi ishchi holat bo'lishi va sertifikatlanishgacha uni resurslar bilan ta'minlash va loyihani boshqarish tartibida 5-bosqichli ishlarni amalga oshiriladi (13-rasm).


Amaliyotda korxonalar imkoniyati va xodimlar layoqatidan kelib chiqib 4-bosqichli ishlar bilan yakunlanadi. Sifat menejmentini ishlab chiqish uchun korxonada amal qiluvchi menejment tizimi diagnostik auditi o'tkazilib sifat menejment tizimlari yaratiladi. Tashhiz audit maqsadi amaldagi menejment tizimini xalqaro amaliyotda tuzilishi va menejment tizimini ishlab turishi, hamda, uni O'z DSt ISO 9001:2009 xalqaro standartlari talabiga muvofiq baholashni hisobga olib dastlabki baholashdan iborat.

Odatda, SMT ishlab chiqish va joriy qilish to'rt bosqichda amalga oshiriladi va ular quyidagilar:

- Sifat menejment tizimini ishlab chiqishga tayyorlash bosqichi;
- sifat menejment tizimini ishlab chiqish bosqichi;
- sifat menejment tizimini joriy qilish bosqichi;
- sifat menejment tizimini sertifikatlashtirish .



]



Sifat menejment tizimini yaratish bo'yicha ishlarda quyidagilar ko'zda tutiladi:

1) Boshqaruvning turli darajalari uchun o'qishni o'tkazish:

yuqori (strategik) – O'z DS ISO 9000:2009, O'z DS ISO 9001:2009, O'z DS ISO 9004:2009 talablariga asosan, umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot, sifat menejmenti tizimida rahbariyatning roli;

o'rta (taktik) – jarayonlar rahbarlarining vazifalari va sifat menejment tizimi elementlarini to'liqroq ifoda etish;

quyi (operativ) – ishlab chiqarish xavf-xatarlari va ekologik baholash, identifikatlashtirish usullariga kirish, sifat menejment tizimini tuzish amaliyoti va unga jarayonli yondoshish, xar bir ishchi o'ringa atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish imkoniyatlarini qidirishga ishchilar asoslashini rivojlantirish;

sifat menejment tizimini ishlab chiqish va saqlash ishchi guruhini o'qitish, sifat menejment tizimi hujjatlarini ishlab chiqish uchun seminar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;

ichki auditorlarni o'qitish.

2) Ishlab chiquvchi ishchi guruhini yaratish, sifat menejmenti tizimi ishlab chiqish va joriy qilish bo'yicha O'z DSt ISO 9001:2009 bo'yicha siyosat, maqsadlar, sifat qo'llanmasi va hujjatlashtirilgan protseduralar.

3) Turli xil darajadagi biznes-jarayonlarni aniqlash.

Biznes-jarayonlar nomenklaturasini aniqlash:

Menejment: loyihalashtirish jarayonlari, sifat tizimini takomillashtirish va tahlili, ma'lumot va hujjatlarni boshqarish jarayonlari.

Sotib olish va resurslarni boshqarish

Ishlab chiqarish: jarayonlar, iste'molchilar bilan aloqador jarayonlar, yangi turdagi mahsulotlarni loyihalashtirish va ishlab chiqish jarayonlari, ishlab chiqarish jarayonlari.

O'lchash: mahsulot va jarayonlarni o'lchash va monitoringi jarayonlari.

Bo'linmalarni o'zaro faoliyatini aniqlash. Jarayonning kirish va chiqishlarini aniqlash bilan o'zaro faoliyatdagi jarayonlari va chegarasini tavsiflash.

Ishlab chiqarish darajasi tahlili va qayta tuzish.

Jarayonlar tavsifi shaklini aniqlash.

Jarayonlar bo'yicha zaruriy hujjatlar va ishlab chiqilgan SMT protseduralarini joriy qilish.

4) Hujjatlashtirilgan jarayonlar va tavsiflari.

Jarayonlarni baholash mezonlarini ishlab chiqish (ular samaradorligi va natijaviyligi).


Sifat menejmenti tizimini loyihalashtirish.

Jarayonlarni resurslar bilan ta'minlash.

Javobgar va vakolatli xodimlarni aniqlash.

Infratuzilma talablarini aniqlash (asosiy vositalar, xizmatlar, moliyalar, ma'lumotlar).

2-bosqich. SMT xujjatlarini ishlab chiqish



SMT xujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha reja-jadval tuzish



Sifat soxasida siyosat va maqsadlar ishlab chiqish



SMT xujjatlari tuzilmasini aniklash va SMTning protsedura xujjatlarini ishlab chiqish



Xodimlarga xalqaro standart talablarini o'rganish bo'yicha qilish o'tkazish



Ishlab chiqilgan xujjatlarni tasdiqlash

Korxonalarda SMTni joriy qilishning 2-bochqichi

Sifat menejmentining jarayonlarini yo'nalishlar va ularni takomillashtirish bo'yicha aniqlash (sifat, atrof-muhit, mehnatni muhofazalash).

Jarayonlarni tahlili va monitoringi, jarayonlarni natijaviyligi va samaradorligini o'lchash, ularni baholash usullarini joriy qilish, boshqarish usullarini aniqlash. Jarayonlar va ularni tahlili bo'yicha hisobot shakllarini joriy qilish.

5) Sifat menejmenti tizimini tayyorligini yaxlit tekshirish: ichki audit va yuqori rahbariyat tomonidan tahlilni o'tkazish; sertifikatlashtirishdan oldingi auditni o'tkazish.

6) Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish (O'z DSt ISO 9001:2009). Bunday ravishda, tashhiz auditni o'tkazish bu tizimni joriy qilishga tayyorligi va korxonani faoliyatining turli jihatlarini kompleks tekshirishda, menejment tizimini joriy qilish yulida birinchi qadam.

3-bosqich. SMTni joriy qilish uchun tayyorgarlik ishlari



SMT xujjatlarini korxona bo'limlariga tarqatish va joriy qilish



«Ichki audit» kursi bo'yicha o'qish o'tkazish va korxona ichki auditini o'tkazish




To'g'rilovchi va oldini oluvchi amallar o'tkazish



SMTning natijaviyligini taxlil qilish

Korxonalarda SMTni joriy qilishning 2-bochqichi



Korxonalarda SMTni joriy qilishning 4-bochqichi

Sifat menejment tizimini sertifikatlashtirish tartibi

To'qimachilik korxonalarida sifat menejment tizimlarini sertifikatlashtirish "Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi" Nizomga² asosan amalga oshiriladi.

Menejment tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish ariza beruvchi tomonidan mustaqil ravishda yoki tegishli malakaga ega bo'lgan maslahatchini jalb etish orqali amalga oshiriladi. Bunda maslahatchini jalb etish ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirishga ariza berish;
- sertifikatlashtirishga arizani ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
- sertifikatlashtirishni o'tkazishga shartnoma tuzish;
- sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun auditorlar guruhini shakllantirish va tayinlash;
- menejment tizimlari hujjatlarining tahlili va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzish;
- menejment tizimlari auditini o'tkazish va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzish;
- sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish;
- muvofiqlik sertifikatini Sertifikatlashtirish milliy tizimi davlat reestrda (bundan buyon matnda Davlat reestri deb yuritiladi) ro'yxatdan o'tkazish va berish.

Sertifikatlashtirish menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan sertifikatlashtirishga arizaga asosan amalga oshiriladi. menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organini tanlash ariza beruvchi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organiga hujjatlar va ma'lumotlarni ilova qilgan holda sertifikatlashtirishga ariza beradi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirishga arizani, unga zarur hujjatlar va ma'lumotlarni ilova qilgan holda bevosita, pochta aloqasi vositasi orqali yoki elektron shaklda berishi mumkin. Sertifikatlashtirishga ariza elektron shaklda berilgan taqdirda hujjatlarning skaner qilingan versiyasini qabul qiladi, so'ngra ularni sertifikatlashtirish jarayonida asl nusxasi bilan taqqoslaydi.

² O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2016 yil 4 yanvardagi 2-sonli buyrug'iga ilova

menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi elektron shakldagi sertifikatlashtirishga ariza olingani to'g'risida ariza beruvchini xabardor qilinishini ta'minlaydi.

Sertifikatlashtirishga arizaga:

- sifat bo'yicha qo'llanmani;
- menejment tizimi sohasi bo'yicha siyosat va maqsadlarni;
- menejment tizimining ishlashi uchun zarur bo'lgan jarayonlarning tavsifini;
- menejment tizimining muvofiqligiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan xavflarning tavsifini;
- menejment tizimi ishlashi yuzasidan ariza beruvchining rahbariyati tomonidan ichki audit va tahlil o'tkazilganligi to'g'risidagi dalillarni o'z ichiga olgan hujjatlar va ma'lumotlar ilova qilinadi.

Ariza beruvchi o'z ixtiyoriga ko'ra qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilishi mumkin. Sertifikatlashtirishga ariza va unga ilova qilingan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun ariza beruvchi javob beradi.

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi sertifikatlashtirishga arizani ko'rib chiqadi va taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi, natijalari bo'yicha 3 kun mobaynida sertifikatlashtirishga arizani qabul qilish to'g'risida qaror qabul qiladi yoki asoslantirilgan rad javobini yuboradi.

Sertifikatlashtirishga arizani qabul qilishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- hujjatlar va ma'lumotlarning to'liq taqdim etilmaganligi;
- sertifikatlashtirishga arizaga ilova qilingan hujjatlar va ma'lumotlarning soxtaligi yoki noto'g'riligining aniqlanganligi;
- sertifikatlashtirishga arizaning ushbu Nizom bilan belgilangan boshqa talablarga nomuvofiqligi.

Sertifikatlashtirishga arizani qabul qilish rad etilganda hujjatlar ariza beruvchiga qaytariladi. Ariza beruvchi rad etish sabablarini bartaraf etgandan so'ng qayta sertifikatlashtirishga ariza berish huquqiga ega.

Sertifikatlashtirishga ariza qabul qilingan holatda uni qabul qilgan kundan boshlab 3 kun ichida menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi va ariza beruvchi o'rtasida sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risida shartnoma tuziladi. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymatining to'lovi uning natijalaridan qat'i nazar, sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va tartibda amalga oshiriladi. Bunda sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymatining to'lovi sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilingunga qadar amalga oshirilishi kerak.

Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymatining birinchi to'lovidan so'ng 10 kun ichida, biroq shartnoma tuzilgandan so'ng 20 kundan kechiktirmay menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha auditorlar guruhini shakllantiradi. Sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha auditorlar guruhining shaxsiy tarkibi, a'zolarining huquq, majburiyatlari va javobgarligi, shuningdek sertifikatlashtirishni o'tkazish muddatlari va joyi menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi rahbarining qarori bilan belgilanadi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha auditorlar guruhini sifat bo'yicha ekspert-auditor boshqaradi.

Menejment tizimlari hujjatlarining tahlili ularning normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarining talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Menejment tizimlari hujjatlarining tahlili va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzish 15 kundan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkaziladi.

Menejment tizimlari hujjatlarining normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarining talablariga nomuvofiqligi aniqlanganda ariza beruvchiga menejment tizimlari hujjatlarining tahlili natijalari bo'yicha hisobot bilan birgalikda taqdim etiladigan nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtiriladi. Menejment tizimlari hujjatlarining tahlili natijalari bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga olgan hisobot rasmiylashtiriladi:

- Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi nomi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ariza beruvchining nomi va manzili, shuningdek mas'ul xodimning bog'lanish ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

- so'ralgan sertifikatlashtirish sohasining nomi (faoliyat turlari, jarayonlar va tashkiliy tuzilmalarning joylashishini ko'rsatgan holda identifikatsiyasi);
- sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ro'yxati;
- sertifikatlashtirish uchun ariza beruvchi taqdim etgan hujjatlar ro'yxati;
- menejment tizimi ishlashi yuzasidan ariza beruvchining rahbariyati tomonidan ichki audit va tahlil o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun 30 kundan oshmaydigan muddat (nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtirilganda);
- menejment tizimlari hujjatlarining tahlili bo'yicha xulosa.

Hisobotda qo'shimcha ravishda sertifikatlashtirish uchun ahamiyatga ega boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi mumkin.

Nomuvofiqliklar mavjud bo'lmaganda yoki ular bartaraf etilgandan so'ng menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan ariza beruvchi bilan kelishilgan holda menejment tizimlari auditini o'tkazish muddati belgilanadi. Bunda menejment tizimlari auditini menejment tizimlari hujjatlarining tahlili natijalari bo'yicha hisobot rasmiylashtirilgan yoki nomuvofiqliklar bayonnomasida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilgan kundan boshlab 15 kun mobaynida boshlanishi kerak. Menejment tizimlari auditini ularning normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Menejment tizimlari auditini o'tkazish uchun menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan reja tuziladi.

Menejment tizimlari auditini ariza beruvchi joylashgan joyida o'tkaziladi. Menejment tizimlari auditini va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzish 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkaziladi. Menejment tizimlarining normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablariga nomuvofiqligi aniqlanganda ariza beruvchiga menejment tizimlari auditini natijalari bo'yicha hisobot bilan birgalikda taqdim etiladigan nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

Menejment tizimlari auditini natijalari bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga olgan hisobot rasmiylashtiriladi:

- Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi nomi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ariza beruvchining nomi va manzili, shuningdek mas'ul xodimning bog'lanish ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- so'ralgan sertifikatlashtirish sohasining nomi (faoliyat turlari, jarayonlar va tashkiliy tuzilmalarning joylashishini ko'rsatgan holda identifikatsiyasi);
- sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ro'yxati;
- sertifikatlashtirish bo'yicha asoslangan qaror qabul qilish imkonini beruvchi menejment tizimlari auditini o'tkazilganligi to'g'risidagi kuzatuvlar, yozuvlar va dalillar;
- nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun 60 kundan oshmaydigan muddat (nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtirilganda);
- menejment tizimlari auditini bo'yicha xulosa.

Hisobotda qo'shimcha ravishda sertifikatlashtirish uchun ahamiyatga ega boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi mumkin. O'tkazilgan sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan muvofiqlik sertifikatini berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilinganda ushbu qaror qabul qilingan kundan 3 kun ichida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiriladi, Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkaziladi va ariza beruvchiga beriladi. Muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgandan kundan boshlab 5 yilni tashkil qiladi.

Muvofiqlik sertifikatini blankasi qat'iy hisobda turadigan hujjat hisoblanadi, hisobga olish raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi.

Muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinganda menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi ushbu qaror qabul qilingan kuni ariza beruvchini bu haqda xabardor qiladi.

Muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish to'g'risida qaror menejment tizimlari hujjatlarining tahlilida ham, menejment tizimlari auditida ham qabul qilinishi mumkin.

Muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- menejment tizimlari hujjatlarining tahlili yoki menejment tizimlari auditida aniqlangan nomuvofiqliklarning tegishli hisobotlarda belgilangan muddatlarda bartaraf etilmaganligi;
- sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymatining to'lovi amalga oshirilmaganligi;
- menejment tizimlarining ushbu Nizom bilan belgilangan boshqa talablarga nomuvofiqligi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish bilan bog'liq hujjatlar to'plamlari, shu jumladan sertifikatlashtirishga arizalar, hisobotlar, menejment tizimlari auditi rejalari, menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi rahbarlarining qarorlari va muvofiqlik sertifikatlarining nusxalari menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organida 6 yil davomida saqlanadi.

Sertifikatlashtirish natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda ariza beruvchi «O'zstandart» agentligining Shikoyatlarni qarab chiqish kengashiga yoki bevosita sudga murojaat etishga haqlidir. Shikoyatlarni qarab chiqish 2 hafta ichida amalga oshiriladi. «O'zstandart» agentligining Shikoyatlarni qarab chiqish kengashining qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilish mumkin. Avval berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati tugagunga qadar 30 kun mobaynida sertifikatlashtirishga ariza berilganda, menejment tizimi hujjatlarining tahlili va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzishdan tashqari ushbu Nizomda belgilangan tartibda qayta sertifikatlashtirish o'tkaziladi.

Sertifikatlashtirilgan menejment tizimlari ustidan inspeksiya nazorati sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida muvofiqlik sertifikatini bergan MTSO yoki inspeksiya organlari tomonidan yiliga ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatini tasdiqlash, amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoki uni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

18-MAVZU. EKSPERT-AUDITORLAR FAOLIYATI VA ULARNI TAYYORLASH

Ma'ruza mavzusining rejasi:

- 1. Ekspert-auditorlarga qo'yiladigan talablar.**
- 2. Mahsulotni sertifikatlashtirish va sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditorga tavsiya etiladigan talablar.**
- 3. Ekspert-auditorlar tayyorlash.**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, "Venn diagrammasi" ta'lim texnikasi.*

Sertifikatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatda faol qatnashuvchi shaxs bu ekspert - auditordir.

U odatda Sifat tizimlarini, ishlab chiqarishni va mahsulotni sertifikatlashtirishda, sinov laboratoriyalarini akkreditlashda va boshqa ishlarda qatnashishi mumkin.

Ekspert - auditor deb, sertifikatlashtirish sohasida muassasa va korxonalar faoliyatini baholash va nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan attestatlangan shaxsga aytiladi.

Ekspert-auditor sifatida O'zdavstandart tomonidan belgilangan tartibda attestatlangan fan, sanoat, maishiy xizmat, institutlar va boshqa tashkilotlarning vakillari hamda belgilangan hujjatlar bilan ishlashda yetarli chuqur bilimga ega bo'lgan xususiy shaxs ham bo'lishi mumkin.

Ekspert-auditor quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mahsulot, jarayoi, xizmatlarni, Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot, jarayon va xizmatlarning tavsiflarini hamda sertifikatlash tirilgan Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishning turg'unlipshi nazorat qilish;
- sertifikatlashtirish bo'yncha akkreditlash idoralari, sinov laboratoriyalarni (markazlarni) va ularning faoliyatini nazorat qilish;
- sertifikatlashtirishda tavsiyalar berish;

Ekspert-auditorlik katta mas uliyat, ob'ektivlik bilan olib boriladigan faoliyat hisoblanadi. Shu sababdan ham ekspert-auditorlar davriy ravishda attestatsiyadan o'tkazilib turiladilar. Tabiiyki, bunda ularga nisbatan muayyan talablar qo'yiladi.

Ekspert-auditor quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- to'liq oliy ma'lumotli va sertifikatlashtirish sohasida yetarli bilimga ega bo'lib, faoliyati sertifikatlashtirishning ma'lum turi bo'yicha attestatlangan bo'lishi kerak;
- oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng kamida 5 yillik amaliy stajga ega bo'lishi, shundan kamida 3 yili standartlashtirish, metrologiya, sinovlar, sifatni boshqarish va ta'minlash sohalarida ishlagan bo'lishi kerak.

Ekspert-auditor chuqur bilimli, tadbirkor bo'lmog'i lozim. U quyidagi sohalar bo'yicha bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi shart:

- Respublika sertifikatlashtirish milliy tizimining qoida va tartiblar;
- sertifikatlashtirish o'tkazish bo'yicha bilimlar va me'yoriy hujjatlarni tushunish;
- sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha asosiy ishlar mazmuni to'liq anglash;
- sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha iqtisodiy va huquqiy asoslari;
- mamlakat ichidagi va chet ellardagi sertifikatlashtirish va akkreditlash tajribasi;
- standartlashtirish, metrologiya va Sifat tizimlarining asoslari;
- tekshiruv o'tkazish va sifatni boshqarishning statistik hisoblash usullari;

Mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditorlar quyidagi masalalar bo'yicha bilimga ega bo'lishlari kerak:

- mahsulotni sertifikatlashtirishning asosiy qonun-qoidalari, tartiblari;
- sertifikatlashtiriluvchi mahsulotning xossalari, uning konstruktsiyalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, birikma va materiallar;
- sertifikatlashtiriluvchi mahsulotning texnikaviy tavsiflari, o'lchanuvchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash usullari (o'lchash va nazorat), dastavval qo'llanilgan standartlardagi belgilangan va texnikaviy shartlar;
- aniq sinovlar va ularning xillari;
- ishlanma, attestatlash, sinov va o'lchash uslublarini qo'llanishi;
- sinov va o'lchash natijalarini qayta ishlash, sinovlar natijalarini tahlil qilish, ularning aniqliligini va haqqoniyligini baholash usullari;
- mustahkamlik, sifat darajasi, pishiqlik, ishlatishdagi tavsiflarini tahlil qilish, talablarni rad qilish va buzilganligini aniqlash;
- sifatni statistik nazorati, uni baholash usullari;
- sinov va o'lchash uskunalarini, ularni attestatlash, metrologik ta'minlash;
- ishlab chiqarish texnologiyasi, texnologik imkoniyatlar va jihozlanishda ishlash xususiyatlari va vositalari;

- mahsulotni o'rash va joylashtirish, belgilash, saqlash, yetkazib berish va texnikaviy xizmatga bo'lgan talablar.

Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditorlar quyidagi masalalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari kerak

- Sifat tizimlari, shu jumladan, Sifat tizimlariga oid standartlar;
- mahsulot sifatini va mustahkamlikni baholash usullari, hisoblash, tajriba-statistika, natijalarni qayd etish va ekspertlash;
- tayyor mahsulot sifatingshg nazorati, asosii usullarning turlariyai. va texnikaviy vositalarni hamda statistik nazorat usullari;
- marketing bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- loyihalash bo'yicha ishlarni tashkil qilish va ularga talablar;
- material-texnika ta'minoti bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- -hom-ashyoning, myateriallarning va komplekt etuvchi buyumlarning kiritishdagi nazoratini tashkil qilish;
- ishlab chiqarish texnoloshiyasi, ishlash xususiyatlari va texnologik jihozlanish vositalari;
- texnologik uskukani texnikaviy xizmagi va ta'mirlash;
- ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- tekshirish va sinovlar o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- yuklash, ortish-tushirish, transport va ombor bilan bog'liq bo'lgan ishlarni o'tkazish va ularga bo'lgan talablar;
- mahsulotni o'rash va joylashtirish, belgilash, saqlash, yetkazib berish va texnikaviy xizmatiga bo'lgan talablar;
- Sifat tizimlarini iqtisodiy tomondan baholash;
- Sifat tizimlarida samarali qatnashuvi texnikaviy xodimlarni ishtirokini tashkil qilish va tayyorlash.

Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha ekspert-auditor uchun tavsiya etiladigan talablar

- sinaluvchi mahsulotning xossalari, ularning konsruktsiyalari, texnologiyasi, ishlab chiqarilishi, birikma va materiallar tarkibi;
- aniq sinovlar va ularning xillari;
- ishlanma, attestatlash, sinov va o'lchash uslublarini ko'llash;
- sinov va o'lchash uskunolari, uning ishlatish va texnikaviy xizmati, attestatlash, o'lchash usullari;
- sinovlarning metrologik ta'minlanishi, qo'llaniladigan o'lchash vositalarini qiyoslash (kalibrlash).

20-MASHG'ULOT. CHARM POYAFZAL MAHSULOTLARINI SERTIFIKATLASHTIRISHDA SINOVLARNI TASHKILLASHTIRISH

Ma`ruza mavzusining rejasi:

1. Charm payafzal mahsulotlaridan namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish..

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Vizual ma`ruza, bayon qilish, blits-so'rov, "Qanday" texnikasi.

Charm payafzal mahsulotlari GOST 26165-2003 ga muvofiq o'g'il va qiz bolalar poyabzallarini sinovdan o'tkaziladi. Maxsulotni tashqi ko'rinishi va fizik-mexanik ko'rsatkichlari talablari bo'yicha quyidagicha sinovlar o'tkaziladi:

1) Tashqi ko'rinishi

Poyabzalni tashqi ko'rinishiga etibor berish kerak. Unda hech qanday kamchilik nuqsonlar yo'qligiga ishonch hosil qilish kerak. Ustki qismida hech qanday chiziqli, tirilgan joy bo'lmasligi lozim. Asos bilan tagchamni yaxshi yopishtirilganligiga etibor berish kerak bo'ladi. Yana ikkala poyabzalni bir xil ekanligiga, choklar to'g'ri tikilganiga ham ahamiyat berish lozim.

2) Balandligi va orqa balandligi

Poyabzalni balandligi deganda poyabzalni tagchamining tovon qismi tugagan joydan poyabzalni yuqori qismigacha bo'lgan oraliq tushuniladi. Orqa balandligi poyabzalni tovon qismidagi qo'shimcha tikilgan asos qismining balandligi hisoblanadi. Bu balandliklar o'lganda 2 mm xatolikka ruxsat beriladi.

3) Choklar mustahkamligini aniqlash

Poyabzalda 2 qatorli va 1 qatorli choklar ishlatiladi. GOST bo'yicha har ikki choklar uchun alohida qiymatlar mavjud. Choklar mustahkamligini tekshirish uchun eni 4 sm ga teng qilib chok qirib olinadi va uzib ko'rish orqali mustahkamligi aniqlanadi.

4) Tag qismining mustahkamligini aniqlash

Poyabzalni ustki cham qismiga tag qismini qay darajada mustahkam yopishtirilganini bilish uchun kuch yordamida ustki qismidan tag qismini ajratib ko'rish orqali bilinadi. Tag qismini 8 ta bo'lakka bo'linadi. Bo'lak tovon qismi tugagan joydan boshlanadi. Bo'laklar 2 sm dan qilib kesiladi.

5) Burun va orqa qismi deformatsiyasi

Poyabzalni burun va orqa qismi malum deformatsiyaga ega bo'ladi. Burun va orqa qism malum kuch bilan ezilganda GOST da belgilangan miqdorda deformatsiyaga uchrashi kerak. Poyabzalning burun va orqa qismi o'ta qattiq ham o'ta yumshoq ham bo'lmasligi kerak.

6) Egiluvchanligini aniqlash

Poyabzalni egiluvchanligi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki poyabzalning ko'p egilishlarga uchraydi. Poyabzalni egiluvchanligi quyidagicha aniqlanadi: poyabzalni uch qismidan orqa tomonga egiladi, poyabzalni egiluvchanligi 145 dan ortib ketmasligi kerak.

7) Og'irligini aniqlash

Poyabzal ixcham, chiroyli, qulay va o'ta og'ir bo'lmasligi kerak. Poyabzalning har ikki poyining og'irligi bir biriga maksimal darajada yaqin bo'lishi kerak. Lekin GOST da poyabzalni og'irlik qiymati belgilab qo'yilmagan.

21- MAVZU. TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT MAHSULOTLARINI SERTIFIKATLASHTIRISH TARTIBI

Ma'ruza mavzusining rejasi:

- 1. Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari, O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi.**

2. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi umumiy qoidalari. Gigienik sertifikatni, veterinariya va fitosanitariya xulosalarini rasmiylashtirish va berish tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma'ruza, aqliy xujum, "B/B/B" texnikasi.*

To'qimachilik mahsulotlari majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 28-apreldagi "Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 122-sonli Qaroriga asosan paxta tolasi, paxta tolasidan tayyorlangan matolar, paxtadan tayyorlangan va gigienik maqsadda tibbiyot sohasida foydalaniladigan momiq (vata), qo'lda va mashinada to'qilgan bolalar trikotaj kiyimlari hamda tayyor bolalar poyyafzallari majburiy sertifikatlanishi lozimligi ko'rsatilgan.

To'qimachilik mahsulotlarini sertifikatlashtirishda sertifikatlashtirish idorasi arizachining taklifini xisobga olgan xolda sertifikatlashtirilayotgan mahsulotning tavsif (xarakteristika) nomenklaturasini va ularni aniqlash uslublarini (metodlari) belgilaydi.

Agar SI sinovlar uchun tanlagan xarakteristikalar ruyxati mahsulotga MX talablaridan farq qilsa buni ariza buyicha qabul qilingan qarorda ko'rsatib o'tish zarur.

To'qimachilik mahsulotlarini sertifikatlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirishga organiga sertifikatlashtirish uchun ariza tashlash va uni ko'rib chiqish;
- Ko'rsatilgan mahsulot uchun MX va boshqa xujjatlarni taxlil qilish;
- Ariza yuzasidan qaror qabul qilish;
- Sinovlar dasturini tayyorlash va tasdiqlash (6 va 9 sxemalardan tashqari);
- Namunalarni identifikatsiyalash, saralash va laboratoriyaga yetkazish (6 va 9 sxemalardan tashqari);
- Namunalarni ASL da sinovdan o'tkazish (6 va 9 sxemalardan tashqari);
- Mahsulotni ishlab chiqarish jarayonini o'rganish (3,4 va 5 sertifikatlashtirish sxemalari uchun);
- Sifat tizimini baxolash (5 va 6 sxemalar uchun);
- Mahsulot muvofikligini deklaratsiyalash (9 sxema);
- Olingan natijalarni taxlil qilish, Muvofiqlik sertifikatini berish yoki uni berishni man etish.
- Muvofiqlik sertifikatlarini UzMSI Davlat Reestrda registratsiyalash.

Gigienik va Veterinariya ekspertizatsiyasini, Fitosanitariya nazorati sertifikatlashtirish organi (SI) tomonidan mahsulotga aloqador tegishli Gigienik, Veterinariya, Fitosanitariya yoki ekologik talablar mavjudligini xisobga olgan xolda belgilanadi. Ushbu protseduralar sertifikatlashtirish sinovlari bilan bir vaqtda o'tkazilishi mumkin va muvofiqlik sertifikatini berilgunga qadar arizachiga tegishli xujjatlarni taqdim etish bilan yakunlanishi lozim.

SI tadbirkorlik sub'ektlarning yozma arizasiga muvofiq, sertifikatlashtirishni o'tkazish va barcha kerakli xulosalarni Davlat Sanitariya nazorati, Davlat Veterinariya nazorati va Davlat O'simliklar karantin xizmati, xamda Tabiatni muxofaza qilish organlaridan olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko'rsatish xuquqiga ega. Shu asosda, probalarni to'g'ri saralab olish va ularni tegishli davlat organlariga taqdim etish uchun xam javobgarlik SI zimmasida xisoblanadi.

SI arizachilarning talablari asosida ularga quyidagi ma'lumotlarni tayyorlashi va yetkazishi zarur:

- Sertifikatlanishi shart bo'lgan mahsulot turlari ro'yxati yoki undan chiqarilgan turlar ro'yxatini (vo'piska);
- SI akkreditatsiyalash soxasi bo'yicha turdosh mahsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari;
- Sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlarga narxlar preyskuranti (tariflar);
- «O'zstandart» agentligi tomonidan berilgan akkreditatsiya xakida guvohnoma;

O'z MSI doirasida sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun arizachi tegishli SI ariza junatadi. Arizachi sertifikatlashtirish qoidalari va turdosh mahsulotlarni sertifikatlashtiruvchi organ xaqida ma'lumotga ega bulmasa, bu xakda ma'lumotni sertifikatlashtirish milliy organida (MSI) yoki uning xududiy organlarida olish mumkin.

Chetdan olib kirilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda quyidagi xujjatlar taqdim etilishi kerak:

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning me'yoriy xujjati nusxasi (u bor bo'lsa);

Maxsulotni markalash namunasi yoki mahsulot xaqida ma'lumot;

O'zbekiston Respublikasi Bojxona xududiga kirib kelganligi to'g'risida belgi bilan tovar xujjatining nusxasi (invoys, schyotfaktura, tovarno-trajportnaya nakladnaya).

Agar bor bo'lsa-Davlat Sanitariya nazorati organi laboratoriyasidagi sinovlar natijalarini va MX da belgilangan boshqa talablar (veterinariya va Fitosanitariya xulosasi, ekologiya sertifikat) tugrisidagi ma'lumotlarni uz ichiga olgan Gigienik sertifikat nusxasi.

Agarda arizachi tomonidan bir vaktning uzida Gigienik sertifikat va muvofiklik sertifikati olish uchun ariza berilgan bo'lsa, Gigienik sertifikatning nusxasi uni belgilangan tartibda tuzib chiqilgandan so'ng taqdim etiladi.

Chetdan olib kirilayotgan sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotga MX Respublikada yuk bo'lsa, u xolda sifat ko'rsatkichlari va xavfsizlik bo'yicha sertifikatlashtirish sinovlari ushbu turdagi mahsulotning muvofiqlik talablari asosida amalga oshiriladi.

Agar olib kirilayotgan mahsulot uchun arizachi tomonidan kerakli me'yoriy xujjatlar yoki xavfsizlik bo'yicha texnik xarakteristikalar taqdim etilmasa, ushbu mahsulotni sertifikatlashtirish shu turdagi mahsulotlarni xujjatlashtirish yoki gigienik sertifikat asosida amalga oshiriladi. MX ga ega bo'lmagan, xamda gigienik sertifikatlashtirish shart bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirish identifikatsiya usuli bilan o'tkaziladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda quyidagi xujjatlar taqdim etilishi lozim:

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy xujjatlar nusxasi.
- Maxsulotni markalash namunasi (Maxsulot xakida ma'lumot).
- Agar bor bo'lsa, davlat sanitariya nazorat organi laboratoriyasida o'tkazilgan sinovlar natijalarini va MX da ko'rsatilgan boshqa talablar (Veterinariya va Fitosanitariya xulosasi, Ekologik sertifikat) xaqida ma'lumotlarni jamlagan gigienik sertifikat nusxasi.

Agarda arizachi tomonidan bir vaqtning o'zida xam gigienik xam muvofiqlik sertifikati olishga ariza tashlangan bo'lsa, gigienik sertifikat nusxasi uni belgilangan tartibda to'ldirilgandan sung taqdim etiladi. Ariza berilgan vaqtda mahsulotni sertifikatlashtirishga akkreditatsiyalangan SI yuk bo'lsa, ariza MSI yoki uning xududiy organiga junatiladi va o'z navbatda u sertifikatlashtirishni o'tkazishni tashkil etish va sertifikatlashtirish sinovlari uchun ASL tayin kilishi kerak. Maxsulotni sertifikatlashtirish uchun bir nechta SI bo'lsa arizasi o'z ixtiyoriga ko'ra ulardan biriga murojat qilishi mumkin. SI arizasini ko'rib chiqib, undagi xujjatlarni taxlil qiladi va ikki kun muddat ichida arizachiga qarorni ma'lum qiladi. Bu qaror sertifikatlashtirishning turdosh mahsulotni sertifikatlashtirish tartiblariga asoslangan barcha asosiy shartlarni mujassamlashtirigan bo'lib, unda shu jumladan muvofiq ravishda sertifikatlashtirish o'tkaziladigan MX va sertifikatlashtirish sxemasi, xamda sinovlar o'tkazuvchi ASL ko'rsatiladi. Tavsiya qilingan qaror formasi ushbu qoidalarning № 3 ilovasida keltirilgan.

Sertifikatlashtirilayotgan mahsulotga gigienik, veterinar, fitosanitar yoki ekologik me'yor va talablar MX da mavjud bo'lsa, karorda gigienik, veterinar, fitosanitar va ekologik xulosalar (sertifikat) olish zaruriyati ko'rsatiladi.

Maxsulotni sertifikatlashtirishni o'tkazish muddati ushbu mahsulot sinovlari va nazoratining MX da ko'rsatilgan muddatlari va sinov muddatlariga (uslublari) muvofiq bo'lishlari lozim. Bu muddat qo'shimcha xujjatlarni olish uchun ketadigan vaqtni xisobga olish (gigienik sertifikat, veterinariya xulosasi va boshqalar) lekin bir oydan oshmasligi kerak.

Tez buzuluvchi mahsulotni (qishloq xo'jalik va Oziq-ovqat mahsulotlari) sertifikatlashtirishi muddati ariza berilgan kundan boshlab 3 (uch) kundan oshmasligi lozim. Sertifikatlashtirishda MX ning barcha talablari bo'yicha tekshirish zaruriyati SI tomonidan xar bir aloxida xolatda, undagi qo'shimcha xujjatlarni xisobga olgan xolda belgilanadi (ishlab

chiqarish yoki sifat tizimiga sertifikat, mas'ul tashkilotlarning sinov protokollari, gigienik, fitosanitar, ekologik sertifikatlar (xulosalar) yetkazib beruvchining texnik xujjatlari va boshqalar).

Shu jumladan, SI ga takdim etilayotgan gigienik sertifikatlar davlat sanitariya nazorati organidagi sinov bayonnoma nusxalari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Agarda qo'shimcha xujjatlar ASL da aniq ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazilgan sinovlar natijalarini jamlagan bo'lsa, SI bu natijalarni muvofiklikni baxolash uchun qo'shimcha sinovlarsiz ishlatishi mumkin. Bu xolda sinovlarning o'tkazilgan vakti xisobga olinadi va bu muddat mahsulotning MX bo'yicha yaroqlilik muddatidan oshmasligi kerak.

Sertifikatlashtirish maqsadidagi sinovlar ASL bo'lmasa, sertifikatlashtirish organining murojatiga asosan MSI sinovlari o'tkazish joyi, tartibi va shartlarni aniqlab beradi, ularning natijalarining xolisligini (ob'ektivligi) ta'minlagan xolda. Sertifikatlashtirish uchun mahsulot namunalarini tanlash va identifikatsiyalash SI tomonidan ariza kabul kilingan kundan boshlab ikki kun muddatdan kechikmagan xolda ishlab chiqarish joyiga borib amalga oshiriladi. Namunalar soni, saralash tartibi, saklash va identifikatsiya qoidalari MX da sertifikatlashtirilishi zarur bo'lgan mahsulotga nisbatan o'rnatiladi, shu jumladan sinov uslublari bo'yicha xam.

Respublikaga olib kirilayotgan mahsulot partiyasini sertifikatlashtirish uchun saralab olinadigan namunalar sonini SI, MX sinov metodlariga muvofiq sinovlar o'tkazishni ta'minlashni xisobga olgan xamda aniqlab beradi. Bunda akkreditatsiyalangan organ va laboratoriyalarda sinovdan utish uchun olib kirilayotgan mahsulotning MSI tomonidan belgilangan saralash me'yorlari chegaralariga rioya qilish zarur.

Namunalarni saralashda sertifikatlashtirishga taqdim etilgan mahsulotni identifikatsiyalash turdosh mahsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari asosida amalga oshiriladi. Agar identifikatsiya natijalariga ko'ra arizachi takdim etgan namunalar arizada, talabnomada ko'rsatilgan MX ga nomuvofik bo'lsa yoki sertifikatlashtirilayotgan mahsulotning tipovoy namunasi xisoblanmasa, u xolda namunalarni saralash o'tkazilmaydi va arizachiga sertifikatlashtirishni o'tkazilmasligi to'g'risida asosli rad javobi beriladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot namunalarini saralab olish sinov (proba) namunalarini saralash xaqida akt va ikki ekzemplardan iborat namuna bilan to'ldiriladi, xamda bu namunaning bir nusxasi arizachiga beriladi.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan tovarlarni bojxona nazorati ostida saqlanayotgan import mahsulotlardan sertifikatlashtirish uchun proba va namunalar saralab olish bojxona organi ruxsati bilan va mahsulot egasi yoki uni vakili ishtirokida sertifikatlashtirish organi tomonidan o'tkaziladi. Bunda sertifikatlashtirish organi vakili tomonidan «O'zstandart» agentligi joriy etgan formada (shaklda) va namunalar saralash tugrisida 3 (uch) nusxadan iborat dalolatnoma tuziladi va uning ikkinchi nusxasi bojxona organiga taqdim etiladi. Arizachi uz ixtiyoriga binoan sertifikatlashtirilayotgan mahsulotning texnik xarakteristikasi taqdim qilishi mumkin.

Shu jumladan arizachi SI ga mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash va yo'lga qo'yishda o'tkazilgan sinovlar bayonnomalari yoki Uzbekiston Respublikasi akkreditatsiya tizimida tan olingan yoki akkreditatsiyadan o'tgan sinovlar to'g'risidagi xujjatlarni xam taqdim etish mumkin.

Arizachining yoki uning vakilining iltimosiga asosan ularga ASL da o'tkaziladigan sinov shartnomalari bilan tanishish imkoniyati beradi. Arizachi o'z mahsulotini sinovdan o'tkazish jarayonida ishtirok etish xuquqiga ega. Bunda ASL maxfiylikni ta'minlash choralari ko'rish kerak. Namunalar sinovi natijalar to'g'riligi va sifatiga, xamda sinov protokollari saqlanish uchun ushbu sinovlarni o'tkazgan ASL javobgardir. Sinov protokollari vakolatli sinovchi-mutaxassislar tomonidan imzolanadi va ASL raxbari tomonidan tasdiqlanadi.

Sinov protokollari arizachiga va SI ga taqdim etiladi. Agarda ba'zi alohida parametrlar (o'lchovlar) bo'yicha sinovlar turli ASL larda o'tkazilgan bo'lsa, u xolda belgilangan talablarga mahsulotning muvofiqligining ijobiy baxosi bo'lib ijobiy baxolangan sinov natijalarining barcha zarur bayonnomalari mavjudligi xisoblanadi. Sinov natijalari qoniqarsiz chiqqanda, xamda

xujjatlar to'liq taqdim etilmagan xollarda SI arizachiga konunchilikning aniq me'yorlarini ko'rsatgan xolda muvofiqlik sertifikatini berishni rad etuvchi xulosasini topshiradi.

Sinovlar davomida butunlay buzilgan mahsulot buyicha uni xisobdan chiqarish haqida arizachi yoki uning vakili ishtirokida akt tuziladi.

Sinovlar davrida buzilmagan yoki kisman buzilgan mahsulot egasi ya'ni arizachiga kaytarib beriladi va qaytarib berilganlik tugrisidagi xujjat imzolanadi.

Sertifikatlashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarilishini tekshirib chiqish SI da ishlab chiqilgan va «Uzstandart» agentligi tasdiklagan turdosh mahsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari asosida o'rnatiladi.

Sertifikat davlat tizimi yoki rus tilida tuziladi (to'ldiriladi). Tuzilgan muvofiqlik sertifikatini Uz MSI Davlat reestrda qayd qilinadi, sertifikat qayd qilish nomeri bo'lsagina haqiqiy xisoblanadi. Muvofiqlik sertifikatini arizachiga ikki ish kuni davomida beriladi, SI tomonidan ishlab chiqarishni tekshirish o'tkazilgan xolatda esa SI sinov natijalari qabul qilgan vaqtdan boshlab besh ish kun davomida beriladi. Muvofiqlik sertifikatini olib kirilayotgan mahsulotga mahsulot yaroqlilik muddatiga mos ravishda, seriyali ishlab chiqarilayotgan mahsulot uchun esa 3 (uch) yil muddatga beriladi. O'zstandart» agentligi tomonidan inspeksion nazorati va muojaroli masalalarni xal etish uchun, SI namunalarni saralash dalolatnomalari, ishlab chiqarishni tekshirish va baxolash dalolatnomalari, sinov protokollari nusxalari muvofiqlik sertifikatining xarakatdagi muddati davomida saklanadi va bu muddat bir yildan kam bulmasligi kerak. Bayonnomalar nusxalarini saklash muddati va tartibi SI xujjatlari va sinov laboratoriya xujjatlari, xamda turdosh mahsulotlarni sertifikatlash qoidalarida ko'rsatiladi, ko'rsatilgan xujjatlarning saqlanish muddati o'tgandan so'ng ular yuk qilinadi yoki arxivga o'tkaziladi.

Berilgan muvofiqlik sertifikatiga asoslanib belgilangan sertifikatlashtirish sxemasini xisobga olgan xolda arizachiga muvofiqlik sertifikatini qo'llash va muvofiqlik belgisidan foydalanish xuquqini berish to'g'risidagi bitim imzolanadi. Ushbu bitimda sertifikatlashtirilgan mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan markalash usullari va inspeksion nazorati aniq ko'rsatilgan bo'lishi zarur. Sertifikatlashtirilgan seriyali tarzda ishlab chiqarilayotgan mahsulot ishlab chiqaruvchi-tashkilot javobgarligi ostida muvofiqlik belgisi bilan markalanadi.

Sertifikatlashtirilgan mahsulot ma'lum qismining ishlab chiqaruvchi tomonidan realizatsiya qilinishi, muvofiqlik sertifikatini nusxasi yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bu nusxa sertifikatni bergan organ yoki notarial idora, yoki haqiqiy sertifikat egasining muxr va imzosi bilan tasdiklangan bo'lishi zarur. Sertifikat nusxalari mahsulot uchun berilgan tovar xujjatlariga muvofiq ravishda ro'yxatga olinadi. Xar bir nusxada uning registratsiya raqami va realizatsiya qilinayotgan mahsulot soni ko'rsatiladi.

Muvofiqlik sertifikatini o'z kuchida bo'lgan davrda ishlab chiqarilgan mahsulot sertifikatlangan xisoblanadi va kayta Sertifikatlashtirilishi shart emas. Mahsulot sertifikatlashtirilganining tasdig'i sifatida muvofiqlik belgisi va tegishli xujjatlarda keltirilgan ishlab chiqarilgan sanasi xisobga olinadi. Arizachi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning muvofiqlik sertifikatini muddati tugashga yaqin (bir oydan kam bo'lmagan xolda) takroriy sertifikatlashtirish uchun SI ga ariza berishi mumkin. Bu xolda SI inspeksion nazorati natijalarini xisobga olgan xolda Sertifikatlashtirish sxemasini o'zgartirishga xaqli.

Mahsulot tarkibiga yoki ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritish rejalashtirilganda va bu o'zgartirishlar sertifikatlashtirishda xisobga olinadigan mahsulot xarakteristikasiga ta'sir etadigan bo'lsa, ishlab chiqaruvchi bu xakda SI ni xabardor qilishi kerak. SI o'z navbatda bu xususda tegishli choralar qabul qiladi.

Seriyali tarzda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini bergan SI yiliga kamida bir marotaba sertifikatlashtirilgan mahsulotni inspeksion nazorati tekshiruvidan o'tkazadi, Bundan maksad sertifikatlashtirishda ko'rsatilgan talablarga mahsulotning amalda muvofiqligini kuzdan kechirish. Inspeksion nazorati vaktida sertifikatlashtirish sxemasiga tayangan xolda mahsulot sinovi yoki ishlab chiqarishni tekshiruv o'tkaziladi.

22- MAVZU. TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT MAHSULOTLARIGA MUVOFIQLIK SERTIFIKATINI BERISH TARTIBI

Ma`ruza mavzusining rejasi:

1. **Sinov bayonnomasini rasmiylashtirish.**
2. **Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi.**
3. **Muvofiqlik sertifikatini berish.**

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Vizual ma`ruza, blits so'rov, "Insert" ta'lim texnologiyasi.*

Milliy sertifikatlash tizimi doirasida sertifikatlashtirish ishlari so'rovchi tomonidan tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi bo'yicha aniqlangan tizim doirasida olib boriladi. Sertifikatlashtirish tartibi va uning o'rnatilgan qoidolari mavjud bo'lib, sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari sertifikatlashtirish ob'ekti va turlariga bog'liq bo'lmagan o'zgarmas jarayon deb hisoblash mumkin. Odatda qabul qilingan va sertifikatlashtirish jarayonining beshta asosiy bosqichga bo'lishimiz mumkin:

1. Sertifikatlashtirishga ariza.
2. Sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish.
3. Sertifikatlashtirish ob'ektini muvofiqligini o'rnatilgan talablar bilan baholash.
4. Muvofiqlikni baholash natijalarini tahlili va uni rasmiylashtirish.
5. Sertifikatlashtirish ob'ekti ustidan inspeksiya nazorat.

To'qimachilik mahsulotlarini sertifikatlashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 6-iyuldagi 318-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirishni amalga oshirish sxema bo'yicha, qoidaga ko'ra, ikki bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich bir vaqtning o'zida, zaruriyatga ko'ra, veterinariya va fitosanitariya xulosalari tegishli ravishda davlat veterinariya nazorati va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlarida rasmiylashtirilgan holda «O'zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazorati organlarida gigienik sertifikat rasmiylashtirilishini o'z ichiga oladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati sub'ekti:

gigienik sertifikatni rasmiylashtirish uchun ariza bilan birgalikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlariga (keyingi o'rinlarda sertifikatlashtirish organlari deb ataladi) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish yuzasidan ariza berishga;

zarurat bo'lganda tegishli xulosalar olish uchun veterinariya va fitosanitariya nazorati organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ikkinchi bosqich — sertifikatlashtirish organlari tomonidan muvofiqlik sertifikati berishdir.

Sertifikatlashtirish organlari tadbirkorlik sub'ektlarining yozma arizasiga muvofiq davlat sanitariya nazorati organlarida, davlat veterinariya nazorati va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlarida, shuningdek tabiatni muhofaza qilish davlat organlarida sertifikatlashtirishni o'tkazish va barcha zarur xulosalarni olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko'rsatishga haqlidir.

Bunda namunalar tanlab olinishi, shuningdek ular to'g'ri tanlanganligi va ular tegishli davlat organlariga taqdim etilishi uchun sertifikatlash organlari javob beradilar. Ko'rsatib o'tilgan xizmatlarga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

To'qimachilik mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish sertifikatlash organlari tomonidan amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish organini tanlash arizachi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi istalgan vaqtda, sertifikatlashtirish organlari esa birinchi talabga ko'ra quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- muvofiqlik sertifikatini majburiy tartibda bo'lishi kerak bo'lgan mahsulot turlarining ro'yxati yoki ro'yxatdan ko'chirma;
- akkreditatsiya qilish sohasiga taalluqli bo'lgan bir turdagi mahsulotni sertifikatlash qoidalarini;
- sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar narxlarini (tariflari) preyskuranti;
- davlat vakolatli organida akkreditatsiya qilinganlikni tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish organi ko'rsatib o'tilgan hujjatlar nusxalarini taqdim etganlik uchun nusxalarni tayyorlash xarajatlaridan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lov undirishga haqlidir.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjat nusxasi;
- mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- gigienik sertifikat nusxasi.

Ariza beruvchi tomonidan ayni bir vaqtda gigienik sertifikat va muvofiqlik sertifikatini olishga ariza berilgan taqdirda gigienik sertifikat nusxasi, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan keyin taqdim etiladi.

Chetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);
- gigiena sertifikatining nusxasi
- mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga yetib kelganligi to'g'risida belgi qo'yilgan tovarning ilova hujjati (tovar-transport yuk xati, inyoys, schyot-faktura) nusxasi.

Sertifikatlashtirish maqsadida sertifikatlashtirish organlariga standartlash bo'yicha rasmiy, «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar nusxalari taqdim etiladi, boshqa hollarda, shu jumladan o'z ehtiyojlari uchun, tasdiqlanmagan nusxalardan foydalanilishi mumkin.


Arizada nazarda tutilgan taqdirda, sertifikatlashtirish organi sertifikatlashtirish ishlarini gigienik sertifikat (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini kechiktirgan holda boshlashi mumkin. Bu holda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir. Sertifikatlashtirish organi ariza berilgan kundan boshlab ikki kun muddatda joyiga borib sertifikatsiya sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalarini tanlab oladi va identifikatsiya qiladi. Namunalarni soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalarini mahsulotga normativ hujjatlarda belgilanadi. Ariza beruvchi o'z mahsulotining tanlab olinishida va sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Bunda laboratoriyada maxfiylikni ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilishi kerak. Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchliligi uchun «O'zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan laboratoriya (markaz) javob beradi. Sinovlar protokollarini mas'ul mutaxassislar imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga akkreditatsiya qilingan laboratoriyalardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar mahsulotni alohida parametrlari bo'yicha sinovlar turli sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda sinovlarning ijobiy natijalari bilan birga barcha zarur protokollarning mavjudligi mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligining ijobiy bahosi hisoblanadi.

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek hujjatlarning to'liq bo'lmagan komplektini taqdim etish muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish uchun asos hisoblanadi, bu to'g'rida sertifikatlashtirish organi ariza beruvchiga aniq qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Xulosa berishni rad etganlik yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin. Sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlar va sinovlarning ijobiy natijalari asosida ikki ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiboti sxemasi



Sertifikatlashtirish tartibotining umumiy muddati 10 kundan 30 kungachani tashkil etadi

“SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI” FANIDAN AMALIY MASHG’ULOTI MATERIALLARI

1–AMALIY MASHG’ULOT

MAVZU: MAHSULOTLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SERTIFIKATLASHTIRISHNING O’RNI

Reja:

1. Sertifikatlashtirish soxasi bo’yicha asosiy tushunchalarni izoxlash.
2. Sertifikatlashtirishning maqsadi va vazifalari.
3. Mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda sertifikatlashtirishning ahamiyati.

Ishning maqsadi: Talabalarda sertifikatlashtirish xaqida boshlang’ich tushunchani xosil qilish va amaliyotda uchraydigan atamalar va tushunchalarni izoxlash, sertifikatlashtirishning maqsadi va vazifalari hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda sertifikatlashtirishning ahamiyatini talabalarga tushuntirish.

Sertifikatlashtirish guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma'nolarini bildiruvchi certifikat (lotincha) so'zidan olingan bo'lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

"sertifikatlashtirish milliy tizimi" - davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim;

"mahsulotlarni sertifikatlashtirish" (matnda bundan keyin "sertifikatlashtirish" deb yuritiladi) - mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

"muvofiqlik sertifikat" - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

"muvofiqlik belgisi" - muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoxud ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi;

"bir turdagi mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi" - ayni bir xil standartlar va qoidalar qo'llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi;

"sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish" - sinov laboratoriyasining (markazining) muayyan mahsulot sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshirishga doir vakolatlarining rasmiy e'tirofi;

"sifat bo'yicha ekspert-auditor" - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya qilish va tekshirish sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakasi bo'lgan mutaxassis;

"sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organi" - belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlangan mahsulot va sifatni boshqarish tizimini baholashni sertifikatlashtirish organlari topshirig'iga binoan amalga oshiruvchi organ;

"nazorat yo'sinidagi tekshiruv" - belgilangan talablarga muvofiqligini sertifikatlashtirish va akkreditatsiya qilish chog'ida tasdiqlash maqsadida sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimini yoki ishlab chiqarishni, sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari) faoliyatini takroriy baholash taomili.

Sertifikatlashtirish - Mahsulotning muvofiqligini belgilangan talablarga aniq javob berishini isbotlanganligini tasdiqlash. (*Sifatsiz mahsulot sertifikatlashtirilishi mumkin emas.*)

Sertifikatlashtirish - mahsulotga, xizmatga normativ hujjatlarda belgilangan talablarni bajarilganligini 3- tomondan tasdiqlanishi.

1 -tomon- ishlab chikaruvchi

2- tomon- iste'molchi

3- tomon- birinchi va ikkinchi tomondan ham mustaqil ish ko'radigan idora.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak. Sifat ko'rsatkichlari esa ma'lum, belgilangan talablarga muvofiq mos kelishi lozim. Muvofiqlik o'z navbatida ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish (ya'ni tasdiqlash) mumkin.

Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi muvofiqlikni sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun tadbirlar, tartiblar va boshqaruv qoidalarini ishlab chiqishdir.

Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari:

- odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;
- mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta'minlash;
- mamlakat korxonalari, qo'shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;
- iste'molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdotsizligidan himoya qilish;

- mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta'kidlagan sifat ko'rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy tusda bo'ladi

Mahsulotlar (shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar), xizmatlar, shuningdek sifat tizimlari sertifikatlashtirish ob'ektlari hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligining o'zi, uning tomonidan akkreditatsiya qilingan yoki e'tirof etilgan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar, shuningdek mahsuloti sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish sub'ektlaridir.

Sertifikatlashtirish sub'ektlari-yuridik shaxslar sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirish tizimlari tuzishlari mumkin. Yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish tizimlari "O'zstandart" agentligi belgilagan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

2-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: SERTIFIKATLASHTIRISHNIG XUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" Qonuni. "Isteme' molchining huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi 122-sonli "Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini o'rganish

Ishning maqsadi: Sertifikatlashtirish amaliyotlarni tashkil etishda sertifikatlashtirishning qonuniy va xuquqiy asoslarini talabalarga tanishtirish va yuqoridagi Qonunlar va Qarorlar sharxlab berish.

O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1993 yil 28 dekabrda (N 1006-XII) qabul qilingan. Ushbu Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zg'ratirishlar kiritilgan (O'zR 31.08.2000 y. 125-II-son Qonuni, O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni, O'zR 06.04.2006 y. O'RQ-31-son Qonuni, O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni, O'zR 07.10.2013 y. O'RQ-355-son Qonuni).

Qonun 4 bob va 23 ta moddadan iborat bo'lib, mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob'ektlarni sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi.

Qonunning 1-bobi sertifikatlashtirish umumiy qoidalari jumladin, asosiy tushunchalar, sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari, sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari, xalqaro shartnomalar va bitimlar, O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari va sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

2-bobda esa Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi, sertifikatlashtirish faoliyatini amalga oshirish va sertifikatlashtirish to'g'risida axborot bo'yicha umumiy talablar belgilangan.

3-bobda mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish tartiblari, majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish, uni o'tkazish shartlari, majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar, tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish vaqtidagi majburiyatlari, chetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish tartiblari, majburiy sertifikatlashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta'minoti, majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishini davlat

tomonidan tekshirish va nazorat qilish, nazorat yo'sinidagi tekshiruv, ixtiyoriy sertifikatlashtirish va uni amalga oshiruvchi sub'ektlar va ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlari bo'yicha talablar keltirilgan.

Qonunnig 4-bobida nizolarni qarab chiqish, sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarliklar belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'risida"gi Qonuni 1996 yil 26-aprelda qabul qilingan. Qonun 30 moddadan iborat bo'lib, qonunnig maqsadi iste'molchilar huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Qonunnig 4-moddasiga asosan iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:

tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi;

hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining to'liq hajmda qoplanishi;

buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;

iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste'molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtojlar toifasiga kiritilgan ayrim guruhlar uchun qonun hujjatlari bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko'rsatishning boshqa turlari bo'yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

Qonunga ko'ra ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma'lumotda quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- ✓ tovar (ish, xizmat) majburiy talablariga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi;
- ✓ tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste'mol xususiyatlari, shu jumladan, o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati;
- ✓ bahosi (tarifi) va sotib olish shartlari; (O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni tahriridagi xat boshi)
- ✓ ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;
- ✓ ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari;
- ✓ tovaridan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari;
- ✓ tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ✓ ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning nomi va mulkchilik shakli, ro'yxatga olish va litsenziya guvohnomasining nomeri;
- ✓ ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergan, shuningdek ta'mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko'rsatadigan korxonalarning manzillari;
- ✓ tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari;
- ✓ teatr-kontsert tadbirlari o'tkazilayotganda fonogrammadan foydalanilishi to'g'risidagi axborot. (O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni tahriridagi xat boshi)

Sertifikatlanishi shart bo'lgan tovar haqida iste'molchiga uning sertifikatlanganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etilishi lozim.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi zarur axborotning yo'qligi bunday tovar (ish, xizmat)ni realizatsiya qilish ma'lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasi bo'yicha to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot berilganligi:

- ✓ zarur iste'mol xossalari ega bo'lmagan tovar (ish, xizmat) sotib olinishiga sabab bo'lsa, iste'molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilishga haqlidir;
- ✓ sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan ko'zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo'lsa, iste'molchi tegishli ma'lumot oqilona qisqa (ko'pi bilan uch kunlik) muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Agar ma'lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararining qoplanishini talab qilishga haqlidir;
- ✓ iste'molchining hayotiga, sog'lig'iga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.
- ✓ Iste'molchining tovar (ish, xizmat) haqidagi noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablari sotib olingan tovar (ish, xizmat)ning xossalari va jihatlari haqida iste'molchi maxsus bilimiga ega emas degan taxminga asoslanib qarab chiqiladi.

Noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Iste'molchi shartnoma tuzish yo'li bilan tovarni (ish, xizmatni) erkin sotib olish huquqiga ega bo'lib, bu shartnomaga ko'ra sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) iste'molchiga muayyan miqdordagi va maqbul sifatli tovarni mulk qilib topshirish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) majburiyatini, iste'molchi esa, shartlashilgan pulni to'lash majburiyatini o'z zimmlariga oladilar.

Narxnoma bilan qo'yilgan tovarlar hamda tovar (ish, xizmat)lar haqida keluvchilar e'tiboriga havola etiladigan ma'lumot tegishli shartnomani tuzish uchun taklif deb hisoblanadi.

Tomonlar o'rtasida shartnoma narsasi, miqdor, narx va boshqa muhim shartlar to'g'risida kelishuvga erishilsa, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o'rtasida shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Tuzilgan zahoti bajariladigan shartnoma, qoida tariqasida, og'zaki shaklda tuziladi, qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno. Tuzilgan vaqtdan boshqa paytda (oldindan beriladigan buyurtmalar bo'yicha, jo'natma savdoda va boshqa hollarda) bajariladigan shartnoma yozma shaklda tuziladi.

Iste'molchi sotib olingan tovar (ish, xizmat) sifatini, butligini, vazni va narxini tekshirish huquqiga ega, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) esa, nazorat-o'lchov asboblari, narxga doir hujjatlarni taqdim etishi, tovarni ishlatib ko'rsatishi, undan xavfsiz va to'g'ri foydalanishni o'rgatishi, zarurat bo'lsa, tovarni ekspertizaga yuborishi shart.

Iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart. Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lmagan taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho'l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste'molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchining roziligi bilan sotuvchi nuqsonli tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berib, xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 28-apreldagi "Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 122-sonli Qarorining asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti

tizimlarini joriy etishni takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7-yanvardagi PQ-1464-son qarori bilan tasdiqlangan 2011-2015 yillar davrida O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini chuqurlashtirish va kengaytirish, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini shakllantirish mezonlarini va baholash tizimini belgilash va amalga oshirish chora-tadbirlari dasturini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7-fevraldagi PQ-1474-son **qarori** bilan tasdiqlangan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturini bajarish. Qarorga ko'ra 2011 yil 1 maydan boshlab ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan sotilgan sertifikatlashtirilgan mahsulot hajmidan muvofiqlik belgilaridan foydalanganlik uchun sertifikatlashtirish organlariga doimiy litsenziya ajratmalarini to'lash to'g'risidagi talablarni, ularning o'rniga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan miqdordagi bir martalik to'lovni joriy etgan holda, bekor qilish va eksportga yetkazib berish uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtirish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ayrim turlarini sertifikatlashtirishning ma'lum qilish tartibini 2011 yil 1 maydan boshlab joriy etish belgilangan. Xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish yo'li bilan chetdan keltirilayotgan texnologik uskunalar va ularning qismlarini sertifikatlashtirish tartibini soddalashtirish belgilangan. Qarorda majburiy tartibda sertifikatlanadigan, O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan va unga olib kiriladigan mahsulotlar turlari ro'yxati ilova qilingan.

Bundan tashqari Qarorda O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan texnologik uskunalar va ularning qismlariga xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish tartibi to'g'risidagi **nizom**, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi tomonidan ma'lum qilish tartibi to'g'risidagi **nizom**, «O'zstandart» agentligining mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosi tashkil etilishi uning asosiy vazifalari belgilangan.

3–AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SERTIFIKATLASHTIRISH AMALIYOTI

Reja:

1. Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari.
2. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi.
3. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi umumiy qoidalari.

Ishning maqsadi: Talabalarga mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi bilan tanishtirish va sertifikatlashtirish amaliyoti bo'yicha ko'nikmalarni xosil qilish.

Sertifikatlashtirishni amalga oshirish sxema bo'yicha, qoidaga ko'ra, ikki bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich bir vaqtning o'zida, zaruriyatga ko'ra, veterinariya va fitosanitariya xulosalari tegishli ravishda davlat veterinariya nazorati va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlarida rasmiylashtirilgan holda «O'zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazorati organlarida gigienik sertifikat rasmiylashtirilishini o'z ichiga oladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati sub`ekti:

gigienik sertifikatni rasmiylashtirish uchun ariza bilan birgalikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlariga (keyingi o'rinlarda sertifikatlashtirish organlari deb ataladi) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish yuzasidan ariza berishga;

zarurat bo'lganda tegishli xulosalar olish uchun veterinariya va fitosanitariya nazorati organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ikkinchi bosqich — sertifikatlashtirish organlari tomonidan muvofiqlik sertifikatini berishdir.

Sertifikatlashtirish organlari tadbirkorlik sub'ektlarining yozma arizasiga muvofiq davlat sanitariya nazorati organlarida, davlat veterinariya nazorati va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlarida, shuningdek tabiatni muhofaza qilish davlat organlarida sertifikatlashtirishni o'tkazish va barcha zarur xulosalarni olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko'rsatishga haqlidir.

Bunda namunalar tanlab olinishi, shuningdek ular to'g'ri tanlanganligi va ular tegishli davlat organlariga taqdim etilishi uchun sertifikatlash organlari javob beradilar. Ko'rsatib o'tilgan xizmatlarga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

To'qimachilik mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish sertifikatlash organlari tomonidan amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish organini tanlash arizachi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi istalgan vaqtda, sertifikatlashtirish organlari esa birinchi talabga ko'ra quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- ❖ muvofiqlik sertifikatini majburiy tartibda bo'lishi kerak bo'lgan mahsulot turlarining ro'yxati yoki ro'yxatdan ko'chirma;
- ❖ akkreditatsiya qilish sohasiga taalluqli bo'lgan bir turdagi mahsulotni sertifikatlash qoidalarini;
- ❖ sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar narxlarini (tariflari) preyskuranti;
- ❖ davlat vakolatli organida akkreditatsiya qilinganlikni tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish organi ko'rsatib o'tilgan hujjatlar nusxalarini taqdim etganlik uchun nusxalarni tayyorlash xarajatlaridan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lov undirishga haqlidir.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ◆ ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjat nusxasi;
- ◆ mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- ◆ gigienik sertifikat nusxasi.

Ariza beruvchi tomonidan ayni bir vaqtda gigienik sertifikat va muvofiqlik sertifikatini olishga ariza berilgan taqdirda gigienik sertifikat nusxasi, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan keyin taqdim etiladi.

Chetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- ◆ ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);
- ◆ gigiena sertifikatining nusxasi
- ◆ mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- ◆ O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga yetib kelganligi to'g'risida belgi qo'yilgan tovarning ilova hujjati (tovar-transport yuk xati, invoys, schyot-faktura) nusxasi.

Sertifikatlashtirish maqsadida sertifikatlashtirish organlariga standartlash bo'yicha rasmiy, «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar nusxalari taqdim etiladi, boshqa hollarda, shu jumladan o'z ehtiyojlari uchun, tasdiqlanmagan nusxalardan foydalanilishi mumkin.

Arizada nazarda tutilgan taqdirda, sertifikatlashtirish organi sertifikatlashtirish ishlarini gigienik sertifikat (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini kechiktirgan holda boshlashi mumkin. Bu holda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir. Sertifikatlashtirish organi ariza berilgan kundan boshlab ikki kun muddatda joyiga borib sertifikatsiya sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalari tanlab oladi va identifikatsiya qiladi. Namunalar soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalarini mahsulotga normativ hujjatlarda belgilanadi. Ariza beruvchi o'z mahsulotining tanlab olinishida va sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Bunda laboratoriyada maxfiylikni ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilishi kerak. Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchliligi


uchun «O'zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan laboratoriya (markaz) javob beradi. Sinovlar protokollarini mas'ul mutaxassislar imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga akkreditatsiya qilingan laboratoriyalardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar mahsulotni alohida parametrlari bo'yicha sinovlar turli sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda sinovlarning ijobiy natijalari bilan birga barcha zarur protokollarning mavjudligi mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligining ijobiy bahosi hisoblanadi.

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek hujjatlarning to'liq bo'lmagan komplektini taqdim etish muvofiqlik sertifikati berishni rad etish uchun asos hisoblanadi, bu to'g'rida sertifikatlashtirish organi ariza beruvchiga aniq qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Xulosa berishni rad etganlik yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin. Sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlar va sinovlarning ijobiy natijalari asosida ikki ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiboti sxemasi



Sertifikatlash tartibotining umumiy muddati 10 kundan 30 kungachani tashkil etadi

Izohlar:

1. Ariza beruvchi zarur hollarda higienik xulosa olish uchun hududiy sanitariya nazorati organiga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza beradi.

Hududiy davlat sanitariya nazorati organi belgilangan tartibda joyiga borgan holda laboratoriya sinovlari o'tkazish uchun mahsulotlardan namuna oladi va ob'ektni tekshiradi.

1a. Chorva mahsulotlari uchun hududiy sanitariya nazorati organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan kundan keyingi kundan kechikmasdan tuman (shahar) veterinariya xizmati organiga buyurtmanoma jo'natadi.

1b. Veterinariya xizmati organi uch kun muddatda hududiy sanitariya nazorati organiga veterinariya xulosasini yoki xulosa berishni rad etishga sabab bo'lgan aniq qonun hujjatlari normalarini ko'rsatgan holda yozma javob yuboradi.

Veterinariya xizmati organi 20 kungacha izolyatsiyalash-cheklash (karantin) choralari belgilash huquqiga ega. Bunda veterinariya xulosasini berish tartiboti karantin muddati tugagunga qadar to'xtatib turiladi.

1v. O'simlik mahsulotlari uchun hududiy sanitariya organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan kundan keyingi kundan kechikmasdan tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat xizmati organiga buyurtmanoma jo'natadi.

1g. O'simliklar karantini davlat xizmati organi ikki kun muddatda fitosanitariya xulosasi yoki salbiy xulosa beradi.

2. Laboratoriya sinovlari, shuningdek veterinariya hamda fitosanitariya xulosalaridan ijobiy natija olinganda, hududiy sanitariya nazorati organi ariza beruvchiga gigienik xulosa beradi.

5. Ariza beruvchi muvofiqlik sertifikatini olish uchun sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan organga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi. (Ariza gigienik xulosa olish uchun beriladigan ariza bilan bir vaqtda berilishi mumkin).

6. Sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan organ 15 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda muvofiqlik sertifikatini yoki aniq qonun hujjatlari normalarini ko'rsatgan holda yozma rad javobini beradi.

4-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIGA SERTIFIKATSIYALANISHI MAJBURIY BO'LGAN TOVARLARNI (MAHSULOTLAR)NI OLIB KIRISH TARTIBI

Reja:

1. Majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish va o'tkazish shartlari.
2. Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar.
3. Chetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish

Ishning maqsadi: Majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish va o'tkazish shartlari va majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar hamda chetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish tartiblari bilan talabalarni tanishtirish

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil etish "O'zstandart" agentligi zimmasiga yoki uning topshirig'iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga (ularni albatta akkreditatsiya qilgan holda) yuklatiladi. Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarning ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish yoki saqlash xavfsizligini ta'minlovchi talablar bo'lmagan taqdirda "O'zstandart" agentligi davlat boshqaruvining tegishli organlari bilan birgalikda bunday talabnomalarning kechiktirmay ishlab chiqilishi va amalga kiritilishini ta'minlaydi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqqligini aniqlash uchun uni sinashni, nazorat yo'sinidagi tekshiruvni va sertifikatlangan mahsulot ustidan nazoratni o'z ichiga oladi.

Sinovlar akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) tomonidan tegishli normativ hujjatlarda belgilangan usullarda, bunday hujjatlar bo'lmagan taqdirda esa tegishli sertifikatlashtirish organlari ishlab chiqqan usullarda amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlari uchun arizachi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda haq to'laydi.

Arizachi o'z mahsulotini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishga sarflagan mablag'lar summasi shu mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, ammo muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan mahsulotni targ'ib qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar quyidagi hollarda:

sertifikatlashtirishga taqdim etilmagan bo'lsa;

sertifikatlashtirish talablariga muvofiq emasligi sababli sertifikatlashtirishdan o'tmagan bo'lsa;

agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki uning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan (bekor qilingan) bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinishi mumkin emas.

Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi tayyorlovchilar (tadbirkorlar):

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim etishlari;

sertifikatlangan mahsulotni sertifikatlash organlarining o'zi yoki ular e'tirof etgan organlar bergan sertifikat mavjud bo'lgan taqdirdagina realizatsiya qilishlari va uning normativ hujjatlar talablariga mos bo'lishini ta'minlashlari;

sertifikatlangan mahsulotni, basharti, u normativ hujjat talablariga muvofiq kelmasa, shuningdek sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoxud uning amal qilishi sertifikatlashtirish organining qarori bilan to'xtatib qo'yilgan yoki bekor qilingan bo'lsa, realizatsiya qilishni to'xtatib qo'yishlari yoki tugatishlari;

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtiruvchi va sertifikatlangan mahsulotni nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari o'z vakolatlarini moneliksiz bajarishlari uchun sharoit yaratishlari;

sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlariga yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o'zgartishlar haqida sertifikatlashtirish organini belgilangan tartibda xabardor etishlari;

ilova qilingan texnik hujjatda mahsulot muvofiq kelishi lozim bo'lgan sertifikatlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda normativ hujjatlarni ko'rsatishlari va bu ma'lumotlar iste'molchi (xaridor, buyurtmachi) e'tiboriga yetkazilishini ta'minlashlari shart.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berish uchun tuziladigan kontraktlar (shartnomalar) shartida mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi, "O'zstandart" agentligi tomonidan berilgan yoki e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bo'lishi nazarda tutilishi kerak. Milliy muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari yoki boshqa davlatlarning "O'zstandart" agentligi tomonidan e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari arizachi (mahsulot yetkazib beruvchi) tomonidan bojxona nazorati organlariga yukka taalluqli bojxona deklaratsiyasi bilan birgalikda taqdim etiladi va ular mahsulotni respublika hududiga olib kirishga ruxsatnoma olish uchun zarur hujjatlar hisoblanadi.

Chetdan olib kelinayotgan mahsulotning xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan taqdirda bojxona nazorati organlari bu xususda "O'zstandart" agentligini xabardor etadilar hamda mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazish yoki chet el sertifikatini e'tirof etish to'g'risidagi masala sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalariga muvofiq hal etilgunga qadar bu mahsulotni chetdan olib kirishni taqiqlab qo'yadilar.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

5–AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: MAHSULOTNING XAVFSIZLIK TALABLARIGA MUVOFIQLIGINI DEKLARATSIYALASH TARTIBI

Reja:

1. Mahsulotning xavfsizlik talablari.
2. Muvofigligini deklaratsiya.
3. Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofigligini deklaratsiyalash tartibi.

Ishning maqsadi: Talabalarga mahsulotning xavfsizlik talablari va muvofigligini deklaratsiyalash bo'yicha umumiy ma'lumotlarni berish va ularni mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofigligini deklaratsiyalash tartibi bilan tanishtirish.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi Bosh direktorining 2016 yil 22 fevraldagi 98-sonli "Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofigligini deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i 2016 yil 18 martda 1465-2-son bilan ro'yxatga olindi. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni amaldagi qonun hujjatlariga muvofiglashtirish maqsadida "Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofigligini deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi Nizom"ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu koidaga muvofiq ixsulot yetkazib beruvchi sifatida – distrib yutor, maxsulot tayyorlovchi, import yoki vositachi xisoblanishi mumkin.

Umumiy qoidalar

- Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofigligini deklaratsiyalash me'yoriy xujjatlar talablariga maxsulotning muvofigligini kafolatlash va ushbu muvofiglik uchun javobgar yetkazib beruvchini belgilash maqsadida utkaziladi.

- yetkazib beruvchi maxsulot xavfsizligi talablariga muvofigligi xakida deklaratsiyada qayd etilgan me'yoriy xujjat buyicha maxsulot xarakteristikasi yuzasidan javobgar xisoblanadi.

- Xavfsizlik talablariga maxsulot muvofigligi deklaratsiya talab beruvchi tomonidan olingan sinov va baxolash natijalariga asoslangan bulishi kerak.

- Muvofiklikni tasdiklash unchalik shart bulmagan maxsulot yetkazib beruvchi yoki buyurtmachi talabiga asosan muvofiglikni deklaratsiyalash yuli bilan sertifikatlashtirish mumkin.

- Deklaratsiyani kullashning barcha xolatlarida buyurtmachi attestatsiyalangan yoki akkreditlangan sinov laboratoriyasida uz xisobidan maxsulot sifatini mukobil sinovdan utkazish xukukiga ega.

- Deklaratsiya bilan tasdiklangan maxsulot nomenklaturasi kursatgichlari tayyorlovchi tomonidan me'yoriy xujjatlarga muvofiq yoki kontrakt shartlari buyicha belgilanadi.

- yetkazib beruvchi xavfsizlik, sinov va maxsulot muvofigligini tasdiklash buyicha kompleks chora-tadbirlarni ta'minlaydi.

- Mahsulotni ishlab chikarish deklaratsiyalash maksadlarida attestatlangan yoki akkreditlangan sinov laboratoriyasida me'yoriy xujdat talablariga muvofiq ravishda nazoratdan va sinovdan utkazish bilan ta'minlanishi zarur.

- Mahsulot import kilishda yetkazib beruvchi tomonidan uning muvofigligini deklaratsiyalash fakat Uzbekistan Respublikasi va maxsulotni ishlab chikargan Davlat ularning vakillik organlari urtasida tuzilgan muvofiglikni uzaro inobatga olish tugrisidagi bitimga asosan amalga oshiriladi.

- Mahsulot muvofiglikni deklaratsiyalash yuli bilan tasdiklash buyicha kilingan ishlarga xak tulash konunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Deklaratsiya kabul kilish va uni registratsiyalash tartibi.

- yetkkazib beruvchi turdosh maxsulotlarni sertifikatlashtirish buyicha akkreditlangan idoraga deklaratsiyani ruyxatga olish uchun talabnoma beradi.

- Ushbu talabnomaga ariza va maxsulot muvofigligini tasdiklovchi kuyidagi xujjatlar ilova kilinadi:

1) Mahsulot sinovining attestatlangan yoki akkreditlangan sinov laboratoriyasida utkazgan sinov bayonnomasi.

2) Mahsulotga ishlatilgan xom-ashyolar sinovi bayonnomalari .

3) Sifat tizimiga (ishlab chikaruvchiga) berilgan sertifikat.

4) Zarur xolatlarda gigienik sertifikati nusxasi va me`yoriy xujjat buyicha belgilangan boshka talablar tugrisida ma`lumotlar (veterinariya, fito sertifikat va ekologik sertifikat).

- Deklaratsiya me`yoriy xujjat buyicha bir xil talablar belgilangan maxsulot turi yoki turdosh maxsulot guruxiga nisbatan beriladi.

Deklaratsiya ushbu koida ilovasiga muvofiq, aloxida xujjat kurinishda Davlat tili yoki rus tilida tuldirliladi.

- Deklaratsiya kuyidagi ma`lumotlarni uz ichiga oladi.

a) Deklaratsiya egasi bulgan yetkazib beruvchining nomlanishi va manzili.

b) Maxsulotning nomlanishi, tip yoki model nomeri (rakami), xamda maxsulotga alokador boshka ma`lumotlarni (portiya yoki seriya nomeri, navi va xokazo);

v) Me`yoriy xujjat buyicha tayanilgan koidalrning anik vat ulik nomlanishi;

g) Mahsulot ishlab chikarilgan vakti, partiya yoki seriyasining xajmi, transportirovkasi va yaroklilik muddari ;

d) Deklaratsiyaning takdim etilgan vakti.

e) Mahsulot yetkazib beruvchining nomidan ish yuritadigan vakolatli shaxsning F.I.O, vazifasi va imzosi;

j) Sifat tizimini sertifikatlashtirishga doir qaydlari.

z) Sinov laboratoriyasining nomlanishi va mazmuni, xamda uning akkreditligi tugrisida xujjatga tayangan xolda qayd kilish.

Etkazibberuvchining ixtiyoridan kelib chikib deklaratsiyada maxsulot muvofiqligini tasdiklovchi kushimcha ma`lumotlar keltirilishi mumkin.

Sertifikatlashtirish idorasi tomonidan xujjatlar tulikligi va tugriligi xamda deklaratsiyaning tugri tuldirlilganligi tekshiriladi va deklaratsiyanayotgan maxsulotni identifikatsiyalash utkaziladi.

Talabnoma kurib chikishda yaxshi natijalar qayd etilgan xollarda u kabul kilingan kundan boshlab besh ish kuni ichida sertifikatlashtirish idorasi deklaratsiyasi tegishli reestrda ruyxatdan utkazadi va muvofiqlik sertifikati beradi.

Nomuvofiqliklar, takdim etilgan xujjatlarning ishonchsizligi va deklaratsiyanayotgan maxsulotni identifikatsiyalashning konikarsiz natijalari qayd kilingan xollarda sertifikatlashtirish idorasi deklaratsiyani registratsiyadan utkazmaslik va muvofiqlik sertifikati bermaslik tugrisida asosli va yozma ravishda rad javobi yuboriladi.

- Ruyxatga olingan ariza, kushimcha xujjatlar va muvofiqlik sertifikati nusxalari sertifikatlashtirish idorasida berilgan muvofiqlik sertifikatiga amal kilish muddati davomida, ammo bir yildan kam bulmagan vakt mobaynida saklanadi.

- Arizada kursatilgan MX va u asosida tuzilgan muvofiqlik talablari uzgarganda ariza beruvchi yangidan deklaratsiya tuzishi va uni ilgarigi sertifikatlashtirish idorasiga belgilangan tarzda ruyxatdan utkazish uchun takdim etish shart.

- Mahsulot deklaratsiyalashtirilgandan sung yetkazib beruvchi ishlab chikarish jarayonining chikarilayotgan maxsulot ushbu maxsulotga alokador MX talablariga muvofiqligini doimiy ravishda ta`minlash yuzasidan barcha kerakli choralarni kuradi.

- yetkazib beruvchi deklaratsiyalangan maxsulotni belgilangan tartibda muvofiqlik belgisi bilan markalashi mumkin.

- Sertifikatlashtirilgan maxsulotning bir kismini realizatsiya kilinishi sertifikat asl nusxasining egasi yoki sertifikat bergan idora yoki notarial idoraning muxri va imzosi bilan tasdiklangan muvofiqlik sertifikati nusxasi yordamida amalga oshirilishi mumkin.

- Muvofiqlik sertifikati uz kuchida bulgan davrda ishlab chikarilgan maxsulot sertifikatlashtirilgan xisoblanadi va kaytadan sertifikatlashtirilmaydi.

- Sertifikatlashtirish idorasi xarakatlari yuzasidan arizachi tomonidan «Uzstandart» agentligi apeeliyatsiya kengashi yoki tugridan-tugri sudga shikoyat arizasi bilan murojat kilinishi mumkin.

«Uzstandart» agentligi apellyatsiya kengashining qarori yuzasidan xam konunda belgilangan tartibda sudga murojat kilishi mumkin.

6–AMALIY MASHG’ULOT

MAVZU: SINOV LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASH

Reja:

1. Akkreditatsiya bosqichlari. Akkreditatsiyani o’tkazish.
2. Akkreditatsiya guvohnomasining berilishi.
3. Akkreditatsiya guvohnomasini bekor qilish va vaqtincha to’xtatish.

Ishning maqsadi: Talabalarda sinov laboratoriyalarni akkreditlash tartibi bo’yicha amaliy ko’nikmalarni xosil qilish.

Akkreditatsiya akkreditatsiyalovchi organi tomonidan maxsulotlar (ishlar, hizmatlar) va sifat tizimlari O’zbekiston Respublikasining me’yoriy-xuquqiy hujjatlarida o’rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash va baxolash sohasida o’zining omilkorligini tan olish arizasi bilan murojaat etgan buyurtmachiga nisbatan amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya muvofiqlikni tasdiqlash va baxolash bo’yicha ishlarni bajarayotgan bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish idoralarining, laboratoriyalarning va nazorat idoralarining omilkorligini tasdiqlash maqsadida o’tkaziladi.

Bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish idoralarni, laboratoriyalarni va nazorat idoralarini akkreditatsiyalash umumiy mezonlari quyidagicha:

a) akkreditatsiyalanmoqchi bo’lgan buyurtmachining yuridik maqomini tasdiqlovchi (agar u yuridik shaxs bo’lsa) va muvofiqlikni tasdiqlash va baxolash bo’yicha bajariladigan ishlar qoidalarini o’rnatuvchi hujjatlar mavjudligi;

b) malakali va mahsus tayyorgarlikdan va attestatlashdan o’tgan xodimlar mavjudligi;

v) sifat tizimi menedjmenti amalda mavjudligi.

Bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish idoralarini akkreditatsiyalash uchun qo’shimcha mezonlari quyidagicha:

a) baxolanayotgan ob’ektning ishlab chiqaruvchilari, ta’minotchilari va iste’molchilariga bog’liq bo’lmaganligi;

b) baxolanayotgan ob’ektning me’yoriy hujjatlari mavjudligi;

v) nazorat idoralari va akkreditatsiyalangan laboratoriyalar bilan xamkorligi to’g’risidagi kelishuvlarining mavjudligi.

Nazorat idoralarini akkreditatsiyalash uchun qo’shimcha mezonlari quyidagicha:

a) baxolanayotgan ob’ektning ishlab chiqaruvchilari, ta’minotchilari va iste’molchilaridan xolisligi;

b) baxolanayotgan ob’ektning me’yoriy hujjatlari mavjudligi;

v) bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari va akkreditatsiyalangan laboratoriyalar bilan xamkorligi to’g’risidagi kelishuvlarining mavjudligi.

Sertifikatlashtirish va sifat tizimlarini tekshirish ishlari bo’yicha rahbarlik qilayotgan sertifikatlashtirish va nazorat organining rahbari qonunchilikda o’rnatilgan tartibga muvofiq akkreditatsiyalangan sifat bo’yicha ekspert-auditor bo’lishi shart.

Laboratoriyalarni akkreditatsiyalash uchun qo’shimcha mezonlar quyidagicha:

a) sinov va (yoki) o’lchash usullarining me’yoriy hujjatlari;

b) me’yoriy hujjatlar talablariga javob beradigan ishlab chiqarish xonalari va atrof-muxit sharoitlari;

v) sinov uskunalari va (yoki) o’lchash vositalari;

g) sinov va o’lchash natijalarini birligini ta’minlash.

Sertifikatlashtirish sinovlarini (o’lchashlarini) mustaqil o’tkazishga davogarlik qilayotgan laboratoriyalar ishlab chiqaruvchilardan, ta’minotchilardan va iste’molchilardan xolis bo’lishi shart.

Akkreditatsiya bosqichlari

Bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish idoralarini, laboratoriyalarni va nazorat idoralarini akkreditatsiyalash quyidagilardan iborat:

a) akkreditatsiyaga buyurtma berish, buyurtmani ko'rib chiqish va u bo'yicha qaror qabul qilish, akkreditatsiya organi bilan ekspertizani o'tkazishga shartnoma tuzish, ekspertizani o'tkazish uchun buyurtmachi tomonidan to'lovni amalga oshirish;

b) hujjatlar to'plami ekspertizasi va ekspertiza dalolatnomasini rasmiylashtirish, baxolashni tayyorlash va o'tkazishga shartnoma tuzish, akkreditatsiyani o'tkazish qarori loyixasini tayyorlash, buyurtmachi tomonidan baxolashni o'tkazish to'lovini amalga oshirish;

v) akkreditatsiya ob'ektini baxolashga tayyorlash (komissiyani tayinlash, buyruq chiqarish, joyda baxolash dasturini ishlab chiqish);

g) buyurtmachini joyda baxolash va dalolatnoma tuzish;

d) hujjatlar ekspertizasi, joyda baxolash natijalari materiallari, buyurtmachi tomonidan bajarilgan tuzatish xarakatlari effektivligi taxlili, qaror loyixasini tayyorlash;

e) ekspertiza va baxolash materiallarini Kengashda ko'rib chiqish xamda akkreditatsiyalash yoki akkreditatsiyaga rad javobini berish bo'yicha qaror qabul qilish;

j) akkreditatsiya guvohnomasini rasmiylashtirish, ro'yxatga olish va berish va buyurtmachi tomonidan to'lovni amalga oshirish.

Akkreditatsiyaning har bir bosqichi undan oldingi bosqich ijobiy natija bilan yakunlangandan so'ng bajariladi.

Akkreditatsiya ishlari bo'yicha to'lovlar buyurtmachi tomonidan har bir bosqich bo'yicha aloxida amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya natijalari inobatga olinmagan xolda buyurtmachi tuzilgan shartnomaning barcha to'lovlarini amalga oshirishga majbur.

O'zining omilkorligini Milliy akkreditatsiya tizimida tan olinishini niyat qilib akkreditatsiyaga buyurtma beruvchi buyurtmani belgilangan shakl bo'yicha akkreditatsiya organiga akkreditatsiya mezonlari bajarilishini tasdiqlovchi hujjatlar bilan yuboradi.

Bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish organining va nazorat organining akkreditatsiyaga berilgan buyurtmasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

a) ta'xis etish hujjatlar nusxalari;

b) akkreditatsiya doirasining loyixasi;

v) bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish organining yoki nazorat organining Nizomi loyixasi;

g) muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha ishlarni bajarish qoidalarini o'z ichiga jamlab olgan sifat bo'yicha rahbariy hujjat va sifat menedjmenti tizimi tartibotlari.

Laboratoriyaning akkreditatsiyaga berilgan buyurtmasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

a) ta'xis etish hujjatlar nusxalari (yuridik shaxs bo'lgan xolda);

b) sinov (o'lchash) laboratoriya (markazi)ning Nizomi loyixasi;

v) akkreditatsiya doirasining loyixasi;

g) laboratoriya pasporti loyixasi;

d) sifat menedjmenti tizimi tartibotlarini o'z ichiga jamlab olgan sifat bo'yicha rahbariy hujjat.

Akkreditatsiyaga taqdim etilgan buyurtma va hujjatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha akkreditatsiya ishlarini o'tkazish to'g'risida yozma qaror qabul qilinadi. Qaror buyurtma ro'yxatga olingandan keyin 3 kun ichida qabul qilinishi kerak.

Buyurtma bo'yicha qarorni qabul qilgach akkreditatsiya organi ekspertiza o'tkazilishini ta'minlaydi. Ekspertiza akkreditatsiya organi yoki uning topshirig'iga asosan standartizatsiya, metrologiya va sertifikatsiya ilmiy-tadqiqot institutining sifat bo'yicha ekspert-auditorlari yoki sifat bo'yicha boshqa ekspert-auditorlar tomonidan ekspertiza xizmatlari to'lovi amalga oshirilgandan so'ng bajariladi.

Hujjatlar ekspertizasi buyurtma bo'yicha qaror qabul qilingandan so'ng bir oy muddatdan ko'p bo'lmagan vaqt davomida bajariladi. Ekspertiza natijalari sifat bo'yicha ekspert-auditor tomonidan berilgan xulosa bilan rasmiylashtiriladi.

Ekspertiza natijalari salbiy bo'lgan xolda akkreditatsiya organi buyurtmachiga akkreditatsiya mezonlariga nomuvofiqligi sababli akkreditatsiyalash bo'yicha rad javobini va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun muddat beradi. Ushbu muddat 30 kundan oshmasligi kerak.

Akkreditatsiyalashga rad javobi rad etish sabablari ko'rsatilgan va kamchiliklar bartaraf qilingandan so'ng buyurtmachi xujjatlarni qayta ko'rib chiqish uchun taqdim etish muddati belgilangan xolda yozma ravishda buyurtmachiga yuboriladi (beriladi).

Akkreditatsiyalanish uchun rad javobiga asos bo'lgan sabablar buyurtmachi tomonidan bartaraf etilgan xolda barcha zaruriy bo'lgan hujjatlar bilan buyurtmachining arizasi olingandan keyin o'n kun ichida hujjatlar qayta ko'rib chiqiladi. Qayta ko'rib chiqish uchun to'lov amalga oshirilmaydi. Akkreditatsiyalanishga rad javobida belgilangan muddatdan keyin berilgan buyurtma yangi buyurtma deb hisoblanadi.

Ekspertizaning ijobiy natijalariga ko'ra akkreditatsiya organi akkreditatsiya ob'ektning joyda baxolash uchun komissiya tashkil kiladi.

Komissiya akkreditatsiya organi rahbarining buyrug'i bilan tayinlanadi. Buyruqda komissiya tarkibi, maqsadi, joyda baholashni o'tkazish sanasi va muddati belgilanadi.

Komissiya raisi sifat bo'yicha ekspert-auditor unvoniga akkreditatsiyalangan bo'lishi shart. Komissiya tashkil etilayotganda ob'ektiv baxolashni o'tkazish uchun kerak bo'lgan omilkorlik, bilimlar va tajribalar hisobga olinadi. Zaruriyat tug'ilganda texnik ekspertlar jalb etilishlari mumkin. Texnik ekspertlar ekspert-auditorlar rahbarligida ishlashlari kerak. Baxolash ob'ektlari va mezonlari belgilangan baxolash rejasiga komissiya rahbari tomonidan ishlab chiqiladi va akkreditatsiya organi rahbari yoki vakolatli shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Buyruq va baxolash rejasiga tanishish uchun buyurtmachiga baxolash o'tkazishdan oldin taqdim etiladi.

Akkreditatsiya ob'ektning joyda baxolash davomida ob'ektning xaqiqiy xolati taqdim etilgan hujjatlarga muvofiqligi va buyurtmada berilgan funktsiyalarni bajara olish imkoniyatlari tekshiriladi. Komissiya baxolash rejasiga muvofiq akkreditatsiya ob'ektning o'rnatilgan akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baxolaydi.

Baxolash muddati bir oydan oshmasligi kerak. Akkreditatsiya ob'ektning joyda baxolash natijalari ushbu Qoidalarining shakli bo'yicha dalolatnoma (ma'lumotnoma) bilan rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi. Komissiya a'zolarining birortasi komissiya xulosasidan norozi bo'lsa, u tomonidan yozma ravishda norozilik bildiriladi va dalolatnomaga ilova qilinadi.

Akkreditatsiya organi buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan barcha axborotni tekshirgandan so'ng, hujjatlar ekspertizasi natijalarini, baxolash dalolatnomasini, xulosani va dalolatnoma bo'yicha kamchiliklarni, buyurtmachining taqdim etilgan fikrlarini taxlil qiladi va Kengashda ko'rib chiqish uchun qaror loyixasini tayyorlaydi. Kengash 15 kun ichida qaror loyixasini hamda buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va akkreditatsiyalash yoki akkreditatsiyalashga rad javobini berish bo'yicha qaror qabul qiladi.

Akkreditatsiyalashga rad javobi berilgan xolda Kengash tomonidan akkreditatsiya ob'ektiga aniqlangan kamchiliklarni va akkreditatsiya talablariga nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun bir oy muddat beriladi. Agar qayta baxolash davomida kamchiliklar va akkreditatsiya talablariga nomuvofiqliklar aniqlansa Kengash akkreditatsiyalashga rad javobini berish bo'yicha qaror qabul qiladi.

Akkreditatsiyani o'tkazish muddati akkreditatsiya ob'ektning tayyorligiga bog'lik, lekin akkreditatsiyalanishga buyurtma ro'yxatga olingan kundan olti oylik muddatdan oshmasligi kerak.

Akkreditatsiya guvohnomasini berish

Akkreditatsiyalash bo'yicha qaror ijobiy bo'lgan xolda akkreditatsiya organi buyurtmachiga ushbu Qoidalarida keltirilgan shakl bo'yicha akkreditatsiya guvohnomasini beradi. Akkreditatsiya guvohnomasi O'zbekiston Respublikasi Milliy akkreditatsiya tizimining Davlat reestri (keyinchalik – reestr)da ro'yxatga olinadi. Akkreditatsiya guvohnomasiga akkreditatsiyalangan ob'ektning Nizomi hamda ushbu Qoidalarining 5-, 6- va 7-ilovalarida keltirilgan shakl bo'yicha akkreditatsiya rahbari tomonidan tasdiqlangan akkreditatsiya doirasi ilova qilinadi. Akkreditatsiya doirasining har

bir varag'i «O'zstandart» agentligi akkreditatsiya bo'limi boshlig'i va akkreditatsiyalangan tashkilot rahbari tomonidan imzo va muxr qo'yilib tasdiqlanadi. Akkreditatsiya guvohnomasi cheklanmagan muddatga beriladi.

Akkreditatsiyalangan ob'ekt faoliyatini o'rnatilgan akkreditatsiya mezonlari bo'yicha inspeksiya nazoratini akkreditatsiyalangan sertifikatlashtirish idoralari va sinov (o'lchash) laboratoriya (markaz)lari faoliyati inspeksiya nazoratini o'tkazish Tartibi (2005 yil 20 aprel kunida 1473-son bilan ro'yhatga olingan)ga muvofiq akkreditatsiya organi o'tkazadi.

Akkreditatsiya guvohnomasi akkreditatsiyalangan idoraning arizasi bo'yicha hamda akkreditatsiyalangan sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriya (markaz)lari faoliyati inspeksiya nazoratini o'tkazish Tartibi (2005 yil 20 aprel kunida 1473-son bilan ro'yhatga olingan)da belgilangan xolatlarda bekor qilinadi va (yoki) vaqtincha to'xtatiladi. Akkreditatsiya guvohnomasi bekor qilingan xolda akkreditatsiya idoralarining reestriga akkreditatsiya guvohnomasi bekor qilish to'g'risida yozuv kiritiladi. Reestriga yozuv kiritilgan sanadan uch ish kuni davomida akkreditatsiya guvohnomasining egasiga akkreditatsiya bekor qilinishini to'g'risida axborot xati yuboriladi.

Akkreditatsiya guvohnomasi bekor qilingandan keyin akkreditatsiyalash uchun qayta buyurtma uch yildan keyin va akkreditatsiya talablaridagi nomuvofiqliklarni bartaraf etilgandan so'ng berilishi mumkin. Bunda buyurtmachi tomonidan nomuvofiqliklarni bartaraf etuvchi choralarni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi. Akkreditatsiyaning amaldagi qatnashchilari to'g'risida axborot saytda o'rnatiladi va «O'zstandart» agentligining rasmiy jurnalida chop etiladi.

7–AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: MUVOFIQLIKNI BAHOLASH VA TASDIQLASH

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasining «Muvofiqlikni baholash to'g'risida»gi Qonuni.
2. Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish. Akkreditatsiya

Ishning maqsadi: Talabalarni O'zbekiston Respublikasining «Muvofiqlikni baholash to'g'risida»gi Qonuni bilan tanishtirish va muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish tartibi bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarni xosil qilish.

O'zbekiston Respublikasining «Muvofiqlikni baholash to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti IA.Karimovning 2013 yil 4-oktyabrdagi O'RQ-354 sonli qarori bilan qabul qilingan.

Ushbu Qonunning maqsadi muvofiqlikni baholash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, 3 bob va 33-moddadan iborat.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

akkreditatsiya — yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash;

akkreditatsiya sohasi — muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya chog'ida Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadigan faoliyati sohasi;

inspeksiya nazorati — mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan

talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

inspektsiya organi — yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspektsiyani va inspektsiya nazoratini o'tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs;

milliy akkreditatsiya tizimi — muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalari va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi tizim;

muvofiqlikni baholash — mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha faoliyat;

muvofiqlikni baholash organlari — yuridik shaxs bo'lgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspektsiya organlari, sinov va kalibrash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;

muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya — ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

muvofiqlikni tasdiqlash — normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikat va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq;

xodimlar — muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar.

Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari

Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash;

atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta'minlash;

mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash;

muvofiqlikni baholash organlari akkreditatsiyaning belgilangan sohasida ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlash;

ichki va tashqi bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish;

xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdoda ishtirok etish;

savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish.

Muvofiqlikni baholashning asosiy printsiplari

-muvofiqlikni baholashning yagona qoidalari va tartib-taomillarini qo'llash;

- muvofiqlikni baholash haqidagi axborotning ishonchligi va ochiqligi;

- akkreditatsiya qilingan muvofiqlikni baholash organlarining xizmatlaridan foydalanishga to'siqlar qo'yishga va ular o'rtasidagi raqobatni cheklashga yo'l qo'ymaslik;

- davlat sirlarining, tijorat sirining va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning saqlanishi;

- akkreditatsiya bo'yicha faoliyatni sertifikatlashtirishga, muvofiqlikni deklaratsiyalashga, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspektsiyani amalga oshirishga, mahsulot sinoviga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalarini berishga, ekologik ekspertiza o'tkazishga doir faoliyat bilan qo'shib olib borilishiga yo'l qo'ymaslik.

Muvofiqlikni baholash ob'ektlari quyidagilardan iborat:

Mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar, muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo'lgan mutaxassislar, muvofiqlikni baholash organlari inspeksiya nazoratidan o'tkazilishi chog'ida ushbu organlarning o'zi.

Muvofiqlikni baholash: akkreditatsiya qilish; sertifikatlashtirish; muvofiqlikni deklaratsiyalash; inspeksiya nazorati; yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya; mahsulot sinovi; sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza yo'li bilan amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslarning vakolatli ekanligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarning tahlili va ekspertizasini, olingan dalillarni tekshiruvlar o'tkazish yo'li bilan baholashni o'z ichiga oladi.

Muvofiqlikni deklaratsiyalash — mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi tomonidan tasdiqlash.

Muvofiqlikni deklaratsiyalashda muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli normativ hujjatlarda belgilanadi.

Agar muvofiqlikni deklaratsiyalashda muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullarida mahsulot sinovini o'tkazish zarur ekanligi belgilangan bo'lsa, bunday sinov akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) tomonidan ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi bilan tuzilgan shartnoma asosida o'tkaziladi.

Inspeksiya nazorati Milliy akkreditatsiya organi, muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organlari yoki inspeksiya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Inspeksiya nazorati natijalariga ko'ra muvofiqlik sertifikatini yoki akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani tasdiqlash, uning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoxud sertifikatni yoki guvohnomani bekor qilish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinishi mumkin.

Sertifikatlashtirish, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya, mahsulot sinovi, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish

Mahsulot, xizmatlar, ishlab chiqarish jarayonlari, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash sertifikatlashtirish va muvofiqlikni deklaratsiyalash natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish va muvofiqlikni deklaratsiyalash majburiy yoxud ixtiyoriy tusda bo'lishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash organlarining muvofiqligini tasdiqlash ularni akkreditatsiya qilish natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholash qoidalari va tartib-taomili

Muvofiqlikni baholash qoidalari va tartib-taomili muvofiqlikni baholash sohasidagi tashkiliy hamda texnik talablarni, ishlarni bajarish va rasmiylashtirish tartibini, usullarini o'z ichiga oladi.

Muvofiqlikni baholashga doir ishlar xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholashga doir ishlarga sifat bo'yicha ekspert-auditorlar va (yoki) tegishli tarmoqlarning muvofiqlikni baholash sohasida ishlarni tashkil etishga, ushbu sohadagi jarayonga yoki faoliyatga taalluqli maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan texnik ekspertlar jalb qilinishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida tan olish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar

Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

muvofiqlikni baholash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

O'zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo'lgan muvofiqlikni baholash ob'ektlari ro'yxatini tasdiqlaydi;

Milliy akkreditatsiya organi to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarining O'zbekiston Respublikasida tan olinishi tartibini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida:

- muvofiqlikni baholash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

- muvofiqlikni baholash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek normativ hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- O'zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo'lgan muvofiqlikni baholash ob'ektlari ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir takliflar ishlab chiqadi;

- O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida tan olish zarurligi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

- muvofiqlikni baholash sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ishtirok etadi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash organlari:

akkreditatsiyaning belgilangan sohasida sertifikatlashtirishni amalga oshirish;

muvofiqlik sertifikatlari berish;

o'zi bergan muvofiqlik sertifikatlarining yoki muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani ro'yxatdan o'tkazishning amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatib turish yoxud muvofiqlik sertifikatlarini yoki muvofiqlik haqidagi deklaratsiyani ro'yxatdan o'tkazishni bekor qilish;

akkreditatsiyaning belgilangan sohasida mahsulot sinovini o'tkazish, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash;

akkreditatsiyaning belgilangan sohasida mahsulot sinovlariga oid bayonnomalarni, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash to'g'risidagi bayonnomalarni berish;

[milliy akkreditatsiya tizimi belgisini](#) qo'llash huquqiga ega.

Muvofiqlikni baholash organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Milliy akkreditatsiya organi

Milliy akkreditatsiya organi O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligidir. Milliy akkreditatsiya organi:

muvofiglikni baholash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

milliy akkreditatsiya tizimi tashkil etilishini, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlaydi;

muvofiglikni baholash organlarini akkreditatsiya qilishni amalga oshiradi va ularga akkreditatsiya to'g'risida guvohnoma beradi;

muvofiglikni baholash organlari ustidan inspeksiya nazoratini amalga oshiradi;

belgilangan tartibda akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turadi, tugatadi va ushbu guvohnomani bekor qiladi;

xalqaro akkreditatsiya organlari va xorijiy davlatlarning milliy akkreditatsiya organlari bilan akkreditatsiya masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi;

Muvofiqlikni baholash organlarining davlat reestrini yuritadi.

Milliy akkreditatsiya organi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Quyidagilarning mavjudligi akkreditatsiya shartlaridir:

akkreditatsiya qilinish uchun ariza;

akkreditatsiya qilish so'ralgan sohadagi ishlarni bajarish uchun akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslarning vakolatli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

akkreditatsiya bilan bog'liq xarajatlar to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish organi sifatida akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar muvofiglikni baholash ob'ektlarining ishlab chiqaruvchilari, sotuvchilari, ijro qiluvchilari va iste'molchilariga nisbatan tashkiliy hamda moddiy jihatdan tobe bo'lmasligi kerak.

Qonun hujjatlarida akkreditatsiyaning boshqa shartlari ham belgilanishi mumkin. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma muvofiglikni baholash organi akkreditatsiyaning belgilangan sohasidagi ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi hujjatdir. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning shakli Milliy akkreditatsiya organi tomonidan tasdiqlanadi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma besh yil muddatga beriladi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomadan boshqa shaxsning foydalanishi taqiqlanadi.

Milliy akkreditatsiya tizimi milliy akkreditatsiya tizimi belgisiga ega bo'lib, ushbu belgi uni qo'llovchi muvofiglikni baholash organi Milliy akkreditatsiya organi tomonidan akkreditatsiya qilinganligini bildiradi.

Muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani olish bilan bir vaqtda mazkur guvohnomaning amal qilish muddatida milliy akkreditatsiya tizimi belgisini qo'llash huquqiga ega bo'ladi.

Milliy akkreditatsiya tizimi belgisining shakli va uni qo'llash tartibi Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadi. Mazkur belgini qo'llash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pulli asosda amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya sohasini o'zgartirish to'g'risidagi qaror muvofiglikni baholash organi akkreditatsiya sohasini kengaytirishni yoki qisqartirishni so'rab ariza bergan taqdirda, Milliy akkreditatsiya organi tomonidan qabul qilinadi.

Muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya sohasini kengaytirish u bilan kelishilgan muddatlarda akkreditatsiya qoidalari va tartib-taomillariga muvofiq amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya sohasini qisqartirish bo'yicha qaror muvofiglikni baholash organi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etmagan taqdirda, Milliy akkreditatsiya organi tomonidan inspeksiya nazorati natijalariga ko'ra qabul qilinishi mumkin.

Akkreditatsiya sohasini o'zgartirish to'g'risidagi qaror ustidan Milliy akkreditatsiya organi to'g'risidagi nizomda belgilanadigan tartibda shikoyat qilinishi yoxud sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Inspeksiya nazorati davomida aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilmagan taqdirda, akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi to'xtatib turilishi mumkin.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish Milliy akkreditatsiya organi yoki sud tomonidan amalga oshiriladi. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi Milliy akkreditatsiya organi tomonidan o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, sud tomonidan esa, o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turilishi mumkin.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqidagi qarori muvofiqlikni baholash organiga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmasdan yozma shaklda yetkaziladi. Sudning akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqidagi hal qiluv qarori muvofiqlikni baholash organiga va Milliy akkreditatsiya organiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqida qaror qabul qilgan Milliy akkreditatsiya organi yoki sud mazkur holatlar bartaraf etilganligi haqidagi tasdiqni olgan kundan e'tiboran o'n kun muddat ichida akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini qayta tiklash haqida qaror qabul qilishi shart.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, Milliy akkreditatsiya organi muvofiqlikni baholash organi oldida u ko'rgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi to'xtatib turilganligi va qayta tiklanganligi haqidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatishni so'rab ariza bilan murojaat qilganda;

yuridik shaxs bo'lgan muvofiqlikni baholash organi tugatilganda — tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, bundan uning o'zgartirilishi mustasno;

muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni Milliy akkreditatsiya organi yoki sud tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etmaganda;

muvofiqlikni baholash organi normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarni muntazam ravishda buzganda yoki bir marta qo'pol tarzda buzganda;

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to'g'risida guvohnoma berish haqidagi qarori noqonuniy ekanligi aniqlanganda;

akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilish muddati o'tganda.

8-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: SIFAT TO'GARAKALARI

Reja:

1. Sifat to'garagini tashkil etish va uning maqsadi.
2. Sifat to'garagi bo'yicha rivojlangan davlatlarning tajribasi.
3. Sifat to'garagining samaradorligi.

Ishning maqsadi: Talabalarga sifat to'garaklari xaqida tushunchalar berish va sifat to'garagi bo'yicha rivojlangan dalatlar tajribasi va samaradorligi bo'yicha amaliy tushunchalar berish.

Mahsulot sifatini yaxshilashda zarur va muhim omillardan biri sifat to'garaklari (guruhlarining) faoliyatidir.

Sifat to'garaklari ishchilar, muxandislar va xizmatchilardan tashkil topgan ixtiyoriy jamoa yig'ilmalaridir. Ularning soni va tarkibi ishlab chiqarishning ehtiyojidan va aniq ish sharoitlaridan kelib chiqadi.

Sifat to'garaklarining asosiy maqsadi sifatni yaxshilashning tub mohiyatini anglash, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan takliflarni joriy qilishdan iborat. Buning uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ishonchliligini, chidamliligini oshirish, yuqori navli buyumlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish, yaroqsiz (brak) likni va reklamatsiyalarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish sur'atini yaxshilash, resurslarni tejamkorlik va iqtisod qilib sarflash lozim. Ko'pgina mamlakatlar o'z mahsulotlarining sifatini oshirish uchun ma'lum tadbirlar, tajribalarga suyanib ozmi ko'pmi yutuqlarga erishgan. Quyida biz dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning bu sohadagi tajribalaridan misol keltiramiz.

Yaponiya davlati dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ichida ajralib turadi. Bu yerda sifat to'garagiga alohida e'tibor bilan qaraydi. 60-yillar boshida Yaponiyada birinchi marta sifat to'garagi vujudga keldi. Buning sababi bor, albatta. Yaponiya joylashishiga qarab aholisi zich yashaydigan geografik ob'ekt bo'lib, o'zining yer osti boyliklariga deyarli ega emas. Territoriyasining taxminan 70 foizi tog'liklarni tashkil etgan bo'lib, sanoatning rivojlanishida o'zining hom ashyosiga umid bog'lashi o'rinsiz bo'lar edi. Bu holda Yaponiya o'z xalqini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmas, sanoatni esa yetarli darajada rivojlantira olmasdi. Sanoat va energetika uchun tashqaridan keltiriladigan hom ashyo tilla, qimmatbaho toshlar va eksport mahsulotlari bilan to'lanishi mumkin edi.

Yaponiya uchun tanlov yo'q edi: na tilla, na qimmatbaho tosh uning yer osti boyliklarida mavjud edi. Demak, eksport. Bundan boshqa yo'li yo'q. Xullas, Yaponiya og'ir sharoitlarga bardosh bera oladigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga butun bilim va zakovatini sarflashiga to'g'ri keldi. Shuning uchun hozirgi vaqtda Yaponiya dunyo eksportidagi mahsulotlarning aksariyat qismida asosiy xiliga yetakchilik qilmoqda. Bularga dastgohlar, optika asboblari, radiopriyomniklar, fotoapparatlar, kemalar, yengil va yuk tashuvchi avtomobillar, televizorlar, videomagnitofonlar, orgtexnika mahsulotlari, soatlar, g'ildiraklar, sun'iy toladan bo'lgan matolar, po'lat tahtalar va boshqalar kiradi.

1962 yildan boshlab Yaponiyada "Ustalar va brigadalar uchun sifatni boshqarish" jurnali chiqib boshladi. Bundan maqsad jurnal sahifalarida bosilib chiqadigan materiallar va maqolalar orqali

- 4 sifatni boshqarish tizimidagi yangiliklarni ko'pchilikka, ayniqsa ishchilarga o'z vaqtida yetkazish, ba'zi ko'rsatmalarni tushunarli bo'lishini ta'minlash. Bundan tashqari quyidagi muhim masalalarga jiddiy e'tibor berila borildi:

- sifat nazorati sohasida ishlaydigan xodimlarning malakasi va layoqatlilikini oshirish;
- sifat nazorati usullarini targ'ibot qilish;
- tinglovchilar uchun har bir tsex miqyosida, sifat to'garagi deb ataluvchi, tsexlarda sifat nazoratini takomillashtirishiga asos bo'luvchi to'garaklar tashkil qilish.

Natijada Yaponiyadagi voqealar quyidagicha rivojlandi: 1967 yil, iyun oyida 10 mingga yaqin shunday to'garaklar qayd qilingan bo'lsa, 1969 yilda bu raqam 15 mingni, 1979 yilning iyun oyida 100 mingni tashkil qildi. 1987 yil mart oyida Yaponiyada sifat to'garagi o'zining 5 yilligini nishonladi. Bu davrga kelib sifat to'garaklarining soni 50 mingni tashkil qilib, bu ko'rsatkich har yili 10 mingga oshib bormoqda. Uning qatnashchilarining soni esa milliondan oshib ketdi. Shuni alohida aytish lozimki, Yaponiyadagi to'garaklar o'z oldiga ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish hisobiga mahsulot sifatini tubdan oshirishni maqsad qilib qo'yishgan.

Yaponiya usulining yana bir xarakterli tomoni to'garaklarning ishlarini muntazam ravishda olimlar va muhandislar ittifoqi tomonidan kuzatiladi, o'rganiladi va tahlil qilinib boriladi. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda sifat to'garaklarining 50 foizdan ortig'i yuqori rahbarlarning tashabbusi orqali tashkil qilinadi. To'garak tashkilotchilarining maqsadiga ko'ra quyidagi umumlashgan to'garaklar tashkil qilingan: ishlab chiqarish samaradorligini oshirish (31,6 foiz), mahsulot sifatini

yaxshilash (16,4 foiz), sifatga bo'lgan xarajatlarni kamaytirish (13,8 foiz). Taxminan 38 foiz to'garaklar bir yilda ikkita temani, 16,5 foizi uchta temani va taxminan 3 foizi 1 temani ishlab chiqadi.

Hozirga vaqtda sifat to'garaklari Amerika Qo'shma Shtatlarida, yevropa mamlakatlarida hamda Xitoy Xalq respublikasida ham faol ishlab turibdi.

AQSh firmalarining xarakterli tomoni shuki, ular ishlab chiqarishning ayrim uchastkalarida tajribaviy to'garaklar tashkil qilishadi va ijobiy natijadan so'nggina uni keng ko'lamda joriy qila boshlaydilar.

AQShda to'garak a'zolari ish vaqtida haftasiga bir marta 1 soat ichida yig'ilishadi, to'garakning ishlari esa ishdan tashqari paytda o'tkazilib, ularga oshirilgan stavkalarda haq to'lanadi.

Aksariyat hollarda AQSh firmalaridagi sifat to'garaklari 1,5-2 yil mobaynida faoliyat yuritadilar, halos. Bunga asosiy sabab firma rahbarlari tomonidan ularni butkul qo'llashning yo'qligi, to'garak a'zolarining qo'shimcha harajatlari bilan bog'liq takliflarining qondiraverilmasligi va o'qitish tizimining yetarli darajada mukammal emasligidadir. Shuning uchun hozirga kelib, ularga ma'lum talablar qo'yilishi kerakligini hayotning o'zi talab qilmoqda.

AQShda sifat to'garaklaridagi tashkiliy guruhlariga qo'yiladigan talablar:

1. To'garakda qatnashish ixtiyoriy bo'lishi lozim. To'garak a'zolari va ularning rahbarlari hal qilinuvchi muammolarni o'zlari tanlaydilar. To'garakda faqat ma'muriyatga tegishli muammolar ko'rilmaydi. To'garakni tuzilishida muammolarni hal qilish printsiplarini o'rganadilar, bu o'z navbatida to'garakning kelgusidagi ishlarini muvaffaqiyatli bo'lishiga asos bo'ladi.

2. To'garak qatnashchilari ish vaqtida yig'ilishadi (haftasiga 1 soat). Yig'ilishning umumlashgan tartibi:

- ochish, yangi a'zolari qabul qilish, umumiy tavsifga ega bo'lgan yangiliklar va tashkiliy masalalar - 5 minut,

- to'garak ishining haftalik yakuni - 5 minut

- mahorat oshirishda yangiliklar va yangi materiallarni o'rganish haqida -5 minut,

- amaliy masalalarga qo'llanuvchi yangi o'zlashtirilgan bilimlar 40 minut,

- yakun yasash, natijalarni baholash - 5 minut.

To'garak rahbarlari yetarli malakaga ega bo'lmog'i, ishonch qozonmoqligi va to'garakni boshqarishga ixtiyoriy roziliklarini bermog'i lozim. Ular firma boshliqlari va kasaba uyushmalari bilan aloqada bo'lishlari shart.

3. Hamma darajadagi mutaxassislar texnikaviy maslahatchilar sifat to'garagi ishiga yordam berishga majburlar, ularning iltimosiga binoan majlislariga qatnashishi ham mumkin.

4. Kichik va o'rta holdagi firmalar o'zlarining sifat to'garagi ishlarini muvofiqlashtiruvchi xodimiga ega bo'ladi, katta firmalarda esa bunday shaxslar bir va undan ortiqni tashkil etishi mumkin. Muvofiqlashtiruvchi xodim sifat to'garagi va to'garaklar orasida hamda rahbariyat o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi shaxsdir.

5. Firma tarkibidagi o'rta rahbarlar ustalar, texnologlar tomonidan doimiy himoya qilinadi.

6. Firmaning eng yuqori rahbariyati tomonidan sifat to'garaklarining rejalarini himoya qilish kafolatlanadi.

AQShda o'z rejalariga ega bo'lgan 300 ta sifat to'garaklarida o'tkazilgan so'roqlash natijalari quyidagilarni ko'rsatadi. Sifat to'garagining imkoniyatlari qanaqa degan savolga firmalar quyidagicha javob berishdi (foiz hisobida):

"chegasiz" -0,

"favqulotda samarador" - 37,

"yaxshi, hamma vaqt emas" - 32,

"yaxshi, lekin yutuq bundan ortiq bo'lishi mumkin edi" - 8,

"juda chegarali, yutug'i esa kafolatsiz" -

Sifat to'garaklarining samaradorligi haqidagi fikr juda e'tiborga sazovordir, so'ralganlardan 30 foizi har bir sarflangan dollar evaziga 1 dan 3 dollargacha oylik tariqasida, 20 foizi esa 4 dan 12 dollargacha olganliklarini aytdilar. 48 foizi esa o'zlarining bu masalada aniq ma'lumotlari yo'qligini ko'rsatdi, faqatgina 2 foizi esa bu harakatlar o'zini o'zi oqlay olmaydi deb javob berdi.

So'rov natijalaridan ko'rinib turibdiki, hamma tekshirilgan to'garaklar-ning faqatgina 37 foizi samarali ishlagan. Buning natijasida xulosalar qilinib, to'garakning tayyorlov ishlariga yanada e'tibor berildi. Maxsus rejalar tuzildi, rejalarini bajarish uchun maxsus muvofiqlashtiruvchi xodim tayinlandi.

To'garak rahbarlariga bo'lgan talablar qayta ishlab chiqildi. O'qish dasturlari kuchaytirildi, birinchi navbatda to'garak rahbarlarining malakasiga e'tibor oshirildi. Ular statistik nazorat usullarining asoslarini o'rgandi, mavjud muammolarni hal qilish usullari va boshqa o'quv uslubiy taraflariga e'tibor berildi. Bundan tashqari baxs o'tkazish qoidalar, tortishuv va janjallarni hal qilish usullari, eshitishga o'rgatish, janjalli sharoitlarni keltirmaslik kabilar to'garak rahbarlariga maxsus kurs tariqasida o'rgatildi. Natijada to'garak rahbarlari to'garak a'zolarini o'qitishni boshladi, hamda to'garaklar faoliyatini tashkil qilishda katta e'tiborni uslubiy ta'minlashga qaratdilar. Bu maqsadlarda ko'pgina kompaniyalar, universitetlardagi mutaxassislar yoki maslahatchi firmalar yordamiga murojaat qiladi.

Sifat to'garaklaridan foydalanishda, amerikalik korxona egalari ularning ishlarini mahalliy sharoitlarga moslashgan holda olib boradilar va shuning uchun aksariyat hollarda Amerikadagi to'garaklarning faoliyati Yaponiyadagidan farqlanadi. Xususan, agar Yaponiyada faqat 50-60 to'garaklar o'zlarining darslarini ish soatlarida bajarsa, Amerikadagi to'garaklar esa o'z rejalariga ko'ra, deyarli ishchi soatlarda o'tkaziladi. Amerikadagi korxona egalari sifat nazorati to'garaklarini joriy qilishda ishchilarni to'garaklarda qatnashishini har taraflama rag'batlantiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, to'garaklarning "insonga" bo'lgan yo'nalishi, alohida o'rin egallaydi. Masalan, "Ford" kompaniyasi o'zining to'garaklarini yaratilishining asosiy maqsadini "insonning fikr almashuvini yaxshilash, uning ishdagi sifatini, ijodiy potentsialini oshirish" deb e'lon qilgan.

Ayrim G'arbiy yevropa kompaniyalari boshqarishning Yaponiya usuli deb ataluvchi usulini o'rganishda ishlarining oqilona elementlarni joriy qilish bilan boshladilar. Eng ko'p tarqalgani Sifat to'garaklari bo'ldi. Birinchilardan bo'lib, bu usulni qo'llagan davlat Buyuk Britaniyadir. Biroz keyinroq Frantsiyada, Germaniyada, Italiyada, Ispaniyada, Niderlandiyada shunga o'xshash to'garaklar tarqala boshladi. Hozirgi vaqtda shunday to'garaklar deyarli hamma mamlakatlarda mavjuddir.

G'arbiy yevropa korxonalarida to'garaklarning natijalarini joriy qilish deyarli yuqori samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda.

Sifat to'garaklarining faoliyati faqatgina korxona ishlarini yaxshilash bilan bir qatorda boshqarish apparatining ishlarini yaxshilash, ish yuritishni osonlashtirish, hujjatlar sonini kamaytirish, kelishib olish va qarorlar qabul qilishni takomillashtirish masalalari bilan ham shug'ullanadi.

Mutaxassislarning fikricha G'arbiy yevropa firmalarida to'garaklarning joriy bo'lishi Yaponiyanikidan jadalliroq ekan.

Belgiyada shunday to'garaklar tashabbuskorlari sifat to'garagining amaliy assotsiatsiyasiga birlashgan. Mamlakat bo'ylab sifat to'garaklari faoliyat ko'rsatayotganliklari qayd qilingan. Mamlakatdagi ko'pgina firmalar sifat nazoratini yalpisiga joriy qilish yo'lini tutdi. Bu esa o'z navbatida sifat to'garagining mavqeini birmuncha oshirdi.

1986 yili Italiya milliy assotsiatsiyasi sifat to'garaklarini tashkil qildi va hozirga kelib bu mamlakatda 400 dan ortiq korxonalarda sifat to'garaklari mavjud bo'lib, ularning soni 4 mingdan ortib ketdi.

Mutaxassislarning fikrlariga qaraganda korxonalarda tuzilgan sifat to'garaklari 96 foiz yutuqlarga ega bo'lmoqda.

Sifat to'garagining Shved assotsiatsiyasi 110 korxonani birlashtirgan, hammasi bo'lib mamlakatda 500 shirkatlar o'z rejalariga ega. Bulardagi eng faol sifat to'garaklarining soni 30 dan ortiqni tashkil qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasida sifat to'garaklari ham asta-sekin ko'paya bordi. 1980 yilda mamlakat bo'yicha 400 mingdan ortiq "Sifat to'garaklari" bor deb hisoblanar edi. 1985 yilga kelib, ularning soni 500 mingdan oshdi. Xitoy to'garaklari muxandis-texnik xodimlarni, ishchilarni va boshqaruv bo'g'inidagi xizmatchilarni birlashtiradigan to'garaklarni o'z ichiga oladi.

Bu tadbirlarning hammasi nimalarga olib keladi, sanoatga nima beradi? Dastavval, korxona xodimlari tomonidan o'zlarining maqsadlari va vazifalarini aniq bilish va ko'rishdan iborat. Sifat to'garaklari kollektivga ta'sir ko'rsatib, ularni mahsulotning sifatini yuqori darajada ta'minlashga xodimlarni safarbar qiladi. Shuning uchun ko'pgina mamlakatlarda bu masalaga birinchi navbatdagi masala deb qaralmoqda. Bu muammoni yechishda korxona rahbari va kollektiv tadbirlarga ishonch hosil qilib, qo'lni qo'lga berib bir tanu, bir jon bo'lib harakat qilishlarini hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Ana shundagina sifat to'garaklari o'z samaralarini bera boshlaydi. Buni har bir ishbiarmon, korxona rahbari chuqur tushunishi va vijdonan bajarishi lozim. Mahsulot sifatining

yaxshilanishi sanoatni har taraflama rivojlanishiga, mustahkamlanishiga olib kelib, davlatning iqtisodiy qudratini oshirishga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

9-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: . SERTIFIKATLASHTIRILGAN MAHSULOTLAR VA XIZMATLARNI INSPEKTSIYA NAZORATIDAN O'TKAZISH QOIDALARI

Reja:

1. Inspeksiya nazorati.
2. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni inspeksiya nazoratidan o'tkazish qoidalari.
3. Nazorat yo'sinidagi tekshiruv. inspeksiya nazoratidan o'tkazish tartibi.

Ishning maqsadi: Talabalarda sertifikatlashtirilgan mahsulotlar va xizmatlar ustidan davlat nazotari, inspeksion tekshiriv jarayonlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar xosil qilish.

Inspeksion nazorat O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 06.04.2005 yildagi 1464-sonli "Sertifikatlashtirilgan mahsulot va xizmatlar ustidan inspeksion nazoratini o'tkazish qoidalari" ga asosan o'tkaziladi.

Ushbu koidalar Uzbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish xakida» konun va Uzbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 6 iyul 2004 yil №318 «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish yuriknomasini (jarayonini) soddalashtirishning kushimcha chora-tadbirlari tugrisida» (Uzbekiston Respublikasi Konunchilik yigini 2004 yil №27 s 315) qaroriga muvofiq ishlab chikarilgan va sertifikatlashtirilgan maxsulot va xizmatlarni (dalee-maxsulot) inspeksiya nazoratini utkazish koidalarini reglamentlashtiradi.

Umumiy qoidalar

Inspeksion nazorat Uzbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish tizimi sertifikatlashtirilgan maxsulotning belgilangan koidalariga muvofiqligini tasdiklash maksadida muvofiqlik sertifikati bergan turdosh maxsulotlarni sertifikatlashtirish organi tomonidan utkaziladi. SI

Inspeksion nazorat obekti bulib sertifikatlashtirilgan maxsulot va uni ishlab chikarish xisoblanadi.

Inspeksion nazorat xajmi SI tomonidan xar bir aloxida xolatda maxsulot sinov jarayonining murakkabligi, ilgari utkazilgan inspeksion nazorati va attestatsiyalangan yoki akkreditatsiyalangan sinov ishlab chikarish laboratoriyasining faoliyat natijalariga asoslangan xolda belgilanadi.

Inspeksion nazoratning rejali tartibda utkazilish davriyligi SI va maxsulot tayyorlovchi urtasida tuziladigan muvofiqlik sertifikatini kullash xukukini berish xamda muvofiqlik belgisidan foydalanish xakidagi kelishuv (bitim) asosida kuyidagilarni xisobga olgan xolda belgilanadi:

- Aloxida maxsulotning uziga xos xususiyatlari;
- Sertifikatlashtirilgan maxsulotning chikarilishi xajmi va davomiyligi;
- Sifat tizimiga berilgan sertifikatning mavjudligi;

Bunda sertifikatlashtirilgan maxsulotning rejali inspeksion nazorati SI raxbari tasdiklagan grafik-rejaga muvofiq ravishda utkaziladi.

Rejadan tashkari inspeksion nazorat sertifikatlashtirilgan maxsulot istemol kiluvchilar tomonidan anik kursatilgan va xujjatli tarzda tasdiklangan sezilarli nomuvofiqliklar yuzasidan shikoyat va noroziliklar tushgan xollarda, xamda ishlab chikarish texnologik jarayonining va maxsulotga beriladigan me'yoriy xujjatning uzgargan xolatlarida utkaziladi.

Sertifikatlashtirilgan maxsulotning rejali inspeksion nazorati buyicha kilingan ishlarga xak tulash konunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

II. Inspeksion nazoratni utkazish tartibi.

Inspeksion nazoratni utkazish uchun SI buyrug'i asos xisoblanadi va unda inspeksion nazorat utkazishning anik muddatlari va uni amalga oshiruvchi komissiyaning tarkibi kursatiladi. Inspeksion nazorat utkazish muddati uttiz kundan oshmasligi lozim. Sertifikatlashtirilgan maxsulot

yuzasidan inspeksiya nazorati sifat buyicha ekspert auditor tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda SI boshka akkreditlangan organlarning ekspert-auditorlarini xam shartnoma asosida ishga jalb kilish mumkin. Komissiya a`zolari maxfiyligi talablariga rioya kilishlari zarur.

Inspeksion nazorat SI raxbari tasdiklagan dasturga muvofiq utkaziladi. Inspeksion nazorati dasturi nazoratni utkazish ob`ektlari, maksadi, xajmi va ishlarini uz ichiga olgan bulishi zarur. Inspeksion nazoratni utkazish xakidagi buyruk va dasturning bir ekzemplari (nusxasi) maxsulot tayyorlovchiga uni olganligi tugrisidagi tilxat asosida beriladi

Inspeksion nazorat maxsulot tayyorlovchining vakili ishtirokida maxsulot tayyorlovchi yoki savdo soxasidan (iste`molchidan) sertifikatlashtirishning 2 va 4 sxemalari asosida namunalar saralab olishdan boshlanadi. Mahsulotning tayyorlovchi uz maxsulotini saralash va sinov jarayonida katnashish xukukiga ega.

Sinov uchun ishlatiladigan namunalar soni, ularni saralab olish identifikatsiyalash va sinovdan utkazish MX ning maxsulotga nisbatan talablariga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Mahsulot namunalarni sinash;

Akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalarida (markazlarida) xamda maxsulot tayyorlovchining texnik layokatligi akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyasida inspeksion nazorati komissiyasi vakili ishtirokida utkazildi.

Sinov natijalari buyicha protokol tuziladi. Inspeksion nazorati natijalari buyicha komissiya tomonidan erkin shaklda (formada) ikki nusxada (ekzemplar) akt tuziladi va uning bir nusxasi maxsulot tayyorlovchiga ikkinchi nusxasi esa SI ga yuboriladi.

Inspeksion nazorat dalolatnomasi komissiyasining barcha a`zolari va maxsulot tayyorlovchi tomonidan imzolanadi. Mahsulot tayyorlovchi inspeksion nazorati natijalaridan narozil bulsa u bu xakda uz fikrini bayon etishi mumkin.

Inspeksion nazorati dalolatnomasida maxsulot tayyorlovchi xakida asosiy ma`lumotlar, sertifikatlashtirilayotgan maxsulotning MX talablariga muvofiqligi, texnologik jarayon xakida ma`lumot, ishlab chikarishning metrologik ta`minoti va xulosa bulishi lozim

SI inspeksion nazorati natijalari buyicha akt tuzilgan vaktdan boshlab uch kun ichida muvofiqlik sertifikati tasdiklash, tuxtatib turish yoki bekor kilish xakida karor kabul kilinadi. Ushbu karorning bir nusxasi u kabul kilingan kundan boshlab uch kun muddat ichida maxsulot tayyorlovchiga yuboriladi.

Muvofiklik sertifikati tuxtatib turilgan hollarda aniklangan kamchiliklarni tuzatish yuzasidan berilgan muxlat karorda kursatiladi.

SI muvofiqlik sertifikatini bekor kilish tugrisida karor kilingan xolatda uch kun muddat ichida bu xakda «Uzstandart» agentligini, solik va bojxona organlarini va zarur hollarda ommaviy axborot vositalarini xabardor kilishi kerak. Muvofiklik sertifikatini bekor kilinishi uni Uzbekiston Respublikasi MSI davlat reestridan chikarib tashlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Bekor kilingan muvofiqlik sertifikati SI tomonidan yuk kilinadi va bu xakda tegishli jurnalga qayd etiladi. Bunda kuyidagi ma`lumotlar kursatiladi:

- Bekor kilish xakida SI qarorining kabul kilingan vakti (sanasi) va rakami (namera);
- Mahsulot nomlanishi;
- Mahsulot tayyorlovchining nomi;
- Muvofiklik sertifikatining davlat reestri buyicha nomeri va tartib rakami;
- Yuk kilingan vakti

SI kabul kilgan karordan norozil bulgan manfaatdor tomon «Uzstandart» agentligi apellyatsiya kengashiga yoki tugridan tugri murojaat kilish xukukiga ega. «Uzstandart» agentligi appelyatsiya kengashining qarori yuzasidan xam uz navbatida konunda belgilangan tartibda sudga shikoyat arizasi kiritish mumkin.

–AMALIY MASHG`ULOT

MAVZU: TABIIY VA KIMYOVIY TOLALARNI SERTIFIKATLASHTIRISHDA SINOVLARNI TASHKILLASHTIRISH

Reja:

1. Tabiiy tolalardan namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish.
2. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi.
3. Kimyoviy tolalardan namuna tanlash va identifikatlash.
4. Namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish.

Ishning maqsadi: Tabiiy va kimyoviy tolalardan namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish va muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi bo'yicha talabalarda bilim va ko'nikmani hosil qilish.

Lub tolalari o'zining tuzilish xossalari, o'lchami, kimyoviy tarkibi bo'yicha turli xil bo'ladi. o'simliklarning poyalari va bargidan olinadigan tolalarga lub tolalari deyiladi. Lub tolalari tarkibiga kanop, zig'ir, jut, manilla, sizal va boshqa tolalar kiradi.

Bular ichidan kalta, ingichka, o'zaro birikkan elementar tolalar sanoat korxonalarida ko'proq ishlatiladi. Ishlab chiqarish jarayonidagi texnik tolalar kichik to'dalarga tarmoqlanadi, ba'zi bir turlari tayyor marsulotlarda, masalan, oqartirilgan zig'ir iplari va gazlamalarida ular to'liq elementarga bo'linadi. Shu sababli nafaqat texnik tolalarning xossalarini, balki elementar tola va ularning to'da xossalarini bi I ish ram zarurdir. Lub tolalarining tarmoqlanishi risobiga ular ma'lum miqdorda farqlanadi. Texnik tolalarning xossalari nafaqat ularning xususiyatlariga va elementar tolalarning o'lchamiga bog'liq bo'libgina qolmay, balkim ular orasidagi bog'liqlikka ram ta'lluqlidir. Agar lignin tarkibi oshsa elementar tolalarning o'zaro bog'liqligi oshadi, texnik tolalar sifati yomonlashadi, bikrligi oshadi. Elementar va texnik lub tolalarining ko'rsatkichlari quyidagi 2.4-jadvalda berilgan.

Zig'ir. Zig'ir tolalari yuqori yigiruvchanlik imkoniyatiga ega bo'lib, elementar tolalarining chiziqliy zichligi va lignin tarkibi kamroq bo'ladi. Lub tolalari va boshqa kimyoviy tolalar aralashmasidan quruq va ro'l yigirish usulida iplar rosil qilinadi. Zig'ir tolalarining tarkibida lignin miqdori kam bo'lganligi sababli ulardan ingichka iplar olinadi.

Elementar va texnik lub tolalarining ko'rsatkichlari

Xom ashyo tarkibi	Tarkibi, foiz		Elementar tola				Texnik tola	
	Tselly uloza	Ligni n	Uzunligi, mm		O'rtacha ko'nda- langi, mk	Uzilishdagi kuchlanish kgk/mm ²	B 39 c B 3	Nomer, m/g
			O'rta cha	Maksi mal				
Kanop	70-72	13-18	2-5	II	14-32	40-46	120-300	150-250
Zig'ir	75-78	2-4	17-25	130	12-17	80-120	40-125	400-800
Sizal	70-72	14-15	2-3	8	12-26	44	80-220	30-210
Manilla	64-65	30	2-6	12	16-36	47	80-220	30-230
Kunjut	77-78	4-8	10-14	65	14-17	90	50-250	25-130
Jut	64-7-1	11-16	2-4	25	15-20	33	120-300	200-450

Kunjut. Uzun kunjut texnik tola asosan birlamchi tola xossalari bo'yicha yaxshi xususiyatlardan iborat. Kunjutning qo'llanilishi bo'yicha kanat va ipga bo'linadi. Birinchisi yuqori tasmasimonlikka va mustarkamlikka ega. Kanatli kunjut pishitilgan buyumlar tayyorlash uchun, ip esa-ip va gazlamalar uchun tayyorlanadi.

Kunjut tolalari birinchi tolalarning 70-80 foizini tashkil etadi.

Jut. Birlamchi va ikkilamchi jut tolalari, kanop tolasi kabi turli xususiyatlarga ega. Birlamchi tolalar ikkilamchi tolalarga nisbatan dag'al, qattiq va mustarkam bo'ladi. Jut tolasi yuqori gigroskopiklik xususiyatiga ega. Jut tolalari kalta elementar tolalardan tashkil topgan bo'lib, 11-20 loizli yuqori lignin moddasidan iborat. Jut tolalaridan shakar, un, tuz va boshqa oziq-ovqat marsulotlarini solish uchun qoplar tayyorlanadi. Bu tola yaxshi bo'yaladi. Shu sababli, bu tolalar gilam, qoplama va dekerativ gazlamalar ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Kanop. Kanop tolalari ram jut tolalari kabi 1-5 mm uzunlikdagi, kalta elementar zig'ir tolalaridan tashkil topgan bo'lib, qoplar uchun 300-700 teksli quruq yigirilgan iplar ishlab chiqariladi. Bu tolaning ram gigroskopik xususiyati ancha yuqori bo'ladi. Kanop tolalaridan chilvirlar, arqonlar tayyorlanadi va gilamchilik, qoplamalik va dekarativ buyumlari ishlab chiqarish uchun keng qo'llaniladi. Undan tashqari, gazlan ishlab chiqarishda linoleum tarzida ram ishlatiladi.

Lub tolalarining bargidan manilla, sizal tolalari olinadi. Texnik tolalar tekis, yo'g'on va qattiq bo'ladi. Ularning tarkibida 14-20 foizgacha lignin moddasi tashkil etadi. Ular yuqori mustarkamlikka ega. Bu tolalardan ram iplar, chilvirlar, arqonlar tayyorlanadi.

Standart bo'yicha lub tolalarining sifatini barolash va assortimenti. Lub tolalarining sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talablari davlat standartlarida yoki tarmoq standartlarida qayd etilgan.

Titilgan zig'ir - uzun tolali bo'lib, zavod va nozavod sharoitida sharoitida olingan yomg'ir shudringi ta'sirida ivitilgan, bug' bilan ishlov berilgan, ivitilgan poyali titilgan zig'ir bo'lib, GOST 10330-76 standarti bo'yicha barolanadi va titilgan zig'ir ko'rsatkichlari bo'yicha 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 18, 20, 22 va 24 raqamlarga bo'linadi. rar bir raqamdagi titilgan tolaning sifati belgilangan tartibda tasdiqlangan GOST 10330-79 standart namunalariga bog'liq bo'ladi (2.5-jadval).

Belgilan me'yoriy-texnik hujjatlardagi standart namunalari qayta tarash uslubi yordamida tekshiriladi.

Taralgan zig'ir-rovuch ko'rinishidagi uzun yoldan zig'ir tolasi bo'lib, zig'ir tarash mashinasida titilgan zig'irni tarash natijasida olinadi va ip ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

Titilgan zig'ir raqamini barolash uchun me'yor

Titilgan zig'ir	Qayta ishlilanmagan	Tarkibidugi iflosliklar miqdori, foiz		Foizli raqam ko'rsatkichlarining
raqam i	tarkibi foizda	Me'yoriy	Oraliqli	oralig'i (100 Nt)
8	7	7	13	701-850
9	4	6	10	851-950
10	4	5	9	951-1050
11	2	5	9	1051-1150
12	2	4	8	1151-1250
13	2	4	7	1251-1350
14	1	3	6	1351-1450
15	1	3	6	1451-1550
16	1	2	5	1551-1700
18	1	1	4	1701-1900
20		-	1	1001-2100

22		-	1	2101-2300
24		-	1	2301-2500

Taralgan zig'ir tolasi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha lOta navga bo'linadi va 14, 16, 18,20, 22, 24, 26, 28, 30, 36 raqamlari bilan belgilanadi.

Ivritilgan poya, yomg'ir va shudring ta'sirida ivritilgan poyaJi taralgan zig'irning navi mustarkamligi, qayishqoq yog'och qismining uzunligi, yaxshi ishlov berilmagan qismining massaviy ulushi, yog'ochli poya va chiqindilar, yo'g'onlashgan qismlar soni, egiluvchanligi kabi ko'rsatkichlari orqali belgilanadi.

Taralgan zig'irning navi issiqlik ta'sirida ivritilgan, fizik-mexanik va boshqa sanoat usullari yordamida *trestlar* tayyorJash va *standart namunalariga solishtirish* natijasida tola tashqi ko'rinishi bo'yicha aniqlanadi.

Taralgan zig'irning me'yoriy sifat ko'rsatkichlari quyidagi 2.6-jadvalda berilgan

Taralgan zig'ir 10-16 foizli haqiqiy namlikda, 12 foizli me'yoriy namlikdagi konditsion massasi bo'yicha qabul qilinadi. Agar tarkibida namlik miqdori 16 *foizdan* yuqori bo'lsa, u qabul qilinmaydi.

Taralgan zig'irning me'yoriy sifat ko'rsatkichlari

Taralgan zig'ir raqami	Hisoblangan nomeri Nx	Iflosliklar miqdori, foizda		
		lo'liq ishlangan	o'zak	do'nboqiar
14	15 гача	2,5	3.5	2
16	15,1-17	1,5	2,5	1,4
18	17,1-19	0,2 0,1	1 1.1-1.7	1
20	19,1-21	0,05	1	0.6
22	21,1-23	0	0.6	0,2
24	23,1-25	0	0,4	0,2
26	25,1-27	0	0.4	0,2
28	27,1-29	0	0.3	0
30	29,1-33	0	0,3	0
32	31,1 ва юцор	0	0,3	0

Tarandi-kalta yondoshsiz zig'ir tolasi bo'lib, zig'ir tarash mashinalarida, qolaversa, dag'al tarash mashinalarida va qayta tarash mashinalarida titilgan zig'irni tarash natijasida olinadi va ip ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

Tarandi zig'ir tolasi OST 17-166-78 standarta bo'yicha to'qqizta navga bo'linadi: 4, 6, 8, 10, 12, 14, 16, 18 va 20. Tarandi navi yomg'ir yoki shudring ta'sirida ivritilgan, bug' bilan ishlov berilgan, ivritilgan poyani laboratoriyada sinash natijalari bo'yicha eshilgan pilikning mustarkamligi, tolaning tarmoqlanishi, qayishqoq yog'och qismining ulushi, tolaning o'rtacha massa uzunligi, yog'ochli poya qismi, chiqindilar miqdori, yo'g'on qisimligi bo'yicha belgilanadi.

Tarandi zig'irning me'yoriy sifat ko'rsatkichlari quyidagi 2.7 va 2.8-jadvallarda berilgan.

Tola sifati laboratoriadagi sinov natijalari, ya'ni eshilgan pilikning mustarkamlik o'lchami va yog'och poyaning qismi yoki standart namunalariga solishtirish yo'li bilan barolanadi.

Kanopning uzun tolasi O'zDst 647-95 standart bo'yicha 1,11,III,IV navlarga bo'linadi. Iste'molchi tolaning tashqi ko'rinishi bo'yicha qabul qiladi. Kanop tolasining mustarkamligi, egiluvchanligi va o'zak tarkibi bo'yicha ko'rsatkichlari 2.9- jadvalda berilgan.

Kanop tolasining fizik-mexanik xossalari va o'zak tarkibi

Tola navi	Mustahkamligi, N	Egiluvchanligi, mgk	o'zak tarkibi, foizda	
			Hisoblangan	oraliq
1	235	22	1	3
	216	30		
2	196 186 176	20 23 30	1,5	4
3	157	21	2.5	6
4	137	18	3,5	7

Kanop tolasining rangi va tashqi ko'rinishi eng yomon kursatkichlari bo'yicha barolanadi. Tashqi ko'rsatkichlaridan birining og'ishida (rangi, tozaligi) tola pastki navda barolanadi.

Konditsion massa m_K risoblangan o'zak tarkibi bilan konditsion namligi $W_K=14$ foizda haqiqiy o'zak tarkibi 3_X (18 foizdan oshmagan holda)da asosan quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi. bu erda: m_p -tola haqiqiy massasi, kg; W_K -me'yoriy namlik,

$$m_K = m_X \frac{(100 + W_m) \cdot (100 - 3_X)}{[(100 + W_X) \cdot (100 - 3_H)]} \quad (2.7)$$

foizda; W_p -haqiqiy namlik, foizda; 3_X -haqiqiy o'zak tarkibi, foizda; 3_H -hisoblangan o'zak tarkibi, foizda.

Kanopning kalta tolalari GOST 9992-79 standartiga binoan 1 va II-nchi navlarga bo'linadi

Nav	Pishitilgan pilikning mustahkamligi, N	O'zak, ko'sak va barglar tarkibi, foizda		Tashqi ko'rinishi xususiyati
		hisoblangan	Uralikli	
1	206	10	15	Rang, toza lik va ifloslik ko'rsatkichlari tartibi
2	147	15	18	

Tayyorlovchi tolaning sifatini standartning ramma ko'rsatkichlari bo'yicha, iste'molchi esa tashqi ko'rinishi, standart ko'rsatkichlariga solishtirgan rolda tekshiradi.

Kalta kanop tolalari ham uzun kanop tolalari kabi qabul qilinadi.

Lub tolalaridan olingan ip. Standart bo'yicha iplarning sifatini barolash va assortimenti. GOST 11970.2-76 standarti bo'yicha lub tolalaridan olinadigan iplar assortimenti quyidagichadir: bittalik zig'ir ipi 17-1200 teks, lub tolalariga boshqa tolalar aralashmasidan olingan 320-6900 teksdagi ip.

Xom ashyo tartibi bo'yicha zig'ir ipi OS Γ 17-806-79 standartiga binoan toza zig'irli (TZ) tarkibida 8 foizdan yuqori bo'lgan kimyoviy tolali, zig'irli (Z), tarkibida 30 foiz zig'ir tolasidan iborat bo'lgan zig'ir bilan kimyoviy tola (ZK).

GOST 1078-85 standartida yigirish jarayoni bo'yicha iplar zig'irli (Z), tozalangan (T), quruq (Q), ho'l (H), qayta ishlanish jarayoni bo'yicha oqartirilmagan (O), oqartirilgan (Oq), bo'yalgan (B)

ligi bo'yicha sinflanadi. Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha iplar guruhlariga bo'linadi; maxsus zig'irli (MZ), yuqori tozalangan (YuT), o'rta tozalangan (O'T), oddiy tozalangan (OT).

Agarda guruh iplari, ya'ni faqatgina I-nchi nav uchun solishtirib uzish kuchi Rs, O'Z, O'T va OT quruq yigirishdagi iplarda, I va 11-nchi navlar uchun OZ va OT ro'l yigirishda me'yorlar belgilanadi.

Chiziqiy zichligi St va mustarkamligi Sn bo'yicha kvadratik notekislik me'yori 1 va 11-nchi navlar uchun ramma gururyaarda belgilangan. Solishtirma uzilish kuchi, chiziqiy zichligi va mustarkamligining eng yomon ko'rsatkichlari bo'yicha navi belgilanadi.

Zig'ir, kanop va jut iplari OST 17-460-75 standartiga binoan 340, 400, 440, 600 va 1600 teksli chiziqiy zichlikda ishlab chiqariladi. Standartda me'yoriga nisbatan konditsion chiziqiy zichlikning iplar uchun me'yoriy berilgan.

Kalta lub tolalaridan olingan kabel iplari 1700, 2200 va 3400 teksli chiziqiy zichlikda ishlab chiqariladi. GOST 905-78 standartiga binoan iplar maxsus, oshirilgan va oddiy gururlarga bo'linadi. Bu gururda iplar mustarkamligi, kvadratik notekisligi va o'zak tarkibi bo'yicha me'yoriy ko'rsatkichlari belgilanadi.

Kimyoviy tolalar shtapel tola, tanho iplar va birlamchi, ikkilamchi to'da iplari ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Viskoza tolasi va ipi. Viskoza shtapel tolasi. I3u tola yigirish jarayoni va buyum turlariga bog'liq bo'lib, turli chiziqiy zichlikda va rar xil turda ishlab chiqariladi. Undan tashqari GOST 10546-80 standarta bo'yicha kesilgan, chiziqiy zichligi 0,17; 0,31; 0,44; 0,56 teksda xom va bo'yalgan ko'rinishda ishlab chiqariladi.

Paxta ipi sanoatida toza shtapelli ip va paxta mm, chiziqiy zichligi 0,17-0,31 teksda viskoza shtapel tolasi, zig'ir va jun sanoatida turli nominal uzunlikdagi 0,12; 0,31; 0,44; 0,56 teksda tolalar ipakchilik sanoatida nominal uzunligi 38, 60 va 65 mm metrli chiziqiy zichligi 0,17; 0,31 teksdagi tolalar ishlatiladi.

Viskoza tolasini sifatini barolash GOST-10546-80 standarta bo'yicha, amalga oshiriladi va tashqi ko'rinishi ko'rsatkich xossalari tozaligi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha 3ta navga bo'linadi. U yoki bu tola navi sinash ishlari uchun to'dadan olingan namunalarning eng yomon ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi. Undan tashqari GOST-10546-80 standartida turli ta'sirlarda bo'yoqning pishiqqligi shartlari belgilanadi: ro'l va quruq ishqalanish, distirlangan suv va o'tkir natriy suyuqligi. Tolalarning rangi ta'minlovchi va iste'molchi orasida kelishilgan rolda belgilanadi. I3u ko'rsatkichlar tanro tolalarning haqiqiy o'rtacha uzunligining og'ish me'yoriga nisbatan konditsion zichligining og'ishi, nisbiy mustarkamligi va uzayish bir oy davomida tekshiriladi.

Viskoza shtapel ipi. Ikki uchli chiziqiy zichligi 12,5 dan 100 teksgacha bo'lgan bittalik va eshilgan iplar keng ko'lamda ishlab chiqariladi. U g'altakda, qog'ozli patronada, bobinada, tandalash valida, xom va bo'yalgan rolda ishlab chiqariladi. Viskoza shtapel iplari jun yoki pillaning taroqli yigirishda asosan paxta yigirishda olinadi. Uning sifat ko'rsatkichlari ip sifati kabi barolanadi.

Kardali paxta yigirish tizimi bo'yicha ishlab chiqarish viskozaning shtapel tolalaridan ipning mustarkamligini risoblash uchun V.A. Usenko tolaning qator imkoniyatli xarakterini hisobga olgan rolda formulani taklif etdi. I3u formula bo'yicha viskoza shtapel tolasining mustarkamligi quyidagicha hisoblanadi.

$$= \frac{P_T}{T_T} \cdot \left(\frac{1 - 0,0375 H_o - 2,8}{n} \right) \cdot z \cdot \beta \cdot \kappa$$

bu erda: P-shtapel tolaning o'rtacha mustahkamligi; T va T_T-tola va iplarning bog'liq chiziqiy zichligi; Ho-texnologik jarayon ko'rsatkichi bo'lib, u 2,5-3,5 ga teng; n-ip ko'ndalang kesimidagi tolalar soni;

z-tuzatish koeffitsienti bo'lib, tolaning shtapel massa uzunligi L_{Sh} ga ta'sir

$$\text{adi} \left(z = \frac{1 - 7,83}{L_{\text{ш}}} \right);$$

fi-tuzatish koeffitsienti bo'lib, uzunligi bo'yicha tolaning tekisligiga ta'sir etish hisobiga olinadi;

κ -luzatish koeffitsienti bo'lib, eshilishga ta'siri hisobiga olinadi, haqiqiy va kritik eshilish koeffitsientining farqlanishi bo'yicha aniqlanadi ($\alpha_x - \alpha_K = -50$ $\kappa = 0,8$ da, $\alpha_x - \alpha_u = 50$ $\kappa = 0,87$).

Viskoza to'da ipi ikki gururga bo'linadi. Birinchi guruhga to'quvchilik, trikotaj va boshqa ishlab chiqarishda ishlab chiqarilgan kichik chiziqliy zichlikdagi ip.

GOST 8871-84 standarti bo'yicha viskoza to'da iplari chiziqliy zichligi 8,4 teksdan 33,3 teksgacha hamda 18 dan 65 gacha to'dadagi tanro iplar soni bilan ishlab chiqariladi.

To'quvchilik, trikotaj va attorlik ishlab chiqarishda ko'pincha chiziqliy zichligi 29 teksgacha iplar ishlatiladi. Chiziqliy zichligi 33,3 teksli yo'g'on iplardan kord iplari ishlab chiqariladi. Bu iplarning standarti uchta nav bilan oliy, I va II barolanadi.

Viskoza to'da iplari bir konusli bobinada 2-2,4 kg krestli o'rash massasi bilan birgalikda etkazib beriladi. Ko'pincha qo'shilgan bir qancha navlar uchun me'yoriy ko'rsatkich belgilanadi.

Bo'yalgan to'da iplari 1-2 kgli massada bobinada krestli o'rashda ishlab chiqariladi va ular gazlama, trikotaj, attorlik buyumlari ishlab chiqarishga jalb etiladi. Iplarning o'rtacha egilishi 90-130 ezm.

Undan tashqari, tashqi nuqsonlari to'dadagi 10 foiz bobinalar, ichki nuqsonlari esa 36000 m ipning o'rashida aniqlanadi.

Pishitilgan viskoza to'da ipi. Bu iplar gazlama, trikotaj va attorlik buyumlari ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Ular orasida ikki gururga ajraladi: maishiy va texnik gazlamalar tayyorlash uchun qo'llaniladigan iplar. Birinchi gurur iplari pilla to'qishda ishlatiladi. Ular bir uchli, chiziqliy zichligi 6,6 dan 22,2 teksgacha, 800 ezm eshilishdagi muslin ipi, 1 yoki 2-3 pishitilishda, 1200-2200 ezm eshilish bilan krep ipi deyiladi. Turli ikki pishitilgan iplar, bir uchli jipsli bo'lmagan viskoza iplari (atsetat, ipak iplari bilan) tayyorlanadi.

Texnik maqsadlar uchun rezinali chanbarli shinalar tayyorlanishda viskoza kord iplari ishlab chiqariladi. Viskoza kordi paxta iplariga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega. 100-120°S raroratda qizdirishda mustarkamligini 20°S li raroratdagi mustarkamligi bilan solishtirilganda 10-15 foiz yo'qotadi, paxta iplari esa 30-40 foizga yo'qotadi.

Viskoza kordi ikki pishitilgan ip ko'rinishida hosil bo'ladi. Boshlang'ich to'da iplari 1-4 qo'shilishda eshiladi, 500-600 ezm eshilish beriladi, keyin 2-3 iplar 400-500 ezm eshilish bilan pishitiladi. Eshilishning yo'nalishi ZzS.

Viskoza kordining sifatini barolashda mustarkamligi, uzilishdagi uzayishi, mustarkamlik bo'yicha notekislik koeffitsienti, ko'ndalangli va boshqa ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Mis-ammiakli tola va iplari. Mis-ammiakli tolalari chegaralangan miqdorda ishlab chiqariladi va junli apparat yigirishda, gilamchilik to'qishda ishlatiladi. Bu mis-ammiak shtapel tolalari 0,4 dan 0,66 teksgacha chiziqliy zichlikda ishlab chiqariladi. Bu tolaning sifat ko'rsatkichlari viskoza shtapel tolalari kabi barolanadi.

Uzilishdagi uzunligi 8-10 km dan past, uzayishi 20-22 foizdan yuqori, iflosliklar miqdori 10 marotaba ko'p yuqori buladi.

Mis-ammiak to'da iplari chiziqliy zichligi 0,05 teksli ingichka tanro iplar olishda ishlatiladi. Bu to'da iplari ichki buyumlari trikotaj ishlab chiqarishda va yupqa gazlamalar, masalan, shifon, satin gazlamalari ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Ular yaxshi emirilishga chidamlilik xususiyatiga ega.

Atsetat tola va iplari. Atsetat tola va iplari uch diatsetat, uchlanma atsetat va sovunli atsetat ko'rinishda ishlab chiqariladi.

Diatsetat iplari 6,6 dan 16,5 teks chiziqliy zichlikda ishlab chiqariladi. Eng ko'p tarqalgan iplar 20 ta tanro iplardan iborat bulgan 6,6 teksli chiziqliy zichlikda va texnik maqsadlarda ishlatiluvchi, arqon-iplar ishlab chiqariladi.

Kapron tolas va iplari. Umumiy jaron miqyosida poliamid tolalar ishlab chiqarish 10 foizga yaqin tashkil etadi. Kapron tolalari 0,77; 0,67; 0,5; 0,29 teksli chiziqliy zichlikda va turli uzunlikda ishlab chiqariladi. Kapron tolas ishlab chiqarishda paxta, jun va boshqa tolalar aralashmasida ram ishlatiladi. Kapron shtapel tolalarining sifati standart bo'yicha eng yomon ko'rsatkichlariga binoan barolanadi. Uzilishdagi kuchlanish va uzilishdagi uzayish ramma navdagi tolalar uchun bir xilda.

Xorijiy davlatlarda poliamid tolalar 0,17 dan 1,7 teksgacha, 28 dan 160 mm gacha, $45-10^7$ Pa uzilishdagi kuchlanishgacha ishlab chiqariladi.

Kapron to'da iplari. Ularning assortimenti juda turli-tumandir. Kapron cheksiz uzunliqdagi ip bo'lib, navbatda mono ip va to'da ipga bo'linadi. To'da iplarda elementar iplar soni ishlab chiqariladigan ipning yo'g'onligiga bog'liq.

Mono ipning yo'g'onligi 1,67-5 teks ($N_{200-600}$), nisbiy mutloq 50 gkzteks, cho'ziluvchanligi 18-32 foiz, gigroskopikligi 4 foiz bo'lib, 65°S raroratda bu tola juda silliq bo'lib, yaxshi ilashmaydi, ishqalanish kuchi kam, boshqa tolalar bilan aralashtir. Uganda silliqdagi tufayli material yuzasiga chiqib ishqalanish natijasida tugunchalar rosil qiladi.

Silliqdini kamaytirish uchun tolalar silindrik ko'rishda emas, balki turli shaklda ishlab chiqariladi. Yaltiroqligini kamaytirish uchun esa okis titan kukini qo'shiladi.

Kapron ishqor ta'siriga chidamli bo'ladi. Kislota ta'siriga bardoshsizdir. Kapron ishlab chiqarish juda arzonga tushadi va u yaxshi bo'yaladi.

Kapron ipi pardozi qilinmaydi. To'qimachilik ishlov beriladi: eshish, qo'shish va rakozo.

Nitron tola va iplari. Nitron tolalari kapron va lavsan tolalariga qaraganda mayinroq va tovlanuvchanroq bo'ladi. Nitron tolalari sof rolda, hamda jun tolalari va boshqa tolalar bilan aralashgan rolda 0,5 va 0,67 teksli chiziqli zichlikda ishlab chiqariladi. Tolaning uzilishdagi kuchlanish $20 \cdot 10^7$ Pa, uzilishdagi uzayish 19 foizni tashkil etadi. Texnik maqsadlar uchun $30-10^7$ Pa gacha uzilish kuchlanishda bo'lgan filtrl gazlamalar ishlab chiqariladi.

Odatda to'da nitron iplari quruq usul bilan 29 teksli chiziqli zichlikda, 16 foizni uzilishdagi uzayish va $47-10^7$ Pa uzilishdagi kuchlanishli, hamda 200 ta elementar iplardan iborat bo'lgan rolda, shtapel tolasida esa ro'l usulda ishlab chiqariladi. Nitron tolasining ro'l rolatida mexanik xususiyati o'zgarmaydi. Ishqalanishga chidamsiz bo'ladi. Namligi 1,5-2 foiz bo'lib, $160-170^{\circ}\text{C}$ raroratgacha o'z xususiyatini yo'qolmaydi. Nisbiy mustaqilligi 16,6-24,5 sNzteks, cho'zilishi esa 20-26 foiz bo'lib, trikotaj matolarida ko'p ishlatiladi.

Nitron tolasida Shvetsiya va Shvetsariyada akril, Polshada anilana, Yaponiyada beslon, ekslan, kashmilon, bonnel, GDR da vetrelon deyiladi. Nitron mineral kislotalar, ishqorlar, keyin tozalashda ishlatiladigan organik eritmalar, bakteriyalar, mog'or, qorakuya ta'siriga chidamli. Ustki trikotaj kiyimlar tikishda nitron sof rolda qo'llaniladi, hamda ko'ylaklik va kostyumlik gazlamalar to'qishda jun, paxta va viskoza tolalariga aralashtirilib ishlatiladi.

Xlorin tola va iplari. Polivinil xlorid tolalari kam miqdorda qo'llaniladi. Ular asosan texnik maqsadlarda uchun filtrl va izolyatsiyali ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Polivinilxlorid tolalar Frantsiyada rovin, termovin, GFRda Pi's, Yaponiyada tolok deb yuritiladi. Uni 16,6 dan 100 teksli chiziqli zichlikda, 20-10 Pa uzilishdagi kuchlanishda, 17-24 foiz uzilishdagi uzayishda, 140 ezm eshilishda ishlab chiqariladi. Xlorin tolasining sifatini barolashda o'rtacha chiziqli zichlikdan og'ish. notekislik koeffitsienti, tashqi nuqsonlari e'tiborga olinadi. Uning konditsion namligi 2 foiz. Xlorin tolasida shtapel tola ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Xlorin tolasida qayishqoq, suv, kislota va ishqorlar ta'siriga chidamli, chirimaydi, mog'ordan shikastlanmaydi. Issiqlik saqlash xossalari yaxshi. Xlorin 600S raroratda emiriladi.

Kiyimni quruq kimyoviy tozalashda xlorin trixloretilen va yuqori perxloretilenda erishi mumkin. Ishqalanganda elektr zaryadlarini yig'ish xususiyatiga ega bo'lgani uchun xlorin davomida ishlatiladigan kiyimlar tikishda qo'llaniladi. Polivinilxlorid tolalar relfli shoyi gazlamalar, gilam, sun'iy mo'yna, texnikaviy gazlamalar tayyorlashda ram ishlatiladi.

Shisha tolalar va metall iplar. Shisha tolalar pishiq, egiluvchan, yorug'likni yaxshi o'tkazadi, yorug'likka chidamli, elektr-issiqlik-tovush izolyatsiya xossalari yuqori. Bunday tolalar kimyoviy turg'un bo'lib, faqat ftorid kislotada eriydi. Tolalarning gigroskopikligi 0,2 foizni tashkil etadi. Shisha tolalarni bo'yash uchun suyuq shisha miqdoriga xrom, kobait, marganets, temir, oltin birikmalari qo'shiladi. Shisha tolalarining rangi barcha ta'siriga bardoshli. Shisha tolalar texnik maqsadlarda, hamda bezak gazmollarni olish uchun ishlatiladi.

Metall iplar mis yoki mis qaytimlaridan qilingan simni asta-sekin cho'zish yo'li bilan olinadi. Bu ipning sirtida turg'un yaltiroqlik rosil qilish uchun unga yupqa oltin yoki kumush qatlami surkaladi. Ba'zi metall iplar rangi pigmentlar va yupqa sintetik rimoya plyonkasi bilan qoplanadi.

Metall iplarining asosiy turlariga voloka-dumaloq metall ip, plyuhenko-plita ko'rinishdagi yassi ip, kanitel-spiralsimon voloka yoki plyuhenko, mishura-voloka yoki plyuhenkadan burab tayyorlangan ip, pryadovo-plyuhenko qo'shib pishitilgan paxta yoki ipak ipi; lyureks-kumush rang yoki turli rangdagi elim qoplangan yassi alyuminiy ip.

Metall iplar pogon, orden va medallar, zarral buyumlar tayyorlash, yaltiroq gazlamalar-parcha to'qish, shuningdek gazmollarni bezash uchun ishlatiladi.

2-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: TO'QIMACHILIK IPLARINI SERTIFIKATLASHTIRISHDA SINOVLARNI TASHKILLASHTIRISH

Reja:

1. To'qimachilik iplari namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash.
2. Sinov bayonnomasini rasmiylashtirish. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi.

Ishning maqsadi: To'qimachilik iplaridan namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish va muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi bilan talabalarni tanishtirish.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Paxta ipi. Standart bo'yicha paxta ipining sifatini barolash. Paxta tolasidan yigirilgan iplarning navi GOST 1119-80 standarti bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlariga asosan aniqlanadi:

1. Ipning turi qaysi usul bilan olingan (qayta tarash, karda va apparat) va yigirish mashinalari bo'yicha farqlanadi.
2. Ipni ishlatish maqsadi (gazlamaga, trikotajga, g'altak iplariga).
3. Haqiqiy chiziqliy zichlik T_x -tajriba yo'li bilan aniqlanadi.
4. Konditsion chiziqliy zichlikdan nominal chiziqliy zichlikning og'ish miqdori bo'lib, bu ko'rsatkich (foizda) quyidagi formula yordamida risoblanadi. Mezoni standartda berilgan.

$$\Delta = \frac{T_k - T_n}{T_n} 100, \quad (2.1)$$

bu erda: T_k -konditsion chiziqliy zichlik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T_k = T_x \frac{100 + W_k}{100 + W_x} \quad (2.2)$$

bu erda: - konditsion namlik, foizda; W_x - haqiqiy namlik, foizda; T_n -nominal chiziqliy zichlik, ishlab chiqarishga berilgan topshiriq yo'g'onlik (standartda beriladi).

5. Mustarkamlik bo'yicha kvadratik notekisligi C_p (foizda) quyidagi formula bilan aniqlanadi: bu erda: (j-o'rtacha kvadratik og'ish miqdori bo'lib, u quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$C_p = \frac{\sigma}{\bar{P}_M} \cdot 100 \quad (2.4)$$

bu erda: P_u -o'rtacha mutloq mustarkamlik, gk.

7. Sifat ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

Paxtadan yigirilgan iplar sifat ko'rsatkichi bo'yicha I, II va 111 navlarga bo'linadi.

Tashqi ko'rinishi bo'yicha iplarning tozaligi uch sinfga bo'linadi: A, 13 va V. Iplarning sinfini

$$\sigma = \sqrt{\frac{CK}{C_p}} \quad (2.6)$$

aniqlash uchun ular qora rangdagi taxtachaga o'raladi va etalon bilan solishuriladi.

Iplarning assortimenti. Paxta iplari tolalar tarkibi bo'yicha uzun toladan, o'rta toladan olingan, undan tashqari paxta va kimyoviy tolalar aralashmasidan olingan iplarga bo'linadi.

Yigirish usuli, olinadigan ipning turi, yigiruv tolalarining uzunligi va yo'g'onligiga bog'liq bo'ladi. Jun, paxta, tabiiy ipakning uzun tolalari taroqli usulda qayta ishlanadi, natijada bir tekis zich va silliq ingichka ip rosil qilinadi. Paxta va junning kalta tolalaridan apparat usulda yo'g'on, bo'sh, yo'g'onligi jiratidan notekis bo'lgan apparat ipi olinadi. Uzunligi o'rtacha paxta va shtapel tolalaridan karda usulida o'rtacha yo'g'onlikdagi, taroqli usuldagiga qaraganda notekisroq va dag'alroq karda ipi olinadi. 4,2-1000 teksdagi me'yoriy chiziqlikdagi tanro iplarning umumiy assortimenti GOST 1197.0-70 standartida qayd etilgan.

Iplar qo'llanilishi bo'yicha to'quvchilik ishlab chiqarishidagi tanda va arqoq, tikuvchilik iplari, trikotaj, to'qimachilik-attorlik ishlab chiqarishidagi va texnik maqsadlar uchun ishlatiladigan turlariga bo'linadi.

To'quvchilik ishlab chiqarishidagi iplarning assortimenti ma'lum miqdorni tashkil etadi. Gazlamalar tanda va arqoq iplaridan tashkil topadi. Tanda iplari yaxshi xom ashyodan tayyorlanadi, hamda yaxshi pishitiladi va gazlama bo'ylamasida yotadi. Arqoq iplari esa kamroq pishitiladi. Shu sababli, tanda iplari arqoq iplariga nisbatan pishiqroq bo'ladi. Masalan, satin o'rilishidagi arqoq iplari yuqori sifatli va toza paxta tolasidan ishlab chiqariladi va gazlamaning yuza ko'rinishida rosil bo'ladi.

Tikuvchilik iplari taroqli yigirish tizimi bo'yicha ko'pincha uzun tolali paxtadan ishlab chiqariladi. Chunki, tikuvchilik iplari mustarkamligi, tekisligi va tozaligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichli shartlarga ega bo'lishi lozim.

Trikotaj ishlab chiqarishdagi iplar toza, tekis va bir xil massada bo'lishi lozim. Nuqsonlar bo'lmasligi kerak, aks holda trikotaj matolarining sifat ko'rsatkichlari yomonlashadi, tashqi ko'rinishi buziladi, to'qish vaqtida uziluvchanlik miqdori oshadi. Shu sababli, trikotaj iplari kamroq pishitilishda ishlab chiqariladi. Assortimentda ikki qo'shilishdagi pishitilgan iplar ma'lum miqdorni tashkil etadi.

To'qimachilik-attorlik buyumlari uchun pishitilgan iplar o'rta, uzun, hamda aralash tolalardan 2-18 qo'shilishda bir yoqlama la ikki yoqlama eshish yo'li bilan ishlab chiqariladi. Standartda uzilishdagi uzayish, eshish yo'nalishi va koeffitsienti ko'rsatiladi.

Texnik maqsadlar uchun iplar o'rta va uzun paxta tolalaridan 2-30 qo'shilishli chiziqliy zichligi 54-870 teks bilan ishlab chiqariladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO ga a'zo bo'lgan davrdan boshlab standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ishlari «O'zstandart» Agentligi Milliy idoralari tomonidan jahon andozalariga moslashtiri Imoqda.

Paxtachilik, to'qimachilik va engil sanoat sohaslarida ISO talablariga mos «O'zbekiston standart»-O'zDst rukunida standartlar yaratilib foydalanilmoqda.

Masalan, O'zDst 596:2009. Texnik chigit. Texnikaviy shartlari, O'zDst 615:2008. Paxta. Texnikaviy shartlar, O'zDst 604:2001. Paxta tolasi. Texnikaviy shartlar, O'zDst 933:2011 Xom ipak. Texnikaviy shartlar va hokaza.

Qo'shma korxonalarda material, ip sifatini baholashda Evropa (Turkiya), Osiyo (ko'proq Janubiy Koreya) standartlari ham qo'llanilmoqda.

Masalan, trikotaj iplarini yigirishda karda ipi uchun Turkiyaning ISO 59.080.20 ga mos keladigan TS 262:2003; to'qimachilik sanoatiga taroqli (qayta taralgan) ip uchun TS 263:2003 standartlarida ipning chiziqliy zichligi, uzilish kuchi va uzilishdagi uzayishi, eshilishi, Uster notekisligi ko'rsatkichlari (iplar notekisligining o'zgarish koeffitsienti (CV,%), iplarning ko'rinishdagi notekisligi, ipning ingichka va qalin joylari va nuqsonlari) hamda ipning tukdorligini aniqlash bo'yicha uslublariga havolalar bilan texnik talablari 1,2,3,4,5 sinllarga mos keluvchi «Uster-statistik» mezonlari keltirilgan. Unga ko'ra iplar Sinf 1-5% lik bo'lakka kiradigan iplar Sinf 2-25% lik bo'lakka kiradigan iplar Sinf 3-50% lik bo'lakka kiradigan iplar

Sinf 4-75% lik bo'lakka kiradigan iplar

Sinf 5-95% lik bo'lakka kiradigan iplarga ajratilgan.

Sinovlar uchun namunalar olish tartibi keltirilgan

Ip to'dasi (sandits, kop,) soni	Ajratib olingan o'rama (upakovka)lar soni
4-10	1
11-30	2
31-75	3
76 va undan ortiq	4

Iplarning uzilish kuchi va kvadratik notekisligi sintlar bo'yicha har bir guruh iplar uchun keltirilgan

Ip nomeri		Uzilish kuchi cN/tex					Uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsienti, CV, %				
Ne	T. tex	Sinf 1	Sinf 2	Sinf3	Sinf4	Sinf 5	Sinf 1	Sinf 2	Sinf 3	Sinf4	Sinf 5
18	33	23,3	20,3	18,9	17,5	16,2	5,4	5,8	6,3	6,9	7,6
24	25	22,4	19,4	18,0	16,6	15,4	6,1	6,7	7,3	8,0	9,0
30	20	21,7	18,7	17,3	16,0	14,8	6,3	7,1	7,7	8,5	9,6

Ip nomeri		O'zilishdagi cho'ziluvchanligi (U.%)					O'zgarish koeffitsienti ko'rsatkichi, CV, %				
Nc	T. tex	Sinf 1	Sinf 2	Sinf3	Sinf4	Sinf5	Sinf 1	Sinf 2	Sinf3	Sinf4	Sinf 5
18	33	7.1	6.7	6.4	6.1	5.8	5.1	5.6	6,0	6.8	7.6
24	25	6.9	6,4	6,0	5.7	5,3	5.4	5.9	6.5	7.5	8.6

30	20	6.7	6.2	5,7	5.4	5,0	5.8	6.4	7 2	8.6	10.0
----	----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	------

Ip nomeri		Iplarning Uster notekisligi (U.%)					O'zgarish koeffitsienti. CV, %				
Ne	T, lex	Sinf 1	Sinf2	Sinf 3	Sinf4	Sinf 5	Sinf 1	Sinf 2	Sinf?	Sinf 4	Sinf 5
18	33	8.2	8.1	9.1	9.6	10.6	10.3	10.8	11.4	12.0	13.3
24	25	8.7	9.3	9.8	10.5	11.7	10.9	11.6	12.3	13.1	14.6
30	20	9.1	9.8	10.4	11.2	12,5	11.4	12.2	13,0	14,0	15,7

Ip nomeri		1000 ill iplarning qalinjoylari					Nuqsonlon				
Ne	T. rex	Sinf 1	Sinf2	Siilf3	Sinf4	Sinf 5	Sinf 1	Sinf2	Sinf3	Sinf4	Sinf 5
18	33	5.6	11.0	20.9	34.8	71.2	6.2	11.2	19.3	36.8	85.1
24	25	7.8	16.2	30.1	56.0	155.3	12.1	22.5	39.1	71.4	160.7
30	20	10.2	21.9	39.9	81.0	284 J	20.3	38.8	67.8	119,3	263.1

Ip nomeri		Iplarning tukdorlik ko'rsatkichi				
Ne	T, rex	Sinf 1	Sinf 2	Sinf 3	Sinf 4	Sinf 5
18	33	5,0	5,4	5,9	6.2	6,9
24	25	4.5	4.9	5,3	5.7	6,3
30	20	4.1	4,6	4,9	5.3	5,9

Olingan natijalar standart talablariga mos bo'lsa mahsulot standartiga mos, aksi bo'lsa standartga zid hisoblanadi.

Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishi, eksport salohiyatining yuksalishi, to'qimachilik sanoati rivojlanishi, chet el kompaniyalari va firmalari bilan iiloqalarning ortishi, soha mutaxassislari tomonidan xalqaro metrologiya tizimidagi o'lchovlar birliklari bilan tanishib borishni taqozo etadi.

Ma'lumki yengil sanoat tizimida, umuman Mustaqil davlatlar hamdo'stligi V.ukibiga kiruvchi respublikalarda paxta tolasidan yigirilgan kalava ip, umuman to'qimachilik sanoatida qo'llaniluvchi iplar chiziqiy zichligi 1000 metr ipning vazni orqali «teks»da ifodalanadi.

Amaliyotda qo'llanilayotgan, to'qimachilik iplarining «nomer» o'lchov birligi bilan Evropa ittifoqiga kiruvchi davlatlardagi qo'llaniladigan «Ne» o'lchov birligi orasidagi munosabat quyidagicha: $Ne = Nm \cdot l$, 7. Xuddi shuningdek, $Ne = l,67 Nm$ ko'rinishida bog'liqlik mavjud.

Quyidagi jadvalda kalava iplarning turli o'lchov birliklardagi qiyosiy kattaliklari ko'rsatilgan.

Tex	Nm	Nc	Den	LEA
1000,0	1	0,59	9000,00	1,67
250,0	4	2,36	2250,00	6,67
100,00	10	5,91	900,00	16,67
50.00	20	11,82	450,00	33,33
33,33	30	17,73	300.00	50,00
25.00	40	23,64	225,00	66,67
20.00	50	29,55	180.00	83,33
10,00	100	59,10	90,00	166,67
3,33	300	177.30	30,00	500,00

Lub tolalaridan olingan ip. Standart bo'yicha iplarning sifatini barolash va assortimenti. GOST 11970.2-76 standarti bo'yicha lub tolalaridan olinadigan iplar assortimenti quyidagichadir: bittalik zig'ir ipi 17-1200 teks, lub tolalariga boshqa tolalar aralashmasidan olingan 320-6900 teksdagi ip. Xom ashyo tartibi bo'yicha zig'ir ipi OS Γ 17-806-79 standartiga binoan toza zig'irli (TZ) tarkibida 8 foizdan yuqori bo'lgan kimyoviy tolali, zig'irli (Z), tarkibida 30 foiz zig'ir tolasidan iborat bo'lgan zig'ir bilan kimyoviy tola (ZK).

GOST 1078-85 standartida yigirish jarayoni bo'yicha iplar zig'irli (Z), tozalangan (T), quruq (Q), ho'l (H), qayta ishlanish jarayoni bo'yicha oqartirilmagan (O), oqartirilgan (Oq), bo'yalgan (B) ligi bo'yicha sinflanadi. Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha iplar guruhlariga bo'linadi; maxsus zig'irli (MZ), yuqori tozalangan (YuT), o'rta tozalangan (O'T), oddiy tozalangan (OT).

Agarda guruh iplari, ya'ni faqatgina I-nchi nav uchun solishtirib uzish kuchi Rs, O'Z, O'T va OT quruq yigirishdagi iplarda, I va 11-nchi navlar uchun OZ va OT ro'l yigirishda me'yorlar belgilanadi.

Chiziqiy zichligi St va mustarkamligi Sn bo'yicha kvadratik notekislik me'yori 1 va 11-nchi navlar uchun ramma gururyaarda belgilangan. Solishtirma uzilish kuchi, chiziqiy zichligi va mustarkamligining eng yomon ko'rsatkichlari bo'yicha navi belgilanadi.

Zig'ir, kanop va jut iplari OST 17-460-75 standartiga binoan 340, 400, 440, 600 va 1600 teksli chiziqiy zichlikda ishlab chiqariladi. Standartda me'yoriga nisbatan konditsion chiziqiy zichlikning iplar uchun me'yoriy berilgan.

Kalta lub tolalaridan olingan kabel iplari 1700, 2200 va 3400 teksli chiziqiy zichlikda ishlab chiqariladi. GOST 905-78 standartiga binoan iplar maxsus, oshirilgan va oddiy gururlarga bo'linadi. Bu gururda iplar mustarkamligi, kvadratik notekisligi va o'zak tarkibi b Tut ipak quritining quruq pillalari O'zDst 630-95 standartida, tut ipak qurtining tirik pillalari O'zDst 631-95 standartida qabul qilish qoidalari, sinash usullari, tashish va saqlash kabi usullari batafsil berilgan.

Xom ipak.Xom ipakning sifati O'zDst 933-2011 standartiga binoan 7 ta nav bilan barolanadi. Xom ipakning sifat ko'rsatkichlariga qo'yiladigan asosiy talablar 2.13-jadvalda, va ikkinchi darajali ko'rsatkichlari csa 2.14-jadvalda keltirilgan.

Mazkur standartga ko'ra pilla o'rash jarayonida bir nechta pilla iplarining qo'shilishidan rosil bo'lgan xom ipakning chiziqiy zichligi 1,56; 1,89; 2,33; 3,23; 4,65 teks deb belgilanadi.

Xom ipakning sifat ko'rsatkichlari barcha iplarga xos: chiziqiy zichlik, shu ko'rsatkichi bo'yicha kvadratik notekisligi, nisbiy uzish kuchi (mustarkamligi), uzilishdagi uzayishidan tashqari nalis shoyi gazlamalar xossalariiga bevosita ta'sir etadigan xom ipakning bir qancha maxsus xossalari ram aniqlanadi.

Xom ipakning qayta o'ralish qobiliyati -M-210-Shl o'rash mashinasida 10 ta o'rama xom ipakni g'altaklarga qayta o'rash mobaynida uzilishlar soni bilan aniqlanadi.

Me'yoriy chiziqiy zichlik, tcks	Nav	Belgilangan chiziqiy zichlik nie'yoriyga nisbatan farqi, foiz	Chiziqiy zichlikning kvadratik notekisligi. foizdan ortiq cmas	Qayta o'ralish qobiiiyati. uzuqlar soni quyidagilar- dan oshmasligi kerak	Yirik nuqsonlardan tozaligi, foizdan kam emas
1.56	Birinchi	+7.7	12,8	39	95
	Ikkinchi	-6.4	15,9	60	90
	Uchinchi		19,7	121	85

2,33	Birinchi	i6,5	12,0	18	93
	Ikkinchi	-5.6 >	14,0	37	88
	Uchinchi		18,0	68	82

Me'yoriy chiziqliy zichlik. Teks	Kalavalar rolati, balda, ortiq zmas	Notekisligi, balda ortiq emas	Mayda nuqsonlardan tozaligi foizdan kam emas	Solishtirma uzuvchikuch mN/teks, (gk/teks) dan kam emas	Uzilishdagi cho'zilish, foizdan kam cmas	Jipsligi, kare tkaning yurish sonidan kam emas
1,56	25	8	83	294 (30.0)	16,0	25
2.33	25	7	82	294 (30.0)	17,0	30

Xom ipakning mos kelmasligi (kalavalar holati)-seriplan deb ataladigan dastgorda maxsus qora panelga (doskaga) o'ralgan xom ipakning tashqi ko'rinishi sinchiklab tekshirilib etalon rasmlari bilan taqqoslanib bal bilan barolanadi. Shu usulda xom ipakning mayda nuqsonlari bo'yicha tozaligi-ipdagi kichik qalinlashuv (yo'g'onlashish), katta bo'lmagan tugunaklar va boshqa nuqsonlar soni aniqlanadi.

Katta nuqsonlar bo'yicha tozaligi- g'adir-budur, buralgan, tutunsimon va to'zigan qismlar soni bilan ifodalanadi.

Xom ipakning jipsligi deb uni tashkil qiluvchi ipak tolalarning seretsin bilan yopishqoqlik darajasiga aytiladi. Bu ko'rsatkich maxsus asbobda 10 ta yondoshsimon tortilgan xom ipak ipini ilgarilanma-qaytma rarakatlanuvchan karetkaning namuna titilgunicha qilgan rarakat davri bilan aniqlanadi.

Tekshirilayotgan xom ipak ikki yoki undan ko'p sifat ko'rsatkichlari yoki konditsion chiziqliy zichligi me'yoriy chiziqliy zichlikdan farqlangan rollarda xom ipak sifati bir navga pasaytiriladi, 111 nav xom ipak esa nostandart deb barolanadi.

Pishitilgan ipak. Pishitilgan ipak shoyi gazlamalar to'qish, tikuvchilik ipagi va ayrim texnik maqsadlar uchun ishlab chiqariladi.

To'quvchilik pishitilgan ipak iplari kam buramli (eshimli) va o'ta buralgan turlarga ajratiladi.

Kam buramli ipak iplar 2-6 xom ipak tolalari kamroq buramlar (80-120 bzm) bilan bir bosqichda ishlab chiqariladigan bo'lib, arqoq ipi sifatida va yakka iplarni pishitib (600 bzm) ularni 2-4 tasini qo'shib, teskari (480 bzm) eshib, pishitilgan ipak tanda ipi sifatida foydalaniladi.

O'ta pishitilgan ipak iplar 2-6 iplar katta buramlar (2200-3200 bzm) bilan eshilgan va eshilish yo'nalishi chap (S) yoki (Z) tomonga bo'lishi mumkin. Tikuvchilik ipagi 9-75 nomerlarda ishlab chiqariladi.

Texnik ipak sifatida (18 qavatli) tanda va arqoq, ingichka elektr simlarini o'rash uchun kam buramli ipak, xirurgiya iplari va boshqalar maqsadlarda ishlatiladi.

To'quvchilik uchun mo'ljallangan pishitilgan ipak GOST 7052-80 standartiga muvofiq chiziqliy zichligi bo'yicha nolekislik ko'effitsienti, nisbiy mustarkamligi, uzilishdagi uzayishi, o'rtacha pishitilganligidan ruxsat etilgan farqlanishi va pishitilganligi bo'yicha notekislik ko'effitsientlari bo'yicha eng yomon ko'rsatkichlari taqqoslanib uchta navga ajratiladi.

Yigirilgan ipak ipi. Yigirilgan ipak ipining chiziqliy zichligi 20 teks x 2; 7,2 teks x 2; 5 teks x 2 va boshqa pishitilgan, hamda 10 teks yakka ip rovida ko'proq ishlab chiqariladi. Yigirilgan ipak iplar GOST 1025-80 standartiga muvofiq chiziqliy zichligi bo'yicha notekisligiga mos ravishda uchta navga ajratiladi. Nuqson ko'rsatkichlari bo'yicha ikki nav past bo'lsa 1 navga pasaytiriladi. Ipning mustarkamligi hamda, pishitilganligi bo'yicha kvadratik notekisligi, me'yoriy chiziqliy zichligi,

buramlar soni bo'yicha farqlanishi, uzilish uzunligi va uzilishdagi uzayish ko'rsatkichlari barcha navli iplar uchun bir xil bulganligi sababli ularning birortasiga mos kelmagan rolda ipak ipi nostandart (brak) deb barolanadi.

o'yicha me'yoriy ko'rsatkichlari belgilanadi.

Tosh paxta ipi. Tosh paxta ipi tarkibida, paxta aralashmasida qayta ishlash uchun nominal uzunligi 34 va 38 kimyoviy tolalar aralahmasida apparat yigirish usuli bo'yicha tayyorlanadi. Tosh paxta iplaridan gazlamalar, transportyor matolari, rimoya kiyim-kechaklari, tasma, ip va boshqa buyumlar ishlab chiqariladi.

Bittalik aralash tosh paxta iplari 38-840 teks chiziqliy zichlikda GOST 11970.5- 70 standartida ko'rib chiqiladi. Ko'pincha buyumlardagi iplar 2-3 eshilishda tayyorlanadi. Gazlamalar 2 qo'shilishdagi pishitilgan tanda, 2,3 yoki 4 qo'shilishdagi pishitilgan arqoq iplaridan tashkil topadi. Nam muxitda qo'llaniluvchi gazlamalar uchun iplar yuqori mustarkamlikdagi uzun tolali tosh paxta aralashmasidan, yuqori navli paxta tolasi yoki mustarkam kimyoviy tolalardan tayyorlanadi. Arqoqlar uchun pishitilgan iplar past navli va kislota ta'siriga bardoshli tosh paxta va 20-25 foiz paxta yoki kimyoviy tolalar aralashmasidan rosil qilinadi.

Aralash tosh paxta iplariga qo'yilgan me'yoriy shartlar turli-tuman bo'lib, uning tarkibiga va qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi.

3–AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINI SERTIFIKATLASHTIRISHDA SINOVLARNI TASHKILLASHTIRISH

Reja:

1. To'qimachilik mahsulotlaridan namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish.
2. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi. Inspeksion nazorat.

Ishning maqsadi: To'qimachilik mahsulotlaridan namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish ba inspeksion nazoratni amalga oshorish bo'yicha talabalarga tushunchalar berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Gazlama namunasi-butun eni bo'yicha qirqilgan bo'lak bo'lib, laboratoriyada sinov ishlari uchun qo'llaniladi.

Namuna-bo'laklardan qirqilgan kesimlar bo'lib, har bir laboratoriya tajriba usullari uchun alohida tayyorlanadi. Namuna tanlash quyidagicha amalga oshiriladi.

Namuna tanlash vaqtida gazlamaning chetki qismidan namuna olinmaydi. Namunalar olishda tashqi nuqsonlar bo'lmasligi, qirqib olishda yirtilib ketmasligi va har bir olingan namuna nomerlanishi shart.

GOST 3810-72 «Gazlamalardan namuna tanlash». Bu standart to'qimachilik materiallaridan laboratoriya mashg'ulotlari uchun namuna tanlashga mo'ljallangan.

GOST 3811-72 «Gazlamalarning chiziqli o'lchamlari va massasini aniqlash uslubi». Bu standartda gazlamaning chiziqli o'lchamlari, uzunligi, eni, chiziqli zichligi, $l_m \sim$ og'irligi, konditsion massasi, sirt zichligini aniqlash uslublari ko'rsatirgan.

Namuna uzunligi-tanda ipining boshlanishi va oxirgi qismi.

Namuna eni-arqoq ipining boshlanishi va oxirgi qismi.

1 pog.m dagi namuna massasi-namuna massasining uzunligiga nisbati.

1 pog.m² dagi namuna massasi-namuna massasining yuzasiga nisbati.

1 m² dagi konditsion massasi-1m² gazlamadagi berilgan konditsion namligi.

Gazlamadan namuna tanlash ishlari GOST 3810-72 standart bo'yicha amalga oshiriladi. Gazlama namunasining chiziqli o'lchamlarini aniqlashda chizg'ich va stol ishlatiladi. Stol uzunligi 3 m dan

kam bo'lmasligi kerak. Berilgan uchastkalarining xatoligi $\pm 1\text{mm}$ bo'lishi shart. Stol usti tekis va silliq bo'lishi lozim. Sinash ishlarini olib borishdan oldin namunalar GOST 10681-75 standart bo'yicha sun'iy iqlim sharoitida 24 soat saqlanishi shart. Gazlamaning uzunligi va enini aniqlashda namunaning 3 ta joyidan, boshidan, o'rtasidan va oxiridan o'lchash ishlari olib boriladi. Gazlamaning qalinligini tolshinomer asbobi yordamida diagonal bo'yicha boshidan, o'rtasidan va oxiridan aniqlanadi. Chunki, materialni qirqish vaqtida noto'g'ri qirqilgan bo'lishi mumkin. Gazlamaning eni, uzunligini 0,1 sm aniqligigacha aniqlash shart. Gazlamaning massasi tarozi yordamida 0,01 g gacha aniqlikda tortiladi. »

Zichlik-100 mm masofaga to'g'ri keluvchi tanda va arqoq yo'nalishidagi iplar soni. Gazlamaning zichligini aniqlash uchun chizg'ich, igna, qisqich, shablon, lupa ishlatiladi. Gazlamaning zichligini aniqlashdan oldin uni GOST 10681-75 standart bo'yicha 24 soat sun'iy iqlim sharoitida saqlab turish kerak.

Gazlamaning tanda va arqoq yo'nalishi bo'yicha zichligini aniqlashda iplar soni sanab chiqiladi. GOST 3813-72 "Gazlamaning cho'zilishdagi uzilish xususiyatlarini aniqlash uslubi".

Mustahkamlik-namunaning cho'zilishdagi uzilishga qarshilik ko'rsatish kgk yoki N da aniqlash" standarti bo'yicha maishiy, harbiy, texnik, trikotaj va noto'qima matolarning havo o'tkazuvchanligi aniqlanadi. Sinash ishlari uchun VPTM-2 rusumli asbob ishlatiladi.

Toza va yarim junli paltolik va kostumbop gazlamalarni ho'llashdan keyin o'lchamlarining o'zgarishi GOST 512-82 "Ho'llashdan keyin chiziqli o'lchamlarining o'zgarishini aniqlash uslubi" standarti bo'yicha ifodalanadi.

Uzilishdagi uzayish-namunaning uzilish davridagi cho'zilgan gazlamaning uzunligi.

Gazlamadan namuna tanlash va uning mustahkamligi GOST 3810-72 standarti bo'yicha RT-250M-2, AG-1 uzish mashinalari yordamida amalga oshiriladi. Gazlamaning mustahkamligi, uzilishdagi uzayishini aniqlashdan oldin namuna GOST 10682-75 bo'yicha 24 soat sun'iy iqlim sharoitida saqlab turiladi.

Agar kelishmovchilik chiqadigan bo'lsa, unda quyidagicha namunalar olinadi: 50x200 mm-gazlamalar uchun, 50x100 mm-jun gazlamalar uchun. Har namunadan 3 ta tanda yo'nalishi bo'yicha, 4 ta arqoq yo'nalishi bo'yicha bo'lakchalar qirqiladi. Namunaning mustahkamligi va uzayishi RT-250M uskunasi aniqlanadi.

To'qimachilik. gazlamalarining egilishdagi bikrligi GOST 10550-75 standarti bo'yicha PT-2 asbobi yordamida aniqlanadi. Uning uchun gazlama to'dasidan namunalar olinadi. Boshlang'ich uzunligi 160 mm, eni 30 mm bo'lgan namuna qirqimlari bichim yordamida tanda va arqoq yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadi.

GOST 12088-77 "To'qimachilik gazlamalari va ulardan tayyorlangan buyumlar. Havo o'tkazuvchanligini aniqlanadi.

Sinash ishlari uchun ikkita namuna tanlanadi. Har bir namunani ho'llashdan oldin tanda va tarqoq yo'nalishi bo'yicha belgi qo'yib chiqiladi va namunaning massasi 0,2 g dan ko'p bo'lmagan xatolik bilan aniqlanadi. Namunaning ho'llashdan va keyingi massasining farqlanishi ± 2 g bo'lishi kerak.

Barcha gazlamalarning navini aniqlash uchun tegishli davlat standartlari mavjud:

- ip gazlamalar uchun - 161-86 raqamli;
- zig'ir tolali gazlamalar uchun - 357-75 raqamli;
- jun gazlamalar uchun - 358-82 raqamli;
- ipak gazlamalar uchun - 187-85 raqamli standartlar. Ushbu standartlar bo'yicha gazlamalarning navini aniqlash ularning tolali tarkibiga ko'ra bajariladi.

4–AMALIY MASHG’ULOT

MAVZU: TIKUVCHILIK MAHSULOTLARINI SERTIFIKATLASHTIRISHDA SINOVLARNI TASHKILLASHTIRISH

Reja:

1. Tikuvchilik mahsulotlaridan namuna tanlash va identifikatlash.
2. Namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi. Inspeksion nazorat.

Ishning maqsadi: Tikuvchilik mahsulotlaridan namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish ba muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi bilan talabalarni umumiy tanishtirish.

Paxta tolasidan tayyorlangan oqartirilgan rangli matoning sinash ishlari GOST 29298-2005 ga muvofiq quyidagicha amalga oshiriladi:

1) Tashqi ko'rinishi

Dastlab matoni tashqi ko'rinishiga etibor berish lozim. Matoda yirtilgan, sitilgan bo'yoq yaxshi tegmay qolgan joylar yo'qligiga ishonch hosil qilish lozim. Mato silliq, yaxshi bo'yalgan, yuzasida shishib qolgan joylar bo'lmasa GOST talablariga javob beradi.

2) 10 sm dagi iplar soni

Matoning tanda va arqoq yo'nalishi bo'ylab 10 sm lik namunalar tayyorlab olinadi. Keyin namunalardagi iplar soni hisoblanadi. Tanda va arqoq bo'yicha umumiy iplar soni hisoblanib, o'rta arifmetik qiymati topilib GOST dagi qiymatlarga solishtiriladi.

3) Umumiy yuza zichligi

Matodan bir necha namunalar tanlab olinadi. Ularni yuza zichligi hisoblanadi va GOST dagi qiymatlarga solishtiriladi. Bunda matoni yuza zichligini bir xilligiga va matoni qalin-yupqa bo'lmay, bir xil ekanligiga ahamiyat berish lozim.

4) Uzilish kuchi

Matodan 50x200 mm o'lchamdagi bir nechta namunalar uzish masinasida uzib ko'rib pishiqligi aniqlanadi. Umumiy natijadan o'rta arifmetik qiymat topiladi va GOST dagi qiymat bilan solishtiriladi.

5) Havo o'tkazuvchanligi

Matodan bir nechta namuna tayyorlab, ularning havo o'tkazuvchanligi aniqlanadi. Keyin natijalarning o'rta arifmetik qiymati topilib GOST dagi ko'rsatkichlarga solishtiriladi. Matoning havo o'tkazuvchanligi eng asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki bu ko'rsatkich istemolchi salomatligiga tasir ko'rsatishi mumkin.

6) Ishqalanishga chidamliligi

Mato kiyim holiga kelguniga qadar va undan keyin ham ko'pgina ishqalanishlarga uchraydi. Shuning uchun mato ishqalanishga chidamli, ishqalanganda iplari uzilib ketmaydigan

bo'lishi kerak. Bu xossani matoni turli xil sirtlar bilan ishqalab ko'rib natijalari GOST dagi bilan solishtirib ko'riladi.

7) Yuvilgandan so'ng o'lchamini o'zgarishi

Mato yuvilgandan so'ng kirishishi aniq. Lekin bu kirishish haddan tashqari, yani belgilangandan ko'ra ko'proq bo'lsa istemolchiga loyiq kelmay qolishi mumkin. Shuning uchun matoning o'lchamlari o'zgarishiga ham etibor berish kerak.

8) Bo'yoq chiqish xususiyatlarini o'zgarishi

Bo'yoq bilan bo'yalgan mato turli xolatlarda bo'yoqlarni yo'qotishi mumkin:

a) yuvilganda

matodagi bo'yoq ishqor tasirida tezda yuvilib ketmasligi lozim. Shuning uchun bo'yoq va matodagi iplar ishqor tasiriga chidamli ekanligini tekshirish lozim.

b) dazmollanganda

bir xilgi bo'yoqlar dazmollanganda dazmolga yopishib qoladi. Yani matodagi bo'yoq issiqlik tasirida yopishgan joyidan ko'chib ketadi. Shuning uchun matoning issiqlikka chidamli ekanligini ham tekshirish kerak.

d) terlaganda

matodagi bo'yoqlar ter tasirida ham o'zgarishi mumkin. Matoning rangi o'chib, o'rnida dog' qolishi mumkin. Shuning uchun ham bu ko'rsatkichni tekshirish lozim.

e) ishqalanganda

matoning bo'yoqlari ishqalanish natijasida rangi o'zgarishi yoki ko'chishi mumkin.

GOST 25295-2003 bo'yicha Kastyum, shim va kamzulning quyidagi parametrlari tekshiriladi:

1) Tashqi ko'rinishi

Bunda kastyum kamzul, shimning tashqi ko'rinishiga, chokiga, uzunliklari mosligiga, bir biriga mos ekanligiga, chontaklar to'g'ri tikilganiga etibor berish kerak.

2) Chiziqli o'lchamlari

Bunda turli oraliq masofalar, o'rta bo'yi, kastyum, kamzul, shim uchun alohida o'lchanadi. Har birini cho'ntagini uzunligini, kengligini, eni o'lchanadi. Barcha qiymatlar GOST dagi qiymatlarga solishtiriladi.

5–AMALIY MASHG’ULOT

MAVZU: CHARM POYAFZAL MAHSULOTLARINI SERTIFIKATLASHTIRISHDA SINOVLARNI TASHKILLASHTIRISH

Reja:

- 1.Charm payafzal mahsulotlaridan namuna tanlash va identifikatlash.
- 2.Namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi. Inspeksion nazorat.

Ishning maqsadi: Charm payafzal mahsulotlaridan namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish tartibi bilan talabalarni tanishtirish.

Charm payafzal mahsulotlari GOST 26165-2003 ga muvofiq o’g’il va qiz bolalar poyabzallarini sinovdan o’tkaziladi. Maxsulotni tashqi ko’rinishi va fizik-mexanik ko’rsatkichlari talablari bo’yicha quyidagicha sinovlar o’tkaziladi:

3) Tashqi ko’rinishi

Poyabzalni tashqi ko’rinishiga etibor berish kerak.Unda hech qanday kamchilik nuqsonlar yo’qligiga ishonch hosil qilish kerak.Ustki qismida hech qanday chiziqli, tirnalgan joy bo’lmasligi lozim. Asos bilan tagcharmni yaxshi yopishtirilganligiga etibor berish kerak bo’ladi.Yana ikkala poyabzalni bir xil ekanligiga, choklar to’g’ri tikilganiga ham ahamiyat berish lozim.

4) Balandligi va orqa balandligi

Poyabzalni balandligi deganda poyabzalni tagcharmining tovon qismi tugagan joydan poyabzalni yuqori qismigacha bo’lgan oraliq tushuniladi. Orqa balandligi poyabzalni tovon qismidagi qo’shimcha tikilgan asos qismining balandligi hisoblanadi.Bu balandliklar o’lchanganda 2 mm xatolikka ruxsat beriladi.

3)Choklar mustahkamligini aniqlash

Poyabzalda 2 qatorli va 1 qatorli choklar ishlatiladi. GOST bo’yicha har ikki choklar uchun alohida qiymatlar mavjud.Choklar mustahkamligini tekshirish uchun eni 4sm ga teng qilib chok qirib olinadi va uzib ko’rish orqali mustahkamligi aniqlanadi.

4)Tag qismining mustahkamligini aniqlash

Poyabzalni ustki charm qismiga tag qismini qay darajada mustahkam yopishtirilganini bilish uchun kuch yordamida ustki qismidan tag qismini ajratib ko’rish orqali bilinadi.Tag qismini 8 ta bo’lakka bo’linadi.Bo’lak tovon qismi tugagan joydan boshlanadi.Bo’laklar 2sm dan qilib kesiladi.

5)Burun va orqa qismi deformatsiyasi

Poyabzalni burun va orqa qismi malum deformatsiyaga ega bo’ladi..Burun va orqa qism malum kuch bilan ezilganda GOST da belgilangan miqdorda deformatsiyaga uchrashi kerak.Poyabzalning burun va orqa qismi o’ta qattiq ham o’ta yumshoq ham bo’lmasligi kerak.

6)Egiluvchanligini aniqlash

Poyabzalni egiluvchanligi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki poyabzalning ko'p egilishlarga uchraydi. Poyabzalni egiluvchanligi quyidagicha aniqlanadi: poyabzalni uch qismidan orqa tomonga egiladi, poyabzalni egiluvchanligi 145 dan ortib ketmasligi kerak.

7) Og'irligini aniqlash

Poyabzal ixcham, chiroyli, qulay va o'ta og'ir bo'lmasligi kerak. Poyabzalning har ikki poyining og'irligi bir biriga maksimal darajada yaqin bo'lishi kerak. Lekin GOST da poyabzalni og'irlik qiymati belgilab qo'yilmagan.

6–AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: TO'QIMA-ATTORLIK VA TIKUVCHILIK-ATTORLIK MAHSULOTLARINI SERTIFIKATLASHTIRISHDA SINOVLARNI TASHKILLASHTIRISH

Reja:

1. To'qima-attorlik va tikuvchilik-attorlikdan namuna tanlash va identifikatlash.
2. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi. Inspeksion nazorat.

Ishning maqsadi: To'qima-attorlik va tikuvchilik-attorlikdan namuna tanlash va identifikatlash, namunani sinash, sinov bayonnomasini rasmiylashtirish bilan talabalarni tanishtirish. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi va inspeksion nazorat bo'yicha umumiy ma'lumotlarni berish.

Asosiy ma'lumotlar

To'qimachilik attorlik buyumlari

Attorlik tovarlari assortimenti xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham ularga nisbatan kompleks talablar qo'yiladi, chunki ular chiroyli, ishlatishda qulay va gigiyenik bo'lishi kerak. Masalan, pardabop matolar tuzilishi, rangi hamda rasmi bo'yicha zamonaviy interyerga mos kelishi zarur. Undan tashqari, pishiq-puxtalik va ishlatilish jarayonidagi qulayligi kabi xususiyatlari (kam ifloslanishi, oson tozalanishi, dazmollash va yuvish uchun kam vaqt sarflanishi va boshq.) ham muhim ahamiyatga ega.

To'qilgan, halqalanib to'qilgan va o'ralgan attorlik buyumlari. Bu guruhdagi buyumlar assortimentiga tasmalar, jiyak (tesma)lar, shnurlar va popuk (baxroma)lar kiradi. Bu buyumlar kiyimlar va bosh kiyimlarni bezash hamda prikladka materiallari va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan.

Tasma (lenta)lar. Tasmalar xomashyolari bo'yicha alyunitli, paxta ipak, yarim ipak, jun, yarimjunli gazlamalar va rezinali iplarga; pardozi bo'yicha - oqartirilmagan, oqartirilgan, gul bosilgan, olachipor, yaltiratilgan, yelimlangan va patli; ishlatilishi bo'yicha - prikladkali, bezak-pardozlovchi, kiyimga yordamchi tasmalarga bo'linadi. Tasma - tanda hamda arqoq iplarining o'zaro to'qilishi asosida tasma to'qish stanoklarida olingan, chekkalariga yaxshi ishlov berilgan ingichka buyum. *Prikladkali tasmalar ichki kiyimlarda* bog'ich, tikuvchilik va trikotaj buyumlari choklarini berkitish uchun, molniya-ilmoq hamda yelkabog'ich sifatida ishlatiladi. *Bezak-pardozlovchi tasmalar*, ichki kiyimlar, ko'ylaklar, kostyumlar va bosh kiyimlarni pardozlash, sochlarga taqish, bantlar bog'lash uchun qo'llaniladi.

Jiyak (tesma)lar. Jiyaklar o'rish yoki halqalash yo'li bilan to'qish stanoklarida bir tizim iplardan olinadi. Jiyaklar o'rilishi bo'yicha bir va ikki o'ramli bo'ladi. Ular pardozi bo'yicha oqartirilmagan, oqartirilgan, sidirg'a bo'yalgan, ko'p rangli, tashqi ko'rinishi bo'yicha silliq va fasonli qilib chiqariladi. Ishlatilishi bo'yicha prikladkali, bezak-pardozlovchi guruhlarga ajratiladi. *Prikladkali jiyaklar* ichki kiyimlarni bog'ichlash, buyumlar chekkasini qoplash (obshivka), beldamchalarni bog'ichlash va choklarni yopish uchun foydalaniladi. *Bezak-pardozlovchi jiyaklarga* o'ralgan fasonli, ko'p rangli hamda bir qancha halqalanib to'qilgan jiyaklar kiradi.

Bog'ich (shnur)lar. Ular yumaloq, oval yoki yassi shaklda bo'ladi. Ishlab chiqarish usuli (o'rilgan, burama), ishlatilishi (bezak-pardozlovchi va prikladkali), pardozi, eni yoki diametri bo'yicha bo'linadi. *Bezak-pardozlovchi* bog'ichlar tikilgan, trikotaj, poyabzal, bosh kiyimlar va boshqa buyumlarni pardozlash uchun qo'llaniladi.

To'rparda va to'r buyumlar. Bu guruhga to'rpardalar, matolar, to'rlar va donabay buyumlar kiradi. *To'rli matolar* tanda halqalovchi OVG rusumli mashinalarda asalarilar uyasiga o'xshash katakchalar hosil qiluvchi arqoq va tanda iplarining to'qilishi bilan olinadi. Ular xomashyosi bo'yicha paxta, lavsan, kapronli bo'ladi. Bulardan pardalar, choyshablar, to'y ro'mol (fata)lar, yopqich (nakidka)lar va boshqa buyumlar tikiladi. To'rpardalar pardozi bo'yicha oq, sidirg'a bo'yalgan va ko'p rangli bo'lishi mumkin.

Pardali matolar to'r matolariga nisbatan to'rning asosiy rangida joylashgan har xil naqshlarga ega bo'ladi. Ular ishlab chiqarish usullari bo'yicha halqalangan, to'qilgan, tikilgan va noto'qimali guruhlariga ajratiladi.

To'rli matolar ishlab chiqarish usuli bo'yicha halqalanib to'qilgan va tikilgan (gipyur), birlamchi material bo'yicha paxta kalavali, kapronli, sun'iy iplar bilan aralash lavsanli, pardozi va eni bo'yicha (45 sm. dan 280 sm. gacha) guruhchalarga bo'linadi. Ko'rinib turadigan chiziqli bilan o'ralgan va siyrak to'rlar bilan birkirilgan matolar gipyur deb ataladi.

To'rlar (krujeva) qo'lda va mashinalarda to'qiladi. To'rlar - bu kalava va iplardan tayyorlangan naqshli to'qilgan buyum. To'rlar kiyimlarni bezashda qo'llaniladi. Ular ishlatilishi bo'yicha o'lovchi va donabay bo'ladi. Donabay to'rli buyumlarga yoqachalar, qadama yeng (manjet)lar va kashtalar, choyshablar, yopqichlar, pardalar, darpardalar, bo'yinbog'lar, dasturxonlar, uchburchak ro'mollar va boshqalar kiradi.

Tikilgan attorlik buyumlari. Soyabon (zont)lar. Iplar va ipli buyumlar

Tikilgan attorlik buyumlariga gul bosilgan va bosmali buyumlar, beldamcha buyumlari, elastik tasma va jiyaklardan tayyorlangan buyumlar kiradi.

Badiiy gul bosilgan kashtali va bosmali buyumlar. Bu kichik guruhdagi buyumlar attorlik buyumlari assortimentida eng katta hissaga ega. Ular ishlatilishi, turlari, materiali, gul turlari, bosib naqsh berilishi hamda kashtasi bo'yicha juda xilma-xil.

Gazlamalar batik, erkin gul bosish va aerograf usullarida qo'lda, turli shablonlar va mashinalarda bezatiladi.

Beldamcha buyumlariga. ayollar ko'krakbog'lari va belbog' buyumlari (belbog'lar, belbog'-ishtonchalar, yarim beldamchalar, yarim beldamcha-pantalonlar, beldamchalar, gratsiya-kalta ishtonlar va boshq.) kiradi. *Erkaklarning buyumlariga* o'zi bog'lanadigan galstuklar, regatlar hamda bantiklar kiradi.

Elastik tasma va jiyaklardan tayyorlangan buyumlarga bog'ichlar, erkaklar belbog'lari, ayollar hamda bolalar belbog'lari uchun kompleks bog'ichlar kiradi. Ular enli tasmalar va har xil diametrli jiyaklardan tayyorlanadi.

Iplar va ipli buyumlar

Iplar va ip buyumlar quyidagi belgilari bo'yicha bo'linadi: ishlatilishi (tikish, kashtalash, halqalab to'qish va to'rlash iplari), tola tarkibi (paxta, zig'ir, viskoza, tabiiy ipak, kapron va boshq.), qavatlar soni (2, 3, 4, 6, 9, 12 va shunga o'xshash), o'ram tuzilishi (bir va ikki o'ramli), pardozi (xira, yaltiroq), raqamlari (10, 20, 30, 40) va boshqalar.

Halqalab to'qish iplari paxta, jun, sun'iy va hajmli sintetik iplar (meron, melan, polipropilen)dan tayyorlanadi.

To'rovchi iplar bo'shroq o'ralgan va 4 qavatli bo'ladi. Ularni tayyorlashda paxta, jun va yarim jundan foydalaniladi.

Kashta iplari (mulina) bir o'ramli va 12 qavatli mersevizatsiyalangan paxta tolalaridan kalava (motok) shaklida olinadi. Iplar va ip buyumlari sovg'a naborlari ko'rinishda ham chiqariladi.

Soyabon (zont)lar

Soyabonlar ishlatilishi bo'yicha yakka tartibda va jamoa bo'lib foydalanish uchun ishlab chiqariladi.

Erkaklar soyabonlari faqat yomg'irdan saqlash uchun sidirg'a bo'yalgan ipak gazlamalaridan, sinchli (karkas)li, 8 yoki 10 sim chiviqli, 58-60 sm uzunlikda chiqariladi.

Ayollar soyabonlari yomg'ir va quyoshdan saqlash maqsadida barcha gazlamalardan, buklanadigan yoki buklanmaydigan tuzilishda, 8-10 va 12 sim chiviqli, 38-49 sm uzunlikda, ushlagichi yog'och, plastmassa, metall, shoxlardan badiiy bezatilgan holda chiqariladi.

Bolalar soyabonlari yomg'ir va quyoshdan saqlash uchun chitdan, buklanmaydigan va avtomat bo'lmagan shaklda chiqariladi.

Soyabonlar tuzilishi jihatidan buklanmaydigan, buklanadigan, tayoqchali, avtomat hamda avtomat bo'lmagan shaklda bo'ladi.

Charm attorlik buyumlari

Bu guruhdagi attorlik buyumlariga materiali, fasoni, turlari, ishlatilishi, pardozi va boshqa belgilari bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi xilma-xil assortimentdagi buyumlar kiradi. Charm attorlik buyumlari tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar asosiy va yordamchi turlarga bo'linadi. Asosiy materiallarga tabiiy, sun'iy hamda sintetik charmlar, gazlamalar, polimerli plyonkalar, kartonlar va boshqalar kiradi.

Charm attorlik buyumlarida qo'llaniladigan ashyolar ishlatilishi (buyumlarni yopish, ishqalanishdan saqlash va bezash uchun), materiali va bezagi (anodlangan oltin bilan qoplangan, xromlangan, qoliqlangan yoki o'yma naqshli rasm) bo'yicha bo'linadi.

Buyumlarning bo'laklari ipli, yelimli, termik, qurama, payvandlash, yuqori chastotali tok va ultratovushli usullar bilan birlashtiriladi.

Sumkalar turlari, materiali, tayyorlash usullari, kesilgan chekkalariga ishlov berilishi, yopilishi, shakli, pardozi va o'lchami bo'yicha ajratiladi.

Sumkalarning ayollar, erkaklar, bolalar, o'quvchilarga mo'ljallangan, yo'l, xo'jalik, sport va yozgi (plyaj) turlari mavjud.

Qo'lqoplar. Qo'lqoplar materiali, tuzilishi, pardozi, fasoni, biriktirish usuli va o'lchami bo'yicha bo'linadi. Ular qo'lqopli xrom va sun'iy charmlardan tikiladi, qurama materiallardan ham tayyorlanishi mumkin. Qo'lqoplarning o'lchamlari o'ng qo'l panjasining aylanasi bo'yicha sm. larda metrik tizimda aniqlanadi va quyidagi o'lchamlarda chiqariladi: erkaklar - 14 raqamda (20 dan 36 va 38 gacha), ayollar - 5 raqamda (16, 19, 22 va 24), o'smirlar - 3 raqamda (19, 20 va 22), bolalar - 4 raqamda (14 dan 17 gacha).

Pul, qog'oz va har xil buyumlar saqlash anjomlari. Bu kichik guruh anjomlariga portfellar, safar xaltalari (ransi), papka, mayda charm attorlik buyumlari kiradi. *Portfel va safar xaltalari* ishchi qog'ozlar, kitob va maktab-yozuv anjomlari olib yurish hamda saqlash uchun mo'ljallangan.

Portfel va safar xaltalari tuzilishi qattiq, yarim qattiq, yumshoq, astarli, astarsiz; materiali tabiiy, sun'iy hamda sintetik charmlar, gazlama va quramali; tayyorlash uslubi – tikilgan, yelimlangan, yuqori chastotali tok bilan payvandlangan; yopilishi bo'yicha klapanli, surilma (zashchelka), molniya-ilmoqli va quramali bo'ladi.

Papkalar ishlatilishi hamda tuzilishining o'ziga xosligi bo'yicha ishchi, byuvarli (papkani bir turi), manzilli papkalarga bo'linadi. *Ishchi papkalar* qog'ozlar, kitoblar va devonxona anjomlari olib yurish uchun qo'llaniladi. *Byuvarli papka* pochta qog'ozlari, konvertlar va har xil xat (korrespondensiya)lar saqlanadigan stol ustida turadigan qattiq ikki devorli papka. *Manzilli papkalar* adreslar taqdim etish yoki saqlash uchun ishlatiladi.

Kichik charm attorlik buyumlari. Bu guruh buyumlarning assortimentiga hamyonlar, portmonelar (charm karmon), har xil jildlar, sigara qutilari, g'iloqlar (ko'zoynak, kalit, taroq va boshqalar uchun) va sovg'a buyumlari (qutichalar, shkatulkalar) kiradi.

Hamyonlar mayda tangalar saqlash uchun mo'ljallangan bo'lib, ixchamgina qulfcha bilan jihozlangan. *Portmonelarda* hamyonlardan farqli o'laroq, qog'oz pullar uchun bo'lmalari bo'ladi. Ular jihozlanishi bo'yicha ham xilma-xil.

Yo'l anjomlari. Yo'l anjomlarga chamadonlar, g'ilof yoki jildlar, bagaj qayishlari va mayda buyumlar to'plami kiradi.

Chamadonlar shaxsiy buyumlar va kundalik hayot narsalarini tashish va saqlash uchun xizmat qiladi. Ular uch turda chiqariladi: yo'l chamadoni, chamadon-diplomat hamda chamadon-garderob.

Bagaj yuk qayishlari egar-jabduq charmlari, sun'iy charmlar va yog'och yoki charm tutqichli paxta tasmalaridan tayyorlanadi. Eni 25 mm, uzunligi 1520-2000 mm.

G'ilof yoki jildlar (portpleddlar) ko'rpa-to'shak buyumlarini o'rash va tashish uchun jild yoki g'ilof sifatida ishlatiladi.

Nesesserlar - atirlar, tish cho'tkasi, sovundon, pudra va tish kukunlarining qutichalari, taroq, ko'zgu va boshqalar kiradi.

Sertifikatlashtirish to'g'risida umumiy ma'lumotlar

Sertifikatlashtirish *guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish* ma'nolarini bildiruvchi **certifus** (lotincha) so'zidan olingan bo'lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hijjatga muvofiqigini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqaydigan faoliyatni bildiradi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak. Sifat ko'rsatkichlari esa ma'lum, belgilangan talablarga muvofiq/mos/ kelishi lozim. Muvofiq o'z navbatida ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish (ya'ni tasdiqlash) mumkin.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qumitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kiritilgan.

Sertifikatlashtirish haqidagi ayrim ma'lumotlar quyidagi sxemada aks etgan

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish "Uzstandart" agentligi o'rnatgan muddatda amalga oshiriladi (quyida berilgan jadvalga qarang).

Oziq- ovqat va qishloq ho'jalik mahsulotlari	1 kundan 5 kungacha
Yengil sanoat mahsulotlari	5-10 kungacha
Xom ashyo tarmoq mahsulotlari (yog'ochni qayta ishlashdan boshqa)	10 kungacha
Elektrotexnika va texnika mahsulotlari	5-15 kugacha
Mashinasozlik mahsulotlari	10 kungacha
Yog'ni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	15 kungacha
Ўлчаш воситалари	5-30 кунгача

7-AMALIY MASHG'ULOT: TO'QIMACHILIK TOLALARI ISHLAB CHIQARISHDA SINOV LABORATORIYALARI

Reja

1.To'qimachilik tolalari ishlab chiqarish sinov laboratoriyalari.

2.Sinov laboratoriyalarida sinov dasturlarini ishlab chiqish tartibi.

Asosiy ma'lumotlar

To'qimachilik tolasi deb kalava va to'qimachilik buyumini yasash uchun yaroqli, ko'ndalang kesimi kichik, cheklangan uzunlikdagi egiluvchan va mustahkam jismlarga aytiladi. Kalava ip, ip,

gazlama, noto'qima matolar va boshqa mahsulotlar uchun ishlatiladigan tolalar to'qimachilik tolalari deyiladi. Uzunlasiga tolalarga ajralmaydigan yakka tolalar elementar tolalar deb ataladi. Uzunlasiga o'zaro birikkan elementar tolalardan iborat tolalardan texnik tolalar deyiladi. To'qimachilik tolalari asosan keleib chiqishi, olinishi va kimyoviy tarkibi bo'yicha 2 guruxga tabiiy va kimyoviy tolalarga ajratiladi.

Paxta tolasi O'zDST 604-2016 standartiga muvofiq tiplar va sanoat navlariga bo'linadi. Paxta tolasi eng yomon ko'rsatkichlari bo'yicha tipi aniqlanadi. Paxta tolasi beshta navga bo'linadi. Xalqaro standartlar va mikroneyr ko'rsatkichi bo'yicha klassyor uslubi bilan tola sifati aniqlanadi. Paxta tolasi nuqsonlari va iflos aralashmalarining miqdoriga ko'ra o'zining har bir navigaqarabquyidagi sinflarga bo'linadi; oliy, yaxshi, o'rta va iflos.

Paxta tolasining sinflari bo'yicha nuqsonlar va iflos aralashmalarining massaviy ulushi jadvalda ko'rsatilgan.

Sanoat navi	Paxta tolasining sinflari bo'yicha nuqsonlar va iflos aralashmalarining massaviy ulush me'yorlari, foizda, ko'pi bilan				
	Oliy	Yaxshi	O'rta	Oddiy	Iflos
I	2,0	2,5	3,0	4,0	5,5
II	2,5	3,5	4,5	5,5	7,0
III		4,0	5,5	7,5	10,0
IV		6,0	8,5	10,5	14,0
V			10,5	12,5	16,0

Konditsionmassanihisoblashuchunnamlikningme'yorlanganmassaviynisbati-8,5 foiznitashkil etadi. Namlikning eng kichik massaviy nisbati - 5,0 foiz. Paxta tolasida butun chigit, tashqi predmetlar va chirik hidning bo'lishiga yo'lqo'yilmaydi.

I-II sanoat navidagi 1a, 1b, 1, 2, 3 tipli paxta tolasidagi tugunchalar va kombinatsiyalashgan tugunchalarning massaviy ulushi 0,3 foizdan oshmasligi kerak. Harqanday tipdagi I- II sanoat navli paxta tolasidagi tolali chigitqobig'ining massaviy ulushi 0,6 foizdan oshmasligi shart.

Paxta tolasi to'dalar bo'yichaqabulqilib olinadi. Sifat to'g'risidagi bitta qo'shib yuborilgan hujjat bilan rasmiylashtirilgan bir xil navli, tip va sinfli paxta toallaridan iborat toylar soni to'da deb hisoblanadi.

Paxta tolasining sifatini tekshirish uchun to'dadagi har bir toydan hohlagan bittasi tanlab olinadi. To'da 5 dan 40 toygacha miqdorda bo'lsa, sinash uchun 5 ta toy ajratiladi. To'da miqdori 3 toydan kam bo'lganda har bir toydan namuna olib tekshiriladi. Sinovda har bitta ko'rsatkich bo'yicha hamqoniqarsiz natija olingan hollarda boshqa toydan o'sha miqdorda tolada shu konditsion massasigaqarab 8,5 foizga teng ravishda me'yorlangan umumiy namlik nisbati ifoda bo'yichaqabulqilib olinadi.

Konditsion massa (M_k) kilogrammdaquyidagi ifoda bo'yicha hisoblanadi:

$$M_k = M_x \frac{100 + W_n}{100 + W_x}$$

bu yerda: M_x -qabulqilishga taqdim etilgan paxta tolasi to'dasining haqiqiy umumiy miqdori, kg; W_n - 8,5 foizga teng bo'lgan me'yorlangan massaviy namlik nisbati, foizda; W_x - paxta tolasi namligining haqiqiy massaviy nisbati, foiz.

Hisoblash to dastlabki o'nlik belgisigacha aniqlik bilan amalga oshiriladi va butun birlikka umumlashtiriladi.

Paxta tolasi quyidagi tartibda sinaladi. Namunalarni tanlab olish O'zDST 604 - 2016 standarti bo'yicha amalga oshiriladi. Namunalar tanlab olish bir qancha turlarga bo'linadi.

Nuqtadan olingan namuna – toylanmagan tola yoki toyning ma'lum joyidan bir paytda olingan paxta tolasi miqdori.


Birlashtirilgan namuna - nuqtadan olingan namunalar yig'indisi.

Sinash uchun namuna - birlashtirilgan namunadan olingan va belgilangan usulga oid sinash o'tkazish uchun tayyorlangan paxta tolasining miqdori.

Nuqtadan olingan namunaning massasi 100-150 g atrofida bo'ladi. Birlashtirilgan namunaning massasi 1 kg dan kam bo'lmasligi kerak. Namlikni aniqlash uchun 200g dan kam bo'lmasligi shart.

Paxta tolasining pishib yetilganligi O'zDST 618-2016 standarti bo'yicha aniqlanadi. Tolaning pishib yetilganligini LPS-4qurilmasida sinashdan oldin namunalar GOST 10681 bo'yicha sun'iy iqlim sharoitida kamida 2 soat saqlanadi. Tolaning pishib yetilganliginiqutblangan yorug'lik yordamida aniqlash vaqtida ikkita namuna orasidagi tafovut 0,1 foizdan oshmasligi kerak; paxta tolasining solishtirma uzilish kuchini O'zDST 619-2016 standarti bo'yicha aniqlash vaqtida, ya'ni dinamometrda uzish, ikkita namuna bo'yicha ishonchlilik ehtimoligi 0,9 bo'lganda – 1,8 sN/teks bo'ladi; tolaning chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini O'zDST 620-2016 standarti bo'yicha gravimetrik usulda aniqlashda ishonchlilik ehtimoligi 0,9 bo'lganda – 6 mteks; havo o'tkazuvchanligi bo'yicha chiziqli zichlikni aniqlash usuli – 4 mteks; mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash usuli – 0,2; tolaning rangi va tashqi ko'rinishi O'zDST 629-2016, hamda tola tarkibidagi nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdori O'zDST 632-2016 standarti bo'yicha aniqlanadi, tolaning uzunligi O'zDST 633-2016 standarti bo'yicha aniqlanib, parallel namunalarining natijalari o'rtasidagi ruxsat etilgan tafovut shtapel massauzunligi bo'yicha ishonchlilik ehtimoligi 0,8 bo'lganda – 0,5 mm dan oshmasligi kerak, ikki turli laboratoriyalarda olingan sinash natijalari yoki bir laboratoriyada turli xil sharoitda olingan sinash natijalarining o'rtasidagi tafovut shtapel massa uzunligi bo'yicha ishonchlilik ehtimoligi 0,8 bo'lganda – 0,5 mm dan oshmasligi kerak; tolaning namligini aniqlash O'zDST 634-2016 standart bo'yicha aniqlanib, namlikning massaviy nisbati bo'yicha parallel namunalarining natijalari o'rtasidagi ruxsat etilgan tafovut ishonchlilik ehtimoligi 0,95 bo'lganda 0,5 dan oshmasligi kerak, quritish shkaflariga nisbatan namlikni tezkor aniqlovchi o'lchov qurilmasi yordamida namlikning massaviy nisbatini aniqlashdagi doimiy sistematik xatolik ishonchlilik ehtimoli 0,95 bo'lganda $\pm 0,5$ foizdan oshmasligi kerak.

Paxta tolasini xossalarini aniqlashda bir qator jixozlardan foydalaniladi. Bulardan bir "Classifiber type W" jihozidir. Bu jihoz paxta tolasini uzunligini mm da hamda dyumdagi o'lchamlarini aniqlab beradi.



“Classifiber type W” jihozining tuzilishi

Har qanday turdagi tolalar (hayvon, o'simlik yoki sintetik) ning uzunliklarini avtomatik o'lchash imkoniyatiga ega. Kashemir yoki shunga o'xshash tolalarni sinash uchun maxsus mo'ljallangan. O'lchash oralig'i 80 mm gacha.

Klassifikator “Classifiber type W” shaxsiy kompyuterdan tashkil topgan. Ushbu kompyuter bilan birgalikda maxsus dasturiy ta'minot ham bor. To'plamda namunalar tayyorlash uchun

yordamchi jihozlar bor. Tola uzunligi mm hamda dyum larda hisoblanadi. Test o'tkazish qo'lda bajariladi, lekin tezda testdan o'tkaziladi (o'rtacha 3ta sinov): hammasiga 20 soniya kifoya qiladi.



O'lchash jihozi



Tarash mashinasidan namuna olish uchun yassi jihoz

Har bir sinovning grafik ma'lumotlari

- Fibrogramma
- Shtapel diagramma
- Gistogramma

Statistika

- O'rtacha qiymat
- Minimum (Min.)
- Maksimum (Max.)
- Oraliq (R)
- O'rtacha kvadratik og'ish (s)
- 95 %-li ishonchlilik darajasi (q965%)

Sinov natijalari

- O'rtacha uzunlik (ML)
- Yuqori o'rtacha uzunlik (UHR)
- Uzunligi bo'yicha siyrakligi 2,5% (SL 2,5%)
- Uzunligi bo'yicha siyrakligi 50% (SL 50%)
- Uzunligi bo'yicha siyrakligi 66% (SL 66%)
- Bir hillilik koefitsienti (UR%)
- Bir hillik indeksi (UI%)
- Kalta tolalar miqdori (SFC%)

Tuzilmaning muvofiqligi: ASTM D1447, ISO EN 10141

Elektr energiyasi: 85-265 V. O'zgaruvchan tok, 50/60 Hz, bir fazali.

Og'irligi: 50 kg


Tashqi o'lchamlari:

uzunligi – 1600 mm,

eni – 700 mm,

balandligi – 700 mm





Tensolab – Tola pishiqligini aniqlovchi asbob

Tensolab – Tola pishiqligini aniqlovchi asbob
Yakka tabiiy va kimyoviy tolani pishiqligini tenzo datchikli elektro o'lchovchi asbob. 500 gramm gacha kuch hosil qilib beradi, klassi 0,5. Tezligi 0 dan 1000 mm/min. Ikki qisqich orasidagi masofa 150 mm. Programma asosida ishlaydi.

ISO 5079, BS 3411 standarti asosida qurilgan

Elektr quvvat: 220 V, 50/60 Gts

Og'irligi 18 kg

O'lchamlari: (B) 650 x (E) 440 x (Bd) 400 mm



Micronaire

Micronaire – Tolani mikroneyrini aniqlovchi asbob

Paxta tolasini mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash asbobi. Ta'minlanayotgan namuna og'irligi 8 gr tola. 2,5 dan 7,0 oralig'ida tolani mikroneyr ko'rsatkichini o'lchaydi.

Mikrokompressor mavjud. Jihozni mexanik sozlanadi, buning uchun maxsus (kalibrovka) tolalar bilan amalga oshiriladi.



Asbobni sozligini tekshirish uchun USDA standarti bo'yicha namunalar

Paxta tolasini mikroneyrini aniqlash uchun:

- Amerika paxtasi Upland Mikroneyr 5.5 Kod **199.2**
- Amerika paxtasi Upland Mikroneyr 4.5 Kod **199.4**
- Amerika paxtasi Upland Mikroneyr 3.5 Kod **199.6**
- Amerika paxtasi Upland Mikroneyr 4 Kod **199.8**
- Amerika paxtasi Upland Mikroneyr 2.6 Kod **199.14**
- Amerika paxtasi Upland Mikroneyr 5.0 Kod **199.18**

Etalon tola

Mikroneyrani, pishiqliqni, uzulishdagi cho'zilishni va uzunligini:

- Amerika paxtasi Upland C39: Mikroneyr 3,39, 25,1 g/teks, uzulishdagi cho'zilishni 7,1 %, 1,12 dyuym S.L. = 2,5 %, 0,53 dyuym S.L. = 50%

Tola pishiqligini va uzulishdagi cho'zilishini:

Amerika paxtasi Upland L1: 20.8 g/teks, uzulishdagi cho'zilishni 5.9 % Amerika paxtasi Upland M1: 30.8 g/teks, uzulishdagi cho'zilishni 6.4 %

8-AMALIY MASHG'ULOT: MAHSULOTLARNI SINASH JARAYONI VA SINOV NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH

Reja:

1. Mahsulotni sinash jarayoni. Sinov natijalarini olish.

2. Sinov bayonnomasini rasmiylashtirish. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish.

Ishning maqsadi: Mahsulotni sinash jarayoni ba sinov natijalarini olish tartiblarini talabalarga o'rgatish.

Asosiy ma'lumotlar

Mahsulotlarni sinovini o'tkazishda, sertifikat berishda va sertifikatlashtirilgan mahsulot sifatining nazoratini ta'minlashda muhim tarkibiy qism sifatida akkreditlangan sinov laboratoriyalari hisoblanadi.

Ishlanmada va mahsulot ishlab chiqarishda uning sinovlarini, yaratilayotgan namunalar darajasining baholashini va iste'molchining talablariga mos keluvchanligini tekshirilishini ishlab chiqaruvchi va tayyorlovchilar amalga oshiradi.

Qator mamlakatlarning qonunlarida mahsulotni xavfsizligi va atrof-muhitni asrash bo'yicha talablarning paydo bo'lishi bilan sinovlarni davlat idoralarining vakillari ishtirokida o'tkazilmoqda.

Bunday tajriba sinovlarning milliy tizimini akkreditlanuvchi sinov laboratoriyalari bilan birga yaratilishiga olib keladi.

Laboratoriyalarni akkreditlash deganda sinov laboratoriyasining ma'lum sinovlar yoki sinovlarning muayyan xillarini amalga oshirish huquqlarini rasmiy jihatdan tan olish tushuniladi.

Bunda sinov laboratoriyasining texnikaviy layoqatliligi va xolisligi yoki faqat layoqatliligini tan olishning ifodalanishi ko'rilishi mumkin.

Laboratoriyaning attestatsiyasi deganda laboratoriyaning akkreditlash uchun belgilangan mezonlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida sinov laboratoriyasini tekshirilishi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish va akkreditlash uchun da'vogar bo'luvchi laboratoriyalarga muayyan talablar qo'yiladi va ularning bajarilishi sertifikatlashtirish idoralari tomonidan nazorat qilinadi.

Shunday talablar qatoriga quyidagilar kiradi:

- xodimlarning nazariy tayyorgarligi va amaliy ishdagi texnikaviy layoqatliligi;
- sinov o'tkazish asbob-uskunalarining mavjudligi, o'lchash va boshqa vositalarni akkreditlash huquqini olish uchun kerakli tekshiruv sinovlarini to'g'ri o'tkazishda moddiy-texnikaviy ta'minotining yetarli ekanligi;
- sertifikatlashtirish tavsiflari bo'yicha har bir aniqlash uchun tekshirilayotgan sinov uslublarini to'g'ri tadqiq qilish va buning natijasida sinov yakunlari qaytaruvchanligi va haqqoniyligini ta'minlashi;
- laboratoriyaning aniq va tashkiliy haq-huquqiy o'rni bo'lib, mahsulot ishlab chiqaruvchidan mustaqil hamda tijorat yoki boshqa majburiyatlarda bo'lmagan sinovlarning xaqqoniyligiga ta'sir o'tkaza olmaydigan bo'lishi;
- sinovlarni o'tkazishda tizim sifatini ta'minlanilishini mavjudligi.

Sertifikatlashtirish idorasi tomonidan o'tkaziladigan akkreditlash bo'yicha sinov laboratoriyalarining bu talablarga qanday javob berishligi tekshiriladi va laboratoriyaning holati to'la-to'kis o'rganiladi.

Shu bilan birga sinov laboratoriyalarini akkreditlash (odatda "akkreditlash milliy tizimi" atamasi bilan ham ifodalanadi) tartibi va bajariladigan ishlari turli mamlakatlarda, ulardagi tizimlarni yuritish xususiyatlari bilan farqlanadi.

Mahsulotni tekshirish

Amaldagi hamma sertifikatlashtirish tartibida mahsulotning nazoratli sinovlarini o'tkazishga asoslangan, uning belgilangan me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligi aniqlanadi. Tizim qoidalariga binoan sinovlarning korxonani o'zida mahsulotni tayyorlash jarayonida hamda iste'molchiga yuborishdan oldin o'tkaziladi. Bundan tashqari odatda sertifikatlashtirish doirasida sertifikatlashtirilgan mahsulotning sifatini barqarorligi uchun nazoratli tekshiruvni vaqti-vaqti bilan o'tkaziladi.

Sertifikatlashtirish uchun o'tkaziladigan sinovlar tartibi, ba'zan uni sertifikatlashtirish sinovlari ham deb atalib, amaliy har qanday sinovlarga xos bo'lgan, mahsulotning sanoatda, ishlab chiqarishda ko'p yillar ichida shakllangan umumiy qoidalariga bo'ysunadi. Lekin sertifikatlashtirish sinovlarini tashkil qilish va o'tkazish uslubi o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Har bir sinov va uning natijalari uchinchi tomon tarafidan sertifikatlashtirish uchun ishlatilishi ko'zda tutilib, faqat sertifikatlashtirish idorasi tomonidan mahsulotning sinovlarini o'tkazish uchun xuquqli akkreditlangan sinov laboratoriyalarida yoki uning tashkilotlarida o'tkaziladi.

Sinovlarni o'tkazish va uni tartibi xalkaro yoki milliy sertifikatlashtirish tizimlarining qoidalarida to'liq va aniq qilib belgilangan.

Sertifikatlashtirish tartibiga qarab, ushbu mahsulotning bir turdagi nusxasi, to'dadan tanlanmasi yoki mahsulotning nusxasi sinovlardan o'tishi mumkin. Mahsulotning tavsiflari va parametrlari, ularga bo'lgan talablar me'yoriy hujjatlarda berilgan bo'ladi. Shuning uchun ularni aniq va ishonchlilik bilan sinovlar va o'lchashlar natijasida aniqlash imkonini beradi.

Sertifikatlashtirish natijalarini rasmiylashtirish

Mahsulot yoki buyum ma'lum tekshiruvdan o'tganligini, tekshiruvning xaqqoniyligini yoki sertifikatlashtirish idorasi tomonidan tekshirilganligini isbotlaydigan dalil - tamra, etiketka, sertifikat, ilova qilib yuboriladigan ro'yxat, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ro'yxati yoki korxona tayyorlovchilarning ro'yxati hisoblanadi.

Muvofiqlik sertifikatini sertifikatlashtirish idorasi yoki uning nomidan akkreditlangan idora tomonidan berilishi mumkin. ISO ta'rifiga binoan:

Muvofiqlik sertifikati - "Tegishlicha belgilangan mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishiga ishontiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida etilgan hujjat" dir.

Muvofiqlik belgisi deganda ushbu mahsulot, jarayon yoki xizmat ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishini kafolatlovchi sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida berilgan yoki ishlatiladigan va ma'lum tartibda himoya qilinadigan belgi tushuniladi.

Muvofiqlik belgisini faqat mahsulotning hamma tavsiflarini belgilangan standart bo'yicha qamrab olgan bo'lgan hollardagina ishlatish tavsiya etiladi.

Sertifikatni, ham mahsulot standartlarining to'liq texnikaviy talablariga, ham alohida talablarni belgilovchi standartlar asosida berilishi mumkin.

Sertifikat berish tartibi va (yoki) muvofiqlik belgisini qo'yish hamda uni amalda to'xtatish yoki bekor qilish, standart shakli va muvofiqlik belgisining ramzi, sertifikatlashtiriluvchi hujjatlarda belgilanadi va mahsulotning ushbu turini sertifikatlashtirish qoidasida ko'rsatiladi.

Sertifikatda qayd etiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

- sertifikatlashtirish idorasining nomi va manzili;
- tayyorlovchining nomi va manzili;
- mahsulotni va uning to'dasini belgilanishi, seriya raqami, sertifikatlashtirishga tegishli bo'lgan model yoki mahsulot turi;

- tegishli standartga havola;
- vakil-shaxsning imzosi va vazifasi.

Quyidagi keltirilgan hollarda sertifikat bekor qilinishi mumkin:

- agar mahsulot (buyum, mol) ning tarkibiga yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilsa, bu esa o'z navbatida sertifikatlashtirish bo'yicha qilinayotgan tekshiruvda uning tavsiflariga o'zgarishlar olib kelsa, hamda shu mahsulot namunalarning sinovlari qo'shimcha bayonnomadagi standart talablariga mosligi tasdiqlanmasa;
- ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi va korxona-tayyorlovchi mahsulotining sifati pasaysa yoki material bilan ta'minlovchi tomonidan komplektlash detallari, yirish qismi tegishli standartlar talablarini buzilishiga olib kelsa.

Sertifikatlashtirish natijalarini, Tizim idorasi tomonidan sertifikatlashtirish ishlari to'rtinchi darajadagi ma'lumotlarni har doim chop etilishi lozim. Bu ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirilgan mahsulot ro'yxati;
- akkreditlangan sinov tashkilotlarining ro'yxati;
- attestatlangan korxonalardagi sertifikatlashtirilgan mahsulot ro'yxati;
- sertifikatlashtirish hujjatlarining ro'yxati.

Bu ro'yxatlarni sertifikatlashtirish milliy idorasi bo'yicha qilinadigan ishlarda qatnashuvchi vazirliklarga yuboriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. 28.12.1993 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. 28.12.1993 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida" gi Qonuni. 04.10.2013 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi 318-sonli "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 373-sonli "O'zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 19 iyundagi 173-sonli " Respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "gi Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 18-martda 1458-son bilan tasdiqlangan "Mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalari".
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi 122-sonli "Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 oktyabrdagi 298-sonli "2020 yilgacha bo'lgan davrda milliy infratuzilmalar sifatini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida "gi Qarori.
10. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizom (qayd AV 16.01.2016 y. № 2754).
11. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni inspeksiya nazoratidan o'tkazish qoidalari №1464
12. Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi nizom №1465
13. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, sifat" A.A.Abduvaliev, V.B.Latipov va b. SMSITI Toshkent-2008y.
14. Ismatullaev P.R. va boshqalar. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik - Toshkent.: TDTU. 2001y.
15. Ismatullaev P.R. va boshqalar "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish"

Elektron resurslar

1. www.standart.uz
2. www.lex.uz
3. www.smsiti.ilm.uz

**“SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI” FANIDAN MUSTAQIL TA’LIM
MASHG’ULOTLARI**

“SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI” FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH UCHUN USLUBIY KO’RSATMALAR

Mustaqil ishlarning shakllari, mazmuni va bajarishdan ko’zlangan maqsad

Talaba mustaqil ishi - muayyan fandan o’quv dasturida belgilangan bilim, ko’nikma va malakaning ma’lum bir qismini talaba tomonidan fan o’qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o’zlashtirilishiga yo’naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Uqishning boshlang’ich bosqichlarida TMIning tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog’liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta’limning navbatdagi turi - oliy ta’lim talablarga ko’nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta’lim olish jarayonida o’z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma’lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni taxlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o’z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o’z vaqtlarini to’g’ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to’g’ri baholash ular uchun katta muammo bo’ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta’lim olishga ruhan tayyor bo’lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o’qituvchi dastlab talabada o’z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg’otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to’g’ri tashkil qilishga o’rgatib borishi lozim bo’ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o’zlashtiriladigan bilim va ko’nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta’limga ko’nika boshlagan talaba faqat o’qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o’zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o’zi zarur deb hisoblagan qo’shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o’zlashtirishga o’rganib boradi.

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

- auditoriyada amalga oshiriladigan TMilari. O’tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustaxkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;
- auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMilari. O’quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o’zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko’rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot harakteridagi ishlar va h.k.

Birinchi tur ishlari talabalarining nazariy va amaliy bilimlarini o’zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg’ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshyriqlarni bajartirib ko’rish va x.k. usullarda asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida o’tilgan materiallarni o’zlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o’zlashtirish darajasi e’tiborga olinadi.

Ikkinchi tur ishlar fanning ishchi o’quv dasturida auditoriyadan tashqarida o’zlashtirilishi belgilangan mavzu bo’yicha ma’lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, taxlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o’zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko’rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o’zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgalangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

O’qitish jarayonida (ma’ruza, amaliy va tajriba darslarida) talabalar o’zlashtirishi, bilim, ko’nikma, mahorati qay darajada mukammal bo’lishi uni mustaqil o’rganish lozim bo’lgan qismini samarali o’zlashtirishiga bog’liq. Ushbu ta’lim yo’nalishida taxsil olayotgan talabalar uchun o’ziga

xos mustaqil ishlar bajarilgan laboratoriya ishlari bo'yicha hisobot tayyorlash, uy vazifasini bajarish kabi majburiy elementlarni o'z ichiga oladi. Talabani mustaqil ishlashi uchun topshiriq tuzish, uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash, maslahatlar berish jadvali kafedra tomonidan belgilanadi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib boradi.

“Sertifikatlash asoslari” fanidan mustaqil ishni tashkil etishda talabani akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- *fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;*

- *mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.*
- *berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;*
- *amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;*
- *nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;*
- *uy vazifalarini bajarish;*
- *ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash.*

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish.

Talabalarga mustaqil o'zlashtirish uchun topshiriladigan mavzularning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollar, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatgan uslubiy ko'rsatmalar talabalarga yetkaziladi.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, Mavzuga oid tayanch so'z va iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn (konspekt) kafedrada himoya qilinadi.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidolari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Konsul tatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Referat tayyorlash.

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, taxlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash.

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali

vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.

Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, taxlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish

Bu shakldagi mustaqil ishlar mashg'ulot turiga bog'liq bo'lib, talabadan vaqt talab qiladi. Ma'ruza mashg'ulotlarida o'qituvchi auditoriyada dars rejasini, muhim qonun va qonuniyatlarni, mavzuni asosiy mazmunini matn asosida tushintirish bilan bir qatorda talabalarni konspekt yozib borishlariga asoslangan tarzda dars o'tganda talabalardan ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rib kelishiga ehtiyoj bo'lmaydi. Muammoli ma'ruza yoki boshqa texnologiya qo'llanilsa talaba ma'ruza matnini yozib, dastlabki tushunchalarni o'zlashtirib, mustaqil fikrlay olish darajasida tayyorgarlik ko'rib kelishi kerak. Demak, ma'ruza mavzularini ayrimlariga avvaldan tayyorgarlik ko'rilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar ko'pincha fanga oid misol va masalalar yechishga, ma'lumotlarni, qonun va qonuniyatlarni, voqea va hodisalarni o'rganishga qaratiladi. Bunday mashg'ulotlarda o'rganilishi lozim bo'lgan «ob'ekt» yoki hal etiladigan masala to'g'risida talabaga nazariy bilimlar ma'ruza mashg'ulotida beriladi. Shuning uchun amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda talabalar shakllar, jadvallar, chizmalar, eskizlar, grafiklarni belgilangan ko'rinishda tayyorlab kelishi, mashg'ulot davomida esa ularni to'ldirish lozim bo'ladi, ayrim ma'lumotlarni yozib oladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun tuziladigan uslubiy ko'rsatmalarda qoidaga ko'ra topshiriq, asosiy tushunchalar va ma'lumotlar, ishini bajarish tartibi va uslubi yoritiladi. Mashg'ulot davrida qisqa tushintirishdan so'ng talabalar tajribalar o'tkazadilar, raqamli yoki grafik ko'rinishdagi natijalarni, xulosalarni yozib boradi.

Amaliy xarakterdagi mashg'ulotlar rejasiga ko'ra topshiriqlarni bir qismini berilgan namuna yoki uslubga ko'ra talaba auditoriyadan tashqarida bajarish tajribasi keng qo'llaniladi. Bu toifa topshiriqlar uyga vazifa shaklida beriladi. Bunday ishlar jumlasiga misol va masalalar yechish, hisobot tayyorlash, hisob-grafika ishlari bajarish, dasturlar tayyorlash, matnni o'qib qisqacha xulosalar tayyorlash kabi topshiriqlar kiradi.

Talabalar mustaqil ishini baholash

TMI natijalari amaldagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etish tartibi

1. Talabalar mustaqil ishi (TMI) bo'yicha konsul tatsiya darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

2. TMI bo'yicha konsul tatsiya darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

3. Konsul tatsiya darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

4. Fan o'qituvchisi konsul tatsiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- TMI topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi;
- topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsiya qiladi;
- TMI yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

5. TMI bo'yicha konsultatsiyalar o'quv jarayonining 1 yoki 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarining darsdan bo'sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziriligining "Talabalar mustaqili ishlarini tashkil etish to'g'risida" gi 2009 yil 14-avgustdagi 286-sonli buyrug'i asosidagi yo'riqnoma.
2. Axmetova K.I., Fayzullaeva D.M. «Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishning yo'l va vositalari» mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan trening mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi. Toshkent – 2009.
3. Internet ma'lumotlari www.gov.uz

“SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI” FANIDAN GLOSSARIY

GLOSSARIY

"sertifikatlashtirish milliy tizimi" - davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim;

"mahsulotlarni sertifikatlashtirish" (matnda bundan keyin "sertifikatlashtirish" deb yuritiladi) - mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

"muvofiqlik sertifikati" - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

"muvofiqlik belgisi" - muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoxud ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi;

"bir turdagi mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi" - ayni bir xil standartlar va qoidalar qo'llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi;

"sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish" - sinov laboratoriyasining (markazining) muayyan mahsulot sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshirishga doir vakolatlarining rasmiy e'tirofi;

"sifat bo'yicha ekspert-auditor" - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya qilish va tekshirish sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakasi bo'lgan mutaxassis;

"sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organi" - belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlangan mahsulot va sifatni boshqarish tizimini baholashni sertifikatlashtirish organlari topshirig'iga binoan amalga oshiruvchi organ;

"nazorat yo'sinidagi tekshiruv" - belgilangan talablarga muvofiqligini sertifikatlashtirish va akkreditatsiya qilish chog'ida tasdiqlash maqsadida sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimini yoki ishlab chiqarishni, sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari) faoliyatini takroriy baholash taomili.

iste'molchi - foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs);

ishlab chiqaruvchi - iste'molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor;

ijrochi - maishiy xizmat, uy-joy-kommunal, ta'mirlash-qurilish, transport xizmati va xizmat ko'rsatishning boshqa sohalarida shartnoma bo'yicha iste'molchi uchun ishlar bajaradigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor;

sotuvchi - oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha iste'molchiga tovar realizatsiya qiladigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor;

shartnoma - tovarni olish-sotishni amalga oshirishda, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar to'g'risida iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi og'zaki yoki yozma kelishuv;

tovar - ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste'molchiga shartnoma bo'yicha sotish uchun mo'ljallangan mahsulot, shu jumladan, import mahsuloti;

normativ hujjatlar - standartlar, ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar (qurilish normalari va qoidalari, dori-darmonlar xususidagi davlat farmokopeyasi hamda muvaqqat farmokopeya qoidalari va boshqalar), texnik shartlar, texnik tavsiflar, retseptura va tovar (ish, xizmat) sifatiga va xavfsizligiga nisbatan belgilangan talablarni o'z ichiga oluvchi boshqa hujjatlar;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi - tovarni iste'mol qilish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga va atrof-muhitga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog'liq xavf-xatarning yo'qligi;

muvofiglik sertifikati - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofigligini tasdiqlovchi hujjat;

tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni - tovar (ish, xizmat)ning normativ hujjatlarning majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qo'yiladigan talablarga nomuvofigligi;

tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni - tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib bo'lmaydigan qilib qo'yadigan yoxud bartaraf etish uchun ko'p mehnat va vaqt sarflash talab qiladigan kamchilik;

kafolat muddati - tovardan (xizmatdan) foydalanishning (oylar hisobidagi) normativ muddati yoki tovar (xizmat)ning muayyan vazifani (necha soatda, nechta ish jarayonida, qancha kilometr masofani bosib o'tib va h.k.) bajarish vaqti tarzida belgilangan muddati bo'lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), basharti tovarni ishlatish (xizmatdan foydalanish) qoidalariga rioya etilgan bo'lsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta'minlaydi;

xizmat muddati - tovardan foydalanishning belgilangan muddati bo'lib, u tamom bo'lgach, tovarning texnik holatidan qat'i nazar, undan foydalanish to'xtatilishi lozim;

yaroqlilik (saqlash) muddati - muayyan davr bo'lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo'ladi va u tamom bo'lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin;

kassa cheki - tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana va kassa apparatining nomeri ko'rsatilgan hujjat;

tovar cheki - tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma'lumot ko'rsatilgan hujjat;

tovarni (ishni, xizmatni) iste'molchidan qaytarib olish - agar tovar (ish, xizmat) iste'molchi mulkiga aylangan yoki unga taklif etilgan bo'lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan amalga oshiriladigan, tovarning (ishning, xizmatning) xavfsizligi talablariga mos bo'lmagan tovarni (ishni, xizmatni) qaytarib olishga qaratilgan har qanday chora;

Akkreditatsiyalash – maxsulotlar va hizmatlar, xodimlar va sifat tizimlarini o'rnatilgan talablarga muvofigligini tasdiqlash va baxolash bo'yicha aniq masalalarni bajarish xuquqini rasmiy tan olish.

Akkreditatsiyalash organi – maxsulotlar va hizmatlar, xodimlar va sifat tizimlarni o'rnatilgan talablarga muvofigligini tasdiqlash va baxolash bo'yicha faoliyatni olib borish uchun rasmiy xuquq beruvchi davlat boshqaruv organi (keyinchalik – «O'zstandart» agentligi).

Apellyatsiya – akkreditatsiyalanayotgan buyurtmachining uni taxmin qilinayotgan maqomiga tegishli qandaydir salbiy qarorni qayta ko'rib chiqish bo'yicha yozma murojaati.

Akkreditatsiya qilinayotgan buyurtmachi – akkreditatsiyalanishga davo qiluvchi jismoniy va (yoki) yuridik shaxs.

Sinov (o'lchash) laboratoriya (markaz) – aniq maxsulot sinovini yoki aniq sinov turini o'tkazuvchi akkreditatsiyalangan sinov (o'lchash) laboratoriyasi (keyinchalik – «laboratoriya»).

Inspektsiya nazorati – sertifikatlashtirish va nazorat idoralarini va sinov laboratoriya (markaz)larni akkreditatsiya vaqtida o'rnatilgan talablarga muvofigligini tasdiqlash maqsadida qayta baxolash tartiboti.

Akkreditatsiya mezonlari – akkreditatsiyalanayotgan buyurtmachi qoniqtirishi lozim bo'lgan talablar to'plami.

Milliy akkreditatsiya tizimi – davlat darajasida faoliyat ko'rsatayotgan, o'zining akkreditatsiyani o'tkazish uchun boshqarish va tartibot qoidalariga ega bo'lgan tizim.

Akkreditatsiya ob'ekti – bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish organi, sinov (o'lchash) laboratoriyasi (markazi) va sertifikatlashtirish sohasida nazorat organi.

Bir turdagi maxsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sertifikatlashtirish organi – maxsulotlar va xizmatlar, sifat tizimlarini oʻrnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash boʻyicha xizmat koʻrsatuvchi akkreditatsiyalangan idora.

Sertifikatlashtirish sohasidagi nazorat organi – sertifikatlashtirish idoralari topshirigʻi boʻyicha sertifikatlashtirilgan maxsulotlar va sifatni boshqarish tizimlarini baxolovchi, belgilangan tartibda akkreditatsiyalangan idora (keyinchalik – «nazorat organi»).

Akkreditatsiya doirasi – buyurtma berilgan va (yoki) akkreditatsiya berilgan maʼlum doiradagi muvofikligini tasdiqlash boʻyicha faoliyatda aniq ishlar.

Akkreditatsiya guvohnomasi – akkreditatsiyalangan bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish idoralarni va sinov (oʻlchash) laboratoriya (markaz)larni, sertifikatlashtirish sohasida nazorat idoralarni sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar oʻtkazish va sertifikatlashtirish faoliyatini olib borish xuquqini tasdiqlovchi rasmiy hujjat.

Akkreditatsiya kengashi – oʻtkazilgan akkreditatsiya natijalari boʻyicha Qaror qabul qiluvchi Milliy akkreditatsiya tizimining boshqaruv organi (keyinchalik - «Kengash»).

Texnik ekspert – akkreditatsiya organi tomonidan tayinlanadigan baxolanayotgan akkreditatsiya doirasiga nisbatan mahsus bilimlar yoki ekspertizani taʼminlovchi shaxs.

Sifat boʻyicha ekspert-auditor – qonunda oʻrnatilgan tartibda akkreditatsiyalangan, sertifikatlashtirish, akkreditatsiyalash va nazorat sohasida ishlar olib borishga tegishli malakaga ega boʻlgan mutaxassis.

isteʼmolchi - foyda chiqarib olish bilan bogʻliq boʻlmagan holda shaxsiy isteʼmol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda boʻlgan fuqaro (jismoniy shaxs);

ishlab chiqaruvchi - isteʼmolchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat koʻrsatuvchi tadbirkor;

ijrochi - maishiy xizmat, uy-joy-kommunal, taʼmirlash-qurilish, transport xizmati va xizmat koʻrsatishning boshqa sohalarida shartnoma boʻyicha isteʼmolchi uchun ishlar bajaradigan yoki xizmatlar koʻrsatadigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat koʻrsatuvchi tadbirkor; **sotuvchi** - oldi-sotdi shartnomasi boʻyicha isteʼmolchiga tovar realizatsiya qiladigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat koʻrsatuvchi tadbirkor;

shartnoma - tovarni olish-sotishni amalga oshirishda, ishlar bajarish va xizmatlar koʻrsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar toʻgʻrisida isteʼmolchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) oʻrtasidagi ogʻzaki yoki yozma kelishuv;

tovar - ishlab chiqaruvchi faoliyatining isteʼmolchiga shartnoma boʻyicha sotish uchun moʻljallangan mahsulot, shu jumladan, import mahsuloti;

normativ hujjatlar - standartlar, ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar (qurilish normalari va qoidalari, dori-darmonlar xususidagi davlat farmokopeyasi hamda muvaqqat farmokopeya qoidalari va boshqalar), texnik shartlar, texnik tavsiflar, retseptura va tovar (ish, xizmat) sifatiga va xavfsizligiga nisbatan belgilangan talablarni oʻz ichiga oluvchi boshqa hujjatlar;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi - tovarni isteʼmol qilish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida isteʼmolchining hayoti, sogʻligʻi yoki mol-mulkiga va atrof-muhitga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bogʻliq xavf-xatarning yoʻqligi;

muvofiqlik sertifikati - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat;

tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni - tovar (ish, xizmat)ning normativ hujjatlarning majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qoʻyiladigan talablarga nomuvofiqligi;

tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni - tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib boʻlmaydigan qilib qoʻyadigan yoxud bartaraf etish uchun koʻp mehnat va vaqt sarflash talab qiladigan kamchilik;

kafolat muddati - tovar (xizmatdan) foydalanishning (oylar hisobidagi) normativ muddati yoki tovar (xizmat)ning muayyan vazifani (necha soatda, nechta ish jarayonida, qancha kilometr masofani bosib o'tib va h.k.) bajarish vaqti tarzida belgilangan muddati bo'lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), basharti tovarni ishlatish (xizmatdan foydalanish) qoidalariga rioya etilgan bo'lsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta'minlaydi;

xizmat muddati - tovar (xizmat)dan foydalanishning belgilangan muddati bo'lib, u tamom bo'lgach, tovarning texnik holatidan qat'i nazar, undan foydalanish to'xtatilishi lozim;

yaroqlilik (saqlash) muddati - muayyan davr bo'lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo'ladi va u tamom bo'lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin;

kassa cheki - tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana va kassa apparatining nomeri ko'rsatilgan hujjat;

tovar cheki - tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma'lumot ko'rsatilgan hujjat;

tovarni (ishni, xizmatni) iste'molchidan qaytarib olish - agar tovar (ish, xizmat) iste'molchi mulkiga aylangan yoki unga taklif etilgan bo'lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan amalga oshiriladigan, tovarning (ishning, xizmatning) xavfsizligi talablariga mos bo'lmagan tovarni (ishni, xizmatni) qaytarib olishga qaratilgan har qanday chora;

Akkreditatsiyalash - maxsulotlar va xizmatlar, xodimlar va sifat tizimlarini o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash va baxolash bo'yicha aniq masalalarni bajarish xuquqini rasmiy tan olish.

Akkreditatsiyalash organi - maxsulotlar va xizmatlar, xodimlar va sifat tizimlarini o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash va baxolash bo'yicha faoliyatni olib borish uchun rasmiy xuquq beruvchi davlat boshqaruv organi (keyinchalik - «O'zstandart» agentligi).

Apellyatsiya - akkreditatsiyalanayotgan buyurtmachining uni taxmin qilinayotgan maqomiga tegishli qandaydir salbiy qarorni qayta ko'rib chiqish bo'yicha yozma murojaati.

Akkreditatsiya qilinayotgan buyurtmachi - akkreditatsiyalanishga davo qiluvchi jismoniy va (yoki) yuridik shaxs.

Sinov (o'lchash) laboratoriya (markaz) - aniq maxsulot sinovini yoki aniq sinov turini o'tkazuvchi akkreditatsiyalangan sinov (o'lchash) laboratoriyasi (keyinchalik - «laboratoriya»).

Inspektsiya nazorati - sertifikatlashtirish va nazorat idoralari va sinov laboratoriya (markaz)larni akkreditatsiya vaqtida o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida qayta baxolash tartiboti.

Akkreditatsiya mezonlari - akkreditatsiyalanayotgan buyurtmachi qoniqtirishi lozim bo'lgan talablar to'plami.

Milliy akkreditatsiya tizimi - davlat darajasida faoliyat ko'rsatayotgan, o'zining akkreditatsiyani o'tkazish uchun boshqarish va tartibot qoidalariga ega bo'lgan tizim.

Akkreditatsiya ob'ekti - bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish organi, sinov (o'lchash) laboratoriyasi (markazi) va sertifikatlashtirish sohasida nazorat organi.

Bir turdagi maxsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sertifikatlashtirish organi - maxsulotlar va xizmatlar, sifat tizimlarini o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi akkreditatsiyalangan idora.

Sertifikatlashtirish sohasidagi nazorat organi - sertifikatlashtirish idoralari topshirig'i bo'yicha sertifikatlashtirilgan maxsulotlar va sifatni boshqarish tizimlarini baxolovchi, belgilangan tartibda akkreditatsiyalangan idora (keyinchalik - «nazorat organi»).

Akkreditatsiya doirasi - buyurtma berilgan va (yoki) akkreditatsiya berilgan ma'lum doiradagi muvofiklikni tasdiqlash bo'yicha faoliyatda aniq ishlar.

Akkreditatsiya guvohnomasi – akkreditatsiyalangan bir turdagi maxsulotlarni sertifikatlashtirish idoralarni va sinov (o'lchash) laboratoriya (markaz)larni, sertifikatlashtirish sohasida nazorat idoralarni sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar o'tkazish va sertifikatlashtirish faoliyatini olib borish xuquqini tasdiqlovchi rasmiy hujjat.

Akkreditatsiya kengashi – o'tkazilgan akkreditatsiya natijalari bo'yicha Qaror qabul qiluvchi Milliy akkreditatsiya tizimining boshqaruv organi (keyinchalik - «Kengash»).

Texnik ekspert – akkreditatsiya organi tomonidan tayinlanadigan baxolanayotgan akkreditatsiya doirasiga nisbatan mahsus bilimlar yoki ekspertizani ta'minlovchi shaxs.

Sifat bo'yicha ekspert-auditor – qonunda o'rnatilgan tartibda akkreditatsiyalangan, sertifikatlashtirish, akkreditatsiyalash va nazorat sohasida ishlar olib borishga tegishli malakaga ega bo'lgan mutaxassis.

akkreditatsiya - yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash;

akkreditatsiya sohasi - muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya chog'ida Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadigan faoliyati sohasi;

inspektsiya nazorati - mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

inspektsiya organi - yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyaning va inspektsiya nazoratini o'tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs;

milliy akkreditatsiya tizimi - muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalarini va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi tizim;

muvofiqlikni baholash - mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha faoliyat;

muvofiqlikni baholash organlari - yuridik shaxs bo'lgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspektsiya organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;

muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya - ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

muvofiqlikni tasdiqlash - normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq;


xodimlar - muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar.

ILOVALAR



TARQATMA MATERIALLAR

Tuzilmaviy-mantiqiy chizma “Pog`ona”



1. “Pog`ona”ni tuzish jarayonida tizimli sxemaning tarkibiy qismi va elementlarini siljitish mumkin – bu u yoki bu holatni qayta fikrlash imkonini beradi.

2. Agarda siz g`oyalarni ishlab chiqishda tor yo`lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizga hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligini ko`rib chiqing.

3. Siz chapdan o`ngga yozishga o`rgangansiz. “Kaskad” qurishni o`ngdan chapga qarab tuzishga harakat qiling. Buning uchun asosiy g`oyani chap tarafda emas, balki o`ng tarafda joylashtiring

Mavzuni o`zlashtirish va pog`ona tuzish uchun tavsiya qilingan asosiy maqsad holatlari.

1. O`zbekiston Respublikasida maxsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi qanday?
2. Sinov laboratoriyalari va sertifikatlashtirish tashkilotlarini akkreditlash tartibi qanday?

Vizual materiallar

Sertifikatlashtirish guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma`nolarini bildiruvchi **certifus** (lotincha) so`zidan olingan bo`lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

Majburiy sertifikatlashtirishga O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan maxsus ro`yxatga kiritilgan, ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan va olib chiqiladigan, sertifikatlashtirilishi lozim bo`lgan mahsulotlar kiradi.

Yuqoridagi ro`yxatga, fuqarolarning hayoti, sog`lig`i va mulkning xavfsizligini, atrof muhitni muhofaza qilish, o`zaroalmashinuvchanlik va moslashuvchanlikni ta`minlash bo`yicha me`yoriy hujjatlarda talablari belgilangan, mahsulotlar yoki xizmatlar kiritiladi. Bu ro`yxatdan tashqari Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadigan Qonunlarga asosan, Prezident farmonlariga asosan ma`lum xizmatlar va mahsulotlar uchun ham xuddi shunday talablar qo`yilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishga O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, hamda xukumat qarorlariga asosan ro`yxatga kiritilmagan xizmatlar yoki mahsulotlar kirishi mumkin, bu vaqtda ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi yoki iste`molchilar (keyinchalik - so`rovchi) tashabbusi bilan ixtiyoriy tartibda sertifikatlashtirilishi o`tkaziladi.

- Sertifikatlashtirishga ariza.
- Sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul kilish.
- Sertifikatlashtirish ob'ektini muvofiqligini o'rnatilgan talablar bilan baholash
- Muvofiqlikni baholash natijalarini tahlili va uni rasmiylashtirish.
- Sertifikatlashtirish ob'ekti ustidan inspeksiya nazorat.

Ariza beruvchi (tadbirkorlik sub`ekti)	1	Hududiy sanitariya nazorati organi (gigienik xulosa)	1a	Veterinariya uchastkalari (bo`limlari) (veterinariya xulosasi)				
	2		1b					
				Muddat: 3 kungacha				
				1v	Karantin xizmatlari (fitosanitariya xulosasi)			
			Muddat:14 kungacha	1g				
	3	EAN Uzbekistan (ariza beruvchining xohishiga ko`ra, shtrix- kod berish to`g`risida ma`lumotnoma		Muddat: 3 kungacha				
	4							
		Muddat: 1 kun						
	5	Sertifikatlash bo`yicha akkreditatsiya qilingan organlar (muvofiqlik sertifikat)						
	6			Sertifikatlashtirish tartibotining umumiy muddati 10 kundan 30 kungachani tashkil etadi.				
			Muddat: 10 kungacha					

1. Sifat
2. Sifat menejmenti
3. ISO 9001
4. Sifat ko'rsatkichlari

155

Mavzuni muammoli vaziyatlari
Respublikamizdagi korxonalarga sifat menejment tizimini joriy qilish.

“SWOT - tahlil” jadvali

S	W
O	T

Qoidaga ko`ra, SWOT – tahlil muvaffaqiyati tashkillashtirishiga bog`liq bo`lmay, balki muhokamaning natijalari kelgusidagi aniq taklif va loyihalarni ishlab chiqishda hisobga olinishi mumkin. Bunday ketma-ketliklar quyidagicha bo`lishi kerak:

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING
ҚОНУНИ
28.12.1993 й.
№ 1006-ХII

Хужжатнинг рус тилидаги
матнига қаранг

МАҲСУЛОТЛАР ВА ХИЗМАТЛАРНИ
СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ ТЎҒРИСИДА

Мазкур Қонунга қуйидагиларга мувофиқ ўзгартиришлар киритилган
ЎЗР 31.08.2000 й. 125-II-сон Қонуни,
ЎЗР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни,
ЎЗР 06.04.2006 й. ЎРҚ-31-сон Қонуни,
ЎЗР 10.10.2006 й. ЎРҚ-59-сон Қонуни,
ЎЗР 07.10.2013 й. ЎРҚ-355-сон Қонуни

Муқаддима

I боб. Умумий қоидалар (1 - 6-моддалар)

II боб. Сертификатлаштириш фаолиятига
доир умумий талаблар (7 - 9-моддалар)

III боб. Маҳсулотларни мажбурий ва ихтиёрий
сертификатлаштириш (10 - 19-моддалар)

IV боб. Низоларни қараб чиқиш. Сертификатлаштириш
тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик
учун жавобгарлик (20 - 23-моддалар)

Мазкур Қонун Ўзбекистон Республикасида маҳсулотлар, хизматлар ва бошқа объектларни (матнда бундан кейин "маҳсулотлар" деб юритилади) сертификатлаштиришнинг ҳукукий, иқтисодий ва ташкилий асосларини, шунингдек сертификатлаштириш иштирокчиларининг ҳуқуқлари, мажбуриятлари ва жавобгарлигини белгилаб беради.

I БОБ. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1-модда. Асосий тушунчалар

2-модда. Сертификатлаштиришнинг мақсад ва вазифалари

3-модда. Сертификатлаштириш тўғрисидаги қонун ҳужжатлари

4-модда. Халқаро шартномалар ва битимлар

5-модда. Ўзбекистон Республикасининг сертификатлаштириш органлари

6-модда. Сертификатлаштириш объектлари ва субъектлари

1-модда. Асосий тушунчалар

Мазкур Қонунда қуйидаги асосий тушунчалар ишлатилмоқда:

"**сертификатлаштириш миллий тизими**" - давлат миқёсида амал қиладиган, сертификатлаштириш ўтказишда ўз тартиб ва бошқарув қоидаларига эга бўлган тизим;

"маҳсулотларни сертификатлаштириш" (матнда бундан кейин "сертификатлаштириш" деб юритилади) - маҳсулотларнинг белгиланган талабларга мувофиқлигини тасдиқлашга оид фаолият;

"мувофиқлик сертификати" - сертификатланган маҳсулотнинг белгиланган талабларга мувофиқлигини тасдиқлаш учун сертификатлаштириш тизими қоидаларига биноан берилган ҳужжат;

"мувофиқлик белгиси" - муайян маҳсулот ёхуд хизмат аниқ стандартга ёки бошқа норматив ҳужжатга мос эканлигини кўрсатиш учун маҳсулотга ёхуд кўрсатилган хизматга доир ҳужжатга қўйиладиган, белгиланган тартибда рўйхатга олинган белги;

"бир турдаги маҳсулотларни (ишларни, хизматларни) сертификатлаштириш тизими" - айти бир хил стандартлар ва қоидалар қўлланиладиган муайян маҳсулотлар, ишлар ёки хизматларга тааллуқли сертификатлаштириш тизими;

"синов лабораториясини аккредитация қилиш" - синов лабораториясининг (марказининг) муайян маҳсулот синовини ёки муайян синов турини амалга оширишга доир ваколатларининг расмий эътирофи;

"сифат бўйича эксперт-аудитор" - қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда аккредитация қилинган, сертификатлаштириш, аккредитация қилиш ва текшириш соҳасидаги ишларни олиб бориш учун тегишли малакаси бўлган мутахассис; (ЎЗР 31.08.2000 й. 125-II-сон Қонуни таҳриридаги хатбоши)

"сертификатлаштириш соҳасидаги текширув органи" - белгиланган тартибда аккредитация қилинган, сертификатланган маҳсулот ва сифатни бошқариш тизимини баҳолашни сертификатлаштириш органлари топшириғига биноан амалга оширувчи орган; (ЎЗР 31.08.2000 й. 125-II-сон Қонуни таҳриридаги хатбоши)

"назорат йўсинидаги текширув" - белгиланган талабларга мувофиқлигини сертификатлаштириш ва аккредитация қилиш чоғида тасдиқлаш мақсадида сертификатланган маҳсулот, сифатни бошқариш тизимини ёки ишлаб чиқаришни, сертификатлаштириш органлари, синов лабораториялари (марказлари) фаолиятини такрорий баҳолаш таомили. (ЎЗР 31.08.2000 й. 125-II-сон Қонуни таҳриридаги хатбоши)

2-модда. Сертификатлаштиришнинг мақсад ва вазифалари

Сертификатлаштириш:

одамларнинг ҳаёти, соғлиғи, юридик ва жисмоний шахсларнинг мол-мулки ҳамда атроф-муҳит учун хавфли бўлган маҳсулотлар реализация қилинишини назорат этиб бориш;

маҳсулотларнинг жаҳон бозорида рақобат қила олишини таъминлаш;

мамлакат корхоналари, қўшма корхоналар ва тадбиркорлар халқаро миқёсдаги иқтисодий, илмий-техникавий ҳамкорликда ва халқаро савдо-сотикда иштирок этишлари учун шароит яратиш;

истеъмолчини тайёрловчининг (сотувчининг, ижрочининг) виждонсизлигидан ҳимоя қилиш;

маҳсулот тайёрловчиси (сотувчиси, ижрочиси) таъкидлаган сифат кўрсаткичларини тасдиқлаш мақсадларида амалга оширилади.

Сертификатлаштириш мажбурий ва ихтиёрий тусда бўлади.

3-модда. Сертификатлаштириш тўғрисидаги қонун ҳужжатлари

Сертификатлаштириш соҳасидаги муносабатлар мазкур Қонун ва унга мувофиқ чиқариладиган Ўзбекистон Республикасининг бошқа қонун ҳужжатлари билан, Қорақалпоғистон Республикасида эса - Қорақалпоғистон Республикасининг қонун ҳужжатлари билан ҳам тартибга солинади.

4-модда. Халқаро шартномалар ва битимлар

Башарти, халқаро шартнома ёки битимда сертификатлаштириш тўғрисидаги қонун ҳужжатларида назарда тутилганидан ўзгача қоидалар белгиланган бўлса, у ҳолда халқаро шартнома ёки битимнинг қоидалари қўлланилади.

5-модда. Ўзбекистон Республикасининг сертификатлаштириш органлари

Ўзбекистон стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш агентлиги (бундан буён матнда "Ўзстандарт" агентлиги деб юритилади) Ўзбекистон Республикасининг миллий сертификатлаштириш органидир. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

"Ўзстандарт" агентлиги мазкур Қонунга мувофиқ: (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги хатбоши)

сертификатлаштириш соҳасида давлат сиёсатини амалга оширади, сертификатлаштириш ўтказиш юзасидан умумий қоидаларни белгилайди, улар тўғрисида расмий ахборотлар эълон қилиб боради;

сертификатлаштириш тизимини такомиллаштириш дастурларининг лойиҳаларини ишлаб чиқади ҳамда уларни Ҳукумат муҳокамасига тақдим этади;

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси билан келишган ҳолда сертификатлаштиришнинг халқаро тизимларига қўшилиш тўғрисида қарорлар қабул қилади, шунингдек сертификатлаштириш натижаларини ўзаро эътироф этиш тўғрисида битимлар тузади, сертификатлаштириш масалалари бўйича бошқа давлатлар билан ўзаро муносабатларда ва халқаро ташкилотларда Ўзбекистон Республикаси номидан иш кўради;

мажбурий равишда сертификатланадиган маҳсулотларнинг рўйхатини белгилайди ва уни Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тасдиғига киритади; (ЎзР 06.04.2006 й. ЎРҚ-31-сон Қонуни таҳриридаги хатбоши)

бир турдаги маҳсулотларни сертификатлаштириш органларини, синов лабораторияларини (марказларини), сертификатлаштириш соҳасидаги текширув органларини, шунингдек сифат бўйича эксперт-аудиторларни аккредитация қилади; (ЎзР 31.08.2000 й. 125-II-сон Қонуни таҳриридаги хатбоши)

сертификатланган маҳсулотларнинг, сифатни бошқариш тизимларининг, аккредитация қилинган сертификатлаштириш органларининг, синов лабораторияларининг (марказларининг), сифат бўйича эксперт-аудиторларнинг Давлат реестрини юритади; (ЎзР 06.04.2006 й. ЎРҚ-31-сон Қонуни таҳриридаги хатбоши) (Олдинги таҳририга қаранг)

бир турдаги маҳсулотларни сертификатлаштиришга аккредитация қилинган органлар ва синов лабораториялари (марказлари) сертификатлаштириш қоидаларига риоя этиши устидан ва сертификатланган маҳсулотлар устидан давлат текшируви ва назоратини амалга оширади;

қонун ҳужжатларининг нормалари бузилганлиги учун мувофиқлик сертификатлари ва мувофиқлик белгиларини бекор қилади ҳамда амал қилишини тўхтатиб қўяди, сертификатлаштириш органларининг аккредитация қилинганлик тўғрисидаги гувоҳномаларини бекор қилади, синов лабораторияларининг (марказларининг) фаолиятини тугатади.

"Ўзстандарт" агентлигининг сертификатлаштириш соҳасидаги фаолиятини молиявий таъминлаш манбаи - давлат бюджети маблағи, шунингдек "Ўзстандарт" агентлиги кўрсатаётган хизмат учун олинадиган ҳақдан иборат. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Бир турдаги маҳсулотларни сертификатлаштиришга аккредитация қилинган органлар:

бир турдаги маҳсулотларни сертификатлаштириш тизимларини тузадилар ва уларнинг амал қилишини таъминлайдилар;

сертификатлаштиришни ташкил этадилар ва ўтказадилар;

миллий мувофиқлик сертификатларини расмийлаштирадilar, берадилар ёки чет эл мувофиқлик сертификатларини эътироф этадилар;

сертификатланган маҳсулотлар устидан назоратни амалга оширадilar.

Синов лабораторияларини (марказларини) ва сертификатлаштириш органларини аккредитация қилиш билан боғлиқ сарф-харажатларни аризачи қоплайди.

Тегишли сертификатлаштириш тизими белгилаган тартибда аккредитация қилинган синов лабораториялари (марказлари) муайян маҳсулотларнинг синовини ёки муайян синов турини амалга оширадilar ҳамда сертификатлаштириш мақсадлари учун баённомалар берадилар.

"Ўзстандарт" агентлиги ўз вазифаларининг бир қисmini бир турдаги маҳсулотларни сертификатлаштириш органларига ва синов лабораторияларига (марказларига) ўтказишга ҳақлидир. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

6-модда. Сертификатлаштириш объектлари ва субъектлари

Маҳсулотлар (шу жумладан, дастурий ва бошқа илмий-техникавий маҳсулотлар), хизматлар, шунингдек сифат тизимлари сертификатлаштириш объектлари ҳисобланади.

"Ўзстандарт" агентлигининг ўзи, унинг томонидан аккредитация қилинган ёки эътироф этилган сертификатлаштириш органлари, синов лабораториялари (марказлари), сертификатлаштириш соҳасидаги текширув органлари, сифат бўйича эксперт-аудиторлар, шунингдек маҳсулоти сертификатлаштирилиши лозим бўлган корхоналар, муассасалар, ташкилотлар, жисмоний шахслар сертификатлаштириш субъектларидир. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм) (Олдинги таҳририга қаранг)

Сертификатлаштириш субъектлари - юридик шахслар сертификатлаштириш миллий тизими доирасида сертификатлаштириш тизимлари тузишлари мумкин. Юридик шахсларнинг сертификатлаштириш тизимлари "Ўзстандарт" агентлиги белгилаган тартибда давлат рўйхатидан ўтказилиши шарт. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

II БОБ. СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ

ФАОЛИЯТИГА ДОИР УМУМИЙ ТАЛАБЛАР

7-модда. Мувофиқлик сертификати ва мувофиқлик белгиси

8-модда. Сертификатлаштириш фаолиятини амалга ошириш

9-модда. Сертификатлаштириш тўғрисида ахборот

7-модда. Мувофиқлик сертификати ва мувофиқлик белгиси

Маҳсулотнинг белгиланган талабларга мувофиқлиги тасдиқлангани тақдирда сертификатлаштириш органи мувофиқлик сертификати беради, тайёрловчи ана шу сертификат асосида мувофиқлик белгисини ишлатиш ҳуқуқига эга бўлади.

Сертификатлаштириш тизимида фойдаланиладиган мувофиқлик сертификатларининг, аккредитация қилинганлик тўғрисидаги гувоҳномаларнинг намуналари, миллий мувофиқлик белгисининг шакллари ва ҳажмлари "Ўзстандарт" агентлиги томонидан тасдиқланади. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Мувофиқлик сертификатлари, мувофиқлик белгилари, сертификатлаштириш органлари ва синов лабораторияларининг (марказларининг) аккредитация қилинганлик тўғрисидаги гувоҳномалари "Ўзстандарт" агентлиги томонидан белгиланган тартибда Давлат реестридан ўтказилиши шарт. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Давлат реестрида рўйхатдан ўтказилмаган мувофиқлик сертификатлари, мувофиқлик белгилари, сертификатлаштириш органлари ва синов лабораторияларининг (марказларининг) аккредитация қилинганлик тўғрисидаги гувоҳномалари ҳақиқий эмас.

Мувофиқлик сертификатидан, мувофиқлик белгисидан фойдаланиш ҳуқуқини ҳамда сертификатлаштириш органлари ва синов лабораторияларининг (марказларининг) аккредитация қилинганлик тўғрисидаги гувоҳномаларини аризачи бошқа юридик ёки жисмоний шахсга бериши ман этилади.

8-модда. Сертификатлаштириш фаолиятини амалга ошириш
(ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги модда)
(Олдинги таҳририга қаранг)

Бир турдаги маҳсулотларни сертификатлаштиришга аккредитация қилинган органлар ва синов лабораториялари (марказлари) қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда берилган аккредитация тўғрисидаги гувоҳнома асосида сертификатлаштириш фаолиятини ҳамда сертификатлаштириш мақсадида синовлар ўтказиш фаолиятини амалга оширадilar.

Маҳсулотлар сертификатлаштирилаётганда аризачига сертификатни ёки мувофиқлик белгисини қўллаш ҳуқуқи мувофиқлик сертификатини берган аккредитация қилинган тегишли сертификатлаштириш органи билан тузилган битим асосида берилади.

9-модда. Сертификатлаштириш тўғрисида ахборот

"Ўзстандарт" агентлиги тайёрловчиларни (ижрочиларни), сотувчиларни, истеъмолчиларни ва бошқа манфаатдор шахсларни сертификатлаштиришнинг амалдаги тизимлари, уларнинг органлари, синов лабораториялари (марказлари), экспертлар тўғрисида, шунингдек мувофиқлик сертификатлари, мувофиқлик белгилари ва уларни қўллаш қоидалари тўғрисида хабардор этиб боради. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Сертификатлаштириш органлари аризачига унинг талабига биноан маҳсулотни сертификатлаштириш учун керакли ахборотни беришлари шарт.

Аризачи сертификатлаштириш органининг талабига биноан сертификатлаштириш билан боғлиқ ахборотни тақдим этиши шарт, тижорат сири ҳисобланган маълумотлар бундан мустасно.

**III БОБ. МАҲСУЛОТЛАРНИ МАЖБУРИЙ ВА ИХТИЁРИЙ
СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ**

10-модда. Мажбурий сертификатлаштиришни жорий этиш

11-модда. Мажбурий сертификатлаштиришни ўтказиш шартлари

12-модда. Мажбурий сертификатлаштирилиши лозим

бўлган маҳсулотларга қўйиладиган талаблар

13-модда. Тайёрловчиларнинг (тадбиркорларнинг) маҳсулотларни мажбурий сертификатлаштириш вақтидаги мажбуриятлари

14-модда. Четдан олиб келинадиган ва четга олиб чиқиб кетиладиган маҳсулотларни мажбурий сертификатлаштириш

15-модда. Мажбурий сертификатлаштириш ишларининг давлат томонидан молиявий таъминоти

16-модда. Мажбурий сертификатлаштириш қоидаларига риоя этилишини давлат томонидан текшириш ва назорат қилиш

16-1-модда. Назорат йўсинидаги текширув

17-модда. Ихтиёрий сертификатлаштириш

18-модда. Ихтиёрий сертификатлаштиришни амалга оширувчи субъектлар

19-модда. Ихтиёрий сертификатлаштириш тизимлари

10-модда. Мажбурий сертификатлаштиришни жорий этиш

Мажбурий сертификатлаштиришни ўтказиш ишларини ташкил этиш "Ўзстандарт" агентлиги зиммасига ёки унинг топшириғига биноан бошқа сертификатлаштириш

органларига (уларни албатта аккредитация қилган ҳолда) юклатилади. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Сертификатлаштирилиши шарт бўлган маҳсулотларнинг рўйхатини Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тасдиқлайди.

Одамларнинг ҳаёти, соғлиғи, юридик ва жисмоний шахсларнинг мол-мулкига ҳамда атроф-муҳитга зарар етказиши мумкин бўлган маҳсулотларни тайёрлаш, улардан фойдаланиш, уларни ташиш ёки сақлаш хавфсизлигини таъминловчи талаблар бўлмаган тақдирда "Ўзстандарт" агентлиги давлат бошқарувининг тегишли органлари билан биргаликда бундай талабномаларнинг кечиктирмай ишлаб чиқирилиши ва амалга киритилишини таъминлайди. (ЎзР 06.04.2006 й. ЎРҚ-31-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

11-модда. Мажбурий сертификатлаштирилиши ўтказиш шартлари

Мажбурий сертификатлаштириш ишлаб чиқаришни текширилиши, маҳсулот хусусияти норматив ҳужжатлар талабларига мувофиқлигини аниқлаш учун уни синашни, назорат йўсинидаги текширувни ва сертификатланган маҳсулот устидан назоратни ўз ичига олади. (ЎзР 31.08.2000 й. 125-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Синовлар аккредитация қилинган синов лабораториялари (марказлари) томонидан тегишли норматив ҳужжатларда белгиланган усулларда, бундай ҳужжатлар бўлмаган тақдирда эса тегишли сертификатлаштириш органлари ишлаб чиққан усулларда амалга оширилади.

Мажбурий сертификатлаштириш ишлари учун аризачи қонун ҳужжатларида белгилаб қўйилган тартибда ҳақ тўлайди.

Аризачи ўз маҳсулотини мажбурий сертификатлаштиришдан ўтказишга сарфлаган маблағлар суммаси шу маҳсулот таннархига қўшилади.

Мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган, аммо мувофиқлик сертификатига эга бўлмаган маҳсулотни тарғиб қилиш ман этилади.

12-модда. Мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган маҳсулотларга қўйиладиган талаблар

Мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган маҳсулотлар қуйидаги ҳолларда: сертификатлаштиришга тақдим этилмаган бўлса;

сертификатлаштириш талабларига мувофиқ эмаслиги сабабли сертификатлаштиришдан ўтмаган бўлса;

агар сертификатнинг амал қилиш муддати тугаган ёки унинг амал қилиши тўхтатиб қўйилган (бекор қилинган) бўлса, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида реализация қилиниши мумкин эмас.

Қонунга ҳилоф тарзда мувофиқлик белгиси босилган маҳсулотларни реализация қилиш ман этилади.

13-модда. Тайёрловчиларнинг (тадбиркорларнинг) маҳсулотларни мажбурий сертификатлаштириш вақтидаги мажбуриятлари

Мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган маҳсулотларни реализация қилувчи тайёрловчилар (тадбиркорлар):

мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган маҳсулотни сертификатлаштиришга тақдим этишлари;

сертификатланган маҳсулотни сертификатлаш органларининг ўзи ёки улар эътироф этган органлар берган сертификат мавжуд бўлган тақдирдагина реализация қилишлари ва унинг норматив ҳужжатлар талабларига мос бўлишини таъминлашлари;

сертификатланган маҳсулотни, башарти, у норматив ҳужжат талабларига мувофиқ келмаса, шунингдек сертификатнинг амал қилиш муддати тугаган ёхуд унинг амал қилиши

сертификатлаштириш органининг қарори билан тўхтатиб қўйилган ёки бекор қилинган бўлса, реализация қилишни тўхтатиб қўйишлари ёки тугатишлари;

мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган маҳсулотни сертификатлаштирувчи ва сертификатланган маҳсулотни назорат қилувчи органларнинг мансабдор шахслари ўз ваколатларини монеликсиз бажаришлари учун шароит яратишлари;

сертификатланган маҳсулот ишлаб чиқаришнинг техникавий ҳужжатларига ёки технологик жараёнига киритилган ўзгаришлар ҳақида сертификатлаштириш органини белгиланган тартибда хабардор этишлари;

илова қилинган техник ҳужжатда маҳсулот мувофиқ келиши лозим бўлган сертификатлаштириш тўғрисидаги маълумотларни ҳамда норматив ҳужжатларни кўрсатишлари ва бу маълумотлар истеъмолчи (харидор, буюртмачи) эътиборига етказилишини таъминлашлари шарт.

14-модда. Четдан олиб келинадиган ва четга олиб чиқиб кетиладиган маҳсулотларни мажбурий сертификатлаштириш

Мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган маҳсулотларни Ўзбекистон Республикасига етказиб бериш учун тузиладиган контрактлар (шартномалар) шартида маҳсулотларнинг белгиланган талабларга мувофиқлигини тасдиқловчи, "Ўзстандарт" агентлиги томонидан берилган ёки эътироф этилган мувофиқлик сертификатлари ва мувофиқлик белгилари бўлиши назарда тутилиши керак. (ЎЗР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Миллий мувофиқлик сертификатлари ва мувофиқлик белгилари ёки бошқа давлатларнинг "Ўзстандарт" агентлиги томонидан эътироф этилган мувофиқлик сертификатлари ва мувофиқлик белгилари аризачи (маҳсулот етказиб берувчи) томонидан божхона назорати органларига юкка тааллуқли божхона декларацияси билан биргаликда тақдим этилади ва улар маҳсулотни республика ҳудудига олиб киришга рухсатнома олиш учун зарур ҳужжатлар ҳисобланади. (ЎЗР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Четдан олиб келинаётган маҳсулотнинг хавфсиз эканлигини тасдиқловчи ҳужжати бўлмаган тақдирда божхона назорати органлари бу хусусда "Ўзстандарт" агентлигини хабардор этадилар ҳамда маҳсулотни сертификатлаштиришдан ўтказиш ёки чет эл сертификатини эътироф этиш тўғрисидаги масала сертификатлаштириш миллий тизими қоидаларига мувофиқ ҳал этилгунга қадар бу маҳсулотни четдан олиб киришни тақиқлаб қўядилар. (ЎЗР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Сертификатлаштирилиши шарт бўлган маҳсулотларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқиш тартибини Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси белгилайди.

15-модда. Мажбурий сертификатлаштириш ишларининг давлат томонидан молиявий таъминоти

Қуйидаги ишлар:

сертификатлаштиришни ривожлантиришнинг истиқболларини, уни ўтказиш қоидалари ва тавсияларини ишлаб чиқиш;

сертификатлаштириш соҳасида расмий ахборотлар билан таъминлаш;

халқаро (минтақавий) сертификатлаштириш ташкилотлари ишида қатнашиш ҳамда чет эл миллий сертификатлаштириш органлари билан биргаликда ишлар ўтказиш;

сертификатлаштириш юзасидан халқаро (минтақавий) қоидалар ва тавсиялар ишлаб чиқиш ҳамда уларни ишлаб чиқишда қатнашиш;

сертификатлаштириш юзасидан умумдавлат аҳамиятига молик илмий-тадқиқот ишлари ва бошқа ишлар олиб бориш;

сертификатлаштириш қоидаларига риоя этилиши устидан ҳамда сертификатланган маҳсулот устидан давлат текшируви ва назорати олиб бориш ишлари давлат томонидан молиявий таъминланади.

16-модда. Мажбурий сертификатлаштириш қоидаларига риоя этилишини давлат томонидан текшириш ва назорат қилиш

Тайёрловчиларнинг (тадбиркорларнинг, сотувчиларнинг, ижрочиларнинг) мажбурий сертификатлаштириш қоидаларига риоя этишлари устидан давлат текшируви ва назоратини "Ўзстандарт" агентлигининг давлат инспекторлари қонун ҳужжатларида белгилаб қўйилган тартибда амалга оширади. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-ІІ-сон Қонуни таҳриридаги модда) (Олдинги таҳририга қаранг)

16-1-модда. Назорат йўсинидаги текширув

Сертификатланган маҳсулот, сифатни бошқариш тизимлари, ишлаб чиқариш, аккредитация қилинган синов лабораториялари (марказлари), сертификатлаштириш органлари устидан назорат йўсинидаги текширувни сифат бўйича эксперт-аудиторлар "Ўзстандарт" агентлиги томонидан белгиланган тартибда амалга оширади. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-ІІ-сон Қонуни таҳриридаги модда) (Олдинги таҳририга қаранг)

17-модда. Ихтиёрий сертификатлаштириш

Ҳар қандай маҳсулот норматив ҳужжатларнинг талабларига мувофиқ эканлигини тасдиқлаш учун у юридик ва жисмоний шахснинг ташаббуси билан ихтиёрий сертификатлаштиришдан ўтказилиши мумкин.

18-модда. Ихтиёрий сертификатлаштиришни амалга оширувчи субъектлар

Ихтиёрий сертификатлаштиришни "Ўзстандарт" агентлиги белгилаб қўйган тартибда аккредитация қилинган юридик ва жисмоний шахслар амалга оширишга ҳақлидир. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-ІІ-сон Қонуни таҳриридаги модда)

19-модда. Ихтиёрий сертификатлаштириш тизимлари

Сертификатлаштириш қоидалари ва тартибини белгиловчи ихтиёрий сертификатлаштириш тизимларини аккредитация қилинган органлар "Ўзстандарт" агентлиги билан келишган ҳолда белгилайдилар. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-ІІ-сон Қонуни таҳриридаги модда)

IV БОБ. НИЗОЛАРНИ ҚАРАБ ЧИҚИШ.

**СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ ТЎҒРИСИДАГИ ҚОНУН
ҲУЖЖАТЛАРИНИ БУЗГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИК**

20-модда. Мазкур Қонунни қўллаш билан боғлиқ низоларни қараб чиқиш

21-модда. Шикоятларни қараб чиқиш

22-модда. Сертификатлаштириш органларининг ва синов лабораторияларининг (марказларининг) жавобгарлиги

23-модда. Тайёрловчиларнинг (тадбиркорларнинг) мажбурий сертификатлаштириш қоидаларини бузганлик учун жавобгарлиги

20-модда. Мазкур Қонунни қўллаш билан боғлиқ низоларни қараб чиқиш

Мазкур Қонунни қўллаш билан боғлиқ низолар суд томонидан Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида белгилаб қўйилган тартибда қараб чиқилади.

21-модда. Шикоятларни қараб чиқиш

Сертификатлаштириш натижаларидан норози бўлган тақдирда манфаатдор томон "Ўзстандарт" агентлигининг Шикоятларни қараб чиқиш кенгашига мурожаат этишга ҳақлидир. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-П-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Шикоятларни қараб чиқиш кенгаши тўғрисидаги низомни "Ўзстандарт" агентлиги ишлаб чиқади ва тасдиқлайди. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-П-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

"Ўзстандарт" агентлигининг Шикоятларни қараб чиқиш кенгаши сертификатлаштириш органлари ва синов лабораторияларининг (марказларининг) қарорлари устидан берилган шикоят аризаларини қараб чиқади. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-П-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Шикоят аризалари икки ҳафта ичида қараб чиқилади.

"Ўзстандарт" агентлигининг, Шикоятларни қараб чиқиш кенгашининг қарорлари устидан қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда судга шикоят қилиш мумкин. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-П-сон Қонуни таҳриридаги қисм) (Олдинги таҳририга қаранг)

22-модда. Сертификатлаштириш органларининг ва синов лабораторияларининг (марказларининг) жавобгарлиги

Сертификатлаштириш органи:

мувофиқлик сертификатини асосиз ва қонунга ҳилоф тарзда берганлик учун;

аризачига нисбатан қонунга ҳилоф хатти-ҳаракатлар қилганлик учун;

аризачининг тижорат сири ҳисобланган маълумотларни ошкор этганлик учун жавобгар бўлади.

Аккредитация қилинган синов лабораторияси (маркази) сертификатлаштириш органига синовларнинг натижалари ҳақида нотўғри маълумот берганлик учун жавобгар бўлади.

Сертификатлаштириш органлари ва синов лабораториялари (марказлари) мазкур моддада айтиб ўтилган хатти-ҳаракатлар натижасида аризачига етказилган зарарнинг ўрнини қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда тўла ҳажмда қоплашлари шарт.

23-модда. Тайёрловчиларнинг (тадбиркорларнинг) мажбурий сертификатлаштириш қоидаларини бузганлик учун жавобгарлиги

Тайёрловчилар (тадбиркорлар) мажбурий сертификатлаштириш қоидаларини бузганлик учун қонун ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўладилар.

Мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган сертификатлаштирилмаган маҳсулотни реализация қилганлик учун тайёрловчининг (тадбиркорнинг) мансабдор шахслари, шунингдек яқка тартибдаги тадбиркор - тайёрловчилар маъмурий жавобгарликка тортилади. (ЎзР 07.10.2013 й. ЎРҚ-355-сон Қонуни таҳриридаги қисм) (Олдинги таҳририга қаранг)

Маъмурий жазо чораси қўлланилганлиги тайёрловчиларни (тадбиркорларни) мажбурий сертификатлаштиришни ўтказишдан озод қилмайди. (ЎзР 07.10.2013 й. ЎРҚ-355-сон Қонунига мувофиқ киритилган қисм)

Ўзбекистон Республикаси Президенти

И. Каримов

Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши ахборотномаси, 1994 йил, N 2, 50-модда

Сертификатлаштириш асослари бўйича саволлар ва жавоблар

1. Сертификатлаштирилган маҳсулот устидан инспекция назоратини ким амалга оширади?

Сертификатлаштирилган маҳсулот устидан инспекцион назоратни мувофиқлик сертификати берган СИ ёки келишувга асосан назорат органи (орган контроля) амалга оширади.

2. Мажбурий сертификатлаштириш қоидалари бажарилиши текширувини ким амалга оширади?

Мажбурий сертификатлаштириш қоидаларини бажарилишини текширувини “Ўзстандарт” агентлигининг давлат инспекторлари амалга оширади.

3. Сертификатлаштиришда расмийлаштириладиган Ўзжатларни сақлаш муддати қанча?

Сертификатлаштиришда расмийлаштирилган ҳужжатларнинг сақлаш мууддати мувофиқлик сертификатининг амал қилиш муддатигача, бир йилдан кам бўлмаган ҳолда.

4. Глобал ёндашув нимани назарда тутаяди?

Процедураларни тавсифлаш, асос бўлувчи талабларни ифодалаш, савдодаги тўсиқларни бартараф этиш.

5. Янги ёндашувнинг асосий талаблари нимани назарда тутаяди?

6. Маҳсулот ва хизматлар меъёрий Ўзжатларнинг талабларига тўлиқ мувофиқлиги қайси Ўзжат билан тасдиқланади?

Маҳсулот ва хизматлар меъёрий ҳужжатларнинг талабларига тўлиқ мувофиқлиги мувофиқлик сертификати билан тасдиқланади.

7. Озиқ-овқат маҳсулотларининг давлат рўйхатини ким амалга оширади?

Озиқ-овқат маҳсулотларини давлат рўйхатига олиш соғлиқни сақлаш вазирлиги санитария назорати органлари томонидан амалга оширилади.

8. Стандарт талаблари бажарилиши устидан давлат назоратчиси сертификатлаштириш ишларини ўткази оладими?

Стандарт талаблари бажарилиши устидан давлат назоратчиси сертификатлаштириш ишларини амалга ошири олмайд.

9. МДХ давлатларидан импорт қилинаётган маҳсулотларни сертификатлаштирилганлиги факти қандай тан олинади?

МДХ давлатларидан импорт қилинган маҳсулотлар мувофиқлик сертификатлари ўзаро тузилган келишувга асосан амалга оширилади, бунда аризачи мувофиқлик сертификатининг аслини ёки асл нусха эгаси томонидан тасдиқланган нусхаси ёки мувофиқлик сертификати берган идора томонидан тасдиқланган ёки нотариал идора томонидан тасдиқланган нусхасини, МХ нусхасини (агар бўлса), маҳсулот маркировкаси намунасини, товар кузатув ҳужжатлари нусхасини (божхона ҳудудига келганлиги тўғрисидаги белги билан), гигиеник сертификат (агар олган бўлса) тақдим этилади. Тақдим этилган ҳужжатлар ўрганиб чиқилгандан сўнг Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларига зид бўлмаган, Республикада ҳудди шундай маҳсулотга қўйилган талаблардан паст бўлмаган маҳсулотлар тан олинади.

10. Ихтиёрий сертификатлаштиришда синон дастури ким томонидан аниқланади?

Ихтиёрий сертификатлаштиришда синов дастури СИ томонидан аризачи таклифини ҳисобга олган ҳолда аниқланади.

11.Мажбурий сертификатлаштиришда синов дастури ким томонидан аниқланади?

Мажбурий сертификатлаштиришда синов дастури СИ томонидан аниқланади.

12.ЎзР СМТнинг қайси сертификатлаштириш чизмаларида ишлаб чиқариш назорати амалга оширилади?

3,4,5 сертификатлаштириш чизмаларида ишлаб чиқариш назорати (обследование) ўтказилади.

13.Қайси сертификатлаштириш чизмаларида маҳсулотга мувофиқлик белгиси қўйилади?

3,4,5,7,8,9 сертификатлаштириш чизмаларида маҳсулотга мувофиқлик белгиси қўйилиши мумкин.

14.Маҳсулотни декларациялашда қандай ЎзРнинг мувофиқлигини тасдиқлайди?

Маҳсулотни декларациялашда қуйидаги ҳужжатлар мувофиқлигини тасдиқлайди:

-маҳсулотнинг синов баённомаси (аккредитланган ёки аттестатланган синов лабораториясида ўтказилган)

-хом-ашё, материаллар, бутловчи буюмлар синов баённомалари

-сифат тизими сертификати

-зарур бўлса гигиеник, ветеринар, фитосанитар, экологик сертификат ҳулосалар нусхаси.

15.Қайси сертификатлаштириш чизмалари сифат менежменти тизими баНолашни талаб қилади?

5,6 чизмаларда сифат менежменти тизими баҳоланади.

16.Қайси мувофиқлик белгиси маҳсулот мувофиқлигини тасдиқлайди?



17.Аккредитацияланган сертификатлаштириш идоралари қандай асосий вазифаларни бажаради?

18.Сертификатлаштиришга тақдим этилган маҳсулот идентификацияси ва намуна танлашни Ким амалга оширади?

Сертификатлаштиришга тақдим этилган маҳсулот идентификацияси ва намуна танлашни сертификатлаштириш идораси ходими амалга оширади.

19.Мувофиқликни баНолашнинг қандай кўринишлари мавжуд?

Мувофиқликни баҳоланиш қуйидаги кўринишлари мавжуд: сертификатлаштириш, декларациялаш, маълум қилиш.

20.Ким сертификатлаштирилган маҳсулот устидан инспекцион назоратни амалга ошириш ЎзРга эга?

Сертификатлаштирилган маҳсулот устидан инспекцион назоратни мувофиқлик сертификати берган сертификатлаштириш идораси сифат бўйича эксперт –аудитори ўтказиш ҳуқуқига эга.

21.Ким аккредитланган сертификатлаштириш идоралари ва синов лабораториялари устидан инспекцион назоратни амалга оширади?

Аккредитланган сертификатлаштириш идоралари ва синов лабораториялари устидан инспекцион назоратни аккредитлаш идораси “Ўзстандарт” агентлиги томонидан амалга оширилади.

22.Қайси сертификатлаштириш схемаларида маҳсулотни идентификация қилиш намуна олиш ва лабораторияга тақдим этиш ишлари амалга оширилмайди?

6,9 сертификатлаштириш схемаларида махсулотни идентификация қилиш, намуна олиш ва лабораторияга тақдим этиш ишлари амалга оширилмайди.

23.O'z DSt ISO 9001:2002 талабларига асосан корхонада нечта Нужжатлаштирилган процедуралар мавжуд бўлиши керак?

O'zDSt ISO 9001:2002 талабига асосан корхонада 6 та хужжатлаштирилган процедура мавжуд бўлиши лозим.

24.Мувофиқлик сертификатини бериш Нуқукига эга:

Мувофиқлик сертификатини бериш ҳуқуқига белгиланган тартибда аккредитациядан ўтган, асосий синовларни ўз синов лабораториясида ўтказа оладиган СИ эга.

25.Қайси сертификатлаштириш чизмаси махсулот синовидан ташқари, ишлаб чиқариш ва сифат тизимларини сертификатлаштиришни ўз ичига олади?

5 сертификатлаштириш чизмаси махсулот синовидан ташқари, ишлаб чиқариш ва сифат тизимларини баҳолашни ўз ичига олади.

26.Ўзбекистон Миллий Сертификатлаштириш тизимида махсулотнинг сертификатлаштириш ишларини ким ўтказиши?

Ўзбекистон Миллий сертификатлаштириш тизимида махсулотни сертификатлаштириш ишларини бир турдаги махсулотларни сертификатлаштиришга аккредитация қилинган органлар белгиланган тартибда берилган аккредитация тўғрисидаги гувоҳнома асосида амалга оширадilar.

27.Мажбурий сертификатлаштиришда махсулотнинг қандай кўрсаткичлари текширилиши шарт?

Мажбурий сертификатлаштиришда махсулотнинг меъёрий хужжат талабига асосан мажбурий талаблари биринчи навбатда хавфсизлик талаблари кўрсаткичлари бўйича ўтказилади.

28.Ким сертификатлаштирилмаган махсулотни ишлаб чиқариш ва реализация қилишни тўхтатиш, шунингдек унинг реализация учун жарима солиш қарорини қабул қилиш Нуқукига эга?

Сертификатланмаган махсулотни ишлаб чиқариш ва реализация қилишни тўхтатиш, шунингдек реализация учун жарима солиш тўғрисидаги қарорни Стандартларни тегишириш ва назорат қилиш ҳамда ўлчовларнинг ягона бирликда бўлишини таъминлаш бўйича Ўзбекистон Республикаси бош давлат инспектори, Қорақалпоғистон Республикаси вилоятлар ва Тошкент шаҳар бош давлат инспекторлари қўллаш ҳуқуқига эга.

29.«мувофиқликни баНолаш» ва «мувофиқликни тасдиқлаш» нима билан фарқланади?

Махсулотга, жараёнга, тизимга, шахсга қўйилган талаблар бажарилганлигини исботланганлиги мувофиқликни баҳолаш, мувофиқликни тасдиқлаш эса тегиширувдан сўнг белгиланган талабларни бажарилганлигини исботланганлиги қарорга асосланиб хужжат бериш.

30.Мувофиқликни баНолаш объекти нима?

Мувофиқликни баҳолаш объекти махсулотлар, жараёнлар, сифат тизимлари, СИ ва СЛ ҳамда шахслар.

31.Сертификатлаштириш субъектларига кимлар кирази?

Сертификатлаштириш субъектларига «Ўзстандарт» агентлиги, аккредитация қилинган сертификатлаштириш органлари, синов лабораториялари, сифат бўйича эксперт-аудиторлар, махсулоти сертификатланиши лозим бўлган корхоналар, ташилотлар, жисмоний шахслар кирази

32.Қайси Нужжатларга асосан ишлаб чиқарувчига мувофиқлик белгисини қўллаш Нуқуки берилади?

Аризачи билан тузилган ўзаро келишувга(соглашение) асосан мувофиқлик белгисини қўллаш ҳуқуқи берилади.

33.Мажбурий сертификатлаштиришни амалга ошириш қандай асосий турдаги фаолиятларни ўз ичига олади?

Мажбурий сертификатлаштириш ишлаб чиқаришни текишириш, махсулот хусусияти норматив ҳужжатлар талабларига мувофиқлигини аниқлаш учун уни синаш, назорат йўсинидаги текишув ва сертификатланган махсулот устидан назоратни ўз ичига олади.

34.Сертификатлаштириш учун тўлов қайси Нўжатга асосан аниқланади?

Сертификатлаштириш учун тулов 1999 йил 11 майда адлия вазирлигидан №722 сон билан рўйхатдан ўтган “Порядок оплаты работ” га асосан аниқланади.

35.Мувофиқлик сертификати, мувофиқлик белгиси, аккредитация аттестатини бошқа юридик ва жисмоний шахсларга фойдаланиш Нуқуқини бериш қонунийми?

Мувофиқлик сертификати, мувофиқлик белгиси, аккредитация аттестатини бошқа юридик ва жисмоний шахсларга фойдаланишга бериш “Махсулот ва хизматларни сертификатлаштириш тўғрисида” ги қонунга зид.

36.Хорижий мувофиқлик сертификатларини тан олиш қайси шартларга асосан ўтказилади?

Импорт қилинган махсулотлар мувофиқлик сертификатлари ўзаро тузилган келишувга асосан амалга оширилади, бунда аризаги мувофиқлик сертификатининг аслини ёки асл нусха эгаси томонидан тасдиқланган нусхаси ёки мувофиқлик сертификати берган идора томонидан тасдиқланган ёки нотариал идора томонидан тасдиқланган нусхасини, МХ нусхасини (агар бўлса), махсулот маркировкаси намунасини, товар кузатув ҳужжатлари нусхасини (божхона ҳудудига келганлиги тўғрисидаги белги билан), гигиеник сертификат (агар олган бўлса) тақдим этилади.Тақдим этилган ҳужжатлар ўрганиб чиқилгандан сўнг Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларига зид бўлмаган, Республикада ҳудди шундай махсулотга қўйилган талаблардан наст бўлмаган махсулотлар тан олинади.

37.Махсулотни серияли ишлаб чиқариш учун мувофиқлик сертификати қандай муддатга берилади?

Махсулотни серияли ишлаб чиқариш учун мувофиқлик сертификати 3 йил муддатга берилади.

38.Сертификатлаштирилган махсулот устидан инспекцион назорат ўтказиш даврийлиги ким томонидан белгиланади?

Сертификатлаштирилган махсулот устидан инспекцион назорат ўтказиш даврийлигини мувофиқлик сертификати берган СИ томонидан белгиланади.

39.Мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган махсулотларни сертификатлаштирмасдан реализация қилганлик учун қонунчиликда қандай чоралар белгиланган?

Мажбурий сертификатлаштирилиши лозим бўлган махсулотларни сертификатлаштирмасдан реализация қилганлик учун ишлаб чиқарувчига реализация қилинган махсулотнинг 100% миқдориди молиявий жарима қўлланилади.

40.Мувофиқликни баНолаш деганда нимани тушунаси?

Махсулотга, жараёнга, тизимга , шахсга қўйилган талаблар бажарилганлигини исботлаш

41.Мувофиқликни баНолаш объектларига нималар киради?

Мувофиқликни баҳолаш объекти махсулотлар, жараёнлар, сифат тизимлари, СИ ва СЛ ҳамда шахслар.

42.Мувофиқликни баНолаш субъектларига кимлар киради?

Мувофиқликни баҳоловчи СИ, СЛ, эксперт-аудиторлар, корхона ва ташкилотлар

43.Эксперт-аудиторларга ва уларнинг аттестациясига қўйилган талаблар қайси ҳужжатда белгиланган?

О`з RH 51-014:2006 “Сифат бўйича эксперт аудиторлар.Талаблар, тайёрлаш ва баҳолаш”

44.Аккредитланган лабораторияга синовлар учун қандай махсулотларни қабул қилиш мумкин?

Тайёрловчининг синаладиган махсулотининг намунавий вакили сифатида аниқ идентификацияланган махсулот намуналари қабул қилинади.

45.Қайси ташкилот сертификатлаштириш миллий идораси ҳисобланади?

“Ўзстандарт” агентлиги

46.Сертификатлаштириш идораси мувофиқлик сертификатини бекор қилиш қарорини қабул қилганда қуйидагиларга хабарнома юборади:

Сертификат бекор қилинганда СИ 3 кундан кўп бўлмаган муддатда “Ўзстандарт” агентлигига, солиқ ва божхона идорасига, зарур бўлганда оммавий ахборот воситаларига жўнатилади.

47.Тез бузилувчи махсулотларнинг (қишлоқ хўжалик ва озиқ-овқат махсулотлари) сертификатлаштириш муддатлари:

Тез бузилувчи махсулотларнинг сертификатлаштириш муддати ариза берган кундан бошлаб 3 кундан ошмаслиги зарур.

48.Мувофиқлик сертификати нима?

Тегишлича белгиланган махсулот, жараён ёки хизматларнинг маълум стандартига ёки бошқа меърий хужжатга мос келишига ишонтирадиган ва сертификатлаштириш тизими қоидалари асосида нашр этилган хужжат.

49.Учинчи томон орқали махсулотни сертификатлаштириш деганда нима тушунилади?

Эътибор бериб идентификацияланган махсулот жараён ва хизматларнинг муайян меърий хужжатга мувофиқлигига ишонч таъминланади деб исботловчи учинчи томон харакатлари.

50.Инспекцион назорат бўйича текширувни ким бошқаради?

Инспекцион назоратни сифат бўйича эксперт-аудитор бошқаради.



«Tovarning oziq-ovkat maxsulotlari uchun yarokliligi uchun tadkik kilinganligi tugrisidagi»
eko belgisi



Erning ozon katlamini saklash buyicha talablarni ishlab chikaruvchi tomonidan bajarilishini
bildiruvchi belgi



PRINTED ON RECYCLED PAPER

Ikkilamchi maxsulotdan olingan kogozlarga kuyiladigan eko belgisi (AKSh)



Tovarning atrof muxitga xavfli ekanligini bildiruvchi belgi



Atrof muxitni muxofaza kilish buyicha yapon assotsiatsiyasi eko belgisi



EX eko tamgalash belgisi



«Moviy farishta» eko belgisi



«Grüne Punkt», «Yashil nukta» belgisi



a)



b)



v)



g)


d)



Elektr maishiy tovarlarining xavfsizlik talablariga muvofiklik belgisi:


a) Fransiya, b) Avstriya, v) Germaniya, g) Buyuk Britaniya, d) «Xavfsizlikka tekshirilgan» belgisi (Germaniya)



1. Истеъмолчига мўлжалланган иш юритилиши	Корхона ўз миқозларини аниқ пайтда, ҳамда келгусидаги ҳошиш истаклари, талабларини билиши ва бажариши керак. Миқозни қониққанлик даражасини англаши керак
2. Раҳбариятнинг пешқадамлиги	Раҳбарлар ташкилотнинг мақсади ва фаолият йўналишининг ягоналигини таъминлайди. Раҳбарлар ташкилот олдига қўйилган вазифаларни бажаришга ходимларни жалб этиш мумкин бўладиган ички муҳитни яратиш ва сақлаши лозим
3. Ходимларни жалб қилиниши	Барча ходимлар корхона асосини ташкил этади, ходимларни жалб этиш ҳамда уларни бор имкониятларидан фойдаланиш корхонага наф келтиради
4. Тизимли ёндашиш	Қачонки корхона фаолиятидаги барча ресурсларга тизимли ёндашилса исталган натижага эришилади.
5. Доимий яхшиланиш	Корхона фаолиятининг доимий яхшиланишига янгилик сифатида эмас, балки ўзгармас мақсад сифатида қаралиши лозим
6. Фактларга асосланган қарорлар қабул қилиш	Самарали қарорлар маълумотлар ва таҳлил қилинган ахборотларга асосланади.
7. Етказиб берувчилар билан ўзаро манфаатли муносабатлар	Корхона ва унинг етказиб берувчилари бир бирларига ўзаро боғлиқдир, ўзаро манфаатли муносабатлар иккала томоннинг моддий бойлик яратиш имкониятлари оширади.







1 босқич

2 босқич

3 босқич

4 босқич

5 босқич

Жорий сифат менеджменти тизимини диагностик баҳолаш ва мавжуд иш жараёнлари

Оптималлаштириш ва иш жараёнлари қайта муҳандислик тавсифлари.

СБТ ишлаб чиқиш

СБТ жорий қилиш

Сертификатлаштириш